ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
S. Yaxyoyeva	6	Ta'limni tashkil etishda gender xususiyatlarini inobatga olish
M. Arslanova	10	Inklyuziv ta'limda pedagog faoliyatiga kompetensiyaviy yondashuv
O'. Tolipov	15	Jamoaviy ijodiy faoliyat va uni tashkil etish texnologiyalari
I. Pinyozov	21	Talabalarda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish hamda tejamkorlikka o'rgatishning pedagogik mexanizmlari
N.T. Jalilova	26	Didaktik qadriyatlar oliy pedagogik ta'limning samaradorligini oshiruvchi omil sifatida
Yu. Mahmudov	30	O'quv jarayonida shakllantiriladigan shaxslararo munosabatlarning pedagogik asoslari
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
G. Obidova	34	Ingliz tilini o'rganishda kompleks yondashuv orqali ekologik ta'limni shakllantirish metodlari
S. Qalandarova	37	Talabalarning lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini ishbilarmonlik terminlari asosida rivojlantirish
A. Hasanov	42	Akademik litsey o'quvchilariga fizika fanini o'qitishda bilimlarini umumlashtirish usullari
T. Kaziyeva	45	Kontsentrlashtirilgan ta'lim orqali ona tili o'qitish metodikasi fanini to'g'ri tashkil etishning amaliy ahamiyati
U.Q. Shoymurotov	49	Tasviriy san'at va adabiyotning aloqadorlik ta'lim qonuniyatlarining amaliyotidagi holati
G.P. Bekimbetova	53	"Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" modulining ilmiy kontseptual asoslari va uni modernizatsiyalash xususiyatlari
M. Iminova	58	Ta'lim jarayonida loyiha metodidan foydalanishning asosiy tamoyillari
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
M. Asqarova	61	PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning bilim sifatini monitoring qilishning ilmiy ahamiyati
U. Musayeva	65	Professional ta'lim muasasalari o'quvchilarining kasbiy kompetentligini baholashning nazariy asoslari
Z. Uchqurova	68	Modul kredit tizimida talabalar bilim-ko'nikmalarini baholashda elektron ta'limiy vositalardan foydalanishning imkoniyatlari
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
G'. Suyunov	72	Innovatsion yondashuv asosida 5-8 sinf o'quvchilari va talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish
I. Bobojonova	77	O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari
MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI NAZARIYA VA AMALIYOT		
N. Ruziyev	81	Amaliy san'at sohasida mutaxassislarni tayyorlashda ustoz-shogirdlik qadriyatlari zaruriy bo'g'in sifatida

V. Rajapov	86	O‘smir qizlarni ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda sinf rahbari va oilaning hamkorligini tashkil etish
		MENEJMENT
F. Hakimov	90	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning mexanizmlarini takomillashtirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
S. Toshpulatov	93	Bolalar va o‘smirlar organizmining anatomik va fizologik xususiyatlari
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
Sh. Doniyorov	96	O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning pedagogik asoslari
Sh. Urakova	102	Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida kreativlikni rivojlantirish
		MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI
S. Karimov	106	O‘quvchilarning kuylash qobiliyatlarini rivojlantirishga qo‘yilgan zamonaviy talablar
		PSIXOLOGIYA
I. Jo‘rayeva	110	Psixologiyada o‘quv faoliyatidan qoniqish tushunchasi
Sh. Shoyimova	115	O‘quvchi-yoshlarning turli yosh davrlarida kasbiy o‘zlikni anglash xususiyatlari
N. Xoshimov	119	Addiksiya – ijtimoiy-psixologik muammo sifatida
N.O. G‘aniyeva	123	Shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning individual o‘ziga xosligi
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
M. Umaraliyeva	127	Inklyuziv ta’limning ijtimoiy-madaniy muammolari: xorijiy va milliy tajriba
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Г. Абылова	132	Цифровое образование как условие теоретической и практической подготовки студентов педагогических вузов
М. Матназарова	135	Теоретические основы интернационализации высшего образования
		ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ
Б. Султанов	139	Сущность понятия “фитнес-технологии” на уроках физической культуры

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YAKKAYU YAGONA TO'G'RI YO'LIDIR

2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinganda, ko'pchilik ziyolilar ruhlandi. Ikkita so'z birikmasidan tarkib topgan yilning nomlanishida ulug' niyat – jamiyatning buguni va ertasiga daxldor bo'lgan maqsadlar aks etgan. Qachon xalqqa e'tibor bo'ladi, qachonki, bizning ilmu ta'limda erishgan yutuqlarimiz sifatli bo'lsa, ya'ni ta'lim sifatga qurilsa, ana shunda natijadorlik haqida, samara haqida gapirsak bo'ladi.

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxona, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutasaddilar bilan uchrashmasin, albatta, uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular – sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak, Prezident o'zi qayta-qayta e'tirof etgani kabi "Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmda". Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li – yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir".

Shubhasiz, ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi, bu vazifalarni amalga oshirish, bizning, barcha ta'lim sohasi mutasaddilarining oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Yurtboshimizning saylovoldi dasturlarida ta'limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilanishi, 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda "Iste'dod – Intilish – Istiqbol" nomli ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, maktablarga o'z yo'nalishi bo'yicha malakali o'qituvchilar jalb qilinishi kabi rejalari taklif qilindi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Yangi renessans maktab ostonasidan boshlanishi bejizga emas, chunki inson umri davomida oladigan bilim, ko'nikma, malakalarining asosiy qismini maktabda egallaydi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'limdan iborat. Tabir joizki, Yurtimizda har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim zamonaviy ilg'or metodlar asosida o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va asosida ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Binobarin, Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilashi hamda umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligi ta'lim to'g'risidagi qonunlarda ham belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklarini zamon talabi, jamiyat yangilanishi, bozor va ish beruvchilarning ehtiyoji va talablari asosida yangilanib bormoqda. Har bir fanning maqsad va vazifalari bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishi, ta’lim – ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanilishi, jamiyatning barcha jabhalaridagi strategik yo‘nalishlar bilan bog‘lanishiga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, tabiiy fanlarning o‘quv dasturlari sanoatning bevosita rivojlanishida ushbu yo‘nalishdagi bilimlar (genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar) o‘z o‘rniga ega ekanligi, eng yangi kimyo yoki biologik texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o‘sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkinligi kabi asoslar kiritilmoqda.

Ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi malaka talablarida ko‘zda tutilgan:

– kommunikativ kompetensiya;

– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;

– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;

– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;

– milliy va umummadaniy kompetensiya;

– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Ta’limdagi muammolarning asl sabablari, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim pedagoglarimizdagi zamonaviy bilim berish, pedagogik mahorat, kompetentlik; ularning o‘z fanini hayot, turmush, ishlab chiqarish bilan bog‘lab, fan-texnikaning eng so‘ngi yutuqlaridan, ilg‘or xorij tajribalaridan, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim oluvchilarga yetkazish malakasining yetishmasligidadir.

Hozirgi davr o‘quv mashg‘ulotlarini ta’lim oluvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol usullarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni ularning mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratishni taqozo etmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o‘z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi. Bugun kunda o‘qitishning an’anaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi o‘quv yili oldidan maktablar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun ham mazmunga qaratilgan davlat, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kechiktirib bo‘lmaydigan umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqib, tatbiq etish zarurdir. Bu ulkan vazifalarni tizimli amalga oshirish va uning samaradorligiga erishish mutasaddilarning va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining barchasiga bog‘liq. Asosiysi, yuqorida bayon etilgan mazmunga bog‘liq yangiliklar ta’lim tizimining rivojiga, o‘qitish va o‘rganish jarayonining sifatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Sojida YAXYOYEVA,
Buxoro Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA GENDER XUSUSIYATLARINI INOBATGA OLISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limni tashkil etishda gender xususiyatlarini inobatga olish zaruriyati haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Suningdek, ta'lim sohasidagi vakolatli organ ta'lim dasturlarini, ta'lim muassasalarining dasturlarini hamda rejalarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o'tkazishni ta'minlash haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Gender, jins, pedagogika, psixika, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya.

В данной статье изложена информация о необходимости учета гендерных особенностей при организации образования. Также было упомянуто о том, что уполномоченный орган в области образования проводит экспертизу образовательных программ, программ и планов образовательных учреждений на предмет их соответствия принципам обеспечения равных прав и гарантий возможностей для женщин и мужчин.

Ключевые слова. Гендер, пол, педагогика, психика, педагогические технологии, инновации.

This article describes the need to take into account gender characteristics in the organization of education. It was also mentioned that the competent authority in the field of education will provide for the examination of educational programs, programs of educational institutions and plans in terms of their compliance with the principles of ensuring equal rights and guarantees of opportunities for women and men.

Key words. Gender, sex, pedagogy, psyche, pedagogical technologies, innovation.

Sayyoramiz aholisining yarmini ayollar, qizlar tashkil etadi, bu insoniyat salohiyatining yarmi, degani. Shu nuqtayi-nazardan gender tenglik insonning eng muhim huquqlaridan biri bo'lib, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda, barqaror rivojlanishga asoslangan holda inson salohiyatini boricha amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish mehnat mahsuldorligini oshirishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlashi allaqachon isbotini topgan.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatda 2030-yilgacha barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha darajalarda ayollar to'liq va samarali ishtirok etishi va yetakchilik qilishi uchun teng imkoniyat yaratiladi. Bunda turli darajalarda Davlat dasturlari qabul qilinishi jarayonida gender tenglik tamoyiliga amal qilinishi masalasi ham e'tibordan chetda qolmagan.

So'nggi yillarda gender tenglikni joriy qilish nuqtayi nazaridan ta'lim sohasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi O'RQ-562-sonli Qonunining 26-moddasida belgilab qo'yilgan.

Davlat ta'lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlanishi.

Davlat quyidagilarni kafolatlaydi:

– xotin-qizlar va erkaklarning ta'lim olish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning barcha turlaridan foydalanishga, ta'lim va ilmiy jarayonni amalga oshirishda ishtirok etishga hamda madaniyatdan, madaniy qadriyatlar va merosdan foydalanishga doir teng huquq va imkoniyatlarini;

– turli ta'lim dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning gender-ga oid ma'rifatini oshirishga ko'maklashishni;

– jinslardan birining ustunligi g'oyasiga asoslangan noto'g'ri tasavvurlardan xoli o'quv adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni;

– o'quv dasturlari va darsliklarni jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipi-ga muvofiqlik yuzasidan muntazam ravishda monitoring qilishni;

– gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlash masalalari bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan axborot-ma'rifiy tadbirlarni rag'batlanti-rish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashni.

Ta'lim sohasidagi vakolatli organ ta'lim dasturlarini, ta'lim muassasalarining das-turlarini hamda rejalarini ularning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi jihatidan ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslari xotin-qiz-lar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha kursni o'z ichiga olishi kerak[1].

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-intellektual hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi kunda o'quv jarayonini shaxsning gender tengligi va farqlari asosida tashkil etish masalasi ham pedagogik jarayon va tadqiqotlarning tarkibiy qis-miga aylanib bormoqda. Zero, qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ijtimoiy hamda o'quv munosabatlarini tartibga solish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quv jara-yonlari orqali istiqbolda jamiyatning erkak hamda ayol a'zolari orasidagi ijtimoiy muno-sabatlar qaror topadi.

Gender (gender) anatomik jinsiga ko'ra erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq. Ko'pin-cha anatomik ma'noga asoslangan, ammo har doim ham unga mos kelavermaydigan ijtimoiy bo'linish. Jins biologik xususiyatlarga oid bo'lib, unga ko'ra odamlar "erkaklar" va "ayollar" toifasiga bo'linadi[2]. Jamiyatshunoslar gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: "Gender" ijtimoiy, biologik holat bo'lib, erkak va ayolning jinsiy munosa-batlari majmuasi hisoblanadi"[3].

Gender – shaxsning ijtimoiy-psixologik jinsi, uning psixologik xususiyatlari va ij-timoiy xulq-atvor xususiyatlarining umumiyligi, muloqot va o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, biologik jihatdan berilgan jinsdan farqli o'laroq, "jins" psixologik va ijtimoiy toifadir, bu ikkala komponent ham inson tarbiyasi natijasida turli darajada rivojlanadi.

Gender tengligi deganda, ayollar va erkaklar teng ravishda inson ekanliklarini tushunishga aytiladi va albatta ta'lim tizimini tashkil etishda, garchi ularning har biri har xil ehtiyojlarga ega bo'lsa-da tenglilik tamoyiliga amal qilishni anglatadi.

Genderga mos pedagogika – bu o'rgatish va o'rganish jarayonini, shuningdek, amaliyotni tavsiflovchi nazariya bo'lib, uning maqsadi quyidagilardan iborat:

– har bir shaxsning o'zini o'zi qadrlashi va o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish;

---

[1] O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-son.

[2] Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya qilinadi. //Ilmiy muharrir: prof. U. Abilov; Rus tilidan qisqartirilgan tarjima: dots. Z. Boboyeva, Z. Usmonova. – T.: "O'zbekiston", 2003. – 276 b.

[3] Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Tarj. N. Mamatov va J. Begmatov. – T.: "Sharq", 2002. – 190 b.

– jinslar o‘rtasidagi farqlarni barqarorlashtirish;

bolalarni gender stereotiplarini cheklashdan ozod qilish.

Avvallari ta’lim tizimida o‘g‘il-qizlarning ta’lim-tarbiyasiga alohida yondoshuv, ayollar va erkaklarning hayotiy dunyosi ajralishni talab qiladi, degan g‘oyaga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy g‘oyalarga ko‘ra, har ikki jins vakillarining ko‘nikmalari-bilimlarini kengaytirish, gender rollari va ta’lim natijalari tengligini inobatga olish zarur.

Genderga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi maktabda tegishli ta’lim darajasidagi o‘quvchilarning psixologik va yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladi, jinsga qarab shaxsiy rivojlanishga yordam beradi va maksimal darajada yigitlar va qizlar o‘zini o‘zi anglashi va qobiliyatlarini ochish uchun sharoit yaratadi. Bunday tizim alohida ta’lim tamoyillarini joriy etish orqali o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratadi, o‘g‘il bolalar va qizlardan, erkaklar va ayollarni, bir-biri va jamiyat bilan samarali munosabatda bo‘lishga qodir bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash imkoniyatini beradi.

Oxirgi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar o‘g‘il bolalarni faol, tajovuzkor, mustaqil, izlanish va raqobatbardosh bo‘lganlarida ijobiy baholaydilar, qizlar esa itoatkorlik, mehribonlik, muloyimlik, passivlik va jamiyatga ijobiy munosabatda bo‘lishlari uchun ko‘pincha ijobiy fikrlar oladilar. Bunday gender stereotiplari asosan maktab yillarida shakllanganligi sababli, ko‘pchilik qizlarni mustaqil harakat qilish, raqobatlashish va jamoat ishlarida faol bo‘lish rag‘batlantirilmaydi. An’anaviy gender stereotiplari o‘g‘il bolalarga ham, qizlarga ham ta’sir qilishi mumkin. Pedagogika bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida odatda turli yoshdagi o‘quvchilarning bilish faolligidagi farq ko‘rsatilgan, ammo turli jinsdagi bolalar o‘rtasidagi farqlar haqida ma’lumotlar yetarlicha berilmagan. Jamiyatda qabul qilingan gender me’yorlar va andozalar biologik jinsga nisbatan qobiliyatlar, o‘quv va mehnat faoliyati turlari o‘quvchilar egallaydigan kasb-hunarni belgilaydi. Chunki gender o‘ziga xos universal tarkibga ega emas. U turli o‘quv sharoitlarida turli xil vazifalarni bajaradi. Shu bois keyingi vaqtlarda gender muammosi, uni o‘rganish metodlari pedagoglar e’tiborini ko‘proq jalb etish lozimligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi[4]. Ijtimoiy yetuk shaxsni tarbiyalashda ota-onalar bilan bir qatorda bolalar muassasalari tarbiyachilari va o‘qituvchilari ham eng muhim rol o‘ynaydi. Maktab bola uchun ijtimoiy dunyoning birinchi va asosiy modelidir. Aynan maktab tajribasi kattalar dunyosi yashaydigan qonunlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ta’limning asosiy maqsadi – har bir yosh bosqichida bolaning rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish va keyingi o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish. Maktabda gender sotsializatsiyasi – bu o‘g‘il bolalar va qizlarga ma’lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda qabul qilingan gender normalari va qadriyatlarini, erkak va ayol xatti-harakatlari modellarini o‘rganishi uchun ta’lim tizimiga ta’sir qilish jarayonidir. Shunday qilib, genderga yo‘naltirilgan ta’lim davlat ta’lim standarti talablarini bajarishga yordam beradi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini, tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda qaysi dastur yoki sinf ustida ishlayotganidan qat’i nazar, o‘g‘il va qizlarning aqliy va fiziologik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shunday bo‘lsa-da, insoniyat ayol va erkak tengligini ularning huquqi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda to‘liq ta’minlashi uchun hali ancha ish qilishga to‘g‘ri keladi. Birinchidan, gender zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishiga barham berish kerak, ayollar va qizlar hamda erkaklar va bolalar uchun ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy resurslardan foydalanishda birdek sharoit yaratilishi lozim. Bundan tashqari ularning

[4] Umarov Bahriddin “Oilaviy tarbiya saboqlari” (Oilada farzandlar tarbiyasiga oid psixologik chizgilar) Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019, – 52 b.

siyosiy hayotdagi ishtirokida ham teng imkoniyat yaratilishi zarur. Bu xotin-qizlarning ish topishi, rahbarlik lavozimiga tayinlanishi masalasiga ham tegishli.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida gender yondashuv amal qilinishining afzalligi shundaki, u o'quv sharoitida o'g'il va qiz bolalar manfaatlari hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmasligini yodda tutmog'imiz lozim. Bunday ta'lim tizimi o'g'il va qiz bolalarning manfaatlari ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Genderga yo'naltirilgan innovatsion ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'g'il va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gender yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-son.

2. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya qilinadi. //Ilmiy muharrir: prof. U. Abilov; Rus tilidan qisqartirilgan tarjima: dots. Z. Boboyeva, Z. Usmonova. – T.: O'zbekiston, 2003. – 276 b.

3. Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Tarj. N. Mamatov va J. Begmatov. – T.: Sharq, 2002. – 190 b.

4. Bahriddin Umarov. "Oilaviy tarbiya saboqlari" (Oilada farzandlar tarbiyasiga oid psixologik chizgilar) Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – T.: "Tasvir nashriyot uyi", 2019, 52 б.

Madinaxon ARSLANOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

INKLYUZIV TA’LIMDA PEDAGOG FAOLIYATIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Annotatsiya

Yangi O‘zbekistonning shakllanish jarayonlarida ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi uchun ham yangi imkoniyatlar va sharoitlarni yaratmoqda. Inklyuziv ta’limning joriy etilishi esa ushbu yo‘nalishdagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim pedagogi faoliyatiga kompetensiyaviy yondashuvning ayrim masalalari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar, oligofrenopedagogika, pedagogik ta’lim, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, metodika, ta’lim dasturlari, kompetensiya.

Комплексные реформы в системе образования в период формирования нового Узбекистана создают новые возможности и условия для обучения детей с особыми образовательными потребностями. Внедрение инклюзивного образования стало одним из важных шагов в этом направлении. В данной статье рассматриваются некоторые вопросы компетентностного подхода в педагогике инклюзивного образования.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями, олигофренопедагогика, педагогическое образование, организационно-педагогические условия, методика, образовательные программы, компетенция.

Comprehensive reforms in the education system during the formation of new Uzbekistan create new opportunities and conditions for teaching children with special educational needs. The introduction of inclusive education has become one of the important steps in this direction. This article discusses some issues of the competence-based approach in the pedagogy of inclusive education.

Key words. Inclusive education, children with special educational needs, olino-phrenopedagogy, pedagogical education, organizational and pedagogical conditions, methodology, educational programs, competence.

O‘zbekistonda keyingi yillarda ijtimoiy hayotimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayotiga ham chuqur kirib bormoqda. Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq-manfaatlarini himoyalash va ro‘yobga chiqarish borasida xalqaro tajriba va umume’tirof etilgan tamoyillar va me’yorlarning izchil joriy etilishi va o‘ziga xos milliy tajriba yaratilayotganligi ham shular jumlasidandir.

“Bu borada “Inson qadri uchun” tamoyili asosida Yangi O‘zbekistonda inklyuziv rivojlanish, ya’ni aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim rol o‘ynamoqda”[1].

Ma’lumki, “inklyuziv jamiyat” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, turli o‘ziga xos xu-

[1] Shavkat Mirziyoev 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga murojaat https://daryo.uz/k/2021/12/03/shavkat-mirziyoyev-3-dekabr-xalqaro-nogironlar-kuni-munosabati-bilan-ozbekiston-xalqiga-murojaat-yo‘lladi/ 01.05.2022.

susiyatlarga ega bo‘lgan insonlarning ma’lum jamiyatga to‘siqsiz integratsiyalashuvini anglatadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar borasida inklyuziv jamiyat nogironlikni tibbiy jihatdan tan olgan holda, uning oldini olish, malakali tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish bilan birgalikda, ijtimoiy jihatdan esa ulardagi ma’lum nuqsonlarga qaramasdan jamiyatda uning sog‘lom a’zolari bilan teng huquqlar va imkoniyatlarda jamiyat hayotida o‘zining munosib o‘rniga, mavqeiga va hayot sharoitlariga ega bo‘lishini nazarda tutadi.

Inklyuziv jamiyatga o‘tishning bir qator shart-sharoitlari bo‘lib, ular sirasida inklyuziv madaniyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sababi, jamiyatdagi har qanday ijobiy o‘zgarish, bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish faqatgina shu jamiyat a’zolarining faol ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashi orqali samarali amalga oshadi. Bunda esa o‘z navbatida shunga mos dunyoqarash va madaniyatni talab etadi. Bir so‘z bilan aytganda, inklyuziv madaniyat “insonlarning qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish”[2], “turli toifadagi insonlarga nisbatan hayrixohlik”, “turli xil farqli jihatlariga ko‘ra kamsitmaslik”, “barcha ga insoniylik va insonparvarlik munosabatida bo‘lish”, “imkoniyati cheklangan shaxslarga ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash” kabi tushunchalar bilan ham uyg‘unlashadi.

Keyingi yillarda yurtimizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida inklyuziv ta’limga faol o‘tish jarayonlari boshlandi. Bu esa O‘zbekiston jamiyatining barcha yuqori rivojlangan davlatlar kabi inklyuziv jamiyat sari yo‘l tutganligidan dalolat beradi. Inklyuziv ta’lim esa – inklyuziv jamiyatni faol va samarali barpo etishning asosiy shartlari va omillaridan biridir. Ya’ni “inklyuziya – jarayon. Inklyuziv ta’lim – ijtimoiy inklyuziya maqsadiga erishishga hissa qo‘shadigan jarayon”dir[3].

Inklyuziv ta’limning barcha tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini umumlashtirgan holda, uni “Inklyuziv ta’lim – bu uzluksiz o‘qitish tizimida alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar va yoshlarga mehribonlik bilan, tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o‘zgaruvchan, maxsus o‘quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayon[4]” degan ta’rifga qo‘shilish mumkin.

Yurtimizda umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni joriy etishdan asosiy maqsad esa “alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat” deya e’tirof etilib, “maktablar alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion-pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatishi”, shuningdek, “inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflardagi o‘quvchilarga individual ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam ko‘rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar)

[2] Нигматов З.Г. Формирование поликультурной личности в условиях инклюзивного образования. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции «Поликультурное образовательное пространство Поволжья: пути и формы интеграции» (Казань, КФУ, 1 ноября 2013 г.). – Казань: ИПП КФУ, 2013. – С. 414-419.

[3] ЮНЕСКО. Резюме всемирного доклада по мониторингу образования. 2020. Инклюзивность иобразование: для всех означает для всех. С.13.

[4] Kaxarova D. Uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni takomillashtirish. Toshkent: Pedagogik mahorat. 2020, 2. 89-bet.

tomonidan amalga oshirilishi” belgilab qo‘yildi[5].

Hozirda pedagogika, maxsus pedagogika va psixologiya kabi fanlarda “pedagogik kompetensiya” tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlar ham tadqiqotchilarning maqsadlari va yondashuvlaridan kelib chiqib, turlicha ekanligini ko‘rish mumkin. O‘tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab fanga kirib kelgan ushbu tushuncha pedagogning ta’lim jarayonlaridagi subyektivligiga ijtimoiy zarurat sifatida qaralib, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashdagi muhim shartlardan biri sifatida belgilab berdi.

Jumladan, tadqiqotchilardan I.A. Vertiy pedagogik kompetensiyani o‘qituvchining kasbiy muammolarini muvaffaqiyatlarini hal qiluvchi omil sifatida ko‘radi, yana bir guruh esa uni o‘qituvchi faoliyatining asosiy sharti, o‘qituvchi rivojlanishining yuqori darajasi yoki sifat tavsifi sifatida baholaydi[6]. Yana bir guruhi esa, pedagogik kompetensiyani tizimli hodisa sifatida ko‘rib, uning mohiyati o‘qituvchining pedagogik bilimlari, tajribasi, xususiyatlari va fazilatlarining tizimli birligidan iborat ekanligi, ular pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga, pedagogik muloqot jarayonini maqsadli tashkil etishga imkon berishi, shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi va takomillashtirishni nazarda tutishi sifatida talqin qiladilar.

V.V. Xitryuk “inklyuziv tayyorgarlik’’ tushunchasini kiritadi va uni akademik, kasbiy va ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalar to‘plamiga asoslangan va inklyuziv sharoitda samarali kasbiy va pedagogik faoliyat imkoniyatlarini belgilaydigan o‘qituvchi shaxsining murakkab integral subyektiv sifatida belgilaydi[7]. Maxsus pedagogikaning taniqli nazariyotchilaridan biri N.M. Nazarova esa[8] pedagog xodimlarning inklyuziv ta’lim kompetensiyalarini (professional ta’lim misolida) 5 ta yo‘nalishga tasniflab ko‘rsatgan edi:

– inklyuziv ta’limni rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari, belgilovchi omillari va mexanizmlari haqidagi nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni bilish va ularni innovatsion boyitish;

– o‘quv-uslubiy materiallardan to‘g‘ri foydalanish, yangilarini ishlab chiqish, moslashtirilgan o‘quv dasturlari bo‘yicha nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va nogironlar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish qobiliyatining mavjudligi;

– sog‘lom o‘quvchilar va keng jamoatchilikda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar va umuman nogironlarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

– imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ta’lim tashkilotida sog‘lom bolalar va o‘zaro samarali va ijobiy munosabatlar muhitini shakllantirish, oila va mahalla bilan o‘zaro hamkorlik;

– har bir bola uchun o‘z mashg‘ulotlari va umuman ta’lim jarayonida psixologik va pedagogik jihatdan qulay va bag‘rikeng ijtimoiy muhitni yaratish.

Inklyuziv kompetensiyaning faoliyat davomida yuzaga chiqishi uchun bir qancha tarkibiy (amaliy) kompetensiyalar ham muhim bo‘lib, ular asosan quyidagilarni tashkil etadi:

diagnostik – har bir guruh yoki o‘quvchining rivojlanish darajasi va individual xususiyatlariga pedagogik jarayonning har bir holati va bosqichida to‘g‘ri tashxis qo‘yish qobiliyati;

---

[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

[6] Тлеубердиев Б.М., Рысбаева Г.А., Медетбекова Н.Н. Профессиональная компетентность педагога // Международный журнал экспериментального образования. – 2013. – № 10-1. – С. 47-50

[7] Шкутина Л.А. Содержательная структура профессиональной компетентности педагогов в условиях инклюзивного образования // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017. – № 3. – С. 130-136

[8] Специальная педагогика. Учебник. Под редакцией Н.М. Назаровой, – М., “Академия”, 2013. – С. 384.

prognostik – inklyuziv ta’lim sharoitida muayyan pedagogik harakatlar natijalarini oldindan ko‘rish qobiliyati;

konstruktiv – o‘quvchilarning turli xil ta’lim ehtiyojlari, turli shakllar, usullar va o‘qitish vositalarini hisobga olgan holda o‘z pedagogik faoliyatini malakali rejalashtirish va loyihalash qobiliyati;

tashkiliy – o‘z faoliyatini ijodiy, innovatsion va samarali tashkil etish qobiliyati;

kommunikativ – inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirishga hissa qo‘shadigan pedagogik jarayon subyektlari bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatish qobiliyati;

texnologik – turli xil ta’lim ehtiyojlari va turli xil rivojlanish nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim usullari va texnologiyalarini amalga oshirish qobiliyati;

korreksion – turli davrlardagi diagnostik natijalarni hisobga olgan holda har qanday bosqichda pedagogik jarayonning borishini baholash va shunga mos tuzatish qobiliyati;

tadqiqot – pedagogik hodisalarni o‘rganish, tahlil qilish, eksperimental ishlarni olib borish qobiliyati[9].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xalqaro va milliy pedagogikada ham yuqorida aytib o‘tilganidek, pedagogik kompetensiya masalasida hali-hamon yangidan-yangi fikrlar, g‘oyalar va yondashuvlar ilgari surilishda davom etmoqda. Shu boisdan, mazkur maqolada mavzuning barcha jihatlarini qamrab olish va batafsil talqin etish mushkul. Shu bilan birgalikda, maqolada ko‘tarilgan masalalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni berishni lozim deb bilamiz:

1. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining defektologiya yo‘nalishlari talabalari uchun alohida “Inklyuziv pedagogik kompetensiyalar” o‘quv dasturini kiritish, shuningdek, bo‘lajak faoliyatga kompetensiyaviy tayyorlash modelini ishlab chiqish.

2. Inklyuziv ta’lim pedagoglari uchun ta’lim tashkilotlari yo‘nalishlaridan kelib chiqib “Inklyuziv ta’lim pedagogi” ruknida o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tayyorlash.

3. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida maxsus ta’lim va inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim muassasalari pedagoglari uchun “Inklyuziv ta’lim kompetensiyalari” mavzusida ma’ruza mashg‘ulotlarini kiritish.

4. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari va inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablari o‘rtasida olinofrenepedagogika yo‘nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotini tashkil etish, shuningdek, ta’limdan keyingi bandligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik shartnomalarini tuzish.

5. Inklyuziv ta’lim muassasalarida oliy ta’lim muassasalari pedagoglari va talabalari ishtirokida ilmiy va metodik kunlarni tashkil etish.

6. Bitiruvchi kurs talabalari uchun sohadagi olimlar, tadqiqotchilar va malaka mutaxassislar ishtirokida “Inklyuziv ta’lim madaniyati va pedagogikasi” mavzusida seminarlar, treninglar va talabalar konferensiyalarini tashkil etib borish.

7. Inklyuziv kompetensiya bilan bog‘liq mavzularni bakalavriyat yo‘nalishlari kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari sirasiga kiritish shular jumlasidandir.

Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda nogironligi bo‘lgan insonlar – jamiyatning to‘laqonli a’zolari, degan tamoyilga amal qilgan holda izchil ish olib borilayotganligi milliy rivojlanish strategiyalari va dasturlarining BMT “Ming yillik rivojlanish maqsadla-

[9] Хафизулина И.Н. Формирование инклюзивной компетентности будущих учителей в процессе профессиональной подготовки. Автореферат диссертации на соискани ученой степени кандидата педагогических наук. Астрахан, 2008.

ri”ga mos kelishi, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyillar va me’yorlarni izchil amalga oshirib kelayotganligi yurtimizda ham kelgusida inklyuziv jamiyat barpo etilishi yo‘lidan borilayotganligining yaqqol ifodasidir.

Xulosa o‘rnida aytganda, pedagogik kompetensiya inklyuziv ta’lim sifatiga, natijasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil va mezonlardan biridir. Bevosita o‘qituvchilarda samarali shakllantirilgan pedagogik kompetensiyalar inklyuziv ta’limning umumiy maqsadlariga to‘laqonli erishish, vazifalarini esa to‘laqonli amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu o‘z navbatida inklyuziv ta’lim tashkiloti faoliyatining maqsadliligini, ta’lim iste’molchilari talab va ehtiyolarga mosligini, reytingini, imidjini baholashda ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur mavzu esa istiqbolda katta ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun turtki va mavzular tanlovida o‘zining dolzarbliligi, hayotiyligi bilan ajralib turadi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga murojaat https://daryo.uz/k/2021/12/03/shavkat-mirziyoyev-3-dekabr-xalqaro-nogironlar-kuni-munosabati-bilan-ozbekiston-xalqiga-murojaat-yolladi/. 01.05.2022.

2. Нигматов З.Г. Формирование поликультурной личности в условиях инклюзивного образования. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции ‘‘Поликультурное образовательное пространство Поволжья: пути и формы интеграции’’ (Казань, КФУ, 1 ноября 2013 г.).– Казань: ИПП КФУ, 2013. – С. 414-419.

3. ЮНЕСКО. Резюме всемирного доклада по мониторингу образования. 2020. Инклюзивность и образование: для всех означает для всех. – С. 13.

4. Kaxarova D. Uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni takomillashtirish. – T.: Pedagogik mahorat. 2020, – 2-89 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

6. Тлеубердиев Б.М., Рысбаева Г.А., Медетбекова Н.Н. Профессиональная компетентность педагога // Международный журнал экспериментального образования. – 2013. – № 10-1. – С. 47-50.

7. Шкутина Л.А. Содержательная структура профессиональной компетентности педагогов в условиях инклюзивного образования // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017. – № 3. – С. 130-136.

8. Хафизулина И.Н. Формирование инклюзивной компетентности будущих учителей в процессе профессиональной подготовки. Автореферат диссертации на соискани ученой степени кандидата педагогических наук. Астрахан, 2008.

O‘tkir TOLIPOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Professional ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor

JAMOAVIY IJODIY FAOLIYAT VA UNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada ijodiy faoliyat, uni tashkil etishda jamoa imkoniyatlariga tayanish, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, bosqichlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Shuningdek, “ijodiy faoliyat”, “jamoaviy ijodiy faoliyat” hamda “jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyalari” tushunchalarining mohiyati yoritilgan. Asosiy e’tibor jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish metodlari, ularning didaktik va amaliy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Ijod, faoliyat, ijodiy faoliyat, jamoaviy ijodiy faoliyat, jamoaviy ijodiy faoliyat texnologiyalari.

В статье рассматриваются творческая деятельность и использование возможностей коллектива в её организации, особенности организации коллективной творческой деятельности и её этапы. Также, раскрыта сущность понятий “творческая деятельность”, “коллективная творческая деятельность”, а также “технологии коллективной творческой деятельности”. Основное внимание уделяется методам организации коллективной творческой деятельности, раскрытию их дидактических и практических возможностей.
Ключевые слова. Творчество, деятельность, творческая деятельность, коллективная творческая деятельность, технологии коллективной творческой деятельности.

The article discusses creative activity and the use of the capabilities of the team in its organization, the features of the organization of collective creative activity and its stages. Also, the article reveals the essence of concepts such as “creative activity”, “collective creative activity” and “technology of collective creative activity”. The main attention is paid to methods of organizing collective creative activity, revealing their didactic and practical capabilities.
Key words. Creativity, activity, creative activity, collectively creative activity, technologies of collective creative activity.

Shaxs tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlar yaxlit holda faoliyatda namoyon bo‘ladi. Faoliyat “shaxsning moddiy borliqqa, tabiatga, boshqa shaxslarga munosabati shakli, ularga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan xatti-harakatlarining majmui” bo‘lib, “insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko‘ra belgilanadi”.

Xatti-harakatlarni tashkil etish maqsadi, yo‘nalishi, mohiyatiga ko‘ra faoliyat turlicha tavsiflanadi, ya’ni:

I. Shaxsning borliqqa munosabatiga ko‘ra: amaliy (jismoniy), ruhiy (aqliy).

II. Tarixiy jarayonga ko‘ra:

1) progressiv, regressiv;

2) yaratuvchan faoliyat, buzg‘unchi faoliyat.

III. Ijtimoiy me’yorlarga munosabatga ko‘ra:

1) qonuniy, qonunga zid;

2) axloqiy, axloqsiz.

IV. Shaxslarning ijtimoiy birlashuv shakliga ko‘ra: ommaviy, jamoaviy, individual.

V. Mavjud bo‘lish shakliga ko‘ra: doimiy, o‘zgarmas, bir xil ko‘rsatkichlarga ega, innovatsion, ixtirochilik, ijodiy.

VI. Ijtimoiy sohaga tegishliligа ko‘ra: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy.

VII. Shaxsning shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga ko‘ra: o‘yin, o‘qish, mehnat, muloqot.

Keltirilgan tasnifdan anglanganidek, shaxs faoliyatining muhim turlaridan biri ijodiy faoliyat sanaladi. Ijodiy faoliyat – shaxs tomonidan tashkil etilib, moddiy va ma’naviy qadriyatli mahsulotlarni yaratishga qaratilgan faoliyat sanaladi. Mazkur faoliyatni tashkil etishda shaxsga xos xususiyat qobiliyat (iqtidor, iste’dod) ko‘zga tashlanadi.

Odatda ijodiy faoliyat individual shaxs tomonidan tashkil etiladi. Biroq, ijodiy faoliyatning ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirokida tashkil etilish holati ham ko‘zga tashlanadi.


Ikki yoki undan ortiq shaxslar ishtirokida muayyan yo‘nalishda tashkil etilgan ijodiy faoliyat – jamoaviy ijodiy faoliyat (JIF) deb ataladi. Jamoaviy ijodiy faoliyat kichik ijodiy guruhlar yoki katta jamoa (masalan, o‘quvchilar jamoasi) tomonidan tashkil etiladi. Bu turdagi faoliyatni tashkil etishda tanlangan mavzu bo‘yicha jamoa a’zolarining ichki imkoniyatlarini bir nuqtada jamlash, ularning qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish sanaladi. Jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonida uning a’zolari bir-birlarining fikrlarini to‘ldirish, ilgari surilgan g‘oyani dalillar bilan boyitish, g‘oyaning mantiqan yakunlanishini ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi.

Jamoaviy ijodiy faoliyat nafaqat amaliy, balki tashkilotchilik, kommunikativ va boshqa ko‘nikmalarni egallash, shu bilan birga o‘z qobiliyatlarini aniqlash, ro‘yobga chiqarish, muloqot, o‘zaro munosabatlarda tajriba orttirish, jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarni amalga oshirish usullari hamda shakllarini o‘zlashtirishga imkon beradigan amaliy va ma’naviy faoliyat hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishda nafaqat talabalarning ijodiy qobiliyati, muammoni hal qilishdagi salohiyatiga tayanib ish ko‘riladi, balki o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro hamkorligiga ham erishiladi.

Zamonaviy ta’lim shakl va metodlarining talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini jamoaviy tarzda tashkil etishga yo‘naltirish imkoniyatiga egaligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, zamonaviy ta’limning rivojlantiruvchi, loyiha, muammoli, interfaol va innovatsion ta’lim kabi turlari bevosita jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga xizmat qilsa, bugun o‘qitish tizimida qo‘llanilayotgan metodlarning ayrimlari bevosita (“AJIL” – “Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar”), “Asalari galasi”, “Yagona davra”, “Muqobil imkoniyatlar tanlovi” (MIT), “Tashviqot guruhi”, “Qarama-qarshi munosabat”, “Qorbo‘ron”, “6x6x6” va hokazolar), ba’zilar esa bilvosita (“Qarorlar shajarasi”, “Konseptual jadval”, “Klaster”, “Galileya”, “Kichik esse”, “Oltita fikrlovchi qalpoqcha” va boshqalar) o‘quv topshiriqlarini jamoaviy ijodiy faoliyat asosida bajarishga yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Jamoaviy ijodiy faoliyatning asosiy elementini jamoaviy ijodiy ish tashkil etadi. Ijodiy ish – jamoaviy ijodiy faoliyatning natijasi va faoliyat samaradorligini belgilovchi mezon bo‘lib, uning natijasi ijodiy ish namunalari, ularning badiiy-estetik qiymati, amaliy ahamiyati, ta’sirchanligi bilan belgilanadi.

Har qanday faoliyat kabi jamoaviy ijodiy faoliyat ham bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular:



Jamoaviy ijodiy faoliyatning asosiy bosqichlari. Har bir bosqichda muayyan vazifalar bajariladi. Vazifalarni bajarish jarayonida tegishli bosqichiga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi.

Birinchi bosqichda ijodiy jamoani shakllantirish maqsadini aniqlashtirish, jamoa tomonidan ijodiy mahsulotlarni yaratish va ularni realizatsiya qilish orqali tadbirkorlik kayfiyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi motivatsiyani kuchaytirishga e’tibor qaratiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish turli shakllarda amalga oshiriladi. Ya’ni:

1. Boshlang‘ich suhbat. U o‘quvchilarga tashkil etiladigan ijodiy faoliyatning jozibadorligini anglatish, ijodiy hal etilishi zarur bo‘lgan muammolarni bayon qilish maqsadida o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Suhbat jarayonida “Biz qanday faoliyatni amalga oshiramiz?”, “Bu faoliyatni amalga oshirishdan maqsadimiz nima?”, “Faoliyatni tashkil etishda kimlar ishtirok etadi?”, “Ularning vazifalari nimadan iborat bo‘ladi?”, “Faoliyatni qanday amalga oshiramiz?”, “Faoliyat jarayonida kim yetakchi bo‘ladi?” kabi savollarga javob topiladi.

2. Faoliyatning aniq yo‘nalishini belgilash. Sinf yoki yangi tashkil etilgan ijodiy jamoa a’zolari kichik guruhlarga biriktiriladi. Odatda guruhlar besh nafar o‘quvchidan iborat bo‘ladi. Har bir guruhga alohida yo‘nalishlar bo‘yicha bitta umumiy topshiriq beriladi. Topshiriqning mohiyati ijodiy jamoa uchun qiziqarli bo‘ladigan faoliyat turini tanlashdan iborat.

Buning uchun kichik guruhlar ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha, masalan, maktab kutubxonasi, bolalar bog‘chasi, “Sinf burchagi”, istirohat bog‘i, to‘garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishish, sub’ektlar (kutubxonachi, bolalar bog‘chasi mudiri, biologiya o‘qituvchisi) bilan suhbatlashish asosida ijodiy faoliyat uchun aniq mavzu belgilaydi. Faoliyat mavzusi o‘zaro suhbat jarayonida tegishli ob’yektlarga qanday yordam kerakligi asosida aniqlab olinadi. Aniqlangan mavzular orasidan ijodiy jamoa uchun qiziqarli va amaliy ahamiyatga ega mavzu ajratib olinadi.

3. “Hamkorlikni qaror toptirish”. Kichik guruhlarning amaliy ishi natijasi sifatida boshlang‘ich qarorlar alohida-alohida to‘planadi. So‘ngra individual natijalar umumlashtirilib, bir-biriga yaqin g‘oyalar juftlanadi. So‘ngra juftlashgan g‘oyalar negizida “to‘rtlik g‘oyalari”lar tahlil qilinadi. Agar zaruriyat bo‘lsa, o‘xshash g‘oyalar asosida “sakkizlik g‘oyalari” tahlil qilinadi. Natijada maxsus shakllantirilgan hay’at (fan o‘qituvchilari, maktab rahbariyatidan iborat) qarori, boshqa yo‘l bilan yetkaziladigan takliflar negizida ijodiy guruh uchun qiziqarli bo‘lgan ishlarning umumiy ro‘yxati shakllanadi.

4. “Aqliy hujum”. Shakllantirilgan qiziqarli ishlarning umumiy ro‘yxati aosida “aqliy hujum” tashkil etiladi. Ya’ni, ro‘yxatga kiritilgan har bir ish ularning mohiyati, istiqboli,

natijasi va amaliy ahamiyatiga ko‘ra jamoada tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida birgina g‘oya, hatto eng xayoliy bo‘lsa-da, rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi. Taklif qilingan g‘oyalarni tanqid qilish qat’iy taqiqlanib, aksincha, g‘oyalarni rivojlantirish harakatlari rag‘batlantiriladi. “Aqliy hujum”ning natijalari yagona ro‘yxatda qayd etiladi. Shundan so‘ng maxsus hay’at ekspertlar guruhi yoki umumiy jamoa bilan o‘zaro fikrlashish asosida bitta yoki bir nechta istiqbolli ish tanlab olinadi. Ushbu tanlov jarayoni puxta asoslangan mezonlar (ishning ijodiy jamoa uchun qiziqarli bo‘lishi; amaliy ahamiyatga egaligi; faoliyat jarayoniga ijodiy jamoalarning to‘liq qamrab olinishi; jamoaviy ijodiy faoliyat natijalarining aniq mahsulotlar ko‘rinishida aks etishi kabilar) asosida kechadi. “Ijro uchun qabul qilinmagan” g‘oyalar ulardan istiqbolda foydalanish uchun “G‘oyalar banki” joylashtiriladi.

5. “Ijodiy fikrlar auksioni”. Buning uchun avvaldan maktabda “Takliflar qutisi” o‘rnatiladi. Unga belgilangan muddat ichida har bir o‘quvchi, o‘qituvchi jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga doir taklif, tavsiya va ish rejasining qisqacha tavsifini yozib qoldirishi mumkin. Belgilangan muddat yakuniga yetgach, takliflar kim oshdi savdosiga qo‘yiladi. An’anaviy tarzda “pul” to‘lagan, ya’ni, o‘zining amaliy taklifi, tavsiyasi yoki ish rejasi bilan faol ishtirok etgan o‘quvchilar tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda jamoaviy rejalashtirish hamda JIF konsepsiyasini ishlab chiqish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichda o‘quvchilar kichik guruh (mikro jamoa, maxsus bo‘linma, ijodiy brigada)larga bo‘linadi. Ularning har biri amalga oshiriladigan ijodiy ish bo‘yicha taxminiy (xomaki) rejani ishlab chiqadi. Kichik guruhlarning faoliyatini faollashtirishda o‘qituvchi turli xil “hiyla”lardan foydalanishi mumkin. Masalan, maslahat (kitob o‘qish, teleko‘rsatuvni tomosha qilishga oid), jamoaning alohida a’zolari bilan “til biriktirish” (“Bu haqda boshqalardan yashirincha o‘ylab ko‘ring ...”).

Har bir kichik guruh JIFni tashkil etish bo‘yicha o‘zining taxminiy rejasini jamoa e’tiboriga havola qiladi. Turli variantlar jamoada muhokama qilinadi va yagona JIF loyihasi shakllantiriladi. JIFning boshqaruvchi organi “Ishchi maslahat kengashi” shakllantiriladi. “Ishchi maslahat kengashi”ga a’zolar tayinlanadi (uning tarkibida barcha kichik guruhlardan vakil bo‘lishi ta’minlanadi).

Ushbu bosqichning muvaffaqiyati o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, o‘zaro ishonchi asosida ta’minlanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilarni JIFni tashkil etishga rag‘batlantirish uchun turli ta’sir usullaridan foydalanadi. Masalan, o‘quvchilarning har biri erishgan yutuqlarini alohida-alohida e’tirof etish, ularga ramziy sovg‘alarni topshirish, ularga ishonch bildirish kabilar shular jumlasidandir.

Uchinchi bosqichda JIF amaliy jihatdan tashkil etiladi. “Ishchi maslahat kengashi” kichik guruhlar bilan birga JIF yo‘nalishi va maqsadini aniqlashtirib oladi. U kichik guruhlar o‘rtasida bo‘lajak ish mohiyati, yo‘nalishi va maqsadini yana bir bora ko‘rib chiqish bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi. Kichik guruhlar ushbu ko‘rsatmalar asosida JIFga umumiy baho beradi. Talab va takliflari umumlashtiriladi.

Bu bosqichda kichik guruhlar bo‘lajak ishning “alohida qismlari”ni, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulotda holatlarning ro‘yxatini tuzadi, ijodiy mahsulotlarning dizaynini yaratadi, g‘olib ijodiy jamoalar uchun mukofotlarni tayyorlaydi. “Ishchi maslahatchi kengash” kichik guruhlarning bu boradagi ishlarini muvofiqlashtiradi.

To‘rtinchi bosqichda JIF tashkil etilib, ijodiy mahsulotlar yaratiladi. Jamoaviy ijodiy guruhlar tomonidan orginal g‘oyaga, dizaynga ega ijodiy mahsulotlar yaratiladi.

Bu bosqichda o‘qituvchining pozitsiyasi JIF turli darajada – hakamlar hay’ati tarkibiga kirish hamda JIFning a’zosi bo‘lish oralig‘ida o‘zgarib turishi mumkin. O‘quvchilar

jamoaviy faoliyatni tashkil etishda qanchalik ko‘p tajribaga ega bo‘lsa, o‘qituvchining yetakchilik pozitsiyasidan shunchalik “voz kechiladi”. JIF jarayonida o‘qituvchi ijodiy jamoalarga o‘quvchilarning kayfiyatini ko‘tarish, ularni rag‘batlantirish shaklida pedagogik yordam ko‘rsatadi.

Kuzatuvchilar – maktab o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasi.

Beshinchi bosqichda har bir ijodiy jamoaning vakili jamoa tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulot bilan boshqa jamoalarni tanishtiradi. Ijodiy ish natijasi tahlil qilinadi, ya’ni ijodiy mahsulotlar avvaldan belgilangan mezonlar (badiiy-estetik qiymati, amaliy ahamiyati, ta’sirchanligi)ga muvofiq baholanadi.

Tahlil ikki variantda amalga oshirilishi mumkin, ya’ni: 1) maxsus hay’at tomonidan amalga oshiritladi; 2) o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida anketa o‘tkaziladi.

Anketa so‘rovi ham ikki varianli bo‘lishi mumkin.

1) kuzatuvchilar (maktab o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasi a’zolari uchun) mo‘ljallangan anketa.

2) ijodiy jamoa a’zolari uchun mo‘ljallangan anketa.

I. Kuzatuvchilar (maktab o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasi a’zolari uchun) mo‘ljallangan anketa savollari quyidagidan iborat bo‘ladi:

1. Sizga qaysi mahsulot yoqdi va nima uchun?
2. Sizningcha, mahsulotni yaratishda kim faollik ko‘rsatdi?
3. Sizningcha, qanday g‘oya ish bermadi va nima uchun?
4. Shaxsan Siz kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan nimani taklif qilasiz?

II. Ijodiy jamoa a’zolari uchun mo‘ljallangan anketadan quyidagi savollar o‘rin oladi:

1. Jamoaviy ishlash Sizni nimaga o‘rgatdi?
2. Jamoaviy ishlashdan qanday taassurot oldingiz?
3. Ish jarayonida Siz uchun nima muhim edi?
4. Nima Sizni qiynadi?
5. Nimadan hayratlandingiz?
6. JIF Sizga nimanidir tushunishingizga yordam berdimi?

Anketa so‘rovlarini o‘tkazishda turli shakllardan foydalanish mumkin. Masalan, davra bo‘ylab suhbatlashish, “Shovqin vaqti”ni e’lon qilish hamda “Rang berish” metodikasi – ma’lum ranglar yordamida o‘quvchilar o‘z jamoasi hamda boshqa jamoalarning ishiga baho beradi.

Kichik guruhlarga JIF natijasini muhokama qilish uchun 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Ijodiy jamoalarning a’zolari o‘zaro fikrlashib olgach, 1 nafar vakil tayinlanadi. U ijodiy jamoaning xulosalarini qolganlarga yetkazadi.

Oltinchi bosqichda JIFni tashkil etish istiqboli belgilanadi. Unda o‘qituvchi hujjatlarni rasmiylashtirish, ma’lum darslarda ijodiy mahsulotlardan foydalanishni rejalashtirish, darsga tayyorlanish, uni o‘tkazish va muhokama qilish jarayonida JIFni tashkil etish tajribasidan foydalanish yuzasidan ish rejasini ishlab chiqadi.

Jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasi doirasida turli – mehnat, kognitiv (nazariy bilish), badiiy, ijodiy, sport, ijtimoiy va siyosiy yo‘nalishdagi JIF o‘tkazishga xizmat qiladi.

Har bir JIF ta’limning keng qamrovli vositasidir, chunki u o‘quvchining shaxsiy, individual va subyektiv fazilatlarini birdamlikda rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Jamoaviy ijodiy ishlarning samaradorligini oshirishda ma’lum shartlarga rioya etish maqsadga muvofiqdir. Ular: hayotiy-amaliy (JIF jamoa a’zolarining va atrofdagilarning

hayotini yaxshilashi lozim; har bir JIF o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy birlashmasining muayyan shakli sifatida amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega); har bir JIF ijodiy tabiati o‘quvchilarni ijtimoiy muhitda faol harakat qilish (atrofdagilar bilan erkin muloqot qilishga, o‘zaro fikr almashish)ga tayyorlashi, ularda o‘zaro yordam sifatlarini shakllantirishi zarur; JIFning barcha bosqichlarida o‘quvchilar jamoada va jamoa bilan birga harakat qilish, hayotiy muhim vazifalarning oqilona yechimini izlash, har bir vaziyatni yoritish, yuzaga kelgan muammoni tahlil qilish; ijtimoiy g‘oya va milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tadbirkorlik (ijodiy mahsulotlarni yaratishga qaratilgan) faoliyatini tashkil qilish malakalarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa zamonaviy sharoitda eng muhim pedagogik vazifa sanaladi.

JIFni tashkil etishning barcha bosqichlarida o‘zini past baholaydigan, ma’lum sababga ko‘ra jamoani qabul qila olmaydigan o‘quvchilarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi.

Bunday bolalar bilan indvidual, rivojlantiruvchi va differensial ta’lim texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Binobarin, ushbu texnologiyalar har bir o‘quvchini har tomonlama o‘rganish, amaliy faoliyatda kuzatish, uning ichki imkoniyatlarini o‘rganish va o‘quvchining “shaxs resursi”ga muvofiq topshiriqlarni bajarishga jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Jamoada konstruktiv aloqalarni o‘rnatish bolalarning faoliyatini rag‘batlantirish uchun texnologiyalardan foydalanish orqali osonlashadi. Turli mazmundagi pedagogik talablarni qo‘yish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va jazolash metodlarini samarali qo‘llash orqali o‘qituvchi kichik guruhlar hamda jamoa bilan ishlashda insonparvarlik tamoyillari asosida ish ko‘rishini ta’minlaydi. Zero, o‘qituvchining insonparvarlik pozitsiyasi nafaqat u tomonidan turli nuqtayi nazarlarning qabul qilinishini, balki shaxsiy pozitsiyasi barqaror bo‘lishiga erishishini, ta’limiy qadriyatlarni himoya qilish qobiliyatiga egaligini ham anglatadi.

Shunday qilib, JIF zamonaviy sharoitda o‘quvchi shaxsini tarbiyalash, uni ijtimoiy munosabatlarga samarali tayyorlashga yordam beradi. Chunki JIF ijodiy jamoada muayyan topshiriqlarni bajarishga asoslanadi. Jamoaviy bajarilgan ish esa o‘quvchilarda atrofdagilar bilan muloqotga kirishish, ularni tinglash, jamoa a’zolari tomonidan bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish kabi umuminsoniy hamda sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli ta’lim muassasalarida, xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy tarbiya jarayonini tashkil etishda JIF texnologiyalaridan foydalanish pedagogik natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. / Metodik qo‘ll.. – T.: TDPU nashriyoti, 2013. – 136 b.

2. Классификация видов деятельности // http://900igr.net/prezentatsii/ obschestvoznanie/Dejatelnost-ljudej-i-ejo-mnogoobrazie/012-Klassifikatsija-vidov-dejatelnosti.html.

3. Pedagogika. Izohli lug‘at. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2012. – 62-63 b.

4. Tolipov O`.Q., Saydaliyeva F.O`. Main quality levels of pedagog professional competence. Central Asian Journal of Education, Vol. 3 [2019], Iss. 1, Art. 6. 1.

Ikromjon PINYOZOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpoq filiali mustaqil izlanuvchisi

TALABALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH HAMDA TEJAMKORLIKKA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish hamda tejamkorlikga o‘rgatish bilan shug‘ullanadigan o‘qituvchiga talabalarning o‘quv va darsdan tashqari faoliyatini tegishli ravishda tashkil etishga imkon beradigan pedagogik shartlar muhokama qilinadi. Taqdim etilgan shartlar iqtisodiyotni o‘rganish uchun motivatsion asoslarni va talabalar iqtisodiy munosabatlarni tushunishlari uchun maxsus muhitni yaratadi, talabalarning iqtisodiy bilimlarini biznes qarorlarini qabul qilish jarayonida iqtisodiy xatti-harakatlarga aylantirishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar. Biznes iqtisodiyoti, o‘quv kursi, o‘quv firmasi, integratsiyalashgan yondashuv.

В статье рассматриваются педагогические условия, позволяющие учителю, занимающемуся формированием предпринимательской деятельности у студентов и обучением бережливости, надлежащим образом организовать учебную и внеурочную деятельность учащихся. Представленные условия создают мотивационную основу для изучения экономики и особую среду для понимания студентами экономических отношений, обеспечивают преобразование экономических знаний студентов в экономическое поведение в процессе принятия бизнес-решений.

Ключевые слова. Экономика бизнеса, учебный курс, учебная фирма, комплексный подход.

The article discusses pedagogical conditions that allow the teacher, who is engaged in the formation of entrepreneurial activity in students and teaching to frugality, to appropriately organize the educational and extracurricular activities of students. The terms presented provide motivational foundations for the study of Economics and a special environment for students to understand economic relations, ensuring the transformation of students ‘ economic knowledge into economic behavior in the process of making business decisions.

Key words. Business economics, training course, training firm, integrated approach.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining “Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan III-bobining “Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish” deb nomlangan 1-§ da “Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv uslubiy materiallarni keng joriy etish” masalalarida ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining jadal sur’atlari oldindan belgilangan xususiyat-

larga ega mahsulotlarni loyihalash asosida ishlab chiqarish va iste’molni individuallashtirishni ta’minlaydigan jamiyatning yana bir chuqur o‘zgarishidan dalolat beradi. Bunday sharoitda mamlakatimiz nafaqat iqtisodiy inqirozdan chiqish, balki texnologik rivojlanish imkonini beradigan kuchli innovatsion jadallikka muhtoj. Shu sababli, oliy ta’lim tizimi oldida nafaqat professional mutaxassislarni, balki mehnat bozorida ijodiy izlanishga, g‘oyalarni ishlab chiqishga va o‘zini o‘zi amalga oshirishga qodir bo‘lgan psixologik barqarorlikka ega doimiy rivojlanayotgan innovator mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi.

Ushbu muammoni hal qilish talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va tejamkorlikka o‘rgatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, biz ularda tadbirkorlik sohasida qadriyatlar, bilim va ko‘nikmalar tizimini yaratish maqsadida talaba shaxsini rivojlantirishning boshqariladigan jarayonini talabalarda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishni ta’minlaydigan va kasbiy ta’lim tashkilotlarining o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradigan pedagogik sharoitlarni yaratish zaruratini tushunamiz.

Ushbu tadqiqot doirasida N.V. Ippolitova va N.N. Sterxova g‘oyalarini hisobga olgan holda, pedagogik sharoitlar deganda biz pedagogik tizimning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunamiz, bu tarkibiy elementlar, o‘qitish usullari va vositalari va kasbiy ta’lim tashkilotlari talabalarining qabuldan oldingi faoliyatini shakllantirish uchun muhit yaratadigan boshqa chora-tadbirlar to‘plamidir.

Birinchi pedagogik shart – bu talabalarning tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishini oshirishni ta’minlaydigan va iqtisodiyotni o‘rganish uchun motivatsion asoslarni yaratadigan qiymat – motivatsion pedagogik sharoitlar. Ushbu shartlarga biz quyidagilarni kiritamiz:

– talabalarni tadbirkorlik dunyosiga jalb qiladigan va o‘ziga xos motivatsiya va axloqiy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantiradigan turli xil tadbirlar uchrashuvlari (o‘quv firmasidagi ochiq eshiklar kuni, “muvaffaqiyat formulasi” tematik haftaligi, biznes g‘oyalar yarmarkasi, biznes kvestlari) asosida talabalarning e’tiborini tadbirkorlikka jalb qilish bo‘yicha tadbirlar;

– interaktiv axborot va maslahat muhiti tadbirkorlik g‘oyalarini ommalashtirish, tanlovlar va yoshlar biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ilgari surish vositasi sifatida.

Ikkinchi pedagogik shart – bu tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha “tadbirkorlik iqtisodiyoti” o‘quv kursining dolzarblashtirilgan chuqur mazmunini ishlab chiqish, bu talabalar uchun iqtisodiy munosabatlarni tushunish uchun muhit yaratishni, ularni shaxsni rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga shaxsiy hissa qo‘shishga undash va tadbirkorlik faoliyati sohasida kasbiy yetuklikka erishishdir.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va uni shakllantirish usullari, shuningdek, innovatsion iqtisodiyot tomonidan zamonaviy tadbirkorga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi bilimlar “tadbirkorlik iqtisodiyoti” o‘quv kursining maqsadlarini aniqlashtirishga imkon berdi:

– iqtisod fanidan kompetentlikka yo‘naltirilgan bilimlarni shakllantirish;

– tadbirkorlik faoliyatining kasbiy yo‘naltirilgan tarkibiy qismlarini shakllantirish;

– iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha kasbiy yo‘naltirilgan bilimlarni shakllantirishning optimal usullari va o‘quv vositalarini izlash va qo‘llash;

– mustaqil ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish;

iqtisodiy ta’limni tadbirkorlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirish.

Ta’lim dasturi asosida iqtisodiyotni tushunish haqiqatga yaqin, muammoga yo‘nal-

tirilgan va didaktik jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan nazariy va amaliy bilimlarga qaratilgan bo‘lib, to‘rtta tamoyilga mos keladi:

– innovatsion texnologik yutuq;

– mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi;

– tizimli fikrlash;

– tadbirkorlik.

Ana shu tamoyillar asosida qurilgan darsda iqtisodiy subyektlarning o‘z farovonligi, oilasi va jamiyat farovonligi uchun mas’uliyati, asosiy insonparvarlik va demokratik qadriyatlarning ahamiyati ta’kidlanadi.

Pedagogik salohiyatni aktuallashtirish amaliy tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish nuqtayi nazaridan fanlararo aloqalar va kasbiy tayyorgarlik bilan aloqalarni aniqlash asosida iqtisodiy tarkibni tanlash va moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, biz xalqaro davlatlarning ilmiy iqtisodiy va pedagogik maktabining g‘oyalariga tayandik, ularning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– har qanday manbaning (darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy-tadqiqot materiallari va boshqalar) predmet mazmunini V. Klafkaning “ta’lim-tarbiya jarayonini qadriyat orqali amalga oshirish”ni nazarda tutuvchi tanqidiy aylantirish, bu “o‘quv jarayonini o‘qituvchi va talabaning qiymat – semantik tengligi orqali amalga oshirishni ta’minlaydi;

– o‘qituvchining vazifasi muammoli sohani aniqlash, talabaga ochiq savollar berish, istiqbollarni ko‘rsatish, talaba xato qilgan taqdirda ham muqobil harakatlar qilish imkoniyatini ko‘rsatishdir;

– tegishli kontekstda kognitiv faollashtirish va situatsion ijodkorlikni birlashtirgan iqtisodiy mavzularni og‘zaki yoki yozma tushuntirishning ko‘p darajali tizimi bo‘lgan sahnalashtirish texnikasidan keng foydalangan holda “noan’anaviy” tushuntirish;

– iqtisodiy ta’limning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish (yuqori darajada tuzilgan va boshqariladigan o‘quv mashg‘uloti) – bilvosita o‘qitish (talabalarning mustaqil faoliyati ortib borishi) – talabaning o‘zini o‘zi boshqarish” davomiyligi asosida kompetensiyaga yo‘naltirilganligi.

Bunday yondashuv, birinchidan, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida, talabalar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar darajasida (talabalarning fikr-mulohazalarini bildirish, fikr-mulohaza bildirish qobiliyati va boshqalar) samarali muloqot qilish orqali talabalarni qo‘shimcha motivatsiya qiladi.

Ikkinchidan, o‘qituvchining sahnalashtirish usullarini qo‘llashi (qarama-qarshiliklarni yechishda talabalarni jalb qilish, karikaturalar, metaforalar, ko‘plab savollar va boshqalar).

Uchinchi pedagogik shart – yaratilayotgan ta’lim tadbirkorlik klasteri. Bu amaliy fan va texnologik tarkibni iqtisodiy tayyorgarlikka kiritadigan narsalarga asoslanib, talabalarning iqtisodiy bilimlarini iqtisodiy xulq-atvorga aylantirishni ta’minlaydi, iqtisodiy tayyorgarlikning individual ta’lim trayektoriyalarini qurishni va talabalarni biznes qarorlarini qabul qilish jarayoniga doimiy ravishda undashni ta’minlaydi.

Ta’lim tadbirkorlik klasterining ichki infratuzilmasining markaziy semantik (mazmunli) elementi – bu o‘quv firmasi va maslahat markazini, shuningdek (agar kerak bo‘lsa), ichki va tashqi boshqa elementlarni yagona ta’lim makoniga birlashtirgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazi.

Ta’lim tadbirkorlik klasteri ichki infratuzilmasining markaziy fazoviy elementi o‘quv firmasining ofisidir. O‘quv firmasining ofisida biznes muhiti va barcha biznes jarayonlari modellashtirilgan bo‘lib, ular ta’lim maqsadlari bilan birlashtirilgan. Ta’lim firmasida xo-

dim sifatida ishlagan talabalar tadbirkorlik, menejment, buxgalteriya hisobi, ish yuritish, marketing ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

O‘quv firmasi ofisining samarali ishlashi quyidagi zarur resurslar bilan ta’minlanadi:

– o‘quv firmasi ofisining (ishxonasining) moddiy-texnikaviy jihozlanishi. O‘quv kompaniyasi uchun o‘quv xonasi haqiqiy kompaniyaning zamonaviy ofisi sifatida jihozlangan va oddiy sinfga o‘xshamaydi;

– o‘quv firmasining tashkiliy-uslubiy resurslari (o‘quv firmasining idorasi to‘g‘risidagi nizom, “O‘quv firmasi” qo‘shimcha ta’lim dasturi, uslubiy materiallar);

– ta’lim korxonasida o‘quv jarayonini pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik xodimlar jamoasi.

O‘quv firmasi ofisi negizida ham faoliyat yurituvchi konsalting markazida oliy ta’lim talabalari uchun individual va guruhli maslahatlar tashkil etilib, talabalar va yosh tadbirkorlarning savdo-sanoat boshqarmasi vakillari bilan o‘zaro muloqoti uchun shart-sharoit yaratiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning to‘rtinchi sharti uslubiy ta’minot bo‘lib, bunda biz iqtisodiy fanlar o‘qituvchisiga talabalarning o‘quv-tarbiyaviy va sinfdan tashqari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularning samarali bo‘lishiga imkon beruvchi didaktik vositalar majmuini tushunamiz.

Uslubiy ta’minot qobiqlardan tashkil topgan multiatribut model sifatida qaraladi, ularning soni “tadbirkorlik iqtisodiyoti” o‘quv kursining o‘ziga xos xususiyatlari, uni o‘qitish va o‘rganishning didaktik xususiyatlari bilan belgilanadi. Yadroning tarkibiy qismi bu – “tadbirkorlik iqtisodiyoti” o‘quv kursining ish dasturi va taqvim-tematik rejasini, “o‘quv firmasi” qo‘shimcha ta’lim dasturini va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazining ish rejasini o‘z ichiga olgan tadbirkorlik tayyorgarligining me’yoriy to‘plamidir. Tadbirkorlik tayyorgarligining me’yoriy to‘plami bajaradigan asosiy funksiya talabaning iqtisodiy tayyorgarligi mazmunini boshqarish va birgalikda tartibga solishdir.

Birinchi qobiqda “tadbirkorlik iqtisodiyoti” kursi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar mavjud bo‘lib, ular o‘quv kursini o‘qitishni aniq tashkil etishga va talabalar tomonidan o‘quv materiallarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi. Bular jumlasiga mos yozuvlar to‘playdigan ish kitoblari va ish daftarlari, muayyan harakatlarni bajarish algoritmlari, aniq vaziyatlar (holatlar), yechim izlashda ijodkorlikni rivojlantiruvchi vazifalar kiradi. Talabalar uchun o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda asosiy didaktik vazifa murakkab iqtisodiy tarkibni idrok etishni osonlashtirish zarurati edi, shuning uchun birinchi qobiqning ajralmas tarkibiy qismi elektron o‘quv resurslari – eng muhim iqtisodiy tushunchalar, bayonotlar va misollarni faol tushunish va yodlashni ta’minlaydigan multimedia taqdimotlari bo‘lib, o‘quv jarayoniga talabaning eshitish, vizual va hissiy xotirasini jalb qiladi.

Ikkinchi qobiq o‘quv kompaniyasining faoliyatini tashkil etish uchun o‘quv-uslubiy materiallarning elektron portfelini o‘z ichiga oladi, unda o‘quv kompaniyasining faoliyat reglamenti, asosiy biznes jarayonlari uchun algoritmlar to‘plami, xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish uchun formulalar to‘plami, amalga oshirilayotgan biznes jarayonlarini aks ettiruvchi asosiy hujjatlarni rasmiylashtirish shablonlari va o‘quv kompaniyasining darsdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil etish uchun boshqa materiallar mavjud.

Uchinchi qobiq “tadbirkorlik iqtisodiyoti” fanining darslarida ham, o‘quv firmasida yoki undan tashqarida ishlash sharoitida bajariladigan mustaqil ijodiy ish uchun topshiriqlar to‘plamini o‘z ichiga oladi; biznes-rejani ishlab chiqish, biznes modellarini

yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar.

To‘rtinchi qobiq iqtisodiy tayyorgarlikning turli bosqichlarida talabalarning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish darajasini o‘rganish uchun maxsus diagnostika usullari va talabalarning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish darajasini baholash va deklarativ va protsessual bilimlarni baholash imkonini beradigan nazorat-o‘lchov va kompetensiya-baholash materiallaridan iborat.

Talabalarning tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish modelini amalga oshirishni ta’minlovchi beshinchi shart – bu iqtisodiy o‘qitish jarayoniga jalb qilingan o‘qituvchilarning malakasini oshirishdir. Tadbirkorlik predmeti muhitini yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyat, bizningcha, bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, g‘ayrioddiy g‘oyalarga jiddiy e’tibor berish, ularning qiymatini ko‘rsatish; ikkinchidan, talabalarga katta mustaqillik berish; bepul, qulay o‘quv muhiti. Ushbu shartni amalga oshirish uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazi negizida o‘qituvchilar uchun konsultatsiya markazi tashkil etilib, u yerda iqtisodiyot fanlari bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish dasturi, shu jumladan, masofaviy usulda amalga oshiriladi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish dasturini amalga oshirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: loyihalash va o‘zgartirish bosqichi, o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichi, aks ettirish bosqichi.

Loyiha-transformatsion bosqichda manfaatdor subyektlarning (malaka oshirish kurslari moderatorlari va o‘qituvchilari, professor-o‘qituvchilar tarkibi - kurs ishtirokchilari) sa’y-harakatlari mo‘ljallangan o‘quv jarayoni sharoitida birlashtiriladi; o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichida o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi o‘z-o‘zini tarbiyalash va individual pedagogik tajribani to‘plash shaklida amalga oshiriladi; refleksiv bosqichda professional jamoa tomonidan erishilgan natijalar o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash darajasida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. – T.: O‘zbekiston, 2019.

2. Abdurashidov A.A. Milliy hunarmandchilik vositasida talabalarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Aftoref. dis PhD dok. – T., 2019. – 21 b.

3. Ипполитова Н.В. Анализ понятия “педагогические условия”: сущность, классификация / Н. В. Ипполитова, Н. Н. Стерхова // General and Professional Education. – 2012. – № 1. – С. 8-14.

4. Игнатьева Г.А. Деятельностное содержание профессионального развития педагога в системе постдипломного образования: монография / Г.А. Игнатьева. — Н. Новгород: Нижегородский гуманитарный центр, 2005.

5. Ибрагимов Х.И. Педагогика и воспитание //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 608-611.

6. Ibraimov Kholboy. “Intensive methods of teaching foreign languages at university.” Вопросы науки и образования 27 (39) (2018): 78-80.

7. Атауллаев Ф.У., Ибраимов Х.И. Понятие профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей в психолого-педагогических исследованиях //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 1 (42). – С. 70-74.

Nilufar JALILOVA
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

DIDAKTIK QADRIYATLAR OLIY PEDAGOGIK TA’LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi didaktik qadriyatlar yoritilgan, shuningdek, unutilgan ta’limiy qadriyatlarni yangi mazmun va shakl bilan boyitish hamda ta’lim amaliyotiga yo‘naltirish, ta’limni jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Oliy pedagogik ta’lim, didaktik qadriyat, ta’lim jarayoni, muvofiq, takomillashtirish.

В данной статье освещаются дидактические ценности, служащие повышению эффективности высшего педагогического образования, а также рассматриваются вопросы обогащения забытых образовательных ценностей новым содержанием и формой и ориентации на образовательную практику совершенствования образования в соответствии с социальными требованиями, предъявляемыми обществом.

Ключевые слова. Высшее педагогическое образование, дидактическое значение, образовательный процесс, в соответствии с, улучшение.

This article highlights the didactic values that serve to increase the effectiveness of higher pedagogical education, and also examines the issues of enriching forgotten educational values with new content and form and orientation to the educational practice of improving education in accordance with the social requirements imposed by society.

Key words. Higher pedagogical education, didactic value, educational process, according to, improvement.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida didaktik qadriyatlardan oqilona foydalanish oliy pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Pedagogika fani konsepsiyasi”da haqli ravishda ta’kidlanganidek, navbatdagi eng muhim vazifalardan biri “hozirgi zamon pedagogik tafakkuri bilan o‘tmishda yaratilgan qarashlar orasida uzviylik, izchillikni ta’minlab borish uchun” ajdodlarimizning tiyrak tafakkurlari mahsuli bo‘lgan pedagogik tajribalarni tadqiq etish lozim.

“Didaktik qadriyat” tushunchasi hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida chuqur o‘rganilmagan bo‘lsa-da, so‘ngi yillarda ko‘pgina ishlarda ta’lim-tarbiyaga tegishli ayrim kategoriyalarning didaktik qadriyat ekanligi e’tirof etilmoqda. Bular didaktikaga oid qadriyatlarning pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi. Didaktik qadriyatlarning pedagogik qadriyatlardan farqli jihati shundaki, u pedagogikaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktika fani bilan uzviy aloqador bo‘lib, unda asrlar osha bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayonida foydalanib kelinayotgan, muayyan yangiliklar bilan boyib borayotgan didaktik kategoriyalar, ta’limning shakl, usul, vositalari, ta’lim nazariyalari, ta’limga oid konsepsiyalar qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qadriyatni talabalarga o‘rgatishda tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish, yangi innovatsion didaktik qadriyatlarni tarixiy-didaktik qadriyatlar bilan boyitish zamonaviy ta’lim samaradorligini belgilab beradi degan konsepsiyaga asoslaniladi.

Didaktik qadriyatlarning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi tarkibi nihoyatda boy bo‘lib, unda ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan ta’limga oid tushuncha va bilimlar aks etadi. Shu sababli o‘qitishning mazmuni, tuzilishi, ta’lim falsafasi, o‘qitishning shakl, usul va vositalari qadriyat sifatida o‘rganilgan ishlarda ta’limiy va didaktik qadriyat tushunchalari ayni bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

Mavjud didaktik qadriyatlar mazmunan uch asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy-pedagogik qadriyatlar;

2) o‘qitishning tashkiliy shakli, uslub va usuliga oid tushunchalar;

3) didaktik qadriyat darajasiga erishgan nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

Pedagogik qadriyat didaktik qadriyatga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga ma’naviy-axloqiy, estetik tarbiya va madaniyatshunoslik, akseologik yondashuvlar (qadriyatli ustanovkalar), ta’lim tarbiya birligi masalalari hamda ta’limiy qadriyatlarni to‘liqligicha qamrab oladi. Sharqda ta’lim-tarbiyaning maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish g‘oyasiga qaratilgan bo‘lib, uning ilmiy-nazariy asoslari Qur’oni karim, hadisi sharif, sharqona ta’limot, jadid pedagogikasida o‘z ifodasini topdi. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ilmning inson hayotidagi o‘rnini ta’kidlab: “Ilm o‘rganing, ilm o‘rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo‘lini yoritadi. Ilm insonga cho‘lda yo‘ldosh, yolg‘izlikda hamroh, kimsasizlikda jondan aziz do‘st bo‘ladi”, “Kimgaki Alloh taolo yaxshilikni ravo ko‘rgaydir, uni din ilmidan bahramand qilg‘aydir, ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilg‘aydir” – deya uqtirganlar. Muhammad alayhissalom ummatlarga ilmning foydasini anglatish bilan birga, uni odamlarga qanday qilib o‘rgatish yo‘llari haqida ham qiziqarli tavsiyalar berganlar: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, qiziqtiringiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)” Hadislarda sharqona voizlik va notiqlik san’atida qo‘llanilgan ta’kidlash (eng muhim tayanch jumla yoki so‘zni bir necha barobar takrorlash) usuli islom ma’rifatini some’ (eshituvchi) ongiga singdishda muhim ahamiyat kasb etgan. Islom ma’rifatida barcha xatti-harakatlar dastlab ikki turga – harom va halolga ajratilib, farz bajarilishi qat'iy, majburiy hisoblangan axloq me’yorlari; manbud (sunnat) – majburiy emas, lekin ma’qul hisoblangan axloqiy me’yorlar; muboh – ixtiyoriy me’yorlar; makruh – ixtiyoriy me’yorlar; harom qat’iy ravishda ta’qiqlangan xatti-harakatlarga ajaratiladi. Ilk oyati “O‘qi” so‘zi bilan boshlangan Qur'oni karimda ilm, hayr-sahovat, xushmuomalalik, muloqot odobi, ishbilarmonlik, halollik, poklik, odamgarchilik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Qadimgi Rim faylasuflarining eramizdan avvalgi 469-370-yillarda ta’lim-tarbiya sohasida ilgari surilgan g‘oya va qarashlari Sharqqa ilk uyg‘onish davridan boshlab kuchli ta’sir ko‘rsatib, Platon (Aflotun) (e.a. 427-347)ning davlatning istiqboli uning tarbiyaga qilayotgan g‘amxo‘rligiga to‘g‘ri mutanosibligi haqidagi fikri G‘arb va Sharq zamonaviy pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Bu fikr XVII asr oxiri - XIX asr boshida G‘arbiy Ovrupani uyg‘otib, XX asrda esa nochor Yaponiyani jahonning oliy taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanligini e’tirof etish lozim. Hozirgi kunda ham ta’limning yetakchi mavqeini mustahkamlash haqida fikr yuritilganda barcha davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham Platonning ushbu konsepsiyasiga murojaat etiladi.

Mil avv VII-VI asrlarda “Avesto” yaratilgan davrda yoshlarga ijtimoiy bilimlar, matematika, astronomiya, tabiatshunoslik, tabiatni asrab-avaylash, tabobat ilmi, she’riyat va notiqlik san’ati, shaxsiy gigiena, turmush gigienasi kabilar o‘rgatilgan. Zardusht o‘zi ilgari surgan Gumata (Gumata) ezgu fikr), Gukta (Gukta) ezgu so‘z), Gvarshta (Gvarshta) ezgu amal) bosh tamoyil asosida jamiyat a’zolarini, jumladan,

yoshlarni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan. Shuningdek, Zardusht kabi Rim faylasufi Arestotel (mil avv 384-322-yillar) “Nikomax etikasi”, “Endim etikasi” asarlarida jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani uzviy birlikda amalga oshirish g‘oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, bola 7 yoshga to‘lishi bilan uning tarbiyasi butunlay davlat ixtiyoriga o‘tishi kerak. Boshlang‘ich ta’limda grammatika, gimnastika, musiqa, ba’zan rasm darslari o‘tilishi lozim. Avval tana haqida g’amxo‘rlik, so‘ng esa tarbiyalanuvchining ruhi haqida g’amxo‘rlik qilish lozim. Gimnastika bolani murakkab o‘quv jarayonining qiyinchiliklariga tayyorlashi zarur.

Yodgorlik “Avesto”da ustoz-shogird munosabatlarida ustoz shaxsining ustuvorligi, ta’limga jiddiy yondashish, nazariya va amaliyot birligi, ekologik ta’limning ustuvorligi kabi didaktik qadriyatlar ilgari surilgan bo‘lib, maktab-madrasalarda bolalarga amaliy bilimlar berishga alohida e’tibor qaratilgan.

Suqrot (e.a.469-399.)ning zamonaviy pedagogikamizdagi “fikr qo‘zg‘ovchi savollar” (muammoli savollar) metodiga asos bo‘lgan, shogirdlarni fikrlashga, haqiqatni izlab topishga, mantiqiy va abstrakt tafakkurni shakllantirishga, erkin munozara yuritish, fikrni ravshan va ravon bayon etishga qaratilgan “Suqrotona savol javob metodi” o‘rta asrlarda Sharq madrasalarida keng qo‘llanilib, maktab va madrasalarda Qur’oni karimni o‘rganish jarayonida savol-javob, suhbat, munozara metodlaridan keng foydalanilgan.

Melodiy V-VI asrlarda ochiq maydonda, tog‘-toshlarga bitilgan O‘rxun-Enasoy bitiklari turkiy til va yozuvni bolalikdan o‘rgatishga qaratilgan o‘ziga xos ta’lim tizimi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ta’limning bosh maqsadi bolalarda qabilaning ustuvor tamoyillari va qabiladoshlarini e’zozlash, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashdan iborat bo‘lib, ta’limning asosini diniy qadriyatlar mazmunini o‘rgatish tashkil etgan.

Ilk uyg‘onish davrida huquq-tartibot, savdo, shartnoma va bitimlar tuzish, yer o‘lchash, kanallar o‘tkazish kabilar ta’lim mazmunini tashkil etib, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy(783-)ning maktab-madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan hamda ta’limning amaliy maqsadlarini hayotga joriy etish uchun foydalanilgan, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” (“Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob”),“Kitob fi hisob al-hind” (“Hind hisobi haqida kitob”),“Kitab surat al-arz” “Yerning surati” yoki “Geografiya”), “Kitob al-amal al-asturlab” (“ Asturlob yasash haqida kitob”), “Amal assa at fi basit-ar-ruxama” (“Marmar taxta yuzasida soatlarni yasash haqida risola”), “Kitab at-tarix” (“Tarix kitobi”) asarlari yoshlarda amaliy kompetensiyalarni tarkib toptirishga qaratilgan edi.

Sharqda Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino (980-1037)ning ta’lim tarbiyaga oid qarashlariga Aristotel maktabining ta’siri katta bo‘lgan. Ibn Sino bolalik va o‘smirlik chog‘ida (16 yoshga yetgunga qadar) diniy ilmlar bilan birga, “Isog‘uji” (Aristotelning mantiq ilmiga oid asarining kirish qismi), Ulidus kitobi (Evklid asari), “Al-Majastiy” (Ptolemeyning “Almagest” asari), “Moba’d ut-tabiat” (Aristotelning “Metafizika” asari) bo‘yicha maxsus ta’lim olgan (Abu ali ibn Sino. ‘‘Men anglagan dunyo’’). Umuman, Forobiy ham, Ibn Sino ham Qadimgi Rim mutafakkirlarining pedagogik faoliyati va qarashlarini yaxshi o‘rganganliklari va ular bilan hamfikr bo‘lganlar. Al-Muallim as-soniy (“Ikkinchi muallim”, Aristoteldan keyingi “Sharq Arastusi”) sifatlari bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy (873-950) ta’lim-tarbiya borasida ham muayyan tizimga ega bo‘lgan o‘ziga xos fikrlar va yondashuvlarni taqdim etgan. U “ta’lim” va “tarbiya” atamalariga tavsif berib, ularni o‘z nuqtayi nazari bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy tajribalar bilan aloqadorlikda talqin etadi. Uningcha, “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-

hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatninng amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir”. Ta’limning negizida nazariya, tarbiyaning negizida amaliy malakalar yotadi. Uning fikricha, narsa-hodisalarning mohiyatni anglash orqali umumiy xulosa chiqarish, timsol va ramzlar ma’nosini anglash orqali bilimlarni o‘zlashtirish ilm egallashning samarali usuli hisoblanadi. Shuningdek, aql tabiiy-genetik asosga ega bo‘lib, madaniy muhit, ta’lim-tarbiya orqali rivojlanadi. Buning uchun tolib ilmlarni egallashga ruhan tayyor bo‘lishi, ustoz unga rag‘batlantiruvchi so‘zlar aytib, unda ilmga rag‘bat hosil qilishi zarur. Bunday so‘zlar ta’sir qilmasagina, uni qat’iy nazoratga olish, majburlash mumkin.

Ibn Sino “Hayy ibn Yazqon”, “Tadbiri manozil” kabi asarlarida guruhli ta’lim, tafakkurni rivojlantirish yo‘llari, aqliy tarbiya, inson tafakkurini oshirishda ilmning ahamiyati, bilimlarni o‘rganishda dalil, isbot, mantiqiylik, qiyoslash kabilardan foydalanishning zarurligiga e’tibor bergan. Ta’lim-tarbiyada bola ruhiyatini hisobga olish, bola tabiatiga monandlik g‘oyasini ilgari surgan.

Buyuk italyan shoiri va mutafakkiri Dante Aligeri (1265-1321) Abu Ali Ibn Sinoning “Hayy ibn Yazqon” qissasidan ta’sirlanib, “Ilohiy komediya”ni yozgan bo‘lib, unda (Do‘zax qismi, to‘rtinchi qo‘shiq) Gomer, Esxil, Sofokl, Arastu, Aflotun, Pifagor, Geraklit, Demokritlar bilan bir qatorda yangi g‘oyalar targ‘ibotchisi sifatida Evklid, Batlimus, Galen,Gippokrat, ibn Rushdlar bilan birga Ibn Sinoni ham tilga oladi:

Hisobdon Evklid, Batlimus, Galen,
Gippokrat, ibn Sino, ibn Rushd paydo –
Yangi g‘oyalarni targ‘ib etgan chin.
(Abdulla Oripov tarjimasi)

Didaktik qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, u zamonaviy-novatorlik texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishda muayyan darajada ahamiyatga ega bo‘lib, ta’limning hozirgi kundagi dolzarb muammolari: hayot davomida uzluksiz ta’lim olish g‘oyasini amalga oshirish, mustaqil izlanish va yangi bilimlarni o‘zlashtirib, rag‘batlantirishga ko‘maklashadi.

Didaktik qadriyatlarning Forobiy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Abuali Ahmad bin Ya’qub Roziy, Beruniy, Ulug‘bek asos solgan XX asr ma’rifatparvarlari rivojlantirgan hayotbaxsh g‘oyalarini chuqur o‘rganish va pedagogik ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bugungi kunda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika fani konsepsiyasi // Xalq ta’limi, №5, 2004. – 8-33 b.

2. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 kitob. 1-k. Al-Jomi’ as-Sahih: (Ishonarli to‘plam). Arabchadan Z. Ismoil tarj. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 560-32 b.

3. M. Quronov. Istiqlol va taraqqiyot yo‘lining pedagogik kafolatlari // Xalq ta’limi, 1993, № – 4-5. – 4-7 b.

4. Jurayev R., Inoyatova M. Tarbiya va ma’naviyat: tarix, nadrij, istiqbol. O’quv qo’llanma. – T.: Nodirabegim nashriyoti, 2021 y. – 210 b. – 56 b.

5. D. Yuldasheva. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari. Ped. fan. nomzodi il. Darajasini olish uchun yozilgan diss. – Buxoro, 2007. – 153-23-24 b.

Yunusbek MAHMUDOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘QUV JARAYONIDA SHAKLLANTIRILADIGAN SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishishga layoqatliliklari va moyilliklarini aniqlashning pedagogik imkoniyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxslararo munosabat, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, ta’lim-tarbiya muhiti, muloqot ko‘nikmasi, o‘qib-o‘rganish, hamkorlik.

В данной статье дана информация об особенностях межличностных отношений, педагогических возможностях определения способностей и склонностей учащихся к вступлению в межличностные отношения.

Ключевые слова. Межличностные отношения, учитель-ученик, ученик-ученик, учебно-воспитательная среда, коммуникативные навыки, обучение-обучение, сотрудничество.

This article provides information on the specifics of interpersonal relationships, the pedagogical possibilities of determining the competencies and inclinations of students to enter into interpersonal relationships.


Key words. Interpersonal attitude, teacher-student, student-student, educational environment, communication skills, reading and learning, cooperation.

O‘quvchilar o‘quv jarayonida turli tuman ko‘rinishdagi shaxslararo munosabatlarga kirishadilar. Bu ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z shaxsiy muvaffaqiyatlarini ta’minlashlari uchun zarur hisoblanadi. Chunki shaxslararo munosabatlar o‘quvchilarning o‘z kamchiliklarini bartaraf etishlariga ko‘maklashadi.

Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, o‘quvchilardagi ishonuvchanlik salbiy xarakter kasb etmasligiga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan o‘quv munosabatlariga kirishishlari lozim. Atrofdagilar va tengdoshlari bilan esa o‘quv munosabatlari bilan bir qatorda o‘yin munosabatlariga ham kirishadilar. Bunday munosabatlarga o‘quvchilar asta-sekin ko‘nikib o‘quv jarayonida muvaffaqiyatlarga erishadilar. O‘quvchilar o‘zaro munosabatlarga oid ko‘nikma hosil qilganlaridan keyin mazkur munosabatlar ular uchun yangilik emas, balki odatiy hisoblanadi. Shuning uchun ham ular o‘zaro munosabatlarning yangi shakllariga kirishishga harakat qiladilar.

O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishishga layoqatliliklari va moyilliklari ularda qo‘rquv va itoatkorlik hissini vujudga keltirmasliklari lozim. Bunday o‘quvchilar mustaqil izlanishdan voz kechib o‘quv topshiriqlari ko‘lami kengayishi bilan aniq namunalar asosida ishlashga moyillik ko‘rsatadilar. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o‘qituvchi bilan to‘laqonli tarzda o‘quv munosabatlariga kirishadilar. Ular o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarni maqsadli qo‘llab, o‘quv topshiriqlarini bajarishga turli yondashuvlardan foydalanadilar. Shuningdek, tayyor namunalar asosida faoliyat ko‘rsatib, bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishga harakat qiladilar. O‘quv jarayonida shaxslararo munosabatlarning quyidagi ikki turi namoyon bo‘ladi:

bo‘ladi: o‘quvchi – o‘quvchi, o‘qituvchi – o‘quvchi. Bu munosabatlar zamirida bir qancha ijtimoiy harakatlar xarakteri namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi harakatlar xarakteri

Mazkur munosabatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular huddi manashu xususiyatlarga ko‘ra muvofiqlashadi. Shaxslararo munosabatlar ko‘nikmasi hamkorlikning turli shakllari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi va undan o‘quvchilar o‘z kundalik faoliyatlari jarayonida foydalanishlari lozim.

Shaxslararo munosabatlar har doim ham aniq va oydin bo‘lavermaydi. Hatto oddiygina qo‘rquvlar ham har bir o‘quvchini tayyor namunalar asosida ishlashga majbur qiladi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar o‘quvchilarning so‘rovlariga aniq javob qaytaradilar. Bunday namunalar yo‘q bo‘lgan vaziyatlarda esa o‘quvchilar ularni mustaqil izlab topib shakllantirishlari talab etiladi.

Agar o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qib-o‘rganishlarini xohlasa, ularning bilmagan narsalari haqida ma’lumot taqdim etib, mustaqil izlanishga undashi zarur. Masalan, o‘quvchilar mustaqil harakat qila olmaydigan, imitatsion xarakter kasb etmaydigan vaziyatlarda ularga yangi topshiriqlar berib izlanishga undash imkoniyatini ta’minlash lozim. O‘qituvchi bir nechta gapni yozuv taxtasiga xatosiz yozish haqida topshiriq

berishi mumkin. Jumladan, “Bahor kelishi bilan daraxtlar yam-yashil libos kiydi”, “Bog‘ chetidagi ariqda suv sharqirab oqmoqda” gaplarini bexato yozish topshirig‘ini beradi. O‘qituvchi aytib turgan jumlalarni yozish jarayonida ham shaxslararo munosabatlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlar jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchininng o‘ziga xos layoqati sifatida namoyon bo‘ladi. Bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchining alohida layoqati sifatida shaxslararo munosabatlar jarayonida amalga oshadi. Hamkorlik jarayonining ishtirokchilari orasida shaxslararo munosabatlar turli shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar turli o‘quv manbalari bilan ham o‘zaro munosabatga kirishadilar. Bunday manbalar sirasiga kitoblar, multimediya vositalari, ko‘rgazmali vositalar, o‘qituvchi taqdim qilgan ma’ruzalar kiradi. O‘quvchilar ta’lim olish jarayonida sinfdoshlari bilan ham ta’lim olish jarayoniga, ham shaxslararo munosabatlarga kirishadilar.

Ilmiy manbalarda o‘quv hamkorligi jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida shaxslararo munosabatlarning 3 ta ko‘rinishi mavjudligi ta’kidlangan. Bunday munosabatlarga ular o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida kirishadilar. Jumladan:

– dars jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalovchi xarakterga ega bo‘lgan, o‘zaro bir-biriga o‘xshamaydigan xulq-atvorlariga asoslangan munosabatlari;

– o‘qituvchidan zarur axborotlarni so‘rash ko‘nikmasini shakllantiruvchi munosabatlar;

– o‘zining shaxsiy bilim darajasini aniqlashga ko‘maklashadigan munosabatlar.

Darsda o‘quvchilarning o‘zaro bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar:

– o‘quvchilarning o‘qituvchi xatti-harakatlari va munosabatini ifodalovchi yo‘nalishlarda shaxslararo munosabatlarni o‘rnatuvchi topshiriqlar;

– o‘qituvchi savol beradi va xato javoblarni taklif qiladi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘qituvchinng javobini takrorlashlari yoki o‘zlarining mustaqil tarzda izlab topgan javoblarini taqdim etishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

– turli qoidalarni qabul qilish chegarasini aniqlovchi topshiriqlar;

– o‘qituvchining nuqtayi nazarlarini imitatsiyalovchi topshiriqlar;

– imlo mashqlarining rang-barangligini ta’minlovchi topshiriqlar;

– o‘quvchilarning shaxsiy bilim darajalarini aniqlovchi topshiriqlar;

– o‘qituvchidan zarur bilimlarni so‘rab o‘rganishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

– noma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rab o‘rganishga mo‘ljallangan topshiriqlar.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri harakat qilishlarini ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Shaxslararo munosabatlar sotsiometriya metodi yordamida tekshiriladi. Sotsiometriya metodiya yordamida o‘quvchilarning kichik guruhlari orasidagi shaxslararo munosabatlar tekshiriladi. Ushbu metod psixologiyada keng qo‘llaniladigan metodlar sirasiga kiradi. Ushbu metod ilk bor amerikalik psixolog Jakob Moreno tomonidan tadbiq etilgan bo‘lib, olim “Sotsiometriya” asarida ilk bor ushbu metod yordamida shaxslararo munosabatlarning xarakterini diagnostik tadqiq qilishga muvaffaq bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda guruh a’zolari orasidagi shaxslararo munosabatlarni optimallashtirishga erishgan.

J. Moreno sotsiometriya metodi yordamida shaxslararo munosabatlarning quyidagi turlarini ko‘rsatib bergan:

1. Umumiy harakatlarga asoslangan shaxslararo munosabatlar. Ushbu munosabatlar shaxslarni o‘zaro birlashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi, dramatiklashtiruvchi hamda umumiy-ijtimoiy xususiyatlarga asoslanadi.

2. Haqqoniy muloqotga asoslangan munosabatlar. Bunday munosabatlar o‘quvchilar

va o‘qituvchilarni bir-birlarini tushunishlariga va har tomonlama chuqur o‘rganishlariga imkoniyat yaratadi.

3. Harakatga asoslangan munosabatlar. Bunday munosabatlar insonlarni nafaqat bir-birini tushunishga, balki ijtimoiy vaziyatlarni o‘zgartirishga undaydi va insonlarning o‘zaro munosabatlari, tanlovlari yoki tanlov mezonlarida namoyon bo‘ladi.

4. Chin qalbdan amalga oshiriladigan munosabatlar. Bunda jamiyatda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish nazarda tutiladi. Sotsidramma yo‘nalishida muloqot texnologiyasi, urf-odat va an'analar, xulq-atvor ko‘rinishlari, obrazlar, harakatlar, insonlar foydalanadigan belgilar, ohanglarni o‘z ichiga olib ularni tadqiq qilish nazarda tutiladi.

Ko‘rinib turibdiki, shaxslararo munosabatlar keng ko‘lamli hodisa bo‘lib, mutaxassislar uni turli nuqtayi nazardan yondashgan holda o‘rganganlar. Chunki shaxslararo munosabatlar jamiyat hayoti, insonlarning kundalik faoliyatida eng ko‘p uchraydigan ijtimoiy hodisa bo‘lib, bunday munosabatlarni o‘quvchilarga o‘rgatish ularni ijtimoiylashtirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova D. O‘quvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish. Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований, 1(Conference TSPU), – 2022. 510-514. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/carjis/article/view/5694

2. Макаренько А.С. Педагогика. – М.: Владос, 2001г.

3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T., 1994. – 35 b.

4. Khasanova A.R., & Ismailova N.I. Mutual coordination of sensorimotor activity for physical development of children with autism spectrum disorders.

Gulmira OBIDOVA,
Toshkent axborot texnologiya universiteti
Farg'ona filiali xorijiy tillar kafedrasi dotsenti

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA KOMPLEKS YONDASHUV ORQALI EKOLOGIK TA'LIMNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili fanini o'rganishda ekologik ta'lim usullarining muhim omillari haqida so'z boradi. Shuningdek, ingliz tilining o'qitishda ekologik madaniyatni takomillashtirish va rivojlantirishga hamda talabalarni atrof-muhitga bo'lgan muhabbatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Ekologik ta'lim, ekologik savodxonlik, gumanizatsiya, ekologik tematika.

В данной статье выделены важные факторы экологического образования при обучении иностранному языку. Также обсуждается улучшение и развитие экологической культуры в преподавании английского языка и повышение любви учащихся к окружающей среде.

Ключевые слова. Экологическое образование, экологическая грамотность, гуманизация, экологическая тематика.

This article highlights the important factors of ecological education in teaching a foreign language. It also discusses improving and developing an ecological culture in English language teaching and to increase students' love for the environment.

Key words. Ecological education, ecological literacy, humanization, ecological themes.

Zamonaviy pedagogika fanida ijtimoiy-gumanitar bilimlarni ekologiyalashtirish muammosi eng muhim tamoyillardan biridir. Pedagogika sohasi bo'yicha adabiyotlarida ta'lim-tarbiya tizimini ekologizatsiyasi inson va atrof-muhit munosabatlarining innovatsion tamoyillarni to'laqonli shakllantirish nazarda tutadi. Bu tamoyillar tabiatni saqlash va tiklashga oid shaxsiy javobgarlik tuyg'usi, tirik mavjudotlar hamda evolyusiyaga, muhabbatga asoslangan bo'lishi lozim. Bularning barchasi zamonaviy globalizasiya jarayonini tashkil qilishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ta'limni ekologizatsiyasi to'liq qaytmas jarayon bo'lib bormoqda.

Ta'limni ekologiyalashtirish global ta'limning g'oyasini amalga oshirish zaruratisifatida ham ko'rilishi mumkin, chunki aynan global ta'lim ekologik muammolarga ko'proq e'tibor berishga qodir. Global ta'lim, fikrimizcha, insonning ajralib turadigan faoliyati sifatida madaniyatning ziddiyatlarini yengib o'tishga oid faol urinishlarni amalga oshirishi mumkin. Sayyoramizning butun ekologik holati umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarning majburiy katalogiga kiradi. Insonning o'zi esa millati, tabaqasi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, dunyo xaritasining markazida bo'ladi, biroq bu markazning o'zi butun sayyoradagi hayotga majburiy kirish bilan sezilarli darajada kengayishi mumkin. Buning barchasi tadqiqotchi A. Shveyserning g'oyalari bilan hamohang. Uning hisoblashicha, hayotni asrab qolish, uni oldinga surish, rivojlanayotgan hayotni oliy pog'onagacha ko'tarish – insonga yaxshilik qilmoq degani; hayotni yo'q qilmoq, hayotni rivojlanishdan to'xtatish – unga yomonlik qilishdir. Zamonaviy sharoitlarda oldimizda – yangi dunyo-qarash yondashuvlarni anglash va qabul qilish vazifasi turibdi,

zero bashariyat o‘ziga yaxshi kelajakni ta’minlay olishi uchun unga majburiy xatti-harakat tamoyillarini almashtirishi zarur. Sayyoramizdagi butun bashariyatning ekologik muammolarni anglashga ehtiyoji mavjudligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Akademik N.N. Moiseyev ta’kidlaganidek, umummadaniy nuqtayi nazardan insoniyat tarixining kirib kelayotgan bosqichi biologik turimizning taqdirida va umumplanetar jamoaviy intellektni tarkib toptirishda aql rolini yanada oshishini anglatadi. O‘quv jarayonida ingliz tili darslarida talabalar turli bilim sohalaridagi muammolariga duch kelishi mumkin. Masalan, suv zaxiralariga oid turli muammolar bo‘yicha matnlarni tahlil qilish, solishtirish, talabalarga tushuntirib berish va ularning vazifalari haqida tushuncha hosil qilishlari mumkin hamda turli misollar keltirib o‘tishni, analogiyalar (o‘xshash holatlar) keltirishda umumiylikni topishga o‘rganishadi. Ta’kidlab o‘tish muhimki, zamonaviy ta’limda global g‘oyalarini amalga oshirish bir necha yo‘nalishlar yordamida rivojlanishi mumkin: fanlararo modullarni yaratish; tegishli o‘quv fanlari, vositalari bo‘yicha global dunyo xaritasini yaratish. Bundan tashqari, ingliz tili o‘quv fani sifatida qanchalik muhim ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyatga ega bo‘lishi mumkinligi bizga ravshan bo‘la boshlaydi. Metodik adabiyotlarda ingliz tilini o‘rganishning ushbu imkoniyatlarini qo‘llashning samarali vositalarini aniqlash muammosi hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada ta’kidlab o‘tishimiz mumkinki, ekologik ta’limda vazifalarni to‘g‘ri bir-biriga mosligini ta’minlash va ingliz tilining o‘qitilishi ekologik madaniyatni oshirish va rivojlantirishga alohida hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu jarayonga quyidagi omillar misol bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar tufayli ingliz tili kasbiy kompetentlikni shakllantirishi mumkin. Ingliz tilini o‘rganish doirasida uning gumantar salohiyatini ham aniqlash mumkin, ya’ni fanni insonning faqat kognitiv emas, balki ma’naviy-axloqiy xususiyatlarini shakllantirish imkoniyati aniqlanadi.

Bundan tashqari, boshqa o‘quv fanlar singari ingliz tili faninig salohiyatini ham inobatga olish lozim. Masalan, ingliz tilidagi adabiyot amaliy ingliz tili bilan birgalikda ajoyib mazmun kashf etadi. Bu shakl uni global mazmun bilan to‘ldirganda yaxshi o‘zlashtiriladi. Ingliz tili va ekologiyani ta’limning barcha bosqichlarida o‘rganish kerak. Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy usullari talablarini ekologik tematikaning axboriy va qiziqarli matnlari ustida ishlash yordamida grammatika, fonetika va leksikani o‘zlashtirishga undashi kerak. Ingliz tilini egallash uchun o‘rganilayotgan iboralarni bir necha bor takrorlash va yodlab qolish kerak. Ular ustida ishlash jarayonida talabalar atrof-muhit xolati haqida ko‘pgina qiziq va muhim dalillarni yodda saqlashga qodir. Bu shak-shubhasiz ekologik savodxonlikni oshishiga zamin yaratadi. O‘quv-lisoniy materiallar (ilmiy-ommabop nashrlar, hujjatli filmlar, multimedia materiallari) ekologik muammolarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini aks etishi mumkin) Shuningdek, ingliz tili ekologik ta’limning mazmuni bo‘lib kelishi ham mumkin. Shu tariqa u talabalarda yangi rakursda oddiy narsa va holatlarga o‘zgacha xolis munosabatni shakllantiradi. Tabiiy fanlar yo‘nalishlarida ingliz tili bo‘yicha fan dasturi o‘z ichiga: ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarni; boshqa tildagi muloqotni; amaliy faoliyatni amalga oshirishni olish kerak. Ta’limiy maqsadlarga erishish uchun esa, yuqorida ta’kidlaganimizdek, oliy ta’limni gumanizatsiya va gumanitarizatsiya qilish orqali amalga oshirish kerak. Bu jarayon talabalar dunyoqarashini ularning umumiy ma’lumotini, madaniyat va muloqotini oshirish orqali kengaytirishni anglatadi. Ingliz tili o‘quv fani madaniyatning turli muammolariga nisbatan o‘zgacha “ochiqlikka” ega bo‘lishi mumkin, ya’ni u mazmun borasida eng universal va shuning uchun ham biz uchun eng yaxshi o‘qitish mazmunini to‘ldirish imkoniyatlarini taqdim etadi). Ingliz tilini o‘rganishda turli global muammolarni o‘rgatish

talabalar qiziqishi, hamda ularning so‘z boyligini oshirishga muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu yo‘sinda ular faol muloqotga jalb qilinadi. Bunda ekologik muammolar bilan tanishish xorijda sodir bo‘lgan taqdirda, zarur o‘xshashliklarni bizning mintaqa bilan o‘tkazishning ham imkoni paydo bo‘ladi. Bu har bir davlatning sog‘liqni saqlash, biz uchun juda kerak bo‘lgan ekologik tenglikni himoya qilish va ushlab turish sohasidagi ma’lum urinishlari va yutuqlarini ko‘rib chiqishga yordam beradi. Yo‘l-yo‘lakay boshqa vazifa ham hal qilinishi mumkin, jumladan, alohida olingan joylarning ekologik muammolariga talabalarning yaxlit qarashini shakllantirish va h.k.

Xulosa shuki, ingliz tili boshqa fanlardan kommunikativ yo‘nalganligi bilan ham ajralib turadi. Ingliz tilida ma’lumot olish, qayta izlash va uni uzatish bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual-kommunikativ kompetensiyalarni ongli shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalar o‘quv va kommunikativ faoliyatni sintez qilishga o‘rgatiladilar. Bu faoliyatni ekologiya bilan uyg‘unlashtirish ingliz tilini o‘rganish sohasini kengaytirish imkonini beradi. Boshqa til madaniyatini o‘rganish inson shaxsining ma’naviy-axloqiy dunyosini boyitish vositasi sifatida ham qo‘llanilishi mumkin. Ingliz tilini kommunikativ tarzda o‘rganish muloqot modeli jarayonini tashkil qilishni nazarda tutishi kerak. O‘qish jarayonida talabalar boshqa tilda muloqot qilish texnikasini o‘rganishi, yakka va jamoa tartibda muloqot qilishda nutqiy madaniyat hamda etiket ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Bu istalgan mutaxassislik bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ayniqsa, dolzarb. Chet tilida muloqotga o‘rganish qanday tashkil qilinganiga ko‘p jihatdan boshqa fanlar bo‘yicha global ta’lim sohasining muvaffaqiyati bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida boshqa fanlar mazmuni talabalarni ingliz tilida qidirilayotgan axborotlar to‘plami bilan ta’minlashi mumkin. Shu munosabat bilan biz ingliz tilidan ta’lim jarayoniga muayyan mavzularni kiritilishi o‘rganilayotgan matn va mavzularga (demografiya muammolari, tabiiy zaxiralarning cheklanganligi, urbanizatsiya muammolari, tabiat qo‘riqxonalarini asrash) sezilarli axborotlarni berishi mumkin. Bularning barchasi ta’lim oluvchilarning nafaqat o‘rganilayotgan ingliz tili va ekologiya sohalarida dunyoqarashini kengaytirishi va so‘z boyligini oshirishi mumkin, balki geologiyada, geografiyada, sosiologiya va boshqa turkum fanlarda ham o‘z samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захлебный А.Н Содержание экологического оброзование в средне оброзовательной школе (теоритеческое обоснование и пути реализасии): автореф. Дисс. ... д-ра пед.Наук. 1986. – С. 32.

2. Ziyomuxamedov B. Maktab o‘quvchilarini ekologiya va ekologik tarbiyasi. – T: O‘qituvchi, 1998. – 15 b.

3. Ziyomuxammedov B. Ekologiya va ma’naviyat. – T.: Mehnat, 1997. – 104 b.

4. Илина А.Н. Теоретические проблемы воспитания у старшеклассников экологической культуры как части их мировоззрения: Дисс. … канд. пед. наук. – М., 1998. – С. 12.

Safiya QALANDAROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi,
“Tillar” kafedrasi dotsenti (Phd)

TALABALARNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI ISHBILARMONLIK TERMINLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llaridan yana biri bo‘lgan ishbilarmonlikka oid matnni to‘g‘ri idrok qilish, jumlalarni va terminlarni aniq va ravon tarjima qilishdagi ayrim masala va fikr-mulohazalarga biroz to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Chet tili, kommunakativ yondashuv, ishbilarmonlikka oid terminlar, kompetensiya, uzluksiz ta’lim, pedagogik muammo, zamonaviy ta’lim, so‘zlarga izoh, taqqoslash, ko‘nikma, bilim, malaka, uddaburonlik, lingvomadaniyatshunoslik.

В данной статье освещен один из способов развития лингвострановедческой компетенции студентов, который является правильно понимать деловой текст, ясно и бегло переводить предложения и термины.

Ключевые слова. Иностранный язык, коммуникативный подход, деловые термины, компетентность, непрерывное образование, педагогическая проблема, современное образование, объяснение слов, сравнение, умение, знание, компетенция, лингвокультурология.

This article is shown one of the ways to develop the linguistic and regional competence of students, which is to correctly understand a business text, to clearly and fluently translate sentences and terms.

Key words. Foreign language, communicative approach, business terms, competence, continuous education, pedagogical problem, modern education, word explanation, comparison, skill, knowledge, competence, competence, linguoculturology.

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida nofilologik mutaxassisislik talabalarini chet tilida lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini ishbilarmonlik terminlari asosida rivojlantirish masalalari va ularni amalda oshirishda uchraydigan ayrim fikr va mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari gumanitar ta’lim tizimidagi talabalarning kasbiy tayyorgarligi, kasbiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari qatorida shaxsga doir sifatlarini shakllantirishni o‘z ichiga qamrab olishligi, axborotlashtirish jarayonlarini, zamonaviy bilimlarni egallashga taqoza qilishligi va taraqqiyotning intensifikatsiyasidagi o‘zgarishlarga nisbatan yuqori darajada mutaxassislarga muhtoj ekanligi kabi masalalarga oydinlik kiritilgan.

Bizga ma’lumki, so‘z birikmalarining semantik kondensatsiyasidan iborat bo‘lgan terminlar matnda mazmun hosil qiluvchi funksiya bajarishi va talabalarning idrok jarayonida aks etishi, ko‘p hollarda tillararo murakkab lingvomadaniyat aloqalarni aks ettiradigan vaziyatlar yaratadi. Bu esa chet tilini o‘rganish begona dunyo manzarasining bir qismi bilan tanishish, keyinroq uni ona tili tomonidan berilgan o‘zining dunyo manzarasi bilan birlashtirishga urinishdan iborat bo‘ladi. Aynan shu chet tilini o‘rganishdagi shaxsning o‘ziga xos “ikkiga bo‘linishi”ga olib keladigan asosiy qiyinchiliklardan biri, bu “ambivalentlik”ni, ya’ni madaniyatlararo kompetentlikni rivojlanishga olib keladi. Tadqiqot davomida talabalarning lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini ishbilar-

monlik terminlari asosida rivojlantirish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– “ishbilarmon” va “ishbilarmonlik”, “uddaburon” va “uddaburonlik” terminlari va ularning lingvomadaniyatshunoslikka oid potensial imkoniyatlari bilan tanishtirish;

– terminlardan talabalar LMKni rivojlantirish uchun foydalanishning xususiyatlarini tahlil va muhokama qilish;

– talabalar LMKni rivojlantirishga qaratilgan muammoli vaziyat yaratish va muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish;

– talabalar tomonidan autentik materiallar: matn, ularga lingvomadaniyatshunoslik sharhlar, videofilmlar va boshqa ko‘rgazmali vositalardagi ishbilarmonlik terminlari va lingvomadaniyatshunoslikka oid axborotning mustaqil tanlanishi.

– lingvomadaniyatshunoslikka oid axborotni qayta ishlash va o‘zga tilli konsept haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, talabalarda ishbilarmonlik ishi leksik-terminologik vositalarini qo‘llashga oid invariant faoliyat usullarini rivojlantirish;

– kommunikativ faoliyatda leksik-terminologik vositalarni qo‘llash asosida shakllantirilgan talabalar LMK sifatini tahlil qilish va baholash (1-jadval). Ta’kidlanganlar shu bilan belgilanadiki, har bir xorijiy dunyo xorijiy madaniyatni aks ettiradi: har bir so‘z ortida milliy ong bilan belgilangan dunyo haqidagi tasavvur yotadi.

Texnik OTM nolisoniy mutaxassislik talabalarining lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini ishbilarmonlik terminlari asosida rivojlantirishni blok-modulli texnologiyasi

1-jadval.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlari, shakllari va vositalari
Motivatsiyali-rag‘batlovchi bosqich	Talabalar LMKni rivojlantirish vazifasini hal qilish uchun terminologik vositalarning potensiial imkoniyatlarini o‘rganish	Individual, guruhli, ommaviy; aqliy hujum, g‘oyalar savati, trening, munozara
Tahliliy bosqich	Talabalar LMKni rivojlantirish uchun terminlarni qo‘llash xususiyat-larini tahlil va muhokama qilish	Individual, guruhli, ommaviy; to‘xtalishlar bilan o‘qish
Dolzarblash-tirish bosqichi	Bo‘lajak mutaxassislarni LMKni rivojlantirish va shakllantirishda muammoli topshiriq va o‘quv vaziyatlarini hal qilishga jalb etish	Individual, guruhli, ommaviy; keys-stadi, rolli o‘yin
Produktiv (mahsulli) bosqich	Matnlardagi terminlarning talabalar tomonidan mustaqil tanlanishi – talabalar oldiga muayyan pedagogik vazifa qo‘yiladi va uni hal qilish usullari reglamentlanadi	Individual, guruhli, ommaviy; insert, algoritm, klaster
Ijodiy bosqich	Talabalarda ishbilarmonlik ishi leksik-terminologik vositalarini qo‘llashga oid invariant faoliyat usullarini rivojlantirish	Individual, guruhli, ommaviy; esse, sinkveyn, tadqiqotchilik va ijodiy loyiha

Baholash-korreksiyalash bosqichi	Kommunikativ faoliyatda leksik-terminologik vositalardan foydalanish asosida shakllantirilgan talabalarning LMKni tahlil va baholash; bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kommunikativ faoliyatida leksik-terminologik vositalarning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatoliklarni to‘g‘rilash va kasbiy faoliyat sohasida muayyan kommunikativ vazifalarni hal qilish uchun leksik-terminologik vositalardan foydalanish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish	Individual, guruhli; o‘z-o‘zini tahlil, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat, o‘zaro nazorat

Demak, lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasi yetishmasligi holatida axborotni yetarli darajada tushunmaslik yuzaga keladi. Qo‘yidagilarni tipik misolda tushuntirib bermoqchimiz: A good job is financially rewarding (high-paid/high-earned) in Legaltendernote; a reasonable level of salary is ensured. Qualities of a work employee: A good employee is creative, well-educated, well-trained, well-informed, well-adjusted, energetic, self-directed, highly responsible, efficient, well-organised, businesslike, personable, punctual, dependable, a self-starter, a good goal setter, and flexible enough to carry out tasks outside of job description.

Taqdim qilingan parchada terminologik so‘z: Legaltendernote – Legal/tender/note, alohida Legal 1. “huquqiy”, 2. “qonuniy”, 2. “tender” 1. “taklif”. 2. “summa”, 3. “konkurs”, 4. “to‘lov vositasi”, 3. “note” 1. “belgi, yozuv, eslatma”, 2. “sharx, komentariya”, 3. “nota”, 4. “ton” ma’nolarini beradigan uchta komponentdan iborat bo‘lib, aslida “g‘azna bileti” tarzida tarjima qilinadi, ya’ni bir-biriga mutloq to‘g‘ri mos kelmaydi va umuman qarama-qarshi ma’noga ega va “huquqiy”, “konkurs”, “nota” sifatida tarjima qilinmaydi, ya’ni nominatsiyaning milliy o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, ya’ni gap kodlarning ikki tipi aynan esa til bilan bog‘liq tashqi va nutq bilan bog‘liq ichki kod o‘rtasidagi farq haqida boradi.

Fikrimizni illyustratsiyalash uchun yana bir necha terminni ko‘rib chiqamiz, ularda direct, sompete komponenti tarjimada turlicha mazmun planini o‘z ichiga olishi mumkin, bu bilan tarjima faqat so‘zni so‘z bilan emas, balki bir madaniyat mazmunlarini boshqa madaniyat mazmunlariga o‘girishni nazarda tutishi haqidagi tezisni tasdiqlaydi.

Direct – tog‘ridan-to‘g‘ri	Compete – raqobatlashmoq
Indirect – bilvosita	Competition – musobaqa
Direction – yo‘nalish	Competitor – musobaqachi
Director – direktor, rahbar	Competitive – raqobatga doir
Directly – tog‘ridan-to‘g‘ri	Competitively (равиш) – raqobatga doir
Indirectly – bevosita	

Ko‘rinadiki, terminlar, xalqning o‘ziga xos nutqiy-fikrlash faoliyatini aks ettirib, nominatsiyaning muayyan til xilma-xilligida aniq gavdalanadi. Til belgilari sifatida ular milliy konseptlar hisoblanadi, chunki tushunchaviy rejada to‘liq ekvovalent bo‘lgani holda assotsiativ aloqalarning yig‘indisi bilan farqlanadi. Bundan tashqari, ingliz terminlari ifoda rejada, avvalo, yaxlit rasmiylashtirilgani bilan tavsiflanadiki, bu ularga formal-grammatik lakonizm holatida sintaktik jarayon xarakterini baxsh etadi va ular o‘z atrofida go‘yo alohida semantik maydon hosil qiladi.

Demak, lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi, o‘rganilayotgan madaniyatlararo

kommunikatsiyaga o‘rgatishning asosi sifatida, milliy konseptal va tilda alohida so‘zlar (terminlar) va so‘z birikmalarida ifodalanadigan assotsiativ aloqalarda ifodalanadigan “begona” til va “begona” madaniyatga tizimli o‘rgatishni nazarda tutadi.

Bu ingliz tili “ishbilarmonlik” – “ishbilarmon”, “uddaburon” – “uddaburonlik” terminologiyasiga o‘rgatish terminologik leksikada uzviy birlikda taqdim qilingan tilga oid va tilga oid bo‘lmagan bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerakligini anglatadi, bu talabalarda quyidagi kasbiy ahamiyatli malakalarni va rivojlantirishga ko‘maklashadi:

– keyingi o‘zlashtirish uchun o‘rganilayotgan til tizimida semantik va onomasiologik jarayonlar bilan bog‘liq terminologik leksikani aniqlash va tahlil qilish malakasi;

– terminologik yasalmaning lingvosemantik strukturasini tushunish malakasi;

– terminologik strukturalarni, ularning o‘zga tilga oid dunyoning manzarasini aks ettiradigan nominatsiyasi va so‘z yasash usuliga ko‘ra differensiatsiyalash malakasi;

– o‘rganilayotgan terminologiyani ona tilidagi analogik leksika bilan solishtirish va xalqlarning tarixi hamda madaniyati bilan bog‘liq o‘zga xos xususiyatlarini aniqlash malakasi, bu bo‘lajak mutaxassisga terminologik yasalmani bir tildan boshqasiga tarjima qilishda kalkalash (aynan tarjima qilish) dan qochish imkonini beradi, ya’ni ifoda so‘z yoki termin, uning ma’nosini bir tildan boshqasiga tarjima qilish nafaqat ikki tilli kommunikativ faoliyat, balki ularning xususiyatlari palitrasi bilan “madaniyatlar tarjimasi” sifatida gavdalanadi.

Misollardan ko‘rinadiki, ingliz termini va ularning ekvivalentlari o‘zbek tilida ingliz va o‘zbeklarning fikrlashi mos kelmasligining yorqin illyustratsiyasi bo‘la oladi. Bu kabi hodisalarni tushuntirish ta’lim oluvchilarning lingvistik va terminologik kompetensiyasini boyitishga ko‘maklashadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning leksik-terminologik lug‘at zaxirasini boyitishga lingvokreativ mashqlar ham xizmat qiladi. Ular matnni tushunishni nazorat qilishdan keyin o‘tkaziladi va ta’limning turli vaziyatlariga, jumladan: a) leksik va terminologik birliklarni guruhlash va tizimlashtirish malakasi; b) muayyan kontekstda so‘z yoki terminning ma’nosini aniqlash malakasi; v) so‘z yoki terminlarni dialogik va monologik xarakterdagi minimal jumlalarga kiritish malakasi; g) potensial lug‘atga mansub alohida birliklarning birikish imkoniyatlari va so‘z yasash usullarini ochib berish malakasiga qaratiladi, masalan:

Lose so‘zi lug‘at ma’nosini o‘rganish va lug‘atda quyidagi ruknlarni tuzish: boshqa so‘z turkumlaridan bir o‘zakli so‘zlar yoki so‘z birikmalari.

Lose – yo‘qotmoq

Lost – yo‘qolgan

Loss – 1) yo‘qolish; 2) zarur(pul) ; 3) o‘lim.

Ingliz tilidagi quyidagi so‘zlarning yasalish usulini aniqlash va tushuntirish:

Come about – Happen or occur

Come across – Find by chance

Come along – Accompany someone; go somewhere with someone

Come along – Tell someone to hurry

Come apart – Separate into pieces

Come around – Change one’s opinion, finally accept someone’s way of thinking

Come down with – Become ill with.

Derivatsion – elementning umumiyligi bo‘yicha birlashgan so‘z yasash uyalarining komponentlari xotirada oson assotsiatsiyalanadi, tabiiy, til tizimi uchun xos bo‘lgan paradigmatik rejadagi til birliklari mnemonik guruhlarini aks ettiradi. So‘z yasash uyalari

va qatorlarining bu kabi sifati bir tipdagi qurilishga ega o‘zga tilli leksemalarning katta massivlarini o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

Til vositalarining faollashtirilishini ta’minlab, biz bu bilan ta’lim oluvchilarning lingvistik va lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga ko‘maklashamiz. Keltirilgan terminologik qo‘shma so‘zlar yasalishi uchun baza bo‘lib, erkin sintaktik konstruksiyalar xizmat qiladi:

Produce, producer, production, provide – provider, work – worker, owned – owner, research-researcher, manage-manager, sell-seller, organised organiser... so‘zlar kabi.

Retseptiv rejadagi malakalarni shakllantirishda matn axborotini ijodiy anglashni rag‘batlashga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq ko‘rinadi, bu turli lingvomadaniyat vakillarining voqelikni turlicha idrok qilishi bilan bog‘liq. Aytilganlarni misollarda ko‘rib chiqamiz, bunda lingvomadaniy axborot madaniy semalar orqali nominativ birliklarda taqdim qilingan, buni Profitability so‘zi misolida ko‘rib chiqamiz: It is difficult to determine the strength of these effects since so many factors influence the level of savings. Private investment is determined largely by expected profitability so that we must expect the taxation of profits to have some disincentive effects. Profitability (aynan: ishbilarmonlikda yuzaki tuzilmalar)ni anglatuvchi profitability terminologik birligining o‘zi ham lingvomadaniy mos kelmaslikdan dalolat beradi. Demak, bu kabi, qayta anglash bilan tavsiflanadigan, terminlarni aynan (so‘zma-so‘z) tarjima qilib, semantizatsiyalash maqsadga muvofiq emas, chunki bu ingliz termini mazmunini berishda mutlaq aniqlik, adevatlikdan mahrum etadi.

Komponentlar semantikasining mos kelmasligi, uning milliy bo‘yoqdorligiga boshqa misol profitability – sof daromad, foyda, rentabellik terminologik so‘z bo‘la oladi, ya’ni inglizcha profit (sof daromad, foyda, rentabellik) so‘zi kompozit tarzida tarjima qilinadi. Yana ta’kidlash kerakki, inglizcha profit so‘zlari, garchi (sof daromad, foyda, rentabellik) tarzida tarjima qilinsa-da, lingvomadaniy o‘ziga xoslikni aks ettiradi va turlicha qo‘llanish sohada ishlatilishi mumkin. Aslini olgan ushbu terminologik so‘zda ability – qo‘lidan kelmoq, uddalamoq, qila olmoq kabi so‘zlar tarjimada umuman ahamiyatsiz va ishlatilmagan.

Xulosa o‘rnida muammoning o‘rganilishi natijasida ma’lum bo‘ldiki, bugungi kunda ishbilarmonlikda kasbiy munosabatlarni takomillashtirilishi lozimligi va uning ba’zi jihatlari bilan bir-biriga o‘xshasa ham ular o‘rtasida anchagina tafovut mavjudligi gumanistik xarakterga egadir. Ushbu o‘rinda esa ishbilarmonlikda chet tilida ishlatilayotgan so‘zlar, iboralar, tushunchalar, so‘z birikmalarni qo‘llashda lingvomadaniy xususiyatlarini inobatga olmoq maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rayev B.Z. Sase-study texnologiyasining qo‘llash asosida bo‘lajak mutaxassis kadrlar kasbiy kompetentligini baholashning interfaol usullari “Zamonaviy ta’lim” jurnali – T., – 2015. 1- son, – 29-35 b.

2. Vaxobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish − zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida// Zamonaviy ta’lim. №10. – T., 2016. − 5 b.

3. В.В. Практика англоязычной межкультурной коммуникации /In English about Russia and the whole world. – М.: Союз, 2008. – С. 480.

4. Поляков О.Г. Цели профильно-ориентированного обучения иностранному языку: теоретические аспекты // ИЯШ, 2007. № 5. – С. 2-5.

Abduhakim HASANOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
‘‘Aniq fanlar’’ kafedrasi fizika fani o‘qituvchisi

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA BILIMLARINI UMUMLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda bilimlarni umumlashtirish usullari, shuningdek, fizika fani o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqish, fan-texnika, o‘quv adabiyotlarining mazmuni hamda ishlab chiqarish texnologiya taraqqiyotining bugungi salohiyatini qamrab olishi, masalalar yechish metodikasi va to‘plami, labaratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar, elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Fizika fanini o‘qitish, virtual labaratoriya, electron dasturiy qo‘llanmalar, bilim, bilimlarni umumlashtirish, laboratoriya ishlari.

В данной статье рассказывается о методах обобщения знаний в преподавании физики учащимся академических лицеев, а также о разработке нового поколения литературы по преподаванию физики, о содержании научно-технической, учебной литературы и освещении сегодняшнего потенциала технологического прогресса в производстве, о методике и комплексе решений задач, методических пособиях по выполнению лабораторных работ, о возможностях создания электронных программных продуктов

Ключевые слова. Преподавание физики, виртуальная лаборатория, электронные программные пособия, знания, обобщение знаний, лабораторные работы.

This article tells about the methods of generalization of knowledge in teaching physics to students of academic lyceums, as well as about the development of a new generation of literature on teaching physics, about the content of scientific and technical, educational literature and coverage of the current potential of technological progress in production, about the methodology and complex of problem solutions, methodological manuals for laboratory work, about the possibilities of creating we are talking about electronic software products.

Key words. Teaching physics, virtual laboratory, electronic software manuals, knowledge, generalization of knowledge, laboratory work.

Davlatimizda so‘nggi yillarda fizika fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini rivojlantirish, zamonaviy o‘qitish texnika vositalari hamda usullaridan dars davomida qo‘llashda innovatsion yondashuvga erishishning me’yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqilmoqda. ‘‘Fizika sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar hajmi va samaradorligini oshirish, yosh tadqiqotchilarga zarur ilmiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirish’’ ustuvor vazifa qilib ko‘rsatilgan. Shu sababli fizika fani o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqish, fan-texnika, o‘quv adabiyotlarining mazmuni hamda ishlab chiqarish texnologiya taraqqiyotining bugungi salohiyatini qamrab olishi, masalalar yechish metodikasi va to‘plami, labaratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar, elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish imkoniyati yanada oshdi.

O‘qituvchining uslubiy faoliyatining predmeti o‘quv materialining mazmunini tan-

lash, tizimlashtirish, qisqartirish, usullar va dasturlarni muayyan o‘quv sharoitlari va o‘quvchilarning bilim qobiliyatlariga moslashtirish tizimidir.

Ushbu turdagi faoliyatning natijasi dars uchun tanlangan uslubiy qayta ishlangan o‘quv materialidir. O‘quvchilar fizika fanini o‘zlashtirishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanadilar. Ular orasida masalalarni yechish algoritmlari, dars ishlanmalari, eslatmalar va boshqalar mavjud.

Fizika o‘qituvchisi tomonidan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda amalga oshiriladigan uslubiy faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

– o‘quv-dasturiy hujjatlarni, uslubiy majmualarni tahlil qilish;

– nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun darslar tizimini rejalashtirish;

– o‘quv materialining mazmunini tanlash;

– o‘quv materialini uslubiy tahlil qilish;

– darsda o‘quv ma‘lumotlarini taqdim etish shakllarini loyihalash;

– nazariy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda talabalarning faoliyatini loyihalash;

– bilim va malakalarni nazorat qilish turlari va shakllarini ishlab chiqish;

– o‘qitish usullarini tanlash;

– fan bo‘yicha o‘qitish usullarini ishlab chiqish;

– o‘quv faoliyatini aks ettirish.

Tizimning uslubiy ta’minoti qatorida biz fizika metodologiyasida (mavjud tadqiqotlar asosida) bilimlarni umumlashtirish muammosini hal qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaymiz. Bunday holda, biz didaktikada ‘‘umumlashtirish’’ ‘‘tizimlashtirish’’ (ya’ni umumiyroq) bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy tushuncha bo‘lib, uni yagona jarayonning (va ‘‘umumlashtirish’’) tomonlaridan biri sifatida o‘z ichiga olishini hisobga olamiz.

Fizika fanidan bilimlarni umumlashtirish texnikasi akademik litseylarda fizika fanini o‘qitish jarayoniga adekvat bo‘lgan to‘liq tizimdir.

Fizika fanini o‘rganishda laboratoriya ishlari bajaradigan asosiy vazifasi sifatida talabalar tomonidan umumlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash hisoblanadi. Shu sababli o‘quvchilar tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida egallanadigan ko‘nikmalar mohiyati ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati jarayonida zarur ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Fizika fanidan laboratoriya ishlarini tashkil etishning an’anaviy metodologiyasini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar faoliyatining mantiqiy ketma-ketlikdagi vazifalarini bajarish va labaratoriya o‘tkazish usullarini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar tadqiqot metodi asosidagi nazariy tamoyillar bilan tanishishtirish lozim. O‘quvchilarga labaratoriya ishini bajarishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini tushuntirish o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Buning uchun labaratoriya mashg‘ulotining maqsadi shakllantiriladi. Keyin labaratoriya mashg‘uloti mavzusi ko‘rsatiladi. Keyinchalik labaratoriya mashg‘uloti usuli aniqlanadi.

Fizika fanini o‘zlashtirishning yetakchi usullari quyidagilardir: o‘lchash, modellashtirish, o‘lchangan parametrlarni tahlil qilish, vektor diagrammasi va boshqalar. Usullarni tanlab, o‘quvchilar bajariladigan faoliyat turlarini taqdim etadilar: barcha kerakli o‘lchov asboblari (ularning turlari); o‘lchov komplekslari.


Shundan so‘ng, o‘quvchilar sanab o‘tilgan asboblarning laboratoriya stendidagi o‘rnini tushunishlari uchun labaratoriya mashg‘ulotining sxematik diagrammasi ko‘rsatilishi kerak.

V.A. Kondakov fikriga ko‘ra, agar fizika o‘qituvchisi fizikani o‘qitishning ikkinchi

bosqichida bilimlar tizimining o‘zagi fizik printsiplar, qonunlar va nazariyalarning mantiqiy o‘zaro bog‘langan tizimi bo‘lishi kerak, degan pozitsiyada bo‘lsa, u albatta, umumiy qabul qilinganidan ko‘ra ko‘proq deduktiv yondashuvdan foydalanadi.

Ma‘lumki, klassik mexanikaning asosiy tamoyillari Nyutonning dinamika qonunlarida (shu jumladan, butun dunyo tortishish qonunida) jamlangan holda ifodalangan. Shuning uchun dinamikaning o‘quv materiali mexanika kursida ham hajm, ham taqdim etish ketma-ketligi bo‘yicha yuqori o‘rinni egallashga mo‘ljallangan. Harakatning umumlashtirilgan dinamik qonunlari yordamida tabiatda va ishlab chiqarishda eng ko‘p uchraydigan turli kinematik va statistik vaziyatlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda bilimlarni umumlashtirish usullarini tanlashning quyidagi didaktik shartlari mavjud:



V.A. Kondakov butun mexanika kursi davomida eksperimental binolarni va Nyuton qonunlarining nazariy ma‘nosini bosqichma-bosqich har tomonlama ochib berishga qaratadi. Har bir bosqich o‘quvchilar tomonidan Nyuton qonunlarini bilishning sifat jihatidan yangi darajasiga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. – T.: 2018. – 24 b.

3. Kondakov V.A. “Maktabda fizika” fani tizimida fizikaviy tamoyillar va nazariyalarning o‘rni va o‘rni haqida. //Kuybishev davlat pedagogika institutining ilmiy yozuvlari. V.V. Kuybishev. Fizika metodologiyasi. 1966-yil, 49-son. II qism. – 5-24 b.

4. Landsberg G.S. Fizika bo‘yicha eksperimental darslik. – M.: Nauka, 1973-yil.

Turg‘unoy KAZIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti,
‘‘Maktabgacha ta’lim’’ kafedrasi mudiri, dotsent

KONTSENTRLASHTIRILGAN TA’LIM ORQALI ONA TILI O‘QITISH METODIKASI FANINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kontsentrlashtirilgan ta’lim orqali ‘‘Ona tili o‘qitish metodikasi’’ fanini to‘g‘ri tashkil etishning amaliy ahamiyati mazmuni va zaruriyati yoritib berilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar haqida so‘z boradi.

Kalit sozlar. Ta’lim, xodisa, pedagogik ko‘nikma, mantiqiy fikrlash, anglash, modul, tajriba, matn, borliq.

В данной статье освещается содержание и необходимость практической значимости правильной организации дисциплины методика обучения родному языку через концентрированное обучение. Речь также идет о ряде проблем, препятствующих повышению качества образования в высших учебных заведениях, обеспечению активного участия этих учреждений в проводимых в республике масштабных реформах, обновлениях в социальной и экономической сферах.

Ключевые слова. Образование, событие, педагогическое мастерство, логическое мышление, понимание, модуль, опыт, текст, бытие.

This article highlights the content and necessity of the practical significance of the correct Organization of the subject of the methodology of teaching the native language through concentrated education. It also talks about a number of problems that are becoming an obstacle to improving the quality of education in higher education institutions, comprehensive reforms carried out in the Republic, ensuring active participation of these institutions in updates in the social and economic spheres.

Key words. Education, event, pedagogical skill, logical thinking, understanding, module, experience, text, existence.

Aytish joizki, mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta’lim sohasiga e’tibor yanada kuchaydi. Ilg‘or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, borliq hodisalarini anglab yetish uchun ta’lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo‘lda safarbar etilib kelinmoqda. Ta’lim sohasidagi ijobiy natijalarni saqlab qolish va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun jiddiy choralar ko‘rildi va tegishli tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ammo aytish lozimki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan: birinchidan, oliy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotganligi; ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning kasbga oid kompetentsiyalarini rivojlantirish masalasining muammoligi, fanga oid bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi; uchinchidan, filo-

log talabalarning grammatika va uning o‘qitishga munosabati to‘la shakllanmaganligi, matnni tushunishda germenevtik tushunchaning yo‘qligi, bu borada mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkoni yo‘qligi; to‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalari innovatsion g‘oyalar hamda texnologik vositalar bilan to‘la qurollanmaganligi, shu bilan birgalikda, tashabbuskorlik hissi mavjud emasligi kabilar muammoligicha qolmoqda. Buning uchun Oliy ta’lim muassasalari, xususan, filologiya fakulteti talabalarida ta’lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash, ularning sohaga oid bilim, malaka, ko‘nikmalarini rivojlantirish, beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Buning uchun oliy ta’lim muasasalarida o‘qitishni modul tizimini qo‘llash kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi. Modulli o‘qitish nazariyasida asosiy tushuncha modul hisoblanadi. Modul o‘zi nima va u birinchi marta qachon va kim tomonidan ta’lim tizimiga tatbiq etilgan? Modul tushunchasi birinchi marotaba XX asrning 70-yillarida amerikalik olim D. Rassel tomonidan taklif etilgan. Amerikalik olim D. Rasselning fikricha, modul – bu o‘quv materiallarining alohida qismi hisoblanadi. Demak, modul o‘z tarkibida bir necha o‘quv modullardan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu modullarning har biri tugallangan jarayonni ifodalaydi. O‘quv modullarning kengaytirilishi va ularga qo‘shimchalar kiritilishi modul mazmunini yanada mukammallashtiradi. Ta’lim tizimida modulli o‘qitishning joriy etilishi malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga yordam beradi. Har qanday tizimga joriy etilgan yangilikning samarasi uning ishtirokchilari tomonidan puxta o‘zlashtirib olingan taqdirdagina o‘zining natijasini berishi mumkin. Buning uchun ilg‘or tajribalarni o‘rganish, seminar-treninglar asosida muhokama etib, tashkiliy chora-tadbirlarning ko‘rilishi modulli o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Kutilgan natijaga erishish uchun esa ta’limni modernizatsiya qilish, xususan, ona tili o‘qitishni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish muhimdir. Bunda ta’lim sohasida innovatsion islohotlarni amalga oshirish uchun obyektiv hamda subyektiv ehtiyojlarini hisobga olish, ehtiyoj tufayli bilim olishga undash g‘oyatda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun xalqaro ta’lim standartlari darajasida dunyoning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilish, oliy ma’lumotli haqiqiy filolog mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish davr talabidir.

Globallashuv sharoitida tildan maqsadli foydalanish g‘oyasini ilgari surish asosiy masalalardan biridir. Ma’lumki, dunyo siyosatida turli yo‘llar bilan til vositalaridan foydalanish tobora avj olib bormoqda. Ammo “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli inson ongi, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyat sifatida qadrlanmoqda”.

Bugun mafkuraviy poligonlarda til kuchli targ‘ibot vositasi, o‘tkir g‘oyaviy qurolga aylandi va u orqali butun dunyoda inson ongini egallash uchun murosasiz kurash ketmoqda. Hayot shuni ko‘rsatmoqdaki, iroda sust, tafakkuri sayoz, ma’lum bir millatga mansubligidan va uning tilidan foydalanayotganidan faxrlanish tuyg‘ulari so‘nib borayotgan, qalbi so‘qir insonlar bu kurashning bevaqt qurboniga aylanib qolmoqda. Mazkur g‘oyaviy kurashga dosh berish va zafar qozonishning eng to‘g‘ri yo‘li xalq e’tiqodini mustahkamlash, undagi milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini yuksaltirishdan iboratdir. Bunday sharafli va aslo kechiktirib bo‘lmaydigan ishda asosiy tayanch, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch bu – Ona tilidir. Chunki, til millat ruhining betakror va hech bir

zamon xira tortmas ko‘zgusi sifatida hamma davrlarda shu millatning ruhiyatini aks ettiradi.

Tilimizning himoyachilaridan biri Abdurauf Fitrat til taraqqiyoti haqida so‘zlar ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: ‘‘Kasrati kalimot (so‘z ko‘pligi)”, “Vus’ati Fitratning o‘zi “bil” so‘zining 98 ta ko‘rinishini keltirgan. Eng keraklisi, til borasidagi qonunlar va qoidalarga maqsadga muvofiq rioya qilishdir. Fitrat buni “Yusup tugallik” deb ataydi. Yusup (Yusuf) esa go‘zallik, barkamollik, komillik timsoli. Uning ziddi “yusupsizlik”. Ona tili va uni o‘qitishga muhabbat hosil qilish uchun ushbu usullarni muhokama, munozara qildirish maqsadga muvofiq. Muammolarni ijobiy hal etish uchun “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanini, albatta, didaktika, psixologiya, falsafa bilan aloqasini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Bilamizki, tilshunoslik muayyan bo‘limning til belgisi (so‘z) va matn (fikr, gap)ning u yoki bu tomonini ochib beradi. ‘‘Ona tili o‘qitish metodikasi” fani ana shu tilshunoslikka oid manbalarni, tamoyillarni o‘rgatadi va unga asoslanadi. “Umumiy tilshunoslik fani doirasida tilning tabiati va mohiyati, til va tafakkur, til va nutq, tilning tarkibiy tuzilishi, til tizimini anglash, tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, yozuvning paydo bo‘lishi, tillarning morfologik (tipologik) va genealogik tasnifi, tillarni ilmiy o‘rganish metodi, tilda shakl va mazmun kabi muammolar urganiladi. Bulardan til va nutq, tilni tekshirish metodi, tilda shakl va mazmun muammolari bilan bog‘liq. Umumiy tilshunoslikning tarkibiy qismi hisoblangan tilshunoslikka kirishda til haqida boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi, tilshunoslikda qo‘llanadigan asosiy ilmiy termin va tushunchalar bilan tanishtiriladi, Umumiy tilshunoslik tilshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar (adabiyotshunoslik, falsafa, tarix, arxeologiya, etn., psixologiya) hamda tabiiy fanlar, xususan, biologiya va matematika bilan aloqasini ham o‘rganadi” .

Bugungi kunga qadar til metodikasi fani keng miqyosda o‘rganilib, o‘zining tadqiq etish obyektiga, o‘rganadigan til birliklariga, tarkibiy qismlariga, mustaqil maqomiga ega bo‘ldi. Bilishning nazariy bosqichidan amaliy bosqichiga o‘tish bilan yanada kengroq qamrovga ega bo‘la boshladi. Yillar davomida barcha fanlardagi kabi tilni o‘qitish metodikasi ham muayyan bosqichlarni bosib o‘tdi, keyingi davr avvalgi davr zaminida hosil bo‘ldi, rivojlandi. Ma’umki, til faqat insongagina ato etilgan ulug‘ ne’mat bo‘lib, uni faqat tafakkur birla tasavvur qilish mumkin.

Tilda inson faktorining yetakchi ekanligining boisi, umuman, borliqda inson faktorining yagona, birlamchi va ustuvor ekanligi asosida hosil bo‘lgan aksiomatik qarashning hosilasidir. Inson hissiyotining namoyon bo‘lishi psixologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yo‘nalishlarning o‘rganish obyekti sanaladi. Tadqiqotning metodologik asosi uning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda til birliklarini tahlil qilish barobarida undan qanday foydalanish, kommunikatsiya jarayonida tushunish metodlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ma’lumki, har bir fanni o‘rganishda ta’lim berishning umumiy va xususiy tomonlariga e’tibor qaratmoq muhim. Barcha o‘quv fanlari uchun zaruriy bo‘lgan umumiy didaktika o‘qituvchi va talaba faoliyatini mezonlashtiradi, ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” umumiy didaktika bo‘yicha ta’lim maqsadi qonuniyatlari, prinsiplari, mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllarining ona tilini o‘qitish jarayonida qanday voqelanishi jarayonini aniqlaydi. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani psixologiya hamda fiziologiya fanlari bilan aloqadordir. O‘qitishda talabaning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish muhimdir. Farobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida xis etamiz. Xususan: rang ko‘rish sezgi organi orqali; ovoz eshitish organi orqali; maza-ta’m, maza-sezgi organi orqali. Predmetlarning holati: sovuq-issiqligi, qattiq-yumshoqligi tana

sezgisi orqali, hid hidlash organi orqali his etiladi. Bu sezgi organlari insondan tashqari hayvonlarda ham mavjuddir. Demak, yuqoridagi sezgi organlari barcha jonzodlarga xos. Ular orqali har qanday jonzod o‘zini qurshab turgan olamni amaliy biladi, unga moslashadi. Insonning sezgi organlari yordamida hosil qilgan bilimi hissiy yoki amaliy bilim sanaladi. Bulardan tashqari, inson xayol surish, nutq yordamida ham bilimga ega bo‘lishi mumkin. Bilishning bu yo‘li ‘‘quvvai notiqa’’ va ‘‘quvvai mutaxayila’’ deyiladi. Notiq quvvati boshqa barcha quvvatlarning (sezgilarning) yetakchisi, raisasidir. Hissiy bilim bilishning asosi hisoblanib, har bir narsani alohida ko‘rish, ushlash, eshitish, mazasini tatish, hidlash orqali hosil qilinadi.

Shaxsning qarashlari ma’lum subyektga taalluqli esa-da, u boshqa shaxs qarashlari bilan umumlashib ijtimoiylik kasb etadi va muloqot jarayonida munosabatlar aniqlanadi. Shaxs tushunchasida ijtimoiylik va individuallik, umumiylik va xususiylik, tabiiylik va sun’iylik, obyektivlik va subyektivlik dialektik bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, uni tushunish uchun , muloqot qilish uchun ana shu jihatlarni e’tiborga olish muhimdir.

Tilshunoslikda shaxs tushunchasi haqida gapirganda, aytish kerakki, inson tilning yaratuvchisi va ijrochisi sanaladi. U o‘z fikrini xohlagan usulda va shaklda tinglovchiga yetkazishi mumkin bo‘lib, u bu axborotning adresat tomonidan qabul qilinishi (interpretatsiyasi)ga ham mas’ul sanaladi. Bu esa kommunikantlarning muloqotga tayyorlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Kommunikativ akt tarkibiga kiruvchi barcha vosita va holatlar (nutqiy va nonutqiy vositalar, situatsiya, kommunikantlarning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari va o‘zaro munosabatlari va b.) pragmalingvistik jihatdan tahlil etiladi va ma’no ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: O‘qituvchi, 1995.

2. O‘quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5-7-sinf ona tili darslari misolida). Ped. fan. nomz. ...diss. – T., 2004.

3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – T., 1972. – 42 b.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017, – 456 b.

5. Qo‘ng‘urov R., Karimov S., Qurbonov T. Nutq madaniyati asoslari. I qism. 1985, – 39 b.

U.Q. SHOYMUROTOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
kechki ta’lim bo‘limi o‘quv ishlar bo‘yicha dekan muovini

TASVIRIY SAN’AT VA ADABIYOTNING ALOQADORLIK TA’LIMI QONUNIYATLARINING AMALIYOTIDAGI HOLATI

Annotatsiya

Ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, jamiyatda o‘qituvchi nufuzini ko‘tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. San’at voqelikning o‘zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. San’atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o‘laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi. Tasviriy san’at jahon xalqlarining o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko‘zgu bo‘lib qoladi. Biz undan o‘tmishni, bugunni va kelajakni ko‘ramiz.

Kalit so‘zlar. San’at, ta’lim, kelajak, qadriyat, ma’naviyat, estetika, tasvir, tarix, zamonaviylik, asar.

Особое внимание уделяется эффективной организации деятельности образовательных учреждений, повышению авторитета учителя в обществе, созданию условий для его качественного практического функционирования, материального и духовного стимулирования. Искусство делится на разные виды в зависимости от способа и характера выражения, содержания в самой реальности. Наиболее положительной и важной особенностью искусства является то, что, в отличие от науки, оно выражает события и феномены не в понятиях, а в формах, воспринимаемых интуицией и чувством, типично-художественных образах. Изобразительное искусство остается настоящим зеркалом, отражающим прошлую, настоящую и будущую жизнь народов мира, а также изображающим природу и общество. Мы видим через него прошлое, сегодняшний день и будущее.

Ключевые слова. Искусство, образование, будущее, ценность, духовность, эстетика, изображение, история, современность, произведение.

Special attention is paid to the effective organization of the activities of educational institutions, raising the nifuz of the teacher in society, creating conditions for its qualitative practical functioning, material and spiritual stimulation. Art is divided into different types according to the way and character of expression, content in reality itself. The most positive and important feature of art is that, unlike science, it expresses events and phenomena not in concepts, but in forms perceived by intuition and feeling, typical-artistic images. The visual arts remain a real mirror that represents the past, present and future life of World peoples, as well as depicting nature and society. We see from him the past, today and the future.

Key words. Art, education, future, value, spirituality, aesthetics, image, history, modernity, work.

Respublikamiz maorif tizimida qilinayotgan yangi islohotlar ta’lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo‘lmish “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”[1] va u bilan bog‘liq me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish,

[1] O‘zbekiston Respublikasi “Ta'lim to‘g‘risidagi qonun”. // O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.

jamiyatda o‘qituvchi nifuzini ko‘tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko‘rsatishi uchun sharoit yaratish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu harakatlarning barchasi kundalik ta’lim amaliyotini avvalo mazmun, shuningdek, shakliy jihatdan mukammallashtirib, oxir oqibat o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasi, bilim va saviyasida aks etmog‘i kerak. Mazkur vazifani ado etish uchun esa har bir fan, predmetning o‘qitilishidagi joriy holatni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni aniqlab olish muhim. Ana shu nuqtayi nazardan maktablarimizda mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ayni paytdagi holatini o‘rganish, tahlil qilish, muammoni hal etishning omili sanaladi desak, xato bo‘lmaydi.

Jahonda ijtimoiy taraqqiyot paradigmasining mafkuradan madaniyatga o‘zgarishi, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar tizimini qayta baholash, shaxsning o‘zini o‘zi qadrlashi bugungi kunda ma’naviyatga, ma’naviy madaniyatga, shaxs tafakkurining aynan mantiqiy va badiiy shakllarining rivojlanishiga olib keldi[2].

Natijada, ko‘pincha ma’lum bir qolipga solingan bilimlar, tor ixtisoslik ko‘nikmalari va qobiliyatlari bugungi kunning global muammolari oldida yetarli emas, ba’zan esa kuchsiz bo‘lib chiqdi. Ta’lim va amaliyot nazariyasida ‘‘qolgan hamma narsa (ijodkorlik, hissiy-qadriyat munosabatlari), axloqiy va boshqa ehtiyojlar hamda qiziqishlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi, rivojlanadi’’ deb hisoblangan. Biroq, ta’limning ijodiy faoliyatga va badiiy tafakkur usullariga o‘rgatish kabi tarkibiy qismlariga e’tibor bermaslik ‘‘Haddan tashqari intellektuallikka va natijada vositalarning maqsaddan, shaxsiy maqsadning ustuvorligi bilan tavsiflangan texnokratik tafakkurning hukmronligiga olib keladi, ma’no va inson manfaatlari, texnologiya insoniy qadriyatlardan ustundir’’[5].

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonida tafakkur, xususan, badiiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammolari ikkinchi darajali emas, balki asosiy o‘rinlardan birini egallashi kerakligiga alohida e’ribor qaratilmoqda[3].

Ijtimoiy ong shakllaridan biri – san’at-tabiat va jamiyatda bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. San’at o‘zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo‘ladi va ularni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo‘lib xizmat qiladi. San’at voqelikning o‘zida ifodalash uslubi va xarakteri mazmuniga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi. San’atning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o‘laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi[4].

Tasviriy san’at jahon xalqlarining o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvir etuvchi haqiqiy ko‘zgu bo‘lib qoladi. Biz undan o‘tmishni, bugunni va kelajakni ko‘ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san’ati ustalari o‘tmish tarixini ham, matriya va taraqqiyotni ham, matematika va tabiyotni ham, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishi lozim. Mustaqil O‘zbekiston xalqining estetik falsafasi, go‘zallikni san’atning ajralmas qismi va kategoriyasi, shakl va mazmuni, uning zaruriy sharti deb ko‘rsatadi. San’at juda qadimgi tarixga ega bo‘lib, u jamiyatning mehnat faoliyatini rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatining taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarishni jamiyatning iqdisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari qurollarini takomillashuvidan, jamiyat ongining evolyutsion

[2] Bekmirov Ch.J. Manzara janrini tasviriy san'atdagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021

[3] Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni ukitish metodikasi. // T., – 2004y.

[4] Normatov U., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. // «O‘zbekiston» nashriyot, 2007. — 328 - 8 b.

taraqqiyoti jarayonida vujudga keldi va rivojlandi. Sinfiy jamiyatning vujudga kelishi bilan san'at ham sinfiy xarakterga o'tdi. Har bir jamiyatda turli sinflar mavjud bo'lganidek, o'sha jamiyatning san'atida ham turli sinflar manfaati, siyosati, dunyo qarashi va axloqini himoya qildi yoki uni rad etdi. San'atni sinfiy xarakteri – uning qaysi sinf vakilini qanday mazmunda ifodalashga va qaysi sinfning iqtisodiy va siyosiy manfaatini, hayotini himoya qilishiga qarab belgilanadi. I. Repinning «Volga Burlaklari» asarini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkashlar ommasining hayoti, ularning og'ir turmushi va mehnati ifodalanadi va ular manfaati himoya qilinadi. Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri – inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli faktor bo'lib, xizmat qiladi[3].

Yozuvchi va shoirlar kabi rassomlar ham o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi xarakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas, ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarni kishilarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhimi, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir. Adabiyotda ham xuddi shunday metod, ijodiy yondashishi, voqelikni badiiylashtirish usullari borligi tasviriy san'at va adabiyotning aloqadorlik qonuniyatini mushtarakligini aniqlatadi, shuning uchun ham talabalarda badiiy tafakkurini rivojlantirishda bu qonuniyatdan didaktik vosita sifatida foydalanishi tavsiya etiladi[4].

Bu jarayon tashkiliy-metodik jihatdan qanday sodir bo'ladi? Buning eng samarali yo'li qiyosiy taqqoslash metodidan foydalanishdir, ya'ni talabaga muayyan adabiy asardagi syujet, voqelik asosida tasviriy obraz yaratishi mashqlarini bajartirish uchun adabiyotdagi badiiy tafakkur elementlarini tasviriy san'atdagi aniq bir obrazga aylantirish mumkin bo'ladi. Obraz esa faqat portret tariqasida tushunilmasligi kerak. U natyurmort yoki manzara ham bo'lishi mumkin. Tasviriy san'atda tabiat ko'rinishlarini tasvirlashi alohida joziba kasb etadi. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda bo'lishligi ham mumkin[5].

Xaqiqat qonuni asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi – bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A. Savrasovning "Zag'cha", I. Levitaning «Oltin kuz», A. Kuindjining «Qayinzorda», A. Rilovning "Moviy kenglikda" manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga tabiatning o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holati vaqtini tasvirlash bilan bog'liq[2].

Yu. Pimenev "Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda to'y» asarlarida ko'z oldimizda o'zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini ko'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan yoshlarning holatidir. Tipizatsiya qonunining uchinchi belgisi bu – yangilikdir. O'zbekiston tasviriy san'atida aynan yuzimizga xos tabiat manzaralarini O'rol Tansiqboyev, Ne'mat Qo'ziboyev, Nikoloy

[5] Shoymurotov U.Q. Talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida. // "O'ZBeKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR:' 2022/1

Karaxan, Muxammadiyor Toshmuhamedov, Dilorom Mamedova kabi rassomlarning manzaralarida ko‘rish mumkin. Xuddi shunday manzaralar Hamid Olimjon, Oybek, Muxammad Yusuf, Azim Suyun sheriyatida ham tasvirlangan[2].

Realistik san’at haqiqatni to‘g‘ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg‘ularini, estetik go‘zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Manzara san’ati tashqi dunyoning go‘zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta’sir etuvchi kuchga ega. Bu kuchning ta’siri tasavvurni, tasavvur esa taassurotni yuzaga keltiradi. Badiiy tafakkur esa taassurotni anglash, idrok etish, baholash, umumlashtirish hamda shaxsiy nuqtai nazarni yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo‘lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql-zakovati, ichki tuyg‘ularini tasvir orqali qo‘shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitanning ‘‘Vladimiroka’’, ‘‘Abadiy sokinlik uzra’’, I. Shishkinning ‘‘O‘rmon kengliklari’’, V. Meshkovning ‘‘Ural haqida o‘ylar’’, o‘zbekistonlik rassomlaridan O‘. Tansiqboyevning “Mening ko‘shig‘im”, “Jonajon o‘lka”, “O‘zbekistonda mart”, G‘afur Abdurahmonovning “Sijjakka yo‘l”, Ortig‘ali Qozoqovning “Sirdaryo”, Muxammadiyor Toshmurodovning “G‘ilon”, kabi asarlarini keltirish mumkin[2].

Odatda, ifodaviylik va tasviriylik san’at turlarini farqlovchi xususiyatlar sifatida tilga olinadi. Ya’ni tasviriy san’at turlarida (rang-tasvir, grafika, haykaltaroshlik) badiiy obraz yaratishda tasvir yetakchilik qilsa, ifodaviy san’at turlarida voqelikni tasvirlashdan ko‘ra, insonning ana shu voelikdan olgan taassurotlari ifodasi birinchi planga chiqadi. Bu jihatdan badiiy adabiyot tasvirlash va ifodalash imkoniyatiga birdek ega ekani bilan boshqa san’at turlaridan ajralib turishi bois, adabiyot va tasviriy san’atning aloqadorlik qonuniyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”. // O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.

2. https://lex.uz/docs/5013007

3. Bekmirov Ch.J. Manzara janrini tasviriy san’atdagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati. // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021

4. Oripov B.N. Tasviriy san’at va uni ukitish metodikasi. // – T., – 2004 y.

5. Normatov U., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. // «O‘zbekiston» nashriyot, 2007. – 328-8 b.

6. Shoymurotov U.Q. Talabalarda badiiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida. // ‘‘O‘ZBeKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR:’’ 2022/1

G.P. BEKIMBETOVA
Ajiniyoz nomidagi NDPI dotsenti v.b p.f.f.d (PhD)

“QORAQALPOQ TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI” MODULINING ILMIY KONTSEPTUAL ASOSLARI VA UNI MODERNIZATSIYALASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi, shuningdek, ushbu muommoga doir o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari farazi aks etgan.
Kalit so‘zlar. Lingvistik kompetensiya, metodik ishlar, yozish ko‘nikmalari, nutqiy faoliyat.

В статье отражены гипотезы научно-исследовательских работ по методике чтения на каракалпакском языке, методика чтения, связанная с узбекском языком.
Ключевые слова. лингвистическая компетенция, методическая работа, навыки письма, речевая деятельность.

The article reflects the hypotheses of research works on the method of reading in the Karakalpak language, the method of reading associated with the Uzbek language.
Key words. Linguistic competence, methodical work, writing skills, speech activity.

Qoraqalpoq oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasi ta’lim berish jarayonining sifati va samaradorligini belgilaydigan zarur omillardan hisoblanadi. O‘zining zamonaviy talablariga mos bo‘lgan yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish – oliy ta’im tizimining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Pedagogika fani taraqqiyotining tahlili, fan va amaliyotning zamonaviy talablariga javob beradigan metodologik, didaktik va metodik ishlanmalar bilan ta’minlangan jarayon bo‘lish bilan birga, samarodor bo‘lishini ham ko‘rsatadi. Talabalarning lingvistik kompetentsiyalarini takomillashtirish, o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqish – murakkab va mas’uliyatli ish.

Tadqiqot ishi doirasida filolog-talabalarning lingvistik kompetentsiyalarini takomillashtirishda oliy o‘quv yurtlarida fanlarning maxsus metodikalarining dasturiy ta’minoti muammosi o‘rganib chiqildi.

Ishlab chiqilgan o‘quv dasturlaridan foydalanish bilan O‘zbekstandagi oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim jarayonining xususiyatlarini o‘rganib chiqamiz. Bunda o‘quv dasturi, oliy ta’lim standartlari, oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan. Materialning aniq mazmunini, uning hajmini, o‘rganish gipotezasi, mavzular va bo‘limlar bo‘yicha soatlarning aniq miqdorini aks ettiradi.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarning bilimlarni faol o‘zlashtirishlari prinsipi asos qilib olindi. Ushbu ta’moyil qator izlanishlar ko‘rsatganiday, P.Ya. Galperinning aqliy xulqlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasini qo‘llash orqali amalga oshirilgan.

Biz talabalarning lingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalari va u yerdagi o‘quv soatlari bilan tanishib chiqdik. O‘rganish jarayonida Qoraqalpoq davlat universitetida 60230100 – Filologiya va tillardi o‘qitish (qoraqalpoq tili), Nukus davlat pedagogika instituti 5111300 – Ona tili va adabiyoti (Qoraqalpoq tili va adabiyoti) va Navoiy davlat pedagogika instituti 6011500 – Qoraqalpoq

tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalarining lingvistik kompetentsiyalarini takomillashtirishda olib boriladigan o‘quv rejalari bilan tanishib chiqdik.

Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpoq davlat universiteti filolog-talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlar kompleksidagi tizim hosil qiluvchi element bo‘lib, «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani, o‘quv-metodik kompleksining va modulli o‘qitish pedagogik texnologiyasini kiritish xizmat qildi.

Loyihalangan pedagogik protsesda “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” nomli yozuvga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha o‘quv dasturi markaziy metodik hujjat hisoblanadi.

Ta’kidlagan o‘quv dasturini ishlab chiqishda biz quyidagilarga asoslandik:

– ushbu o‘quv-metodik jamlanmaga obyektiv zarurat mavjudligi;

– o‘quv dasturi uning mazmunini amalga oshirish va qo‘yilgan maqsadga erishishda aniq pedagogik texnologiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

“Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv-metodik kompleksi bo‘lajak o‘qituvchining metodik, kasbiy, intellektual ishga layoqatliligini amalga oshirishga muhayyo ekanligini, tushinishga mos turda ishlab chiqildi.

Talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarodor yondashuvlar sohasidagi o‘tkazilgan izlanishlar natijasida o‘qituvchining moyillashuvini hisobga olib tayyorlandi:

– ilmiy bilimlar taraqqiyotining kumulyativ xossasi: psixologiya, fiziologiya va metodikaning yangi ma’lumotlar avvalgilari bilan to‘ldirib birlashtirildi.

“Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” o‘quv dasturini tuzishda biz quyidagi printsiplarga suyandik.

“Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” o‘quv dasturini tuzishda foydalanilgan tamoyillar

№	Tamoyillar	Tamoyillarning mazmun-mohiyati
1.	Ilmiy kontseptual asoslangan	Maxsus ilmiy qoidalarga yo‘naltirish
2.	Qadriyatli va maqsadli yo‘naltirish	Belgilangan natijalarga erishishga yo‘naltirish
3.	Prognozlik va faollik	O‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlash, shu bilan birga, ertangi kun zaruratini avvaldan ko‘ra olish
4.	Shaxsiy yo‘naltirilgan yondoshuv	Talabani shakllanish bosqichida bo‘lgan to‘la rivojlanuvchi shaxs sifatida yo‘naltirish
5.	Holatli va optimallashgan yondashuvlar	Yagona turmush holatlari uchun muhayyo nazariya va amaliyotlarni bekor etish, ma’lum holat uchun eng yaxshi kontsepsiyalar va izlanishlarga tayyorgarlik

O‘tkazilgan pedagogik texnologiyalarning tahlili, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalarining “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” o‘quv dasturi asosidagi ishlari farqli pedagogik texnologiya hisoblanishi haqidagi yakunga kelish imkonini berdi. Shu sababli “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” o‘quv dasturi mazmunini aniqlash uchun asos bo‘lib, filolog-o‘qituvchining lingvistik kompetentligi professiogrammasi va tuzilmasi xizmat qiladi. Bunda quyidagi asoslarga suyandik:

a) tizimlilik – mantiqiy tartiblilik, avvalgi ma’lumotlarga tayanish, axborot bloklari o‘rtasidagi aloqalarni ochib berish;

b) uzluksizlik – tinimsiz va mustaqil izlanuvchilik;

g) umumiylik – aniq fanlarni umumlashgan bilimning bo‘lagi sifatida qabul qilish qobiliyati, har xil fanga tegishli bilimlarni yagona majmualarda birlashtirish;

d) tezkorlik – turli holatlarda bilimlarni qo‘llashga tayyorgarlik;

e) moslashuvchanlik – o‘z bilimlarini o‘zgargan holatda qo‘llash usullarini mustaqil topish qobiliyati.

Ishlab chiqilgan “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani maxsus fan sifatida bo‘lishi sababli uni o‘quv dasturining tipologiyasini fanga tegishli turdagi dastur sifatida o‘rganib chiqildi:

– jadval shaklidagi tuzilmaga ega dastur sifatida qayd etdik, sababi o‘quv materiali takrorlashlarsiz va ilgari o‘tilganlarga qaytishlarsiz joylashtirilgan;

– o‘quv vaqtida bir marotaba ishlab chiqiladigan bir-biri bilan bevosita bog‘langan uzluksiz ketma-ketlikni hosil qiladi.

Dastur amaldagidan farqi takomillashtirish asosida ishlab chiqilgani sababli, “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fani bo‘lim va modullarga ajratilgan.

Modullarning har biri bo‘yicha talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda nimani bilishi va muammoni yecha olishi, qanday tajribalarni egallashi kerakligi ochib berilgan.

Fanni o‘qitish jarayonida keltiritgan mavzular nazariylik qoidalardan uning aniq-metodik amalga oshirishga o‘tishni ketma-ket ochib beradi. Ushbu mavzu to‘satdan emas, u talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning sifatini yaxshilash talabi bilan belgilangan.

Qoraqalpoq davlat universiteti filolog-talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» faniniing modul tuzilishi

“Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” fanining predmeti va vazifalari, Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi, o‘quv-metodik majmualar bilan tanishtiradi. Bunda fanning va o‘quv-normativ hujjatlarning ahamiyati ochib beriladi. Talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda yangi texnologiyalar tahlil etilgan. Bo‘lajak filolog-o‘qituvchi lingvistik kompetensiyasini o‘rgatish jarayonini qanday ratsionallashtirish mumkinligi ochib berilgan: o‘qituvchining lingvistik kompetensiyasini o‘rganishga tegishli qiziqishni rivojlantirish bo‘yicha maqsadga yarasha ishlari, motivlar, ehtiyojlar va ta’lim olish usullarining rivojlanishiga yordamlashuvchi o‘qitishning yangi texnologiyalarini kiritish hisobga olingan.

Ishlab chiqilgan o‘quv dasturi talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish vazifasini o‘rganadi, uning zaruratini zamonaviy maktabda yuz berayotgan o‘zgarishlardan modernizatsiya qilishdan kelib chiqmoqda.

Bilishga tegishli mustaqil bilimlarini rivojlantirishning asosiy yo‘li o‘quv faoliyatini durust tashkil etish ham kiradi. Shunday ekan, o‘qitishda asosiy o‘quv usullarini ajratish zarur demakdir. “Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi” o‘quv dasturi bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlaridagi aqliy ishga layoqatlilik usullari quyidagilardan iborat:

– materialdagi asosiy tayanch punktlarni ajratish, matnni bo‘limlarga ajratish;

– reja, tezislar, konspektlar tuzish;

– materialning mantiqiy sxemasini tuzish, oqibatli aloqalarini ajratish;

– bor sxema, diagramma, jadvallarni tushinish;

– matn bo‘yicha kerakli teoremalarni yod olish.

Modul	№	Amaldagi mavzular	Taklif etilgan mavzular
1-modul Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi	1.	Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi	Qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi fan sifatida. Qoraqalpoq tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar va usullar
		Qoraqalpoq tilini o‘qitishning prinsiplari	O‘quvchilarning yozma savodxonligini rivojlantiruvchi metodikalar
	2.	Qoraqalpoq tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar va usullar	Diktant, insho, bayon yozish usullari
	3.	Qoraqalpoq tili darsida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish usullari	Qoraqalpoq tilida fonetikani o‘qitish usullari
	4.	Qoraqalpoq tilini o‘qitishni tashkil etish va o‘tkazish usullari	Qoraqalpoq tilida leksikologiyani o‘qitish usullari
		Qoraqalpoq tili darslarini qurollantirish	Qoraqalpoq tilida so‘z yasalish usullarini o‘qitish
	5.	Fonetika va leksikologiyani o‘qitish metodikasi	Qoraqalpoq tilida so‘z turkumlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol mashg‘ulotlar
		Morfologiya va sintaksisni o‘qitish metodikasi	Gap a’zolari, oddiy gaplarni o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar
		Yozma ishlarning turlari, o‘tkazish va baholash usullari	Qo‘shma gaplarni o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar
	6.	O‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish yo‘llari	Matnni o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar
	7.	Qoraqalpoq tili bo‘yicha darsdan tashqari ishlar va amaliyotni o‘tkazish	Stilistikani o‘qitishda qollanladigan interfaol mashg‘ulotlar
2-modul Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi	8.	«Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi» fanining maqsadi va vazifalari	Tinish belgilarini o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar
	9.	Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi	Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar
	10.	Adabiyotni o‘qitish metodikasining tarixiy rivojlanishi	Adabiyot darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma so‘z madaniyatini rivojlantirish yo‘llari
		Dasturdagi materiallarni o‘rganish tartibi	Folklor janrini o‘qitish metodikasi
	11.	Kirish ishlarni o‘rganish usullari	Mumtoz shoirlar ijodkorligini o‘rganish metodikasi
	12.	Ifodali o‘qish va uni tashkil etish yo‘nalishlari	Qoraqalpoq yozuvchilari va shoirlari badiiy asarlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan usullar
		Dars turlari va uni tashkil etish usullar	Xorij adabiyotini o‘qitishda interfaol mashg‘ulotlardan foydalanish
		Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar	Mustaqillik davridagi yozuvchi-shoirlar badiiy asarlari va ularni o‘rgatish metodikasi
	13.	Adabiyot darslarida o‘quvchilarning og’zaki va yozma so‘z madaniyatini rivojlantirish yo‘llari	Hozirgi davr yozuvchi-shoirlar badiiy asarlarini o‘rgatish metodikasi
	14.	Yozuvchining tarjimai holini o‘rganish	O‘quvchilarda badiiy asarlarni o‘qish va tanqid qobiliyatini rivojlantiruvchi metodikalar
		Darsdan tashqari ishlar va amaliyot turlari	O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etish metodikasi

Modulli o‘qitishda ma’ruza (mashq) zarur o‘qitish shakli hisoblanib, talaba yangi holatlarning yechimini mustaqil topadi. Bundan tashqari talabalar o‘zlarini qiziqtirgan muammolar bo‘yicha referatlar va ma’ruzalar tayyorlaydi, yangi materialni tahlil etishdi o‘rganadi. Bularni barchasi, talabalarning mustaqil bilim olishiga va lingvistik kompetensiyasining rivojlanishiga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida filolog-o‘qituvchi lingvistik kompetensiyasini maxsus rivojlantirish shart-sharoitlarini ta’minlashning asosi bo‘lib, ilmiy asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, shu jumladan, rejalashtirilgan ta’lim maqsadiga erishishni vakolatlaydigan samarodor pedagogik texnologiyani tanlashga xizmat qiladi. Bu protsesda amalga oshirilayotgan har bir ishga layoqatlilik o‘quv elementi sifatida qaraladi. U nazariy va amaliy bilim berish uchun zarur bo‘lgan ishga layoqatlilikni ta’minlaydigan materiallar, o‘qituvchi va talabalarning maqsadlari, o‘quv materiali hajmi va o‘quv sharoitini nazorat qilish shakl vositalaridan iborat bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, filolog-o‘qituvchi lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish texnologiyalar bugungi kunda farqli ahamiyatga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish va samaradorligini ta’minlash orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin, shahar bersa, kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda bosqichma-bosqich ta’minlab beruvchi kontent hisoblanadi. Talaba modullar bilan ishlash jarayonida o‘quv-bilish faoliyati oldiga qo‘yilgan maqsadga mustaqil to‘la erishadi. O‘qitiladigan fanlarning o‘quv mashg‘uloti va ularning loyihalarini ishlab chiqish izlanishimiz asli hisoblanadi. Bu esa talabalarni o‘quv materialini samarodor o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – М.: МГУ, 1998. – С. 142

2. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi / T. Ziyodova; red. T. Niyazmetova. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 13 b.

3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1972, 144- bet.

4. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Allavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun) Darslik. – T.: Fan va texnologiya 2012. – 380 b.

5. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili: Darslik (Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun) – Toshkent moliya instituti, 2019. – 528 b.

Muhayyo IMINOVA ,
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda loyiha metodidan foydalanishning asosiy tamoyillari o‘z aksini topgan. Unda ta’lim jarayonida loyiha metodini qo‘llashning mazmun-mohiyati va shu asosda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, tahsil oluvchilarda mustaqil, tanqidiy, refleksiv fikrlash, tanqidiy tahlil, mustaqil ijod qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi haqida fikr bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Loyiha metodi, tamoyillar, hamkorlik, takomillashtirish, tahsil oluvchilar, tanqidiy tahlil, mustaqil fikrlash, refleksiv tafakkur, mustaqil ijod, rivojlantirish.

В статье отражены основные принципы использования метода проектов в начальных классах. В ней излагается суть применения проектного метода в образовательном процессе и на этой основе дается представление о совершенствовании педагогических условий, направленных на развитие у обучающихся навыков самостоятельного, критического, рефлексивного мышления, критического анализа, самостоятельного творчества.

Ключевые слова. Метод проекта, принципы, сотрудничество, совершенствование, учащиеся, критический анализ, самостоятельное мышление, рефлексивное мышление, самостоятельное творчество, развитие.

The article reflects the basic principles of using the project method in the elementary grades. It describes the meaning and essence of the application of the project method in the educational process and the idea that on this basis it is aimed at improving pedagogical conditions, developing skills for independent, critical, reflexive thinking, critical analysis, independent creativity in learners.

Key words. Project method, principles, cooperation, improvement, learners, critical analysis, independent thinking, reflexive thinking, independent creativity, development.

Jahon tamaddumi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlaridan ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirish masalalari dunyo miqyosidagi ta’lim sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar zamirida yetakchilik qilmoqda. Butun dunyoda ro‘y berayotgan integrallashuv va globallashuv jarayoni bilan bog‘liq holda ta’limning mazmun-mohiyati ham o‘zgarmoqda. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim oldiga o‘ta muhim vazifa – o‘z-o‘zini anglash salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bunda rivojlantiruvchi “kashfiyotlarni yaratish”ga mo‘ljallangan ta’lim kontsepsiyalari va innovatsion texnologiyalar qatoridan o‘rin olgan loyiha metodidan foydalanish orqali tahsil oluvchilarni bilimli, yuksak ma’rifatli, ma’naviy madaniyatli, keng mushohada yurituvchi shaxs qilib tarbiyalash modellarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish muammosi olimlar va tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilmoqda va ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotlarning asosiy vazifalari qatorida o‘quvchilarni kelgusidagi o‘qish faoliyatiga tayyorlash sifatini oshirish, ularning o‘quv – bilish faoliyatini takomillashtirish, ta’lim o‘zlashtirish layoqatini kengaytirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga

qaratilgan pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va o‘qitish xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur metodikani takomillashtirish masalasi alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini loyiha metodi vositasida takomillashtirish amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

“Loyiha metodi” tushunchasining mohiyati ilmiy bilimlarning turli sohalari nuqtayi nazaridan ham, fan metodologiyasining turli darajalari nuqtayi nazaridan ham turli xil xarakterga ega bo‘lgan “loyiha”, “faoliyat”, “ijodkorlik” kabi ilmiy toifalar bilan bog‘liq.

“Loyiha metodi” tushunchasi ikkita asosiy gumanitar fanlar – pedagogik va psixologik fanlarning birlashmasida aks etadi. Loyiha metodini o‘qitish pedagogik jarayonning asosiy qonuniyatlarini ham, uning psixologik mazmunini ham hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Umumta’lim maktabini rivojlantirishning hozirgi bosqichida o‘quvchilarni loyiha metodi bo‘yicha o‘qitishni tashkil etishning umumiy nazariy masalalari juda ko`p tadqiqotchilar tadqiqotlariga bag‘ishlangan.

Asarlarda keltirilgan tadqiqot muammosi bilan bog‘liq tushunchalar tizimini tahlil qilish uning murakkab, fanlararo xususiyatini ko‘rsatadi. Loyiha atrof-muhitdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish faoliyati sifatida ham tushuniladi (J.K. Jons), mavzu dunyosining o‘z-o‘zidan rivojlanishini boshqarish sifatida (T.L. Maldonado), va kelajakdagi mahsulotning eskiz loyihasini ishlab chiqish va yaratish sifatida (V.A. Molyako). Konsepsiyaning turli xil talqinlariga qaramay, barcha tadqiqotchilar uning ijodiy, o‘zgaruvchan xususiyatiga ishora qilmoqdalar.

Loyiha metodini amalga oshirishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladigan ta’limga tizimli va faol yondashuvni joriy etish mumkin.

Loyiha metodini o‘rganish muammosini tanlash va aniq muammolarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘zlarining qiziqishlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqadilar. Bu har bir o‘quvchiga o‘qitish va o‘z-o‘zini o‘qitishning o‘ziga xos traektoriyasini beradi, ta’lim jarayonini farqlash va individuallashtirishga imkon beradi.

Guruhda ishlash jamoaviy rejalashtirish va maqsadlarni belgilashga, guruh a’zolari o‘rtasida vazifalar va rollarni taqsimlashga, rahbar yoki ijrochi sifatida harakat qilishga, o‘z harakatlarini loyihaning boshqa ishtirokchilarining harakatlari bilan muvofiqlashtirishga, javobgarlikni taqsimlashga qodir shaxsni shakllantiradi.

Loyiha metodi o‘qituvchi tomonidan umumiy qabul qilingan didaktik tamoyillarga qo‘shimcha ravishda qo‘llab-quvvatlanadigan o‘quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalanishni o‘z ichiga oladi:

– **detotsentrizm tamoyili:** ta’lim faoliyatining markazida o‘z faoliyatini ko‘rsatadigan o‘quvchi joylashgan. U nafaqat o‘z salohiyatini namoyish etish, balki o‘zini anglash, muvaffaqiyatini his qilish uchun ajoyib imkoniyatlarga ega;

– **hamkorlik tamoyili:** loyiha metodini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ham, o‘quvchilar o‘rtasida ham o‘zaro keng hamkorlik amalga oshiriladi;

– **o‘quvchilarning individualligini hisobga olish tamoyili:** ularning qiziqishlari, ish tezligi, yoshi, o‘rganish darajasi;

– **erkin tanlov tamoyili:** loyiha mavzulari, loyiha bo‘yicha sheriklar, adabiyotlar, ma’lumot olish usullari, tadqiqot usuli, natijalarni taqdim etish turi.

O‘qituvchilar o‘zlarining didaktik muammolarini hal qilish uchun loyiha metodiga murojaat qilishdi. Loyiha metodining asosi “loyiha” tushunchasining mohiyatini tashkil

etuvchi g‘oya, uning amaliy yoki nazariy jihatdan u yoki bu muhim muammoni hal qilishda olinishi mumkin bo‘lgan natijaga pragmatik yo‘naltirilganligi. Ushbu natijani nafaqat ko‘rish va tushunish, balki haqiqiy amaliy faoliyatda ham qo‘llash mumkin.

Bunday natijaga erishish uchun bolalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni topishga va ularni hal qilishga o‘rgatish kerak, shu maqsadda turli sohalardagi bilimlarni, turli xil echimlarning natijalari va mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan aytib berish qobiliyatini, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish qobiliyatini jalb qilish kerak.

Loyiha metodi har doim o‘quvchilarning mustaqil faoliyatiga qaratilgan-individual, juftlik, guruh, o‘quvchilar ma’lum vaqt davomida bajaradilar.

Loyiha metodi har doim maqsad va vazifaning ba’zi muammolarini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Muammoni hal qilish, bir tomondan, ko‘plab, turli xil o‘qitish usullari va vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, boshqa tomondan, ilm-fan, texnologiya, texnologiya, ijodiy sohalarning turli sohalaridagi bilimlarni, bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini birlashtirish zarurligini anglatadi.

Amalga oshirilgan loyihalar natijalari “aniq” bo‘lishi kerak. Agar bu muammo nazariy xarakterga ega bo‘lsa, unda uning aniq yechimi, agar amaliy bo‘lsa, unda foydalanishga tayyor bo‘lgan aniq natija, masalan, darsda, maktabda yoki haqiqiy hayotda

Loyiha metodi jarayoni – loyiha mahsulini rejalashtirishdan yaratilish va uni sinovdan o‘tkazishgacha bo‘lgan subyektlarning maxsus faoliyati. Loyiha subyektlari deganda, birinchidan, o‘qituvchi (loyiha menejeri) tushuniladi, chunki bu ish rejasini yaratish uchun sinfda vaziyatlarni yaratadigan, loyiha topshirig‘ini ishlab chiqadigan, o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltiradigan, ish paytida, boshqa faoliyat sub’ektlari bilan bir qatorda g‘oyalar generatori bo‘lgan o‘qituvchi; ikkinchidan, o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi, loyihaning bevosita ijrochilari; uchinchidan, bolaning loyihasi ustida ishlashda faol ishtirok etadigan barcha kattalar, tor fan mutaxassislari, ota-onalar va boshqa shaxslar.

O‘rganilayotgan adabiyotlarni tahlillari va tadqiqotchilar tajribasini umumlashtirib xulosa qilinganda, loyiha metodining mohiyati shundan iboratki, o‘quvchi o‘quv loyihasi ustida mustaqil ishlash jarayonida haqiqiy jarayonlarni tushunadi, mavjud bilimlarni amalda qo‘llaydi va qiyinchiliklarni yengish uchun aniq vaziyatlarni boshdan kechiradi.

Loyiha metodi maktab o‘quvchilariga amaliy, hayotiy masalalarni hal qilish, qaror qabul qilishni o‘rgatish imkonini beradi. Ta’lim ta’limotdan ustundir, loyiha metodi esa o‘quvchilarga ko‘proq mustaqillik beradi va ularda ma’suliyatlilikni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-fevraldagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” – T.: 2022-yil 1-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022- 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risidada” – T.: 2022-yil 11-may.

3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun // –T.: O‘zbekiston, 2020-yil.

4. Амонашвили Ш.А. Обучение. Оценка. Отметка. 6-й изд. – М.: Знание, 2009. – С. 96

5. Андреев, В.И. Педагогика творческого саморазвития /В.И. Андреев. - Казань: изд-во Казанского ун-та, 2001. – С. 568

Manzura ASQAROVA,
Namangan davlat universiteti, “ Pedagogika nazariyasi va tarixi” kafedrasi dotsenti, PhD

PISA TADQIQOTLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIM SIFATINI MONITORING QILISHNING ILMIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada PISA xalqaro baholash dasturi – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini, o‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholash, ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish imkoniyatlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. PISA, qobiliyat, mezon, tajriba, bilim, ko‘nikma, baholash, savodxonlik, o‘qish, matnni tushunish.

В данной статье международная оценочная программа PISA – оценка грамотности (чтение, математика, естественные науки) 15-летних школьников в разных странах и умение применять свои знания на практике, способность школьников решать реальные задачи, передовой зарубежный опыт, международные возможности совершенствования системы оценивания на основе критериев и требований.

Ключевые слова. PISA, способность, критерий, опыт, знание, умение, оценка, грамотность, чтение, понимание текста.

In this article, the international evaluation program PISA is the assessment of literacy (reading, mathematics, science) of 15-year-old schoolchildren in different countries and the ability to apply their knowledge in practice, the ability of schoolchildren to solve real problems, international best practices, international opportunities to improve the assessment system based on criteria and requirements

Key words. PISA, ability, criterion, experience, knowledge, ability, assessment, literacy, reading, text comprehension.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash jarayonlarida munosib qatnashish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga yo‘naltirilgan PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarni tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy va mantiqiy fikrlash hamda tegishli fan yo‘nalishlari bo‘yicha savodxonligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta’lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Jumladan, PISA xalqaro baholash dasturi – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning

savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi test bo‘lib, unda ishtirok etayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda.

Ta’lim sifatini baholashga yo‘naltirilgan PISA halqaro tadqiqotlar O‘zbekiston ta’lim tizimida ilk marta o‘tkazilayotganligi sababli ularni to‘g‘ri, samarali va obyektiv o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA – o‘quvchilarning o‘qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholash hamda o‘quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim ko‘nikmalarini anglashga mo‘ljallangan. PISA – tadqiqoti iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot IHTT (OECD – Organization for Economik Co-operation and Develoment) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

Tadqiqot ilk bor 2000-yilda o‘tkazilgan bo‘lib, har 3 yilda bir marotaba o‘tkazib boriladi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar matematika fanlarini o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘lib xizmat qiladi. PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o‘tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA 15 yoshli o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo‘lsa, TIMSS esa muayyan yoshdagi o‘quvchilarning emas, balki to‘rtinchi va sakkizinchi sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholaydi.

Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o‘quv dasturlariga asoslangan bo‘lsa, PISA esa, o‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi.

TIMSS aynan maktab bilimlarni o‘zlashtirish darajalarini baholasa, PISA bilim va ko‘nikmalarni maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo‘llay olish darajalariga alohida e’tibor qaratadi.

Ta’limdagi bunday o‘zgarishlar o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari mazmunini o‘zgartirishga undadi. Ona tili, matematika va tabiiy fanlardan PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasi yaratildi va o‘quv dasturlariga kiritildi.

PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar singdirilgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha qo‘llanma hamda adabiyotlar yaratilib, amaliyotga joriy etildi. 5-sinfdan 11-sinfgacha o‘quv darsliklarida buni ko‘rish mumkin.


PISA – ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishning shakl, metod, texnologiyalarini yangilab, o‘qituvchilarning bu boradagi bilimini oshirmoqda. Bu fanlardan o‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratib, 2019-2021-yillarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazish niyatida. PISA testlaridan ona tili darslarida foydalansa, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo‘llash hamda o‘quvchining hayotiy va intellektual ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga o‘sishi har yili yalpi ichki mahsulotning 1% ga o‘sishini ta’minlaydi.

PISAning so‘ngi yillardagi vazifalarining asosiy jihati test sinovlari o‘quvchilarga qiynchilik tug‘dirmaydi, balki o‘quvchilarning bilimlari asosiy o‘rin tutmaydi, faqatgina bolaning ongini ishlatishni talab qiladi.

PISAning interaktiv vazifalari yuzasidan 2012-yilda birinchi marotaba ommaviy test sinovlari ishtirokchilariga maxsus turdagi vazifalar, ya’ni interaktiv turdagi vazifalar kiritishni taklif qilingan. Interaktiv – o‘quvchidan yangi murakkab tizimni oldindan xususiyatini bilmay turib mustaqil tadqiqot qilishni talab qiladi. Ta’lim tizimi bilan bevo-

sita amaliy hamkorlik orqali gipotezalarni o‘rtaga tashlab, ularni eksperimental tarzda sinab, obyektni tekshirishga harakat qiladi[1]. PISA tadqiqotlarida o‘quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo‘nalish bo‘yicha aniqlanadi. Quyidagi jadvalda o‘quvchilarning olgan bilim sifatlarini monitorning qilish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan (1-rasm).



1-rasm. PISA tadqiqotlarida o‘quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo‘nalishi.

PISA tadqiqotida 2000-yilda testlarda 32 ta, 2003-yil 43 ta, 2006-yilda 57 ta davlat qatnashgan bo‘lsa, 2015-yilda ularning soni 72, 2018-yilda esa 78 taga yetgan. Test sinovlariga har bir mamlakatdan 4 ming 500 dan 10 ming nafargacha o‘quvchi jalb etiladi. PISA dasturida o‘quvchilarning matematik savodxonligi 54 ta topshiriq (84 ta savol), o‘qish savodxonligi 8 ta topshiriq (28 ta savol), tabiiy fanlardan bilimi 13ta topshiriq (35ta savol), shu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quvchilarning kompetentliligi, muammolarni yecha olish ko‘nikmalari 10 ta topshiriq (19 ta savol) yordamida aniqlanadi. Savollarning 50 foizi javobi tanlanadigan (test) bo‘lsa, 12 foiz savollarning javoblari o‘quvchi tomonidan aniq so‘z yoki raqamlar vositasida ifodalanishi, savollarning qolgan qismiga o‘quvchi erkin javob qaytara olishi lozim. Ba’zi topshiriqlar aynan bir hayotiy vaziyatga doir, turli murakkablikka ega bir necha savoldan iborat bo‘ladi. Testlar bir necha variantda tuziladi. Bunda bir guruhdagi topshiriqlar bir necha variantga kiritilishi mumkin.

PISA xalqaro baholash dasturi tadqiqot davriga mos ravishda 15 yoshli bolalarni, ya’ni yettinchi va undan yuqori sinfda o‘qiyotgan o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilishi belgilangan. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘quvchilarning savodxonligini baholash xalqaro dasturida ishtirok etish iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tasdiqlangan PISA texnik standartlari asosida olib boriladi. Hozirda PISA baholash dasturi bo‘yicha kontent va test topshiriqlariga oid ‘‘Stesting’’2 loyihasi ustida ishlar olib borilmoqda. Ba’zi topshiriqlar aynan bir hayotiy vaziyatga doir, turli murakkablikka ega bir necha savoldan iborat bo‘ladi. Testlar bir necha variantda tuziladi. Bunda bir guruhdagi topshiriqlar bir necha variantga kiritilishi mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘quvchilarning savodxonligini baholash xalqaro dasturida ishtirok etish iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tasdiqlangan PISA texnik standartlari asosida olib boriladi. Xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi PISA xalqaro tadqiqotida O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlash va 2030-yilga borib kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadli

[1] Ta'lim sifatini monitoring qilish va o‘tkazishda xalqaro dasturlar. https://en.ppt-online.org.

yo‘nalishda belgilanib, xalq ta’limi uchun strategik vazifa qo‘yildi. Bu borada 2021-yilning 5-14 aprelda mamlakatimizda 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib, tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5948 nafar 4-sinf o‘quvchilari hamda ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etdi. Shuningdek, 2022-yilning aprel oyida yurtimizdagi 202 ta maktabda PISA xalqaro baholash tadqiqotlari o‘tkazildi[2]. Tadqiqotda yurtimizning 15 yoshli maktab o‘quvchilari tabiiy-ilmiy savodxonlik, matematik savodxonlik hamda o‘qish savodxonlik yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etdi. Navbatdagi xalqaro baholash tadqiqotlari 2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Ta’limdagi bunday o‘zgarishlar o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari mazmunini o‘zgartirishga undadi. Ona tili, matematika va tabiiy fanlardan PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasi yaratildi va o‘quv dasturlariga kiritildi.

PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar singdirilgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha qo‘llanma hamda adabiyotlar yaratildi va amaliyotga joriy etildi. 5-sinfdan 11-sinfgacha o‘quv darsliklarida buni ko‘rish mumkin.

PISA ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishning shakl, metod, texnologiyalari yangilanib, o‘qituvchilarning bu boradagi bilimlari oshirilmoqda. Bu fanlardan o‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratilib, 2019-2021-yillarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazish niyatida. PISA testlaridan ona tili darslarida foydalansa, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchining hayotiy va intellektual ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Поддьяков А. Решение комплексных проблем в PISA-2012 и PISA-2015: взаимодействие со сложной реальностью Архивная копия от 16 февраля 2016 на Wayback Machine. // Образовательная политика. № 6 (62) 2012. – С. 34-53.

2. Ta’lim sifatini monitoring qilish va o‘tkazishda xalqaro dasturlar. https://en.ppt-online.org.

3. https://uza.uz/oz/posts/pisa-timss-pirls-ozbekiston-xalqaro-baholash-dasturlariga-tayyormi.

[2] https://uza.uz/oz/posts/pisa-timss-pirls-ozbekiston-xalqaro-baholash-dasturlariga-tayyormi.

Umida MUSAYEVA,
Pedagogik innovatsiyalar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

PROFESSIONAL TA'LIM MUASASALARI O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda professional ta'lim bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni yoritilgan. Shuningdek, professional ta'lim sharoitida o'quvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini modellashtirish, o'quv jarayonini o'rganish hamda kadrlash tayyorlash masalasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Professional ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quvchilar, kasbiy kompetentlik, modellashtirish, islohotlar, qonunchilik.

В статье освещается содержание проводимых в нашей стране реформ в области профессионального образования. Изложены также вопросы моделирования процесса формирования профессиональной компетентности учащихся в условиях профессионального образования, изучения учебного процесса и подготовки кадров.

Ключевые слова. Содержание профессионального образования, учебный процесс, воспитанники, профессиональная компетентность, моделирование, реформы, законодательство.

The article covers the content of the reforms carried out in our country on professional education. Also, in the conditions of professional education, the issue of modeling the process of formation of professional competence of students, studying the educational process and training of personnel is described.

Key words. Professional educational content, educational process, students, professional competence, modeling, reform, legislation.

Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxona va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatliligi, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyati, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qat'iy raqo-

batga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir. Mustaqillik yillaridan hozirga qadar professional ta’lim muassasalarini bitirib, mehnat bozorida bozor iqtisodiyoti talablariga amal qilib, tashkilotlarda samarali mehnat ko‘rsatib kelayotgan yuqori malakali kadrlarning o‘rni ahamiyatlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ozbekiston tarixida yangi professional ta’lim tizimini tashkil etishga asos bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yil 24-yanvarda davlatimiz rahbari o‘z murojaatnomasida “Joriy o‘quv yildan boshlab, mutlaqo yangi professional ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, kasb hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar tashkil etiladi” deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta’kidladi. Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko‘rsatish, chorvachilik, parrandachilik kabi tez sur’atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashi ko‘zda tutildi. O‘z navbatida, yangi tizimning barcha huquqiy – me’yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, yaqinda ‘‘O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativi – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi hukumat qarori e’lon qilindi. Qaror bilan uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim to‘g‘risidagi nizom, boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi, O‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi hamda o‘rta-maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi tasdiqlandi.

Professional ta’lim yaratish hamda ulardan foydalanish, doimiy ravishda takomillashtirilib borish maqsadida har bir muassasa ma’muriy xodimlarini innovatsion elektron platformalar yaratish bo‘yicha Davlat byudjeti hisobidan maxsus o‘qitish doimiy ravishda malakasini oshirish tizimini joriy qilinishi pedogog xodimlarning axborot texnologiyalari sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga zamin yaratadi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, agar mas’uliyatning bir qismini biznes hamjamiyati vakillari zimmasiga olgan bo‘lsa, erishish mumkin. Shu bilan birga, davlat, ish beruvchilar va o‘quv yurtlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning qo‘shma zonasini yaratish kerak.

O‘quvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizimlarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarining faoliyatini samarali, oqilona tashkil qilish, har bir rahbar va pedagoglarining o‘z burchlarini sifatli bajarishi, o‘quv tarbiya ishlari samarasiga, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarning aniq-ravshanligiga, vazifalarning to‘g‘ri taqsimlanishiga va ijtimoiy kompetentlik bo‘yicha ta’lim-tarbiya ishini mohirlik bilan bir-biriga muvofiqlashtirib olib borishiga bog‘liq.

Ta’lim muassasalarida o‘rnatilgan intizom ta’lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta’lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo‘tadil kechishini ta’minlaydi. Intizom o‘quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, rahbariyat hamda vakolatli o‘quvchilar organlari, uning a’zolari talabalarni to‘g‘ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi. Inson to‘g‘ri kasb tanlash orqali o‘z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir. Zero kundalik hayotimizda iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz muqarrardir.

2020-yil 23-sentabr kunida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” da o‘zgarishlarni qayd etishimiz joiz. Mazkur qonunda professional ta’limni roli alohida ahamiyatga ega. Professional ta’limni amalga oshirish asosan kasb va mutaxassislik bo‘yicha Boshlang‘ich professional ta’lim, O‘rta professional ta’lim va o‘rta maxsus professional ta’limlar tarkibida amalga oshadi. Bunda boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida olib boriladi.

O‘zbekistonda endi yangi professional ta’limda birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me’yorlarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo‘ladigan hujjat – Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Iqtisodiyotning har bir sohasi bo‘yicha tarmoq malaka tizimlari belgilandi.

Ayni paytda har bir ish o‘rni va lavozimning vazifalari, tasnifi va uni samarali, muvaffaqiyatli bajarish uchun lozim bo‘lgan ko‘nikma, bilim va layoqatlilik yoritilgan malaka talablarining yangi formatdagi me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Professional ta’lim dasturlarining mazmuni, ta’lim natijalari, ta’limning sifati shu me’yoriy asoslarga muvofiq shakllantiriladi. Bu tizim biz tayyorlayotgan mutaxassislarning ham mahalliy, ham xorijiy mehnat bozori o‘zgarishlariga moslasha olishiga imkoniyat beradi. Ayni paytda mehnat bozorida raqobat muhiti ancha keskinlashgan, korxonalarning ishchi yoki mutaxassis yollash tizimlari takomillashgan, talablar mutlaqo o‘zgargan.

Bu esa ta’lim sifatining buyutmasi asosida esa professional ta’limda kasb-hunar egallashni asosiy resurslari hisoblangan moliyaviy, texnik, texnologik va, albatta, inson faoliyati zarur. Ana shu resurslar qanchalik kuchli bo‘lsa, natija ham shunga yarasha bo‘ladi. Inson resurslarini rivojlantirish orqali yoshlar, xotin-qizlar, kambag‘allikni qisqartirish va migrantlar bandligini ta’minlash masalalariga doir yangi siyosatni amalga oshirish mumkin.

Professional ta’lim muassasalari boshqaruv hamda pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq professional ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishning asosini tashkil etadi. Professional ta’lim tizimining maqsadi va talabi – professional ta’lim muassasalarida o‘qigan yoshlar aniq ish o‘rniga, o‘z kasbi bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi shartligidadir.

Yuqorida bayon etilgan mamlakatimiz professional ta’lim tizimida shiddat bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlar fuqarolarning ta’lim olishga, shuningdek, uzluksiz ta’lim jarayoniga qamrab olishga, ularning yetuk mutaxassis sifatida davlatga, jamiyatga hamda oilasiga kerakli kadrlar bo‘lishiga qaratilgan islohotlar ekanligining yaqqol dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmutov M.I. Ta’limning kasbiy yo‘nalishi printsipi / Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta’lim tamoillari // Universitetlararo ilmiy ishlar to‘plami.- Chelyabinsk, 1985.

2. Kasb-hunar ta’limi ensiklopediyasi: 3-jildda/ ED. S.Ya. Batisheva. – M., 1999-yil.

3. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU , 2003.

Zarina UCHQUROVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

MODUL KREDIT TIZIMIDA TALABALAR BILIM-KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA ELEKTRON TA’LIMIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mustaqil ishlarni o‘rgatish ham talaba, ham o‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning jihatlaridan biridir. Mustaqil ish talabalar tomonidan bilim faoliyati sifatida amalga oshirilishi, mustaqillik, faollik kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash vositasiga aylanishi, qabul qilingan ma’lumotlarga ijodiy munosabatni shakllantirishi kerak. O‘qitishning yangi vositalari va usullarini izlash, birinchi navbatda, o‘quv jarayonida ilmiy ma’lumotlarni maksimal darajada o‘zlashtirish emas, balki ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalari qo‘yilishiga olib keladi. Yangi bilimlarni egallash. Maqolada mustaqil ish turi assimilyatsiya darajalariga mos kelishini nazarda tutib, talabalarning mustaqil ishlarining turlari va shakllarini tasniflashda turli yondashuvlar tahlili taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar. Talabalarning mustaqil ishi, tasnifi, o‘zlashtirish darajalari, ko‘paytirish, o‘rganish, takrorlash, tekshirish, mustaqil ish turlari, tayyorgarlik, aniqlash, tajriba-qidiruv, mantiqiy-qidiruv.

Обучение самостоятельной работе является одним из аспектов научной организации труда как студентов, так и преподавателей. Самостоятельная работа должна осуществляться обучающимися как познавательная деятельность, стать средством воспитания таких личностных качеств, как самостоятельность, активность, формировать творческое отношение к воспринимаемой информации. Поиск новых средств и методов обучения приводит к тому, что на первое место в процессе обучения выдвигаются задачи не столько максимального усвоения научной информации, сколько формирования умений творчески и самостоятельно мыслить, приобретать новые знания. В статье авторы приводят анализ различных подходов к классификации видов и форм самостоятельной работы студентов, предполагая соответствие вида самостоятельной работы уровням усвоения.

Ключевые слова. Самостоятельная работа студентов, классификация, уровни усвоения, воспроизведение, обучение, повторение, проверка, виды самостоятельной работы, подготовительная, констатирующая, опытно-поисковая, логико-поисковая.

Teaching independent work is one of the aspects of the scientific organization of labor, both students and teachers. Independent work should be carried out by students as a cognitive activity, become a means of educating such personal qualities as independence, activity, and form a creative attitude to perceived information. The search for new means and methods of teaching leads to the fact that in the first place in the learning process the tasks are put forward not so much as the maximum assimilation of scientific information, but rather the formation of the skills to think creatively and independently acquire new knowledge. In the article, the authors provide an analysis of various approaches to the classification of types and forms of independent work of students, suggesting the correspondence of the type of independent work to the levels of assimilation.

Key words. Independent work of students, classification, levels of assimilation, reproducing, training, review, verification, types of independent work, preparatory, ascertaining, experimental-search, logical-search.

Hozirgi davrda ta‘limning elektron shakli jadal rivojlanib borayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu holat elektron ta‘lim tizimi va ko‘plab boshqa ishlab chiqarish vositalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Elektron ta‘lim tizimi foydalanuvchiga o‘quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o‘quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta‘limda o‘quv vositalaridan foydalanish o‘zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirmoqda. Elektron ta‘lim texnologiyasining rivoji elektron o‘qitish tizimida ta‘lim strategiyasining tuzilishi va har bir o‘quvchi uchun o‘quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkoniyatlarni bermoqda. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar, doimiy talablarning o‘sishi va elektron ta‘lim tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatlari shakllandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimi sifatini baholash uslublari o‘qish jarayoni natijalari nuqtayi nazaridan, o‘qitish tizimlarini baholashga, shuningdek, ushbu uslublar umumiy bo‘lib, paydo bo‘lgan va elektron ta‘lim tizimi hayot siklining turli bosqichlari sifatini boshqarishga yetarli darajada imkon bermaydi.

Mustaqil kognitiv faoliyatni optimallashtirish uchun talabalarning individual ish rejalari tuziladi, ular nafaqat talabalarga mustaqil ravishda olingan bilimlarning kerakli miqdori to‘g‘risida ma’lumot berish vositasi bo‘libgina qolmay, balki o‘qish vaqtini va ularning individual harakatlarini to‘g‘ri taqsimlashga imkon beradi. Istalgan natijaga erishish, bunda ijtimoiy tajriba tashqi yordamisiz o‘zlashtiriladi, bilim, ko‘nikma olinadi va uning o‘zini o‘zi rivojlantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadi. Har qanday faoliyat singari, mustaqil ta’lim faoliyati ham o‘z tuzilishiga ega bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: motivatsiya, o‘quv vazifalari, o‘quv harakatlari, o‘z-o‘zini nazorat qilishga aylanadigan nazorat, o‘z-o‘zini baholashga aylanadi.

Bunday faoliyat muayyan maqsaddan kelib chiqadi, subyektning faoliyat natijalari haqidagi g‘oyasini aks ettiradi va o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklini oladi. Mustaqil ishning muhim jihati shundan iboratki, u nafaqat ta’lim muammolarini, balki o‘quvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish muammolarini ham hal qiladi. An’anaviy ta’limda talabalarga taklif qilinadigan mustaqil ish shakllariga quyidagilar kiradi: insho; birlamchi manbalarni qayd qilish, konspektlar, qayta ishlangan material rejasini tuzish; ko‘rib chiqish, izohlash, treninglar o‘tkazish, muammolarni hal qilish; diagrammalar, jadvallar, diagrammalar va boshqalarni tuzish; dizayn, grafik, hisoblash ishlari, testlar, didaktik materiallar ishlab chiqish; Mustaqil nazorat ishi, individual ijodiy topshiriqlarni bajarish, fakultetning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan boshqa shakllarda tashkil etiladi. Inson faoliyatining barcha sohalarini kompyuterlashtirish tendentsiyalari bilan bog‘liq holda bugungi kunda quyidagilar ham qo‘shiladi: shaxsiy kompyuter bilan ishlash, o‘quv dasturlarini qayta ishlash; didaktik materiallarning elektron variantlari bilan ishlash, Internetda kerakli ma’lumotlarni izlash.Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi axborotni oddiy iste’molchi emas, balki bilimga ijodiy talabgor hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining vazifasi nafaqat ma’lumotni tayyor shaklda uzatish, balki o‘quvchini mustaqil bilish faoliyati bilan shug‘ullanishga undash, bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqillik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. mustaqil ish, agar topshiriqlar yangilikka xos bo‘lsa, yangi tadqiqot yoki o‘lchash usullaridan foydalangan holda tadqiqot taklif qilinsa, faol fikrlash yoki amaliy faoliyatni o‘z ichiga olgan holda qiziqish uyg‘otadi. Taklif etilgan topshiriqlarni bajarishning eng oqilona usullari, ish natijalarini tahlil qilish va hisobot yozish.

Demak, mustaqil ishlarni tashkil etish talabalarning ijodiy mustaqilligini oshirish-

ning samarali vositasidir. Talabalarning mustaqilligi va faolligi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, chunki mustaqillik o‘quvchilar faoliyatining tabiati va usuli bilan belgilanadigan faoliyatning eng yuqori shaklidir. Talabalarning mustaqil ishining asosini talabaning o‘quv jarayoniga ongli yondashishi, ya’ni fikrlashning eng yuqori darajasi tashkil etadi. Talabalar mustaqil ishining har bir bosqichida bilimlarning o‘zlashtirilishini aniq, o‘z vaqtida va samarali nazorat qilish va tekshirish, shuningdek, ko‘nikma hamda malakalarning shakllanish darajasi, qobiliyatlarni rivojlantirish talab etiladi. Nazorat faoliyati talabaning muayyan ta’lim muammolarini mustaqil yechishda qanchalik muvaffaqiyatga erishganligini aniqlash imkonini beradi.

Talabalar zamonaviy o‘quv, ilmiy va uslubiy ma’lumotlar oqimida tezda harakat qilishlari, ularni tahlil qilishlari, tanqidiy tushunishlari, asosiy jihatlarini ajratib ko‘rsatishlari, mantiqiy tuzilishlari va shu bilan mustaqil ravishda egallash va o‘zlashtirish qobiliyatini namoyish etishlari kerak.

Talabaning yutuqlarini baholashda muhim jihat shundan iboratki, o‘qituvchi baholash faoliyatida o‘quvchilarning haqiqatan ham ularning yutuqlari isboti va ko‘rinishini ta’minlaydigan ishlaridan foydalanishi kerak. O‘qituvchi natijalarni baholash mezonlari:

1. Talabaning fan materialini bilishi va tushunishi.

2. Talabaning tafakkuri: uning tanqidiy va ijodiy fikrlash usullaridan foydalanishi, axborotni qay darajada izlash va umumlashtirish qobiliyati. Qabul qilingan ma’lumotlarni qanday sintez qilish, tartibga solish va tahlil qilish.

3. O‘quvchining muloqot darajasi, u o‘z bilimini matnning turli shakllari orqali qanday yetkaza olishi.

4. Talabaning o‘z bilimlarini kontekstda va ular o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish uchun qo‘llash qobiliyati.

Bu kategoriyalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ta’lim natijalarini bilishning yaxlit jarayonining asosini tashkil qiladi.

Talabaning o‘quv jarayonidagi mustaqil ishi nafaqat uning darslarga, testlarga, imtihonlarga yoki boshqa turdagi darslarga mustaqil tayyorlanishi emas, balki bu shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan faoliyati ekanligini tushunish muhimdir, bu o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqil ishlarni aniqlashga yondashuvlarning xilma-xilligi nafaqat uning ko‘p qirraliligi, balki ushbu turdagi ishlarning o‘qitishdagi roli ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Xuddi shu paytni o‘zida ushbu kontsepsiyani talqin qilishning ko‘pligi va uni tashkil etish samaradorligini baholashning asosiy mezonlarini tanlashga turli xil yondashuvlarning mavjudligi olib borishda ham o‘qituvchilar, ham talabalar tomonidan qiyinchiliklar tug‘diradi. Ilmiy-metodik adabiyotlar va pedagogik tajribamiz tahlili bizga bir qator umumiy muammolar va ayrim sabablarni aniqlash imkonini berdi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish uchun mavjud texnologiyalarning samarasizligi jarayoniga duch kelingan. Bular quyidagilar:

1. Optimal natijaga erishish uchun talabalarning individual ishini tashkil etishning mos shakllari va usullarining rivojlanmaganligi.

2. Turli o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladigan kurslar doirasida olib boriladigan mustaqil ishlar mazmunining yangi maqsadlar - kompetensiyalarni shakllantirish bilan bevosita bog‘liqligi yo‘qligi.

3. Mustaqil ishlarni tashkil etish uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalarning yetarli emasligi.

4. Mazmunan qiziqarli va shu bilan birga o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga im-

kon beradigan topshiriqlarning yo‘qligi.

O‘z navbatida, talabalar quyidagi qiyinchiliklarga duch keladi:

– mustaqil ishni rejalashtira olmaslik;

– mustaqil ishlarni bajarishga psixologik tayyor emasligi;

– topshirilgan vazifalarni hal qilish jarayonida onglilik, mustaqillik va faollik; yo‘qligi shaxsiy ma’no;

– shakllangan mustaqil ishlash ko‘nikmalarining yo‘qligi: ular mustaqil ravishda qanday ishlashni bilishmaydi (va ko‘pincha xohlamaydilar), chunki ularga maktabda buni o‘rgatilmagan;

– o‘quv faoliyatini o‘z vaqtida taqsimlashni mustaqil ravishda tashkil eta olmaslik va ularning bajarilishini nazorat qila olmaslik;

– bir qator o‘quv fanlariga, jumladan, fizika, kimyo, matematika va boshqalarga kognitiv qiziqishning yetarli darajada emasligi;

– mustaqil ishlarni loyihalashda zaif ko‘nikmalar (talabalar qanday qilishni bilishmaydi ixcham va ratsional ravishda ko‘chirma, konspekt, reja, konspekt, konspekt, taqriz, konspekt va boshqalarni tuzish.) va ma’lumot qidirish (kataloglar, lug‘atlar, ensiklopediyalar, tarmoq resurslari bilan ishlash).

Mustaqil ishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchining ruhiy salomatligi gigiyenasiga bog‘liq. Inson tanasi murakkab tizim bo‘lib, unda murakkab psixologik va fiziologik jarayonlar o‘zaro izchil va o‘zaro sodir bo‘ladi, bu ta’lim faoliyatida hisobga olinishi kerak. Bunday holda, ma’lum bir shaxsga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik va ruhiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini ham, xususiyatlarini ham yodda tutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ‘‘O‘qitish – o‘quv jarayonidagi baholash vositalari’’: Education. Olingan: 01 iyun, 2020 yil, Educationrea: educrea.cl.

2. ‘‘Talabalarni baholashning 20 ta vositasi’’ bo‘yicha: Ta’lim 3.0. Qabul qilingan sanasi: 01-iyun 2020-yil Education 3.0: educaciontrespuntocero.com.

3. ‘‘Talabalaringizni baholash uchun o‘nta 2.0 vosita’’: Aula Planeta. Oula Planeta-dan 2020 yil 1-iyun kuni olingan: aulaplaneta.com.

4. ‘‘Ta’lim va o‘qitishda baholash vositalari’’: Fizika katalizatori. 2020 yil 1-iyun kuni Physics Catalyst-dan olingan: physicscatalyst.com.

G'ayrat SUYUNOV,
Prezident ta'lim muassasalari agentligi Qiziltepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabi geografiya fani o'qituvchisi

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA 5-8 SINF O'QUVCHILARI VA TALABALARNING ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Geografiya darslarini yanada samarali tashkil qilish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, geografiya darslarida o'qituvchilar tomo-nidan o'quvchilarga geografik jarayonlarni osonroq yetkazib berish haqida fikr yurutiladi. Maqolada muallif tomonida ishlab chiqilgan metodlar ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar. "Kim ko'p ma'lumot aytadi?'', ''O'rningni top!'', ''Nima uchun?''.

В данной статье рассматривается, как эффективнее организовать уроки географии, заинтересовать учащихся наукой и как учителям легче донести до учащихся географические процессы на уроках географии. В статью также включены методики, разработанные автором.

Ключевые слова. "Кто расскажет много информации?'', **"**Найди свое место!'', **"**Почему?''.

This article discusses how to organize geography lessons more effectively, to make students interested in science, and to make it easier for teachers to convey geographical processes to students in geography lessons. The article also includes methods developed by the author.

Key words. "Who says a lot of information?'', **"**Find your place!'', **"**Why?''.

Jahonda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan amalga oshishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, o'z navbatida, ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida **"**o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish"[1] vazifalari belgilangan. Bunday yondashuv tufayli, ta'lim tizimida geografiya fani o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarni, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish , axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga keng tadbiq qilish o'ta muhim vasifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida so'ngi bir yilda yetmishga yaqin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom ma'noda, ta'lim tizimida o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Jumladan, " Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va

[1] « O'zbekiston Respulikasi xalq ta'limi tzimini 2030 yilgach rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmoni //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va metodlarini joriy etish ” kabi qator vazifalar belgilab berildi. Haqiqatdan ham, umumiy o’rta ta’lim muassasalarining milliy metodologiyasini takomillashtirish, rivojlangan davlatlarning o‘qitish metodikalarini o‘rganish va milliy qadriyatlarimiz singdirilgan metodik asoslarini tashkil etish, raqamli va keng formatli masofaviy ta’lim metodlarini o‘zlashtirish bugungi taraqqiyot darajasi bilan uzviy aloqador. Maktablar oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – yuqori malakali, o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan o‘qituvchilar bazasini shakllantirish bilan birga, metodologiyaning to‘g‘ri tashkil etilishi, tanlangan texnologiya va metodlarning mavzularga muvofiqligini ta’minlashdir. Metodologiyani rivojlantirish o‘quvchilarning muayyan nazariy bilimlarini puxta o‘zlashtirishga, vaqtni tejashga, har bir o‘quvchini faollikka undashga, ularning erkin va mustaqil fikrlash layoqatini hamda o‘z fikrini himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllanishiga olib keladi. Ayniqsa, bugungi o‘quvchi yoshlarning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil, ilmiy-ijodiy izlanishlari, innovatsion g‘oyalarga nisbatan cheksiz qiziqishi o‘z-o‘zidan dunyo munosabatlarida yangi dunyo munosabatlari paydo qilishga, ta’limning yanada yangi qirralarini kashf etishga, xalqaro tajribalar asosidagi o‘qitish metodikalarini o‘qituvchilarga o‘rgatishga, o‘quv jarayonini zamonga mos shaklda tashkil etishga undaydi. Ta’lim ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni hayotga muassasalarida amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

“Umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va inteliktual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish ” kabi vazifalar belgilab berildi. Geografiya darslarida o‘quvchilarning qiziqishlarini yanada oshirish uchun darslarni qiziqarli tashkil qilish maqsadga muvofiq. Ba’zi o‘qituvchilar o‘quvchilarning darslarga befarqligidan, ko‘proq vaqtini telefon, kompyuter oldida o‘tkazishini aytib nolishadi. Buning sababi, ehtimol o‘qituvchilarning darslarni qiziqarli tashkil qila olmayotganligidamikan deb o‘ylab qoladi kishi. “Geografik topishmoq”, “Kim ko‘p ma`lumot aytadi?”, ”Nima uchun?”, “Raqamlar so‘zlaganda”, ”Orqada qolmang”, “Mavzu ma’lumotlarini hayot bilan bog‘lash ”, “ Zakovatli o‘quvchi ”, “O‘rningni top” metodlari .

Birinchi metod. Quyida berilgan Geografiya faniga oid topishmoqlardan o‘z o‘rnida, dars berayotgan sinflardagi o‘quvchilarning yosh xos xususiyatlari, bilim darajasini hisobga olib, muammoli vaziyatlar tazida foydalanish yoki guruhlarda ishlash jarayonida sinf o‘quvchilarini ikki guruhga bo‘lib, ketma-ketlikda topish-moqlarni navbati bilan guruhlarga berib, o‘ylashlari uchun besh soniya vaqt berish orqali, 5-, 6-, 7-, 8- sinflarda tabiiy geografiya darslarida o‘quvchilarning qiziqishi va e’tiborini yanada ortirishiga zamin yaratadi yaratiladi.

Geografiya faniga oid topishmoqlardan[1] namunalar:

Topishmoqlar	**Javoblar**
1. Yo‘ldan adashib Tolib, Rosa qolibdi horib. Xarita va plan ham, Kompas, gnomonlar ham, Qolgan edi yo‘qolib, Ne qilsin endi Tolib? Ketsin shaxdam yo‘l solib, Daraxtlarga qarabmi, Tog‘ - suvlarda yayrabmi ?	**Daraxtlarga qarab aniqlash**
2. Unga o‘simliklar yuzini burar, Qumursqalar inin og‘zin qurar, «Avstraliya» - so‘zi unga taqalar, Bu tomonning nomi qanday atalar ?	**Janub**

Ikkinchi metoddan – foydalanish orqali darsda ko‘pchilik o’quvchilarni baholash imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Bu metod “Kim ko‘p ma’lumot aytadi?” deb nomlangan bo‘lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin: sinfda nechta qator bo‘lsa har bir qatordan bittadan o’quvchi doskaga chiqib ma’lum bir mavzu bo‘yicha birin-ketinlik bilan bittadan ma’lumot aytadi, 5 soniyada uzilish bo‘lgan o‘quvchi yutqazib joyiga o‘tiradi. Oxirida qolgan va eng ko‘p ma’lumot aytgan o‘quvchi g‘olib sifatida rag‘batlatiriladi.

Uchinchi metod – Raqamlar so‘zlaganda deb nomlangan bo‘lib, o‘qituvchi o‘tilgan mavzularga oid raqamlarni doskaga yozadi. O‘quvchilar tezda ushbu raqamlar nimani bildirishini izohlab berishlari lozim. Masalan, 11022 m, 4643 m, 4484 m, 13 ta, 1507 yil, 1498 yil, 1595 yil , 1966 yil, 1976 yil ... , 11022 m – …. . Oliy o‘quv yurtlari uchun ozgina murakkabroq 100 metrda 0,6 º C, har 1000 m da 6º C, har 1000 metrda 33º C, 1500 m/sek.... . Ushbu metodlardan o‘z o‘rnida foydalanilsa dars samaradorligi yanada ortadi.

To‘rtinchi metod – ‘‘Nima uchun?’’ usulidan geografiya darslarida foydalanish. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda vujudga kelgan hududiy (lokal) ekologik muammo – bu Orol dengizi suvining qurishi muammosi bo‘lib, u so‘ngi vaqtlarda dunyoviy (global) ekologik muammoga aylanib ulgurdi. 1911-1960-yillar davomida Orol dengiziga har yili o‘rtacha 52 km³ suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m mutloq balandlikda, akvatoriyasi 66 ming kv. km , dengizning o‘rtacha chuqurligi 16 m ni tashkil qilgan.

O‘rta Osiyo va Janubiy Qozog‘istondagi quruq yerlarning o‘zlashtiririlishi, qator yirik suv omborlarining bunyod etilishi, kanallar, kollektor-zovurlar tizimlarini qurib, ishga tushirilishi natijasida 1961-yildan boshlab Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga tushadigan suvlar miqdori kamaya boshladi, buning oqibatida Orol dengizining suv sathi pasayib, maydoni qisqara boshladi, suvining sho‘rlanganlik darajasi esa orta boshladi.[1] Ushbu muammoni Geografiya darslarida o‘quvchilarga tushuntirishda quyidagi yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilsa, darslarning samaradorligi yanada oshgan bo‘lar edi: ‘‘Nima uchun?’’ sxemasi usuli – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiridir. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usuli. Buning uchun o‘quvchilar ‘‘Nima uchun?’’ sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. ‘‘Nima uchun?’’ so‘rog‘ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi. Orol dengizi suvi qurishi muammosining dastlabki sababini aniqlash uchun 4 marta Nima uchun? degan savolga javob beriladi:

1. Nima uchun Orol dengizi suv sathi pasaydi? Javob: Chunki Orol dengiziga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo kam miqdorda suv quygan.

2. Nima uchun Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga kam miqdorda suv quygan? Javob: Chunki Amudaryo va Sirdaryodan ko‘plab kanallar qazilgan.

3. Nima uchun Amudaryo va Sirdaryodan ko‘plab kanallar qazilgan? Javob: Chunki cho‘llarni o‘zlashtirish va suv chiqarish uchun kanallar qazilgan.

4. Nima uchun cho‘llar o‘zlashtirilgan? Javob: Chunki sobiq Ittifoq hukumati tomonidan 1948 - yilda “Quruq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Orolbo‘yi hududida ekologik vaziyatni yaxshilashning asosiy yo‘llari: aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, qurib qolgan o‘zanlar, ko‘llarga muntazam ravishda suv yuborish, dengizning qurigan qismida shamol harakatini to‘sish uchun qumlarni o‘sim-

liklar bilan mustahkamlash , yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yaylovlar, pichanzorlar maydonlarini kengaytirishdan iborat.

Beshinchi metod – “Orqada qolmang!” metodidan darsning o‘tilgan mavzuni tak-rorlash, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash qismida foydalanilsa ko‘proq o‘quvchilarni baholash, hamda o‘quvchilarning faolligini yanada oshirish mumkin.

Ushbu metodni 6-, 7-, 8- sinflarda qo‘llash uchun doskaga ikki o‘quvchi chiqadi, ularning birining qo‘lida TOG‘LAR , ikkinchisining qo‘lida esa DARYOLAR yozuvlari bo‘ladi. Stol ustuda daryo va tog‘lar nomlari yozilgan yozuvlar teskari bilan qo‘yilgan bo‘lib, partada o‘tirgan o‘quvchilar chiqib, bittadan yozuvni olib o‘qiydi va daryo nomi chiqsa, DARYOLAR yozuvini ushlab turgan o‘quvchi bir qadam oldinga yuradi, aksincha tog‘ nomi chiqsa TOG‘LAR yozuvi ushlagan o‘quvchi bir qadam oldinga yuradi. Oliy o‘quv yurtlarida Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanida RESPUBLIKA va MONARXIYA, FEDERATIV va UNITAR, YEVROPA va OSIYO nomlarini yozib davlatlar to‘g‘risidagi o‘quvchilarning bilimini sinab ko‘rish mumkin.Talabalarga qo‘shimcha aytilgan davlatni xaritadan topib, qaysi qit`ada joylashganligini ham aytib o‘tsalar foydadan holi bo‘lmas edi.

Yuqorida berilgan metodlarni qo‘llashda o‘qituvchilarning ijodkorligi, sinflar va guruhlarni o‘ziga xosligi, yosh xususiyatlarini inobatga olib yanada samarali foydalanishlari mumkin.

Oltinchi metod – “Mavzu ma’lumotlarini hayot bilan bog‘lash”. Ushbu metodda o‘qituvchi asosan mavzu ma’lumotlarini hayotimizning turli sohalari bilan bog‘lab tushuntirsa, mavzu o‘quvchiga yaxshi tushunarli bo‘ladi va esidan chiqmaydi. 2022-yil 12-13-aprelda PISA dasturining tashabbuskori va rahbari Andreas Shlyayxer bilan bo‘lgan suhbatda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi kamchiliklardan biri ta‘limning hayot bilan bog‘lanmaganligi tanqid qilingan edi. Shundan kelib chiqib maktablarda darslar davomida ushbu bog‘liqlikni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki shu yo‘l orqali o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirib va mavzuni tushuna olishini osonlashtirgan”.

Masalan, Milliy o‘quv dastur dasturidagi o‘zgarishga asosan 8-sinfda O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanidan O‘zbekiston tuproqlar mavzusida tuproqlarni unumdorligini oshirishda mahalliy o‘g‘itlardan foydalanish orqali tabiiy sog‘ligimiz uchun foydali oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish mumkinligi, hamda o‘quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga undagan bo‘lamiz, Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi mavzusida Buxoro va Gazlidagi yer qimirlash haqida gapirganda zilzila vaqti qanday harakat qilish kerakligini tushuntirib o‘tish foydadan xoli bo‘lmas edi. Bunday misollarni har bir fandan har bir mavzularda qo‘llash mumkin. 8-sinfda O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish bobida iqtisodiy tumanlar haqida gapirib, ularning betakror tabiati, tarixiy madaniy yodgorliklarini ko‘z-ko‘z qilish orqali ichki turizmni rivojlantirish va yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish mumkin. Oliy o‘quv yurti talabalari bajaradigan kurs ishilari va bitiruv malaka ishlarini asosan Respublikamizning turizm, tabiatni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolar yechimi, suvni tejash kabi hayotiy dolzarb mavzularda amalga oshirilsa, yuqoridagi muammolarga ilmiy asosda o‘z yechimini topgan bo‘lar edi.

Yettinchi metod – Zakovatli o‘quvchi ham darsni samaradorligi oshirsa, ham o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi.

I. 9-sinflarda hamda oily o‘quv yurtlaring 3-bosqich talabalari uchun Amerika Qo‘shma shtatlari mavzisida:

1. AQSHning Davlat Gerbidagi burgut panjalaridagi 13 ta kamon o‘qi nimani anglatadi?

2. Rojdetstivo bayrami dasrturxonida nima albatta bo‘lishi kerak.

3. AQSHda gaz quvurlari yotqizilgandan so‘ng, gaz bilan birga xom go‘sht hidi ham aralash yuborilar ekan. Buning sababi nimada?

II. Transport mavzusida: 1992-yilda u transport tarmog‘i ichida rekord o‘rnatgani uchun Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. 60 joyda to‘xtab tezlikni 36,5 km/ soatgacha oshira olgan. Bu qaysi transport tarmog‘i?

III. Rossiya mavzusidan: XVII asrda Rossiyada qalbaki pullar yasash chinakam falokatga aylanib ketgan. Ish shu darajaga bordiki, qalbaki pullarni dehqonlar va hatto qashshoqlar ham zarb qiladigan bo‘ldilar.

Yuqorida berilgan metodlarni qo‘llashda o‘qituvchilarning ijodkorligi, sinflarni o‘ziga xosligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib yanada samarali foydalanish orqali, geografiya fanidan o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini yaxshilashlari mumkin, qolaversa, fanning mavqeyini ko‘tarishdek g‘oyat yuksak ishda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan bo‘lar edilar.

Ushbu metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilish orqali geografiya fanidan o‘quvchilarning o‘zlashtish samaradorligini 15-30% gacha ko‘tarish mumkinligi o‘z isbotini topdi. Bunday natijaga erishish uchun o‘quvchilar va talabalarning yosh xususiyatlari, sinf va guruhlardagi psixologik holat, ayniqsa, pedagoglarimizning bilim va tajribasiga bog‘liq. Chunki hozirgi zamon o‘quvchi va talabasiga 20-30 yil avvalgi metodika bilan dars o‘tish juda qiyin, shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida dars mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilinsa katta yutuqlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5712-son Farmoni. – T. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. “Respublika ta’lim markazi umumiy o‘rta ta’limda geografiya fanini o‘qitsh metodikasi”. – T. 2020. 55-b

3.Abdullayev A. Daqiqa qadri. – T. “DAVR PRESS” . 2010-yil. 458 bet

4. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan’anaviy dars uslublaridan foydalanish. - Navoiy, 2003. 68 b.

5. Abdug‘aniyev I. Geografiya darslarida ta’limning texnika vositalaridan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 1990. 77 b.

6. Abduqodirov A.A va boshlar. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste‘dod jamg‘armasi, 2008. -145 b.

Iroda BOBOJONOVA,
A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘QUVCHILAR BILIM VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada CLIL nima ekanligi, uning o‘quvchilarga qanday foyda keltirishi, CLILning asosiy tamoyillari va CLIL kontekstida Blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan va keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. CLIL, metod, prinsip, ko‘nikma, malaka, kommunikatsiya, bilim, motivatsiya, Blum taksonomiyasi.

В этой статье анализируется и широко освещается, что такое CLIL, как он может принести пользу учащимся, основные принципы CLIL и преимущества использования таксономии Блума в контексте CLIL.

Ключевые слова. CLIL, метод, принцип, навыки, компетенции, коммуникация, знания, мотивация, таксономия Блюма.

This article analyzes and extensively covers what CLIL is, how it can benefit students, the basic principles of CLIL and the benefits of using Bloom's taxonomy in the context of CLIL.

Key words. CLIL, method, principle, skills, competencies, communication, knowledge, motivation, Blum's taxonomy.

Bugungi kunda aksariyat ingliz tili o‘rganuvchilari uchun til o‘rganish bilan bir qatorda, boshqa fanlarni o‘zlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari o‘quvchilarning qiziqish va psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olsak, ba’zi o‘quvchilar ingliz tiliga emas, balki boshqa fanlarga ko‘proq qiziqishi tabiiy. Agar biz o‘quvchi qiziqqan fanga oid ma’lumotlarni ingliz tilida beradigan bo‘lsak, bunda o‘quvchining ham ingliz tilini o‘rganishiga, ham qiziqqan faniga oid ma’lumotlariga ega bo‘lishiga erishishimiz mumkin. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishini ikki karra oshishiga va bu orqali ingliz tili o‘qitish samaradorligining yuqorilashiga olib keladi. CLIL metodidan foydalanish bizga shunday imkoniyat taqdim etadi.

CLIL atamasi 1994-yilda Finlandiyada ta’lim taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, ta’lim innovatsiyalari, strategiyasi va amaliyoti bo‘yicha xalqaro miqyosdagi taniqli ekspert Devid Marsh tomonidan yaratilgan bo‘lib, Content and Language Integrated Learning, ya’ni tarjimasi, biror fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘rganish bo‘lib, chet tili vositasida fizika va geografiya kabi biror (kontent) fanni o‘rganish va fanni o‘rganish orqali chet tilini o‘rganishni tavsiflovchi yondashuvni bildiradi.

Yevropa Komissiyasi CLILga shunday ta’rif beradi: “Fan va til integratsiyalashgan ta’lim bo‘lib, bunda o‘quvchilar biror fanni chet tili vositasida o‘rganadilar.”

Devid Marsh CLILni biror fan yoki fan mavzulari chet tilida o‘qitilayotgan vaziyatda ikki tomonlama maqsadni, ya’ni fanni o‘rganish va shu bilan bir qatorda chet tilni o‘rganishni amalga oshiradigan jarayon, deya izohlaydi.

CLILni qo‘llash qay darajada samara beradi? O‘quv jarayonida CLIL yondashuvidan foydalanish har qanday yoshdagi o‘rganuvchilar uchun, boshlang‘ich darajadan universitetgacha samarali natija keltiradi. Fan mazmuni va til maqsadlari o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi, va bu o‘qitish usulidan kim foyda

olishi mumkinligi borasida hech qanday cheklov yo‘q. Biroq, u ko‘pincha boshlang‘ich va o‘rta maktabda foydalaniladi.

XXI asr o‘quvchilari uchun CLIL juda yaxshi metodologiya, sababi u o‘quvchilardan talab qilinayotgan XXI asr ko‘nikmalarini, jumladan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga undaydi.

XXI asr ko‘nikmalari:

– tanqidiy fikrlash (muammolarni hal qilish);

– muloqot (fikrlarni tushunish va yetkazish);

– o‘zaro hamkorlik (boshqalar bilan ishlash);

– ijodkorlik (yangi bir narsa/loyiha yaratish).

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida CLILni qo‘llashda ma’lum strategiyaga ega bo‘lish muhimdir. Zarur bo‘lgan asosiy narsalardan biri shundaki, til va boshqa fan mazmuniga teng e’tibor qaratish lozim. Koylning 4Cs o‘quv dasturiga ko‘ra (1999), muvaffaqiyatli CLIL sinfi quyidagi to‘rtta elementni o‘z ichiga olishi kerak:

Fan – belgilangan fanga oid o‘quv dasturining muayyan elementlari bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakani rivojlantirish;

Muloqot – o‘zaro muloqotda xorijiy tildan foydalanishni o‘rganish;

Kognitivlik – chet tilda tushunish, o‘ylash va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

Madaniyat – boshqa davlatlar madaniyati va fuqoroligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lish.

Demak, o‘quv jarayonida CLILdan foydalanish o‘quvchilardagi 4 elementni rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

CLILning afzalliklari – bugun CLILmetodologiyasi butun dunyo o‘qituvchi va o‘quvchilarini nimasi bilan o‘ziga jalb qilmoqda? Avvalo, CLIL o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Agar ularda ishonch bo‘lsa, tezroq o‘sish bo‘ladi, chunki ular sizning darsingizdan motivatsiya olishadi. Shuningdek, CLIL til, madaniyat va real hayot elementlarini uyg‘unlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bu esa, shubxasiz, o‘quvchilarning madaniy va real dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. CLIL o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatga erishishlarida ham katta xizmat qiladi. Har bir fanda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari va akademik lug‘atdan foydalanish ularning fanlararo muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Bularning barchasi bilan birga CLIL o‘quvchilarga muvaffaqiyat hissini beradi, chunki o‘quvchilar ingliz tilida murakkab materiallar haqida gapiradi va yozadi, bu ularga muvaffaqiyatni his qilishlariga zamin yaratadi. O‘quv jarayonida CLILning afzalliklari haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Quyida sizga ayrimlarini ta’kidlab o‘tamiz:

– til malakasini va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini oshiradi;

– o‘quvchilarga o‘rganilayotgan tilda ko‘proq aloqa qilish imkonini beradi;

– qo‘shimcha dars soatlarini talab qilmaydi;

– madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– quyi va yuqori tartibli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriadi;

– o‘quvchilarning til va fanga bo‘lgan ishtiyoqini va ishonchini oshiradi.

CLILning ikki turi mavjud bo‘lib, ular quyidagi:

– Soft (yumshoq) CLIL – tilni o‘qitish asosiy maqsadi;

– Hard (qattiq) CLIL – fanni til vositasida o‘qitish asosiy maqsadi.

	Soft CLIL	Hard CLIL
Kim o‘qitadi?	Til o‘qituvchisi (til darsida)	Fan o‘qituvchisi (fan darsida)
Ular tildan qanday foydalanadilar?	Asosiy til o‘qitilayotganda boshqa fanga oid mavzulardan foydalaniladi	Fanni o‘qitishda chet tildan foydalaniladi
O‘qitishdan maqsad nima?	Tilni o‘qitish	Fanni va ozroq tilni o‘qitish
Nima o‘qitiladi?	Tilni o‘qitish o‘quv dasturi ko‘ra, shuningdek, boshqa fanga oid terminlar	Fan dasturi va til

Biz ingliz tili darslarida soft CLILdan foydalanamiz, bunda asosiy urg‘uni tilni o‘qitishga beramiz.

Blum taksonomiyasi – CLIL darslariga o‘quvchilarni faol jalb qilish va ularning o‘rganishini qo‘llab-quvvatlash usullaridan biri yangilangan Blum taksonomiyasini amalda qo‘llashdir. Ta’lim tizimida Blum taksonomiyasi o‘tgan asrning 50-yillaridan hozirgacha foydalanilib kelmoqda va bu bejizga emas. Blum taksonomiyasi ta’limdagi o‘quv maqsadlarini tasniflaydi va ko‘nikmalarni quyi tartibli fikrlash ko‘nikmalaridan yuqori tartibli fikrlash ko‘nikmalariga qadar iyerarxiyaga qo‘yadi.

CLIL haqidagi ko‘p manbalarda odatda LOTS va HOTS qisqartmalari qo‘llaniladi. LOTS (Lower Order Thinking Skills) – quyi tartibli fikrlash ko‘nikmalari, HOTS (Higher Order Thinking Skills) – yuqori tartibli fikrlash ko‘nikmalari degan ma’nolarni bildiradi.

LOTS – bu Blum taksonomiyasida keltirilgan uchta quyi darajadagi ko‘nikmalar: eslab qolish, tushunish, amalda qo‘llash;

HOTS – esa uchta yuqori darajadagi ko‘nikmalardir: tahlil qilish, baholash va yaratish.

Quyidagi piramidada siz uchburchak cho‘qqisiga qarab murakkablik darajasi ortib borayotgan Blum taksonomiyasining darajalarini ko‘rishingiz mumkin.

Ko‘pincha o‘qituvchilar darslarida quyi tartibli fikrlash qobiliyatlarini (LOTS) rivojlantiradigan savollar berishadi, masalan: nima, qachon, qayerda va qaysi kabi savollar. Ammo, ular yuqori tartibli fikrlash qobiliyatlarini (HOTS) talab qiladigan savollarni ham berishlari kerak. Bular nima uchun va qanday qilib singari savollarni o‘z ichiga oladi va shuning uchun murakkabroq tildan foydalanishni talab qiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘quvchilarning yuqori tartibli fikrlash qobiliyatlari CLIL sinflarida o‘qiganda yaxshiroq rivojlanadi.

Chexiyalik olim fan nomzodi Zdenek Vasichek CLIL kontsepsiyasida BTdan foydalanish quyidagi besh bosqichli usulini taklif qilgan:

1-qadam: Boshqa fan mavzulari bo‘yicha faqat ingliz tilidagi asosiy boshlang‘ich lug‘atdan foydalaning. Bunda birinchi qadam BT darajalarining ishtirokisiz bo‘ladi.

2-qadam: Faqat BTning 1-darajasidan tanlangan 1 ta ingliz tilidagi so‘z turkumidan foydalaning. Masalan, to describe – ta’riflamoq.

3-qadam: BTning 1-6 darajalarining har biridan tanlangan 1 ta ingliz tilidagi so‘z turkumidan foydalaning: 1. To describe - ta’riflamoq 2. To explain – tushuntirmoq 3. To apply - qo‘llamoq 4. To compare – qiyoslamoq 5. To criticise - tanqid qilmoq 6. To invent - ixtiro qilmoq.

4-qadam: BT 3-4 darajalarining yana ba’zi fe’llaridan foydalaning (oldingilariga sinonim bo‘lmasin).

5-qadam: BTning 1-6 darajalaridagi barcha sinonimlardan foydalaning.

Ushbu ketma-ketlikdan ingliz tili darslarida foydalanish o‘qituvchilar uchun samarali natijaning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, CLIL darslari ingliz tilini real hayotga bog‘laydi. Samarali metodlar va qiziqarli vazifalarni darsda qo‘llashda o‘quvchi nafaqat ingliz tili balki, o‘rganilayotgan fan til haqida ham ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. CLIL bu yondashuv bo‘lib, uning aniq belgilangan asosiy tamoyillari uni boshqa amaliyotlardan ajratib turadi. CLIL va Blum taksonomiyasining birlashuvidagi samarani ulardan ko‘zlangan maqsadlar mushtakligida ko‘rishimiz mumkin. Zero, CLILda ham, Blum taksonomiyasida ham o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor omil hisoblanadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, CLIL yondashuvi rivojlanayotgan ta’lim yondashuvidir va uning amaliyoti muammo va qarama-qarshiliklardan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Luisa Bundy, Gabriela Porc. “The effectiveness of CLIL for English language learning in Swedish primary schools”. 2020.

2. “The effectiveness of CLIL for English language learning in Swedish primary schools”. University of Cambridge ESOL Examination. 2008.

3. Vasicek, Z. “Piano Playing as CLIL at the Primary Arts School in Tisnov (Czech Republic)”. 2000-2007.

4. Jindriska Sulistova. «The Content and Language Integrated Learning Approach in Use». 2013.

5. https://www.english.com/blog/author/joanna-wiseman/

6. https://journals.openedition.org/ced/1836

7. http://www.playingclil.eu/clil-principles/

Nuriddin RUZIYEV,
Andijon davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi

AMALIY SAN'AT SOHASIDA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA USTOZ-SHOGIRDLIK QADIRYATLARI ZARURIY BO'G'IN SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada ustoz-shogirdlik shakllarining o'zaro muloqot tizimi mamlakatimizda keng pedagogik va kasbiy harakati, shu jumladan, turli xil ijtimoiy guruhlar, muassasalar va avlodlar vakillarini yagona jamoada yaratilishi, ularning sa'y-harakatlari, umuman O'zbekistonning ta'lim va iqtisodiy tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ustoz-shogirdlik qadryatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ustoz-shogird, ta'lim, tadqiqot, bilim, ko'nikma, zamonaviy ta'lim, ijtimoiy guruh, modellar.

В статье речь пойдет о ценностях педагогического ученичества в нашей стране, о создании системы взаимодействия форм педагогического ученичества в едином коллективе представителей широкого педагогического и профессионального движения, в том числе различных социальных групп, институтов и поколений, усилия которых направлены на развитие молодежи, образование и экономические системы Узбекистана в целом.

Ключевые слова. Учитель-ученик, образование, исследования, знания, навыки, современное образование, социальная группа, модели.

The article will talk about the creation of the system of interaction of teacher-discipleship forms in our country in a single team of representatives of a wide pedagogical and professional movement, including various social groups, institutions and generations, the values of teacher-discipleship, the efforts of which are aimed at the development of educational and economic systems of Uzbekistan in general.

Key word. Teacher-disciple, education, research, knowledge, skills, modern education, social group, models.

Insoniyat tarixi davomida xalq va bezak san'ati insoniyat madaniyati va kundalik hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Amaliy san'at asarlari millatning badiiy an'analarini, xalqning dunyoqarashi va badiiy tajribasini aks ettiradi, tarixiy xotirani saqlaydi.

Xalq amaliy san'ati asarlarining ahamiyati nafaqat ularning moddiy madaniyatni ifodalashida, balki ma'naviy madaniyat yodgorliklari ekanligidadir. Hozirgi vaqtda an'anaviy xalq ijodiyoti namunalarining ma'naviy ahamiyati o'tmishga nazar tashlab, xalqning tarixiy yaxlitligini va o'zini o'zi aniqlashni saqlashga imkon beradi.

Zamonaviy o'zbek gravyurasini o'z ichiga olgan amaliy san'atning geografik jihatdan belgilangan turlari mintaqaning maxsus aurasini, uning o'ziga xosligini saqlab qolishga va ma'lum darajada iqtisodiyot uchun muhim, ammo insonning ma'naviy dunyosi uchun halokatli bo'lgan haddan tashqari globallashuvning oldini olishga imkon beradi. Kichik Vatan tushunchasi, ona yurt tuyg'ulari o'simlik ildizlari kabi inson uchun zarurdir. Xushbo'y hid gulga xos va undan ajralmas, shuning uchun yurt san'ati uning

o‘ziga xos xususiyati, uning ruhidir.

O‘zbekistonning xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir. Yurt hunarmandchiligi dunyoni ongli idrok etishning ko‘p asrlik tajribasini aks ettiradi, bu kelajakka tayanch bo‘lib, mamlakatimizdagi turli millatlarining xalq ijodiyoti an’analarini saqlaydi. An’anaviy xalq hunarmandchiligini aktuallashtirish maqsadlari: an’anaviy xalq madaniyatini saqlash, amaliy ijodning ahamiyatini oshirish va qo‘l mehnatini ommalashtirishdir.

An’analar konsepsiyasining o‘zi uzatiladigan narsalarni maksimal darajada saqlab qolish bilan avloddan-avlodga uzluksiz uzatishni nazarda tutadi. Zamonaviy o‘zbek gravyurasi texnikasi nisbatan yosh dekorativ va amaliy san’at turi bo‘lib, shunga qaramay aniq an’anaviy texnologiyaga ega. Boshqa amaliy san’at turlari singari, gravyura texnikasi takomillashtirilmoqda va metallni qayta ishlashning barcha yangi usullaridan foydalanmoqda, ammo asoslari va bosqichlari o‘zgarishsiz qolmoqda.

Har qanday san’at asari, shu jumladan xalq ijodi, agar u massaga aylansa, ma’nosini yo‘qotadi. Mahsulotning o‘ziga xosligi mahsulotga investitsiya qilingan ruh – bu san’atni ommaviy ishlab chiqarishdan ajratib turadigan narsa. Jarayonni har qanday avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash badiiy mahsulotni shaxssizlashtiradi, uni, ehtimol, yanada mukammal, ammo odatiy obyektga aylantiradi.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalar va an’analar muvozanatini topish, zamonaviy o‘zbek gravyurasi maktabini yo‘q qilishga yo‘l qo‘ymaslik juda muhim, bu bugungi kungacha dunyoga noyob san’at asarlarini taqdim etadi.

Badiiy mahsulotlar ishlab chiqarishning nozikliklari va o‘ziga xos xususiyatlari faqat ta’lim standartida belgilangan dastur bilan uzatilishi mumkin emas, san’atga aylangan hunarmandchilikning nyuanslari faqat qo‘ldan qo‘lga, ustozdan shogirdga uzatilishi mumkin. Kasb bilan tanishishning dastlabki bosqichida zarur bo‘lgan nazariy asoslar, asosiy bilimlar faqat ustozdan shogirdga etkazilgan ilhom uchquni bilan hayotga kiradi. Va kelajakdagi ustozlar uchun zarur bo‘lgan bu aloqa faqat ustoz-shogirdlikni saqlash bilan mumkin.

Mamlakatimizda ustoz-shogirdlik maktabi rivojlanishning bir necha bosqichlaridan o‘tgan. O‘tgan asrning 30-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davrda ustoz-shogirdlikning tarixiy rivojlanishining retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning mehnat ta’limini ishchilar sinfi sifatida shakllantirishga qaratilgan butun bir yaxshi tashkil etilgan tizim mavjud edi. Shu bilan birga, ustoz-shogirdlik tizimini tiklash jarayoni davom etmoqda, ammo asosiy e’tibor shaxsga, uning yangi sharoitlarga moslashishiga, kasbiy, individual fazilatlarni shakllantirishga, umuman korxonalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan korporativ madaniyatni shakllantirishga qaratilgan.

Ta’lim jarayonida har bir ishtirokchining roli ta’lim muassasasi uchun ham, talaba uchun ham, o‘z ustozlari bo‘lgan ustaxona uchun ham muhimdir. Faqatgina ustozni ustaxona bilan birgalikda tayyorlash nafaqat ularning kasbiy mahoratini o‘tkazish uchun faoliyatning aniq usullarini o‘zlashtirishga, balki yangi mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy va pedagogik vazifalarini hal qilishga imkon beradigan va shu bilan ularning raqobatbardoshligini shakllantirishga imkon beradigan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Amaliy san’at (badiiy kulolchilik)” mutaxassisligi bo‘yicha oliy ta’limi dasturini o‘zlashtirish va butun o‘quv jarayoni davomida talabalarga bevosita ustozlik qilishning tobora ortib borayotgan ta’sirini kuzatish mumkin.

Kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilari va

ustoz-murabbiylarning ta’sir nisbati barqaror o‘zgarib bormoqda.

2 kurs. Talabalar oliy ta’limga o‘tishgan. Ushbu bosqichda o‘qituvchilarning dastlabki ustun ta’siri dastlabki asosiy kompetensiyalarni singdirishda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi asosiy nazariy bilimlar manbai sifatida, albatta, ushbu bosqichda yetakchi rol o‘ynaydi.

3 kurs. Uchinchi kurs o‘quv dasturini yakunlash jarayonida talabalar o‘zlarining birinchi jiddiy ijodiy ishlarini yaratadilar, ularni ishlab chiqarish jarayonida ular o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar, ular uchun ishlab chiqarish faoliyatining eng qiziqarli yo‘nalishlarini aniqlaydilar. Ushbu bosqichda o‘qituvchi shartli ravishda yetakchi rolni ustozga o‘tkazadi. Kelajakda o‘qituvchi yordamchi funksiyani bajaradi.

4 kurs. To‘rtinchi yildagi o‘quv jarayoni aslida faqat amaliy faoliyatdir. Butun nazariy blok va dastlabki amaliy ko‘nikmalar kasbiy faoliyatga tayyorlik bilan birlashtirilgan. Talabalarning bir qator hisobot ishlari o‘qituvchiga asosan tuzatuvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarni qoldiradi.

Yaqin vaqtgacha yosh kadrlar tayyorlash zarurligini chin dildan tan olmagan bir qator korxonalar hozirda kadrlar siyosatini o‘zgartirib, bo‘lajak xodim uchun kurashga kirishmoqdalar. Aksariyat korxonalarning asosiy xodimlari asta-sekin pensiyaga yaqinlashmoqda. Shunday qilib, 5-10 yillik rivojlanish strategiyasiga ega korxonalar bugungi talabalarni keyingi ish bilan amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilishga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Yosh xodimlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitish bosqichida kasbiy ishlarda ustoz-shogirdlik zarurligini inkor etadigan bir qator korxonalar mavjud. Ko‘pincha, bunday korxona egasi yosh kadrlarni jalb qilish zarurligini anglab, ustoz-shogirdlikni tashkil etish jarayonini tashkil etmaydi. Bunday korxona xodimlarining asosan ish haqi, shuningdek, mavjud mutaxassislarning ustoz sifatida ishlashga roziligini ma’qullamaydi. Faqatgina ish beruvchi xodimni ustoz bo‘lishga undashi mumkin, uning bevosita manfaatlari to‘plangan tajribani yosh mutaxassislarga o‘tkazishdir.

Faqat yuqori rahbariyat darajasida ustoz-shogirdlik zarurligini bilish bunday korxonaning yaqin kelajakda xodimlarning yo‘qligini oldini oladi.

Yosh kadrlarni jalb qilishdan manfaatdor bo‘lgan ish beruvchi eng yaxshisini olishni xohlaydi. Buning sababi shundaki, eng yaxshi talaba yaxshi xodim bo‘lishi mumkin, amaliyot va moslashuvdan o‘tish osonroq. Dunyo bo‘ylab harakat eng yaxshilarni aniqlash va eng yaxshi unvon uchun sog‘lom raqobatga imkoniyat yaratish uchun mo‘ljallangan.

Masalan, asosiy toifa va o‘smirlar uchun mahoratni bajarish vazifasi, donishmandlar mahorati toifasi uchun esa badiiy mahsulotni loyihalash va qisman bajarish taklif qilinadi.

Asosiy toifadagi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik jarayonida OTM talabalari orasidan ishtirokchilarga zamonaviy o‘zbek gravyurasi texnikasi bo‘yicha badiiy mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarda katta tajribaga ega bo‘lgan ustozlar va maxsus fanlar o‘qituvchilari biriktirildi. Ishtirokchilar va unga biriktirilgan ustozlarning raqobatbardosh hayajonlari ustoz-shogirdlik faoliyatining ijobiy ta’sirining butun spektrini ko‘rsatdi. Ishlab chiqarish korxonalari bazasida biriktirilgan ustozlar rahbarligida amaliyot o‘tash bizga nafaqat qattiq, ya’ni o‘ziga xos, chuqur texnologik bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki professional muhitda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan oson kompetensiyalarni shakllantirishni boshlashga imkon berdi.

Bunday mashg‘ulotni o‘tkazish tajribasi ta’lim muassasasi va ish beruvchi kompa-

niyaning umumiy muvofiqlashtirilgan ishining barcha afzalliklarini aniq ta’kidladi. Bunday tadbirlar talabalarni rag‘batlantiradi, ularning bilimlarini yanada amaliy, foydali va mazmunli qiladi. Ishni baholash jarayonida hozirgi mutaxassislar nazariy tayyorgarlik davrida rivojlanmagan fikrlarga e’tibor berishadi.

Ustoz-shogirdlik nafaqat ish joyida yosh mutaxassislarni tayyorlash, balki nazorat, ya’ni kelajakda ta’lim muassasasiga o‘qituvchi sifatida qaytishi mumkin bo‘lgan shogirdlar ustida ishlashdir.

Pedagogik amaliyot doirasida ustoz-shogirdlik talabani o‘z salohiyatini rivojlantirish va kasbiy shakllantirish yo‘lida qo‘llab-quvvatlash sifatida alohida rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasasining yosh mutaxassislariga ustoz-shogirdlik qilishning foydasi shundaki, ular o‘z ishlarida qiyinchiliklar yuzaga kelganda o‘z vaqtida malakali uslubiy yordam oladilar va keyingi kasbiy o‘sishga undaydilar.

Barkamol qurilgan ustoz-shogirdlik tizimi ustoz-shogirdlik tizimiga jalb qilingan xodimlarning kasbiy darajasini oshirishga yordam beradi. Ustoz boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ta’lim muassasasidagi mavqeini yaxshilaydi, professional sifatida obro‘-e’tibor va hamkasblar ishonchini qozonadi. Yosh mutaxassis yoki shogird moslashish bosqichida o‘z vaqtida yordam oladi, bu ularga OTMga tezroq ko‘nikish imkonini beradi, murakkab ish vazifalarini hal qilishda, kasbiy va martaba rivojlanishida yordam oladi.

Ustoz-shogirdlikning samaradorligi uning individual tabiati bilan izohlanadi. Ustoz o‘zi tomonidan qilingan xatolarga tezda munosabat bildirishi, ularni batafsil tahlil qilishi va ishning to‘g‘ri yo‘nalishini ko‘rsatishi mumkin. Ustozlar professional jamoani yaratish va yosh mutaxassislarni professional jamoaga qo‘shishda muhim funksiyaga ega.

Talabaning kasbiy rivojlanishida ustozning shaxsiyati asosiy rol o‘ynaydi. Ustoz-shogirdlik faoliyatini amalga oshirish uchun pedagogik mahorat darajasini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish, ish shakllari va usullarini takomillashtirish, hamkasblar bilan tajriba almashish zarur. Har yili san’at bo‘limida ochiq darslar, uslubiy ma’ruzalar taqdim etish mumkin. Masalan:

* amaliy san’at namunalari ustida ishlash orqali talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish bo‘yicha uslubiy hisobot;

* “Yangi O‘zbekiston – ranglar timsolida” mavzusida master-klass; “Badiiy obraz yaratish” mavzusida ochiq dars;

* mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiyada ma’ruza.

Samarali ustoz kasbiy mahorat musobaqalarida ishtirok etib, tinglovchilarga o‘rnak ko‘rsatishi kerak. Shogirdlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari quyidagilar bo‘lib, ularni uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Tanishish, o‘zaro tushunish va ishonch munosabatlarini o‘rnatish, mas’uliyat doirasini aniqlash, shogirdning ko‘nikma va qobiliyatlaridagi kamchiliklarni aniqlash.

2. Moslashuv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, shogirdning kasbiy mahoratini sozlash.

3. Shogirdning kasbiy moslashish darajasini va uning ishni bajarishga tayyorlik darajasini aniqlash.

Shogirdlar bilan ishlashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv afzal hisoblanadi. Ustoz badiiy qobiliyatini ro‘yobga chiqarish zarurligiga e’tibor qaratadi. Ustoz shogirdlarning muvaffaqiyatini kuchaytirishga, yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish istagini qo‘llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Shogirdlar bilan ishlashda ba’zi xususiyatlarni ta’kidlash mumkin. Shogirdlar bilan

ishlash haqiqiy ish sharoitida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bu jarayon ustoz va shogird o‘rtasidagi yaqin shaxslararo aloqani, yosh o‘qituvchining kasbiy pozitsiyalarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib:

– talaba ushbu kasb bo‘yicha mutaxassislarning haqiqiy faoliyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi, mashg‘ulot davomida ularning kuchini baholay oladi;

– ta’lim muassasasi o‘qituvchilari fikr-mulohaza va talabalarning tayyorgarligini obyektiv baholaydilar;

– ish beruvchi kompaniya mutaxassislari ta’lim jarayonining tuzatish mantiqiy lahzalariga e’tibor berish imkoniyatiga ega. Shuningdek, kelgusida ishga joylashish uchun eng istiqbolli ishtirokchilarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, amaliy san’at sohasida mutaxassislarni tayyorlash, ustoz-shogirdlikni qaror toptirish ta’lim muassasasi va xodimlarni yanada rivojlantirish va jalb qilishdan manfaatdor bo‘lgan ish beruvchi o‘rtasidagi chuqur o‘zaro aloqasiz mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Faxriddin Rizouddin ibn. Ilmning o‘n to‘rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – 88 b.

2. Ron J. Aql vitaminlari. – T.: FUTURE-BOOKS, 2021. – 383 b.

3. Rtveladze E. Taraqqiyotning mangulik chashmasi //. http://www.adolatgzt.uz/society/ munosabat / 4390

4. To‘rayev B. Uchinchi muallim – O‘zbekiston falsafasi yutuqlarini targ‘ib qilgan vakil // https://uza.uz/uz/posts/uchinchi-muallim-ozbekistonfalsafasi-yutuqlarini-targib-qilgan-vakil_332585

5. Tursun, Ahmad Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – 55 b.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – T.: Hilol-nashr, 2016. – 456 b.

7. Sharafiddinov O. Domlalar. – T.: Ma’naviyat, 2009. – 280 b.

8. Shermuhamedova N. Falsafa. – T.: Idris Abdurauf Nashr, 2021. – 663 b.

9. Масалимова А.Р. Содержание и технологии корпоративной подготовки наставников: педагогическая составляющая / А.Р. Масалимова // Учебно-методическое пособие. Казань: Издательство КФУ, 2015. – С. 123

10. Митрофанов В.А. Наставничество в современном вузе: теоретические основания и практический опыт / В.А. Митрофанов, О.К. Логвинова, А.И. Ярмолюк // Человеческий капитал. 2016. № 11 (95). – С. 35-38.

Vahobjon RAJAPOV
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika
fanlari ilmiy-tadqiqot institutining mustaqil tadqiqotchisi

O‘SMIR QIZLARNI MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA SINF RAHBARI VA OILANING HAMKORLIGINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinf rahbarining oila bilan hamkorligini to‘g‘ri tashkil etish usullari, yo‘llari va o‘smir qizlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda sinf rahbari va oilaning hamkorlikdagi vazifalari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, sinf rahbari, hamkorlik, oilada sog‘lom muhit, shaxsiy namuna, ota-onalar jamoasi.

В данной статье рассказывается о методах, путях правильной организации сотрудничества классного руководителя с семьей и о совместных задачах классного руководителя и семьи в формировании духовного мировоззрения девочек-подростков.

Ключевые слова. Семья, классный руководитель, сотрудничество, здоровая атмосфера в семье, личный пример, родительский коллектив.

This article describes the methods and ways of the correct organization of cooperation between the class teacher and the family and the joint tasks of the class teacher and the family in the formation of the spiritual outlook of teenage girls.

Key words. Family, homeroom teacher, cooperation, healthy atmosphere in the family, personal example, parent team.

Yangi O‘zbekistonning kelajagi, istiqboli, xalqimizning farovon turmushi, tinch-totuvligi, boshqa xalqlar bilan tengligi bevosita fan va madaniyatning rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘langan. Mamlakatimizda yoshlarga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish ham davlat miqyosidagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning samarali usuli sinf rahbarining oila bilan hamkorligini to‘g‘ri tashkil etishdadir.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tarbiya haqida “Bizni o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugungi zamon shiddat bilan o‘zgaryapti, bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘p his qiladigan kim – yoshlar. Mayli yoshlar zamon bilan uyg‘un bo‘lsin, lekin o‘zligini ham unutmaslik kerak. Bunga nimaning hisobiga erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobiga erishishimiz mumkin”.

O‘smir qizlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda oila va maktab katta rol o‘ynaydi va u ularda o‘zini qanday his qilishi uning shaxs sifatida rivojlanishiga bog‘liq. Binobarin, oilasiz maktab ham, maktabsiz oila ham maktab o‘quvchisi bo‘lishdek eng nozik, eng murakkab vazifalarni bajara olmaydi. Maktab oilani o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda hamkorlikka taklif qilishi kerak. Oila o‘quvchi qizlar tarbiyasida maktabni do‘st deb bilishi kerak. Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik maqsadli va uzoq muddatli mehnat natijasi bo‘lib, bu eng avvalo, oilani, oilada qizlar tarbiyasi xususiyatlari va sharoitlarini har tomonlama va tizimli o‘rganishni nazarda tutadi. Pe-

dagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligi rejalashtirilishi va tashkil etilishi kerak. O‘qituvchi va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati shundaki, har ikki tomon ham o‘smir qizlarni qiziqishlarini o‘rganish, undagi eng yaxshi fazilatlarni ochish va rivojlantirishdan manfaatdordir. Sinfning tarbiyaviy ishini o‘smir qizlarning individualligi oilada shakllanishini hisobga olmasdan qurish mumkin emas. Sinf rahbari individual jarayonlarning ta’lim imkoniyatlarini, shu jumladan, ota-onalarning ta’sirini o‘smir qizlarga yagona talablarni qo‘yish asosida, ularning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiradi.

L.I. Malenkova maktab va oilaning o‘zaro munosabatlaridagi ta’lim pozitsiyasiga ko‘ra, sinf o‘qituvchisining quyidagi funktsiyalarini belgilaydi:

– ota-onalarni maktab tomonidan tashkil etilgan o‘quv jarayonining mazmuni va metodikasi bilan tanishtirish;

– ota-onalarning psixologik-pedagogik ta’limi;

– ota-onalarni bolalar bilan birgalikdagi faoliyatga jalb qilish;

– individual talabalar oilalarida ta’limni moslashtirish;

– ota-onalarning jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashning maqsadi, tamoyillari, yo‘nalishlari, shakllari, usullarini bilishi kerak. Tabiiyki, ish uslubi demokratik, o‘zaro ishonchga, ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Ushbu o‘zaro ta’sirning maqsadi o‘smir qizlarning ma’naviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishdir. Demak, sinf rahbarining kasbiy mutaxassis sifatida o‘quvchilarning ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarining mazmuni o‘smir qizlarning ma’naviy rivojlanishi va tarbiyasi, uning farovonligi, jismoniy va ruhiy salomatligi, tengdoshlari o‘rtasidagi mavqei va o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikdir.

Ya’ni o‘quvchining qobiliyati, mayl, qiziqishlarini aniqlash va turli faoliyatda rivojlantirishga yordam berish kerak. Bu o‘smir qizlarning zamonaviy hayotda to‘liq huquqli shaxs bo‘lishiga imkon beradi. Sinf rahbari shuni yodda tutishi kerakki, u o‘smir qizlarning ota-onalari bilan birgalikda ta’lim muhitini yaratishga, maktab va oilaning, qo‘shimcha ta’lim muassasalarining o‘smir qizlarning shaxsiyatiga nisbatan talablari birligini ta’minlashga chaqiriladi.

Bunga quyidagi tamoyillarga asoslangan o‘zaro faoliyatni amalga oshirish orqali erishish mumkin:

1. Ota-ona mehri va unga bo‘lgan hurmat tuyg‘usiga murojaat qilish;

2. Ota-onalar bilan munosabatda yaxshi niyat va diplomatiya;

3. Ota-onalar bilan muloqotda hamkorlik pozitsiyasi, ularning ota va ona sifatidagi shaxsini hurmat qilish, ularning mehnat va ijtimoiy faoliyati.

Sinf rahbarining vazifalari xilma-xil bo‘lib, o‘smir qizlarning oilalari bilan ishlash uning faoliyatida muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Oila va sinf rahbari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘zaro ishonch va hurmat, qo‘llab-quvvatlash va yordam, bir-biriga nisbatan sabr-toqat va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslanishi kerak.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan barcha faoliyati quyidagi yo‘nalishlar va shakllar bilan ifodalanadi:

– oilalarni va oilaviy ta’lim sharoitlarini o‘rganish;

– ota-onalarni sinfdagi ta’lim jarayonining mazmuni haqida xabardor qilish;

– ota-onalarning psixologik va pedagogik ta’limi; ota-onalar qo‘mitasi bilan o‘zaro hamkorlik;

– ota-onalar va talabalarning birgalikdagi faoliyati.

Har bir ota-ona farzandlariga yaxshi ta’lim-tarbiya berishga harakat qiladi. Kelgusida farzandlari jamiyatda o‘z o‘rnini topib, el-yurt xizmatiga kamarbasta insonlar bo‘lib yetishishiga harakat qiladi. Ayniqsa, qiz bola tarbiyasi o‘ta nozik tarbiyadir. Xalqimizda ‘‘Onasini ko‘r, qizini ol’’, degan gap bor. Bu gapning zamirida katta ma’no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turish munosabati, hunarmandligidan dars oladi, shu xislatni hayotga tadbiq etishga harakat qiladi. Qizlarni tarbiyalashda shaxsiy namuna muhimroqdir. Ona qizidan haqiqiy ayol bo‘lib yetishish uchun qanday tarbiya usullaridan foydalanmasin, ularga shaxsiy namuna bo‘lmasa, barcha qo‘llagan usullari foyda keltirmaydi. Onaning har kuni o‘zini tutishi qiz bola uchun eng yaxshi tarbiyadir. Agar ona o‘zini nazokatli va jozibali his qilmasa, u qizini haqiqiy ayol bo‘lishga o‘rgata olmaydi.

Qiz uchun namuna juda muhim va nafaqat ona bunday bo‘lishi mumkinligi sababli, u kim bilan muloqot qilishini, qanday filmlarni tomosha qilishini, qanday kitoblarni o‘qishini kuzatib borishingiz kerak.

O‘smir qizlarni tarbiyalayotgan barcha onalar doimo o‘z ustilarida ishlashlari kerak. Chunki, qiz har narsada onasiga taqlid qiladi. Unga barcha yechim topolmayotgan ishlarida yordam bering. Onaning vazifasi uni itarib yuborish emas, balki uni qo‘llab-quvvatlab rag‘batlantirishdir.

Qizlar juda sezgir, shuning uchun ularni noto‘g‘ri xatti-harakatlari uchun tanbeh qilmaslik kerak. Bunga amal qilinadi kuchli hissiy reaktsiyaga, shuning uchun qiz nima uchun unga ta’na qilganini tushunolmaydi. Agar qiz aybdor bo‘lsa, xotirjamlik bilan uning noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ko‘rsatishga harakat qilish va nima uchun buni amalga oshirish mumkin emasligini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Shundagina u o‘zining xatosini tezda tushunadi va endi bunga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi. O‘z-o‘zini hurmat qilishni kuchaytirish uchun o‘smir qizlarni tarbiyalashning bu xususiyatini hisobga olish muhim.

Qizni tarbiyalashda otaning roli bir xil darajada muhimdir. Ota har bir qizning hayotidagi asosiy erkakdir. Uning hissiy hayoti uchun otasi qanchalik ehtiyotkor, mehribon va g‘amxo‘r bo‘lishi juda muhimdir. Dadaning qiziga e’tiborining yetishmasligi uning shaxsiy hayotida bir qancha muammolarga olib kelishi mumkin.

Otalar qizining tarbiyasiga jiddiy qarashlari va bolaligidanoq bolasini maqtashlari va uning qanchalik yaxshi ekanligini har tomonlama ta’kidlashlari kerak. Oilada “erkak” tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari uning yonida erkak oila a’zolarining majburiy bo‘lishini talab qiladi. Agar oilada ota bo‘lmasa, bobo, tog‘a va amakilari qiz bolaning tarbiyasiga befarq bo‘lmasligi lozim.

Bir olim kishidan: ‘‘Dunyoda o‘limdan yomoni nima?’’ deb so‘raganlarida, olim kishi: “Qizingning noqobil bo‘lishidir”, deya javob bergan ekan.

Bu dahshatni boshidan kechirganlarning dilidan, tilidan bundan dahshatliroq nido chiqadi: ‘‘Qiz asragandan ko‘ra, tuz asrasam bo‘lmasmidi?’’.

Dol bo‘lgan qadlar, egilgan boshlarga keladigan xulosa undan ham dahshatli: ‘‘Qiz keltirgan nomus – o‘limdan kuchli’’. Asrlar, zamonlar bu azaliy gaplarning ma’nosini o‘chira olmaganidek, tig‘ini ham o‘tmaslashtira olmaydi. O‘zbek xonadoni borki, agar unda qiz o‘sayotgan bo‘lsa, shu xonadon sohiblarining ko‘nglida g‘urur, surur, shukur va qiz sha’ni bilan bog‘liq or-nomus ham yuqori bo‘ladi.

Shuning uchun ham xalqimiz qiz bolaning ma’naviy yetuk, komil inson bo‘lib o‘sishi uchun alohida ahamiyat beradi. Uni ‘‘oq qanddek o‘rab, avaylab, gard tekkizmaslikka’’ harakat qiladi.

Qizlar juda tabiiy tirishqoq va sinchkovdir. Ular boshlagan hamma narsani oxiriga yetkazishga intiladi. Asosiysi, bu ajoyib fazilatlarni hatto bolaligida ham yo‘qotmaslik uchun, uning har qanday tashabbusi va g‘oyalarini mamnuniyat bilan qabul qiling, unga harakat qilishiga imkon bering, shunda uning hayotdagi o‘rnini aniqlash osonroq bo‘ladi.

Biz ota-onalar bilishimiz juda muhim bo‘lgan narsa shuki, qiz bolaning ismi, jismi, ma’naviyati, borlig‘i, xatti-harakatiga hamisha o‘lchov boshqacha bo‘lib kelgan.

Xulosa qilib ayganda, ota-onalar va sinf rahbarlar bilan hamkorlikni tashkil etishda sinf majlislarining ahamiyati ham o‘rinlidir. Sinf rahbari o‘z faoliyatida ota-onalar bilan yaxshi ish olib borishi lozim. Ota-onalar orasidan faollar tayinlanib, tashkiliy ishlar faollar zimmasiga yuklatilishi kerak. Shu kabi iarayonlarda ota-onalarning farzandlariga bo‘lgan e’tibori va mas’uliyatlik hissi yanada ortadi. O‘quvchi qizlarning ta’lim-tarbiyasida yuksalish yuzaga keladi. Shunday ekan, oila ham, sinf rahbari ham o‘z vazifasini sitqidildan, astoydil bajarmog‘i lozim. Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Rayxon Beruniy aytganidek: ‘‘Har bir kishining qadr-qimmati o‘zining ishini qoyil qilib bajarishidadir’’.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev ,‘‘Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgalikda quranriz’’ – T.; 2011.

2. R.A. Mavlonova, B. Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘ quv qo‘llanma. – T.: Fan, – 2008 y.

3. Malenkova L.I. O‘qituvchilar, ota-onalar, bolalar: usul. o‘qituvchilar, sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – M .: Ped. Rossiyadagi jamiyat. – 2000. – 304 b.

4. https://www.naqshband.uz/makolalar/qiz-tarbiyasi

Firuz HAKIMOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, ‘‘Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning dolzarbligi, mazmuni va uning mohiyati, mexanizmlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, boshqarish, mexanizmlar, umumiy o‘rta ta’lim hamda ta’lim texnologiyalari.

В статье освещается актуальность цифровых технологий в управлении образовательными учреждениями в современном Узбекистане, ее содержание и сущность, механизмы и способы использования цифровых технологий в управлении общеобразовательными учреждениями.

Ключевые слова. Цифровые технологии, управление, механизмы, общее среднее образование и образовательные технологии.

The article highlights the relevance of digital technologies in the management of educational institutions in modern Uzbekistan, its content and essence, mechanisms and ways of using digital technologies in the management of educational institutions.

Key words. Digital technologies, management, mechanisms, general secondary education and educational technologies.

Jahondagi globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarida, raqamlashtirish davrida, Shimoliy va Markaziy Osiyoning ko‘plab mamlakatlari raqamli o‘sib borayotgan salohiyatdan foydalanish bo‘yicha tadbirlar, tadqiqot va ishlanmalarni keng targ‘ib qilib kelmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta’lim tizimini innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi.

Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvar kungi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekis-

tonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishni keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan ko‘plab o‘qitish texnologiyalari va treninglardan keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyiha, keys, ish faoliyatini ifodalovchi turli o‘yinlar, treninglar, bahs-munozaralar (nuqtayi nazar, tok shoular)ni tashkil qilish va hokazolardir.

Butun dunyoni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish barcha sohalarga jadal kirib bormoqda. Shu jumladan ham O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va mexanizmlashtirish bo‘yicha Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ko‘p bora ta’kidlab aytib kelmoqdalar. Bugungi kunda ta’lim sohasini strategik boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha keng ko‘ramli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlaridan global va tarqalgan ma’lumotlardan oqilona va refleksli foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va savodxonlikni egallash malaka va mahoratiga erishishga imkon beradi.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlash ularni rivojlantirishga refleksiv va tanqidiy, shu bilan birga izlanuvchan, ochiq va kelajakka qaratilgan munosabatni talab qiladi. Biz aniqlagan texnologiyalar o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiradi, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashini hamda raqamli kompetensiyasini rivojlantiradi. Taqdim etilgan raqamli texnologiyalar kasb-hunar ta’limi mutaxassislarining mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiluvchi vazifalarni to‘liq bajarmoqda. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, ta’lim jarayonini raqamlashtirishda yo‘l qo‘yilayotgan asosiy kamchiliklar aniqlandi. Xususan, o‘quvchilarning o‘z-o‘zidan ta’lim olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tayyorgarligi yetarli yemasligi tasdiqlanadi. Aniqlik kiritilishicha, raqamlashtirishning past darajasi metodik ta’minotning yetarli yemasligi va alohida didaktik vaziyatlarda bunday texnologiyalardan foydalanish yo‘llarining noto‘g‘ri tavsiflangani bilan bog‘liq. Ta’kidlanganidek, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning ta’lim faoliyatida keng qo‘llanilishi keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalarida jadal raqamlashtirishni optimistik prognoz qilish uchun asos bo‘lmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha kutilayotgan ilmiy yangiliklar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonining mavjud holati va bu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, yo‘llari, metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid tajriba-sinov ishlari tahlil qilinadi hamda uning samaradorlik darajasi aniqlanadi.

Nazariy qoidalar, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning raqamli transformatsiyasini boshqarish metodologiyasi va amaliy vositalarini ishlab chiqish.

Raqamli platformalarni yaratish va rivojlantirishga asoslash.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqaruvning turli darajalarida axborot tizimlari va texnologiyalarini ko‘rib chiqish;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini axborot tizimlari va texnologiyalari bilan ishlashning o‘rganilgan usullari va mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqaruv maqsadlarida muayyan axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Ushbu maqolada biz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarga asoslangan maktabdagi o‘zgarishlarga umid va ishonch bog‘lash hamda o‘qitishda texnologiyadan foydalanishning haqiqiy holati o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishimiz kerakligini ta’kidlaymiz.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va undan foydalanish metodologiyasini yaratish malakali yondashuvning kombinatsiyasi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati quydagilar:

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda o‘quv materiallari va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlash uchun tarmoqli dasturlash algoritmli modullar asosida o‘qitish;

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda platformalarini shakllantirish va zamonaviy dasturiy texnologiyalaridan foydalanish tamoyillarini ishlab chiqish;

• umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlash hamda test monitoringi protseduralari va dasturiy ta’minot uchun metodologiyani ishlab chiqish.

Raqamli texnologiyalar o‘qitish va o‘qitish formatini o‘zgartirib, axborotni ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bog‘lovchi vositaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoda shunday davr keldiki, ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish salohiyati va jamiyatning ilmiy darajasi kompyuterlarning umumiy quvvati va axborotni qayta ishlashning texnologik mukammalligi bilan belgilanadi. Ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish axborotni qayta ishlash qobiliyatini oshiradigan prinsipal jihatdan yangi ishlab chiqarish modulli dasturlar va texnologiyalari bilan jihozlash va rivojlantirishni talab qiluvchi eng muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6108 - sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli Farmoni.

3. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish tendensiyalari: innovatsiya, ta’lim, tajriba va kadrlar tayyorlash mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, F.N. Hakimov. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish.

Sirojjon TOSHPULATOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" 2-bosqich magistranti

BOLALAR VA O'SMIRLAR ORGANIZMINING ANATOMIK VA FIZOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar va o'smirlar organizmining anatomik va fizologik xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot bayon etilgan.

Kalit so'zlari. O'smir, bola, nerv, futbol, texnika, taktika, anatomik, organizm funksiyalarining rivojlanishida markaziy nerv sistemasi.

В данной статье приведены краткие сведения об анатомо-физиологических особенностях организма детей и подростков.

Ключевые слова. Подросток, ребенок, нерв, футбол, техника, тактика, анатомический, центральная нервная система в развитии функций организма

This article provides brief information about the anatomical and physiological characteristics of the body of children and adolescents.

Key words. Adolescent, child, nerve, football, technique, tactics, anatomist, marcasia nervous systems in the development of organism functions.

Katta yarim sharlar funksiyalarining qaytadan qurilishi bolalarning xulq-atvori, psixikasida o'z aksini topadi. O'smirlik yoshida bolalarning umumiy psixik qiyofasi ayniqsa tez o'zgaradi. Bolada o'z-o'zini namoyon qila borish jarayoni boshlanadi. O'smirlarda ma'lum bir faoliyat turida o'z kuchini sinab ko'rish, biror bir natijaga erishish ishtiyoqi paydo bo'ladi. O'smir turli-tuman narsalarga qiziqa boshlaydi, lekin bu qiziqishlar hali yetarlicha barqaror bo'lmaydi.

8-10 yoshda tafakkur va xotirada muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida mantiqiy fikr yuritish va abstrakt tafakkur qilish qobiliyati rivojlanadi. O'rganilayotgan harakatlarga tanqidiy yondashish paydo bo'ladi. Xotira ishidagi o'zgarishlar shunda ifodalanadiki, esga olish ancha kichik yoshda bo'lganidek, konkret hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishga qarab bormaydi, balki umumiy tasavvurlardan borliqdagi konkret hodisalarning ayrim detallarini xotirada tiklashga qarab boradi. Shuning uchun bu yoshda futbol texnikasini o'rganishni (texnikani bajarish detallariga alohida e'tibor bergan holda) yaxlit uslub asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda harakatlarni eslab qolish qobiliyati yosh oshib borgan sari ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgaradi. Bolalarning eslab qolish qobiliyati 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda juda tez o'sib boradi. Bu davrda erkin harakatlar koordinatsiyasi ancha yaxshilanadi. Harakatlarga avvalgiga qaraganda kam kuch sarflanadi va ular tobora harakatlarni aniq va tez bajariladigan bo'lib boradi. 9-10 yoshli bolalar futbol o'yinining eng oddiy usullarini nisbatan oson o'zlashtirib oladilar, shu bilan birga, kattaroq yoshda ularni yanada takomillashtirish ishi ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. 13-14 yoshli o'smirlarda koordinatsiya bo'yicha murakkab harakatlarni o'rganishda pubertat dav-

rining tormozlovchi ta’siri sezilarlidir. Bolalar bilan ishlovchi murabbiy va pedagoglar shuni hisobga olishlari kerakki, bolalar futbol bilan qancha erta shug‘ullana boshlasa, ularda shug‘ullanuvchilar imkoniyatlariga mos bo‘lgan harakat ko‘nikmalari shunchalik tez va oson hosil qilinadi.

Bola yoshligidan sport bilan shug‘ullansa, bu organizmning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir ikki xil namoyon bo‘ladi: morfologik o‘zgarishlar – bunda antropometrik belgilar tez o‘sadi; funksional o‘zgarishlar – bunda ishchanlik qobiliyati o‘sadi.

Jismoniy mashqlarning suyak tizimi rivojlanishiga ta’siri sezilarlidir (bolalik yoshida suyak tizimida juda ko‘p o‘zgarishlar bo‘ladi). Masalan, juda ko‘p tadqiqotlar bolalar umurtqa pog‘onasining juda ham qayishqoqligi va uzoq vaqt zo‘riqish natijasida noto‘g‘ri holatda bo‘lishi tufayli qiyshayib qolishi mumkinligidan dalolat beradi. 8-9 yoshli bolalarning umurtqa pog‘onasi juda ham harakatchan bo‘ladi. Bolalarda bo‘yin va ko‘krak qafasi bukiklari maktab yoshiga kelib qotadi. Bel bukiklari esa faqat balog‘at yoshiga yetish davriga kelib to‘liq qotadi. Umurtqa pog‘onasining qiyshayishi tufayli kuzatiladigan qaddi-qomatdagi buzilishning ko‘pchiligi 11-15 yoshlarda ro‘y beradi. Bu yoshda umurtqa pog‘onasining to‘g‘ri rivojlanishi uchun umurtqa mushaklarini mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlar bajarishni topshirish juda muhimdir.

Bolalik yoshida suyak qotish jarayoni hali tugallanmagan bo‘lishini hisobga olish kerak. 9-11 yoshlarga kelib, odatda, qo‘l barmoqlarining suyagi, bir oz keyinroq, 10-13 yoshlarda bilak va jag‘ suyaklari. 14-16 yoshlarda epifizar kemirchaklarda, umurtqa pog‘onalari orasidagi disklarda suyak qotish zonalari paydo bo‘ladi. Tos suyaklari faqat 20-21 yoshlardagina batamom qotadi. O‘mrov suyagi, kurak suyagi, yelka va bilak suyaklari 20-25 yoshlarga, oyoq panjalari, oyoq kafti va oyoq tovonining orasidagi suyaklar tegishlicha 15-21 va 17-21 yoshlarga kelib to‘liq qotadi.

O‘smirlik yoshida gavdaning o‘sish sur’ati yuqori bo‘lishi va gavda og‘irligining ortishi qayd qilinadi. Gavdaning bo‘yiga qarab o‘sishi o‘smirlarda asosan 17-18 yoshlarda tugallanadi. Shuning uchun katta balandlikdan sakrab tushayotganda qattiq depsinish, to‘p uchun kurashayotganda yelka bilan yelkani tutish, birdan to‘xtash va keskin burilish, o‘ng va chap oyoqqa notekis yuklama berish bel va tos suyaklarining qo‘shilib ketishiga, ularning noto‘g‘ri o‘sishiga sabab bo‘ladi. Oyoqlarga haddan tashqari yuklama berish, agar suyak qotishi jarayoni tugallanmagan bo‘lsa, oyoqning taypoq bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Bolalar skeletining jadal rivojlanishi ularning mushaklari, paylari va bog‘lovchi bo‘g‘in apparatining shakllanishi bilan mustahkam bog‘langan.

Bolada 8 yoshda mushaklar og‘irligi gavda og‘irligining 27 foizini, 12 yoshda –29,4 foizini, 15 yoshda – 32 foizini, 18 yoshlarga kelib esa 44,2 foizgachasini tashkil etadi. Mushaklar og‘irligining ortishi bilan birga ularning funksional xossalari ham takomillashib boradi.

Mushaklarning funksional xossalari 7 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan davrda jiddiy o‘zgaradi. 14-15 yoshli bolaning mushaklari o‘zining funksional hossalariga ko‘ra katta yoshli kishining mushaklaridan unchalik farq qilmaydi. 11 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan davrda futbolchilarning mushak kuchi bir tekisda rivojlanib bormaydi. 13 yoshdan 15 yoshgacha mushak kuchi eng ko‘p o‘sadi. Asosiy kuch ko‘rsatkichlari 73,2 dan 103,2 kg gacha, ya’ni 30 kg ga ortadi. 15-17 yoshda absolyut mushak kuchi kam o‘zgaradi, faqat 16-20 yoshlarda u katta kishiga xos bo‘lgan darajaga yetadi. 17-19 yoshli futbolchilarda asosiy kuch miqdori tegishlicha 126; 136,3; 159,1 kg ga yetadi. Asosiy

kuch ko‘rsatkichlarining o‘rtacha yillik o‘sishi futbolchilarda 12,3 kg ni tashkil etadi. 12 yoshdan 18 yoshgacha mushak kuchining o‘sishini ko‘rsatuvchi maksimal miqdor tovon mushaklari bilan ifodalaniladi (2,5 marta).

Yosh futbolchilarda tezlikni rivojlantirish dinamikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrda harakatlar sur’ati tez o‘sib boradi. Harakatlarning tezligi va ixtiyoriy chastotasi, shuningdek, ularning maksimal sur’atini saqlab turish qobiliyati 14-15 yoshlarga kelib, oxirgi natijaga yaqin bo‘lgan qiymatga erishadi. Futbolchilarning 60 m ga yugurishdagi natijalari 12-15 yosh orasida o‘sib boradi, 15 yoshdan keyin esa ular bir oz barqarorlashadi, bu hol keyinchalik “tezlik bar’eri”ning hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Agar 60 m ga yugurishdagi natijalar 11 yoshdan 18 yoshgacha 1,4 soniyaga yaxshilansa, 12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davrda u maksimal miqdorni – 1,16 soniyani tashkil etadi. Keyingi yillarda natijalar juda kam (0,24 soniya) yaxshilanib boradi.

Bolalar va o‘smirlarning organizmi tezlik yuklamalariga yaxshi moslashadi. Shuning uchun 8 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davr tezlikni va kuch sifatlarini rivojlantirish ham yosh ortgan sari qat’iy oshib boradi. Ular 13 yoshdan 16 yoshgacha eng yuqori darajada rivojlanadi. Bu davrlarda turgan joydan balandlikka sakrash natijalarining yillik o‘sish ko‘rsatkichlari tegishlicha 3,7 va 6,2 sm ga tengdir. 11 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan davrda sakrash balandligi 24 sm ga ortadi.

Bolalarda chaqqonlikning yoshga qarab rivojlanishi 10 yoshgacha ancha jadal bo‘ladi. Keyingi yillarda chaqqonlik harakat apparati funksional imkoniyatlarining qat’iy ortishi hisobiga anchagina rivojlandi.

Kichik maktab yoshi (7-11 yosh) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi shu yoshlarda bo‘g‘imlardagi harakatchanlik bilan mushaklarning baquvvat bo‘lishi o‘rtasida optimal nisbat kuzatiladi.

Maksimal tezlikning 75 foiziga to‘g‘ri keladigan tezlik bilan yugurish uzunligi bo‘yicha aniqlanadigan chidamlilikning eng ko‘p o‘sishi 13-14 yoshlarda kuzatiladi, 15-16 yoshda chidamlilik kamayadi. Bu maksimal tezlikning o‘sishi va buning natijasida ish quvvatining ortishi bilan tushuntiriladi. 17 yoshda o‘smirlarda chidamlilik yana ortadi.

Shuni qayd qilish kerakki, jismoniy mashqlar, jumladan, futbol bilan shug‘ullanish ta’sirida yosh sportchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanishidagi biologik qonuniyatlar o‘zgarmaydi. Faol pedagogik ta’sir ularning ancha yuqori darajada rivojlanishiga yordam beradi. U yoki bu xislatlarning ko‘proq rivojlanishi ro‘y berayotgan yoshda yuklamani kamaytirmaslik muhim ahamiyatga ega.

Harakat faoliyati faqat tayanch harakat apparatining rivojlanishi bilan emas, balki shu apparatga xizmat qiluvchi ichki a’zolar va tizimlarning funksional imko-niyatlari bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akromov R.A. Futbol darslik : O‘quv qo’llanma .O‘z.DJTI.:2006-406-b

2. Nurimov R.I. Futbol nazaryasi va uslubiyati . Darslik – T.: ITA-PRESS, 2015 364 b.

3. Караев В.Ш., Тошпулатов С.К. (2022). Диагностическая характеристика педагогического опита по развитию профессионалной компетентности учителей физической култури. Эурасиан жоурнал оф аадеми ресеарч. 2(3), 161-168.

4. Xabibullayev, C.X. (2020). Jismoniy imkoniyati cheklangan o’quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati. Mug’allim , 1(4), 148-153.

Shokirjon DONIYOROV,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'QITUVCHINING O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASHIDA PEDAGOGIK ASOSLAR

Annotatsiya

Maqolada pedagoglarning o'quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish jarayoni va rivojlantirishi yoritilgan. Bundan tashqari, pedagoglarning o'quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirish maqsadida ularni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish metodlari bilan qurollantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Pedagoglarni o'quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqati, etika, ideal, individual, ijobiy-xulqiy fazilatlar, munosabatining yig'indisi, taraqqiyot.

В статье рассматривается процесс и развитие профессионального развития, направленного на развитие способности педагогов работать с командой студентов. Кроме того, были даны рекомендации вооружить преподавателей методами организации совместных мероприятий, чтобы развить их способность работать со студенческим сообществом.

Ключевые слова. Способность педагогов работать с коллективом учащихся, этика, идеальные, индивидуальные, позитивно-поведенческие качества, сумма их отношения, успеваемость.

The article covers the process and development of professional development aimed at developing the ability of educators to work with the team of students. In addition, recommendations have been made to arm educators with methods of organizing collaborative activities in order to develop their ability to work with the student community.

Key words. The ability of educators to work with the team of students, ethics, ideal, individual, positive-behavioral qualities, the sum of their attitude, progress.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishini taqozo etadi. Bu ahloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta'sir o'tkazilishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy ahloq kategoriyalariga mos keladi va ularni o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar aniqlaydi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlilik, vijdonlilik, halollik, yaxshilik qilish kabilar o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ahloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi. Yaxshilik – ahloqiy, ijobiy fazilat bo'lib, normativ etikaning idealini, individual ahloqda ijobiy-xulqiy fazilatlari mazmunini inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatining yig'indisini aks ettiradi.

O'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi.

Bugungi kunda pedagoglarning kasbiy layoqati, ularning o'quvchilarga bo'lgan munosabatini insonparvarlik prinsipi asosida rivojlantirish tadqiqotlarning asosiy yo'na-

lishini belgilashi kerak. Pedagoglarning kasbiy layoqati, ularning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini kengaytirish, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasiga bo‘lgan munosabatini demokratlashtirish, insonparvarlashtirishga asos yaratdi. Ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish talab qilinayotgan bugungi kunda uni to‘laligicha pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Bunda pedagoglar bilan o‘quvchilar jamoasi orasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo munosabatlar pedagoglar va o‘quvchilar jamoasi orasida sog‘lom do‘stona munosabatlarning vujudga kelishiga xizmat qilishi kerak.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida barcha o‘quvchilarning tajribasini umumlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bu o‘rinda pedagog o‘quvchilar bilan diolog asosida hamkorlik o‘rnatishi kerak. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonining samaradorligini ta’minlashda pedagogning o‘ziga xos ish tajribasi, pedagogik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Barcha o‘qituvchilar bir xildagi ish shaklidan foydalanish bilan bir qatorda o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tahlil etishda turlicha yondashadilar. Bunday o‘ziga xoslik o‘quvchilar jamoasi tomonidan ommaviy tarzda bajariladigan topshiriqlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, pedagog o‘quvchilar jamoasi faolliyatini nazorat qilishga ham o‘ziga xos tarzda yondashadi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, bu sohada turlicha yondashuvlar va nuqtayi nazarlar vujudga kelmoqda. O‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash uchun ularga har tomonlama pedagogik, psixologik ta’sir va yordam ko‘rsatishlari talab qilinmoqda. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishlari uchun, avvalombor, bu jarayonning maqsadi, vazifalarini yaxshi tushunishlari, o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash texnologiyalarini o‘zlashtirishlari lozim.

Pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirish quyidagilar bilan bevosita bog‘liq:

– o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonini loyihalashtirish kompetensiyasiga ega bo‘lish;

– o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tashkil etish usullarini egallash;

– o‘quvchilar jamoasi bilan pedagogning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish yo‘llarini bilish;

– o‘quvchilar jamoasi faoliyatini boshqarish va nazorat qilish metodlarini qo‘llash.

Pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan malaka oshirish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish talab qilinadi:

1. O‘quvchilar jamoasi bilan avtoritar uslubda ishlaydigan pedagoglarni innovatsion usullar bilan qurollantirish.

2. Liberal uslubda faoliyat olib boradigan pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishchan, mahsuldor muloqotga tayyorlash.

3. O‘quvchilar jamoasi bilan demokratik uslubda ishlaydigan o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatlarini ommalashtirish, xalqaro ilg‘or tajribalar bilan boyitishlariga erishish.

Pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirish maqsadida ularni hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish metodlari bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilar jamoasi uchun umumiy muvaffaqiyatni ta’minlovchi vazifalarni hal qilish ustuvor ahamiyatga ega. Bunday umumiy vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning nazariy asoslari va texnologiyalari bilan qurollantirish.

2. O‘qituvchilarni o‘quvchilar jamoasi a’zolarining qobiliyatlari, shaxsiy rivojlanishi, o‘ziga xosligini tashxislashga o‘rgatish.

3. Pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid o‘z faoliyatlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, tuzatishlar kiritish, ushbu sohadagi bilimlarini boyitishga yo‘naltirish.

Buning uchun o‘qituvchilar jamoaviy vazifalarni o‘quvchilarga bajartirishga tayyor bo‘lishlari kerak. O‘quvchilar jamoasi bilan avtoritar uslubda ishlaydigan pedagoglarni innovatsion usullar bilan qurollantirishda ularning pedagogik faoliyatini kengaytirish, boyitish maqsadi ustuvor qilib qo‘yiladi. Pedagoglarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish natijasida kasbiy mehnatning integrallashgan, tizimlashtirilgan modeli vujudga keladi. Bu esa pedagog kasbiy faoliyatining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash imkonini beradigan jihatlarini aniqlashga ko‘maklashadi. O‘qituvchi mehnatining innovatsion xarakter kasb etishi uning faoliyat yo‘nalishlari, fikrlari va shakllanish maqsadlarini ifodalaydi.

O‘qituvchining o‘quv maqsadlarini aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish – bunda o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xosligi va imkoniyatlarini hisobga olish, ular faoliyatining istiqbolga yo‘naltirilishini ta’minlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda o‘quvchilar jamoasining o‘quv faoliyatini tashkil etishdan iborat.

Liberal uslubda faoliyat olib boradigan pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishchan, mahsuldor muloqotga tayyorlash jarayonida quyidagi vazifalarga yechim izlanadi:

1. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan amalga oshiriladigan o‘zaro muloqot jarayonidagi to‘siqlarni bartaraf etishlariga erishish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan o‘quvchilarni bir-birlarini o‘zaro tushunish, tenglik ruhida tarbiyalash.

2. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasini rivojlantirishni nazarda tutgan holda bosqichma-bosqich o‘quv topshiriqlarini murakkablashtirishlari, hamkorlikda bajaradigan ishlar ko‘lamini kengaytirishlari talab qilinadi. Bunda o‘quvchilarning kreativligi, mustaqilligi, o‘quv hamda ijodkorlik mayllarini rivojlantirish ta’minlanishi lozim.

Pedagog kasbiy layoqatining rivojlanishi o‘quvchilar jamoasining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

– o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish mezonlarini o‘zlashtirish;

– o‘quvchilar jamoasining rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladigan pedagogik modelni o‘z faoliyatida qo‘llay olishi;

– o‘quvchilar jamoasining rivojlanishini aniqlashga xizmat qiladigan tashxislash metodlaridan foydalana olishi;

– o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tashkil etish jarayonini loyihalashtira olishi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlar o‘z xarakteriga ko‘ra muntazam rivojlanuvchi pedagogik faoliyatni talab qiladi. Ushbu pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi a’zolarining xohish-irodasi, ongliligi, faolligi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishda texnologik bosqich muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi har bir a’zosining rivojlanish dinamikasini tashxislay olishi kerak. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligini ta’minlashi ham zarur hisoblanadi.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida barcha ta’lim oluvchilarning tajriba-

sini umumlashtirish zarur. Bu o‘rinda pedagog o‘quvchilar bilan diolog asosida hamkorlik o‘rnatishi kerak. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonining samaradorligini ta’minlashda pedagogning o‘ziga xos ish tajribasi, pedagogik mahorati ham muhim ahamiyatga ega. Barcha o‘qituvchilar bir xildagi ish shaklidan foydalanish bilan bir qatorda o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tahlil etishda turlicha yondashadilar. Bunday o‘ziga xoslik o‘quvchilar jamoasi tomonidan ommaviy tarzda bajariladigan topshiriqlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, pedagog o‘quvchilar jamoasi faolliyatini nazorat qilishga ham o‘ziga xos tarzda yondashadi.

Pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash sohasidagi faoliyati boshqa o‘qituvchilar tomonidan har tomonlama tahlil qilinishi, uning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatib berilishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarni aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi:

– sinfdagi o‘quvchilarning o‘ziga xos individual xususiyatlari, dars jarayonida ularga qo‘yiladigan kuchaytirilgan talablar;

– o‘quvchilar jamoasining tarkibiy tuzilishi qandayligi, harakatlantiruvchi kuchlari nimadan iborat ekanligi;

– o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida pedagogning erishgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklari nimalardan iborat ekanligi kabilar.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayoni samaradorligini ta’minlashda pedagog har bir o‘quvchiga e’tibor qaratishi lozim. Bunda tajribali o‘qituvchilarning o‘zaro maslahatlashuvlari, suhbatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining pedagogik faoliyati o‘quvchilarning taraqqiyotini ta’minlashga yo‘naltirilishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonining mazmuni, maqsad va vazifalarini ham aniq loyihalashtira olishi lozim.

O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning pedagogika asoslarini chuqur o‘rganish bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarning o‘quv hamda ijtimoiy faoliyatini metodik jihatdan uzluksiz ta’minlash, ularda o‘z faoliyatini tashkil etish yo‘llarini bilishi lozim.

O‘quvchilar jamoasi faoliyatini tashxislashda pedagoglar quyidagilarni hisobga olishlari kerak:

1. Pedagoglar o‘zlarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga tayyorliklarini ta’minlashlari.

2. Jamoaviy faoliyatning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim prinsiplariga tayangan holda amalga oshirishlari.

3. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash yo‘nalishlarini aniq belgilab olishlari.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda pedagoglar insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga asoslanishlari lozim. Bunda pedagoglar o‘quvchilar jamoasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashlari talab etiladi. Pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun qulay shart-sharoitlarni yarata olishlari muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda pedagoglar dastlab o‘z kasbiy bilimlarini rivojlantirishga erishishlari zarur. Shu maqsadda pedagogik jamoa o‘qituvchilarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishi nazarda tutiladi.

Aksariyat pedagoglar o‘zlarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatlarini amalda mavjud bo‘lgan darajasiga nisbatan yuqori baholaydilar. Jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlash uchun pedagoglar o‘quvchilar orasidagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni o‘z vaqtida bartaraf eta olishlari kerak. Bunday harakat sinf jamoasi orasida qulay, muvaffaqiyatli o‘quv hamda ijtimoiy muhitni vujudga keltiradi. Buning

uchun pedagoglar o‘z bilimlarini muntazam boyitishlari va tarbiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirishlari lozim.

Muhim masalalardan yana biri o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda ularning o‘zaro munosabatlarini aniqlash va jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish uchun pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlovni tashkil etishdan iborat.

Pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini takomillashtirishda ularning uzluksiz malaka oshirish jarayonini quyidagi prinsiplar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

– pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishda ularning pedagogik bilimlarini uzluksiz rivojlantirish, tarbiya texnologiyalarini samarali qo‘llash mahoratlarini oshirish;

– o‘quvchilar jamoasi faoliyatiga fikriy-qadriyatli, kreativ yondashuvlarni tadbiq etishlariga erishish;

– pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatlarini amaliy jihatdan namoyon qilishlari uchun qulay sharoit yaratish;

– o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatiga beriladigan baho pedagogik xatti-harakatlariga ham taalluqli bo‘lishi kerak.

Muhim masalalardan yana biri pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash modelini ishlab chiqishdan iborat.

O‘quvchilar jamoasi bilan reproduktiv usulda ishlaydigan pedagoglar jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda an’anaviy yondashuvni qo‘llaydilar. Ular o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda kognitiv usullardan foydalanadilar. Bunday toifadagi o‘qituvchilar o‘quvchilar jamoasi bilan hyech qanday to‘siqlarsiz muloqotga kirishadilar. Ular o‘z kasbiy mahoratlari va bilim darajalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezmaydilar. Bunday pedagoglarda o‘z ishidan mamnunlik, salomatliklarini nazorat qilish, vaqtning yetishmasligi, imkoniyatlarning cheklanganligi, o‘zlari haqida ob’ektiv ma’lumotga ega emasliklari kabilar kuzatiladi. Shuning uchun bunday pedagoglarda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqati yetarlicha shakllanmagan.

Ixtirochi, erkin fikrlovchi pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatlarini muayyan darajada takomillashtirishga intiladilar. Ular tarbiyaning samarali texnologiyalarini o‘zlashtirishga harakat qiladilar, bunday texnologiyalarni xar tomonlama tahlil qiladilar, ulardan o‘z faoliyatlarida foydalanadilar. Ular o‘quvchilar jamoasiga nisbatan talabchanlik bilan munosabatda bo‘lmaydilar, ko‘pincha sinf jamoasini o‘z holiga tashlab qo‘yadilar. Jamoa a’zolari orasidagi qarama-qarshiliklarga deyarli e’tibor qaratmaydilar. Ularda o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqati metodik mashg‘ulotlar, seminarlar, pedagogik treninglardan keyin rivojlanadi. Yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagoglarni o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga qaratilgan mashg‘ulotlarini kuzatish natijasida o‘rgangan tajribalarga ular uzoq vaqt amal qilmaydilar. Ular o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash metodikalarini asosan malaka oshirish kurslari va maktab uslubiy kengashlarida o‘zlashtiradilar, biroq o‘z faoliyatlari davomida mazkur bilimlarni takomillashtirmaydilar.

Ijodkor, tadqiqotchi pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ijodiy ishlash tajribasiga egaliklari bilan ajralib turadilar. Ular o‘quvchilar jamoasiga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘ladilar. Bunday pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro hamkorlikka kirisha oladilar. Ular o‘quvchilar jamoasi faoliyatini rivojlantirishga muntazam harakat qiladilar, ular bilan ijodiy ishlaydilar. Bu sohadagi bilim va mahoratlarini uzluksiz oshirib boradilar. O‘zlarining kasbiy mahoratlari, xulq-atvorlari, nuqtayi nazarlarini har tomonlama tahlil qila oladilar. Bunday pedagoglar o‘quvchilar jamoasi faoliyatini tashxislash metodikasini puxta o‘zlashtiradilar, vaziyatga qarab ish tutadilar. Ba’zi hollarda esa

ular o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning nuqtayi nazarlarini har doim ham to‘liq anglab yetmaydilar. Bunday pedagoglar o‘z kasbdoshlarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash tajribasini ijodiy o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Ular o‘quvchilar jamoasi ishonchini yuksak qadrlaydilar va bunday ishonchni birgalikdagi faoliyatga undovchi asosiy omil deb biladilar.

O‘z kasbiga yuqori darajada qadriyatli, ijodiy munosabatda bo‘lgan pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatlarini rivojlantirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Ular o‘quvchilar jamoasi faoliyatini samarali boshqara oladilar. Bunday pedagoglar o‘quvchilar jamoasidagi liderlar bilan samarali hamkorlik o‘rnata oladilar. Ular o‘quvchilar jamoasi qabul qilgan qarorlarga hurmat bilan qaraydilar va tashabbuskor o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga intiladilar. O‘quvchilar jamoasi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda pedagogning qo‘llab-quvvatlovi muhim ahamiyatga egaligini tushunib yetadilar, o‘z faoliyatlarida o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga yo‘naltirilgan tarbiya texnologiyalarini qo‘llashga harakat qiladilar. Mazkur pedagoglar o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashga oid pedagogik-psixologik bilimlarining chuqurligi bilan ajralib turadilar hamda o‘quvchilar jamoasi orasida vujudga kelgan qarama-qarshiliklar, muammolarni bilimdonlik bilan osongina hal qilishga erishadilar. Ular zarur bo‘lgan vaziyatlarda o‘quvchilar jamoasi faoliyatiga tuzatishlar kiritish orqali mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga erishadilar. Bu toifadagi pedagoglarning asosiy maqsadi o‘quvchilar jamoasining birgalikdagi faoliyatini rivojlantirish orqali ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishdan iboratdir. Ular o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash texnologiyalarining mohiyatini chuqur idrok etadilar va pedagogik faoliyatda ularni samarali qo‘llay oladilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash samaradorligi pedagogning kasbiy darajasi bilan bevosita bog‘liq. Pedagoglarning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirish o‘zining muayyan bosqichlariga ega bo‘lib, ushbu bosqichlarning har birida pedagogik jamoada va malaka oshirish kurslarida muayyan ish usullarini qo‘llash talab etiladi.

Pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash layoqatini rivojlantirishda muayyan texnologiyalar bilan bir qatorda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy faoliyatning innnovatsion usullarini egallash ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz

2. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994. – С. 215.

3. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 159 b.

4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2007. – 357 b.

5. Musurmonova O. Sog‘lom avlod – millat kelajagi: (monografiya). – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 188 b

Shoxida URAKOVA,
Toshkent viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

MALAKA OSHIRISH KURSLARI TINGLOVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchi kreativligining tarkibiy komponentlari, o‘qituvchi kreativligining tarkibiy komponentlari mazmuni, O‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish usullari, ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish omili ekanligi yoritilgan. Shuningdek, malaka oshirish kurslari tinglovchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvni qo‘llashning metodologik, ilmiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Kreativ, komponent, akmeologik madaniyati, ta’lim, pedagog, munosabat, motivatsiya.

В статье рассматриваются структурные компоненты креативности учителя, содержание структурных компонентов креативности учителя, методы развития креативности учителя, факторы повышения качественных показателей образовательного процесса. Также речь идет о методических, научных, организационных, психолого-педагогических и дидактических возможностях применения инновационного подхода в процессе подготовки слушателей курсов повышения квалификации к профессиональной педагогической деятельности.

Ключевые слова. Креатив, компонент, акмеологическая культура, воспитание, педагог, отношение, мотивация.

The article examines the structural components of the teacher’s creativity, the content of the structural components of the teacher’s creativity, methods of developing the teacher’s creativity, factors of improving the quality indicators of the educational process. We are also talking about methodological, scientific, organizational, psychological, pedagogical and didactic possibilities of applying an innovative approach in the process of preparing students of advanced training courses for professional pedagogical activity.

Key words. Creative, component, acmeological culture, education, teacher, attitude, motivation.

Jahon ta’lim muassasalarida ilmiy muhitni yaratish orqali o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish, akmemadaniy shaxs rivojlantirishga amalga oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda malakali o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlarini fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan integrasiyalashuvini ta’minlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda, xususan “oliy ta’lim muassasalarida gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish; ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish” ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Ta’lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy va boshqaruv kompetentliligini, akmeologik madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar respublikamiz olimlari: M. Mirsoliyeva, G. Boymurodova, M. Isabayeva, N. Muslimovlar ishlarida o‘rganilgan bo‘lsa, tayanch kompetensiyalar bilan bog‘liq sifatlarni bo‘lajak mutaxasisslarda rivojlantirish muammolari Q. Mashrabova, D. Shavkiyeva, G. Sobirova, I.A. Xurramov, M.Yu.

Yuldashevalar tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, oliy talim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash; zamonaviy yondashuvlarni intensiv qo‘llash asosida o‘qituvchilarning kreativlik madaniyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Oliy talim muassasalari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish, talabalik davridagi kreativlik madaniyatini rivojlantirish muammolarini kompleks o‘rganishga ehtiyoj mavjud.

Malaka oshirish kurslari tinglovchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvni qo‘llashning metodologik, ilmiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlari mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma, munosabat, motivatsiya tizimini o‘rganishni talab qiladi.

Uzluksiz kasbiy tayyorgarlik faoliyatining har xil o‘quv, ilmiy, tarbiyaviy va metodistlik funksiyalarini kompleks birlashtirish va kasbiy mahoratni yo‘naltirib o‘qitish tizimida intensiv kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda pedagoglarni platforma orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini chuqur egallash, o‘zlashtirishi, jamoatning manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda faolligi, fan, ilmiy, sport va boshqa to‘garaklardagi hamda pedagogik amaliyotdagi faoliyati, ilmiy-ijod natijalari va boshqa yutuqlari yig‘indisi sifatida aks ettirishga mo‘ljallangan.

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining individual psixologik xususiyatlarini atroflicha o‘rganish va unda ijodiy individuallikni shakllantirish maqsadida ularning kreativligini rivojlantirish usullari orqali o‘quv-bilish kompetensiyalarini oshirish va kasbiy kompetentlikni, kreativ qobiliyatni shakllantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

B.G. Ananev: «insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so‘nggi ontogenez davridagi uning ijodiy, samarali ijtimoiy-faol hayot fazasi sifatida kreativlikni ko‘rsatish mumkin», - deydi. Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g‘oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan g‘oyasi bo‘la olmaydi, degan nazariyalar ham yo‘q emas. Tadqiqot doirasida biz pedagogikaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan kreativ sohasini o‘rgandik (A.A. Bodalyov, N.V. Kuzmina, A.A. Derkach va boshq).

Zamonaviy ilm-fanda kreativlik-insoniy yuksakliklarga erishish uchun noodatiy fikrlash, masala yechimiga ijodkorona yondashishni bildiradi.


So‘nggi yillarda xorijiy tajribalarga tayangan xolda ta’lim tizimidagi islohotlar mazmuni takomillashib bormoqda, Respulikada ham yetuk kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash jarayoniga ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida qaralmoqda, va u davlat, jamiyat va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayonning natijasida o‘z ifodasini topmoqda. Shuningdek, shaxsning kreativlik sifatlarini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma va davlat ta’lim standartlariga mos tarzda ta’limiy xizmatlar mahsuli sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda o‘qituvchi nufuzi va uning kasbiy rivojanishiga alohida e’tibor qaratilayotganligidan dalolat bermoqda. Zero, ta’lim jarayoni uning har bir bosqichida yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilinadi.

Ilmiy ishlanmalarda “kreativlik” tushunchasiga berilgan barcha ta’riflarni umumlashtirib, kreativlik – shaxsning individual genezisidagi rivojlanishining oliy darajasi, ijodiy faoliyatini belgilovchi sifatlar majmuasi, kasbiy rivojlanganligi, kasbiga oid bilimlarni chuqur egallashi, uning jamiyat, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyati, kasb sohasidagi burch va

mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi, kasbiy kamolotidagi mukammallik bosqichi, - degan xulosaga kelindi.

O‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ta’limotlarni to‘plash, tasnif qilish va uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun bilim va tajribalar transformatsiyasining mazmuni va mohiyati madaniy-ma’naviy, ijtimoiy-axloqiy, falsafiy, ilmiy va pedagogik bilimlarni o‘zlashtirishga shart-sharoit xozirlovchi qulay bosqich, davr ekanligi aniqlandi. Tadqiqot doirasida o‘qituvchining kreativlik madaniyati tarkibiy komponentlari aniqlandi.

O‘qituvchi kreativligining tarkibiy komponentlari mazmuni: motivatsion sifatli, kasbiy faoliyatli maqsadini belgilay olishi, kasbiy-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga intilish, ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishi; intellektual sifatga ega bo‘lish – muammoni ko‘ra bilish, uni hal etish yo‘llarini topa olish, ijodiy fikrlash, modellashtirish, loyihalash, bashoratlash hamda yangi g‘oyalarni topa olishga moyillik; amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish – yangi, notanish vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qila olish, o‘ziga xos yechimlarni topish, muloqot yo‘nalishi hamda harakatlar yo‘nalishini o‘zgartira olishi, topqirlik, ziyraklik, oqillik, uddaburonlik, faollik; irodaviy sifatlarga ega bo‘lish – kasbiy faoliyatni amalga oshirishda qat’iyatli bo‘lish, maqsad yo‘lida dadil harakat qila olishga bo‘lgan vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topa olishi; hissiy sifatlarga egalik – o‘quvchilarning o‘y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, bolajonlik, ochiqlik, hissiyoti, harakatlari, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish; individual xislatlarga ega bo‘lish – g‘oyaviy-ijtimoiy bilimlarga egalik, jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlar mohiyatini to‘g‘ri anglay olish, milliy istiqlol g‘oyasi asoslarini bilish, muayyan e’tiqod (ma’naviy-axloqiy, kasbiy e’tiqod) ga ega bo‘lish; refleksiya (o‘zini-o‘zi boshqara olish layoqatiga ega bo‘lish – ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olish, har qanday vaziyatda ham o‘zini tuta bilish, shaxs va mutaxassis sifatida o‘zligini saqlay olishni o‘z ichiga oladi.



1-O‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini tarkibiy komponentlari

O‘qituvchilar kreativligini rivojlantirishda shaxs tomonidan belgilangan maqsadlar va ularga erishganlik darajasi bilan bog‘liqlikda qaraladi. O‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirish usuli faqatgina bilimlar, axborotlarni o‘zaro almashish, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma’rifat tarqatish hamda taqdim etish imkoniyati emas, balki muntazam, ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari muloqot vaziyatidir.

Kasbiy pedagogik faoliyatni loyihalash va uni tashkil etishga qodir kompetentli mutaxassisni shakllantirish mexanizmi va kreativligini rivojlantirish pedagogik faoliyatining barcha jihatlari va tomonlari (kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, har kungi munosabat,

shaxsiy rivojlanish va faoliyatning umumiy natijasi) hamda pedagog kadrning individual psixologik va fiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga olgan talabalarning prosifiogrammasini ishlab chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi.

O‘qituvchining kreativligini rivojlantirishda malaka oshirish kurslarida talimiy, tarbiyaviy, o‘quv-metodik va ilmiy faoliyatda yuqori kasbiy natijalarga erishish uchun kasbiy motivatsiyani kuchaytirish, intellektual qobiliyatni rivojlantirish, amaliy faoliyatda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, kasbiy yo‘nalganlikka, faoliyatda yuqori muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanishni ta’minlash muhim.

Pedagoglarning kreativlikni rivojlantirishda quyidagi mezonlari ishlab chiqildi (1-jadval).

O‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish mezonlari:

– Kasbiy faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi kuchli; – Pedagogik faoliyatni tashkil qilish to‘g‘risidagi chuqur bilimlarga ega; – Kasbiy faoliyatini ijodkorona tashkil qilish metodlarini qo‘llay oladi; – Kreativ fikrlash qobiliyatiga ega; – Yangilikka o‘ch, axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini egallagan; – Jamoat topshiriqlarini bajarishda faollik ko‘rsatadi; – Ilmiy-pedagogik faoliyatda tashabbuskor; – Liderlik xususiyatlariga ega.
– O‘qituvchilik kasbiga oid vazifalarni mustaqil rejalashtirish, loyihalash qobiliyatiga ega; – Ongli refleksiya va maqsadga intilish malakalarini egallagan; – Hayotiy maqsadlar, ehtiyoj, qobiliyat va motivlarga ega; – Kasbiy motivatsiyaga, refleksiya, mustaqil fikrlashga ega; – O‘zini o‘zi baholashga qodir, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega; – Kasbiy muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatiga ega; – Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish va kasbiy o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarini egallagan; – Kasbiy faoliyatni mahsuldor amalga oshirishga intiluvchi.

O‘qituvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun tizimli metodikalardan foydalanish muhim.

Shunday qilib, mamlakatimizda yuqori malakali pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni tizimini yanada takomillashtirish, talabalarning kreativligini rivojlantirishda tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlarining mazmun-mohiyatini zamonaviy sharoitda tadqiq qilish, umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan dolzarb ijtimoiy-pedagogik mummodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, – 2020 y., 41-son, 543-modda.

2. Муслимов Н.А. Акмеология педагогической культуры.

3. Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2010 yil. – 140 b.

4. Torrance E.P. The Torrance Tests of Creative Thinking-Norms-Technical Manual Research Edition-Verbal Tests // Forms A and B-Figural Tests, Forms A and B. – 2016.

5. Kaufman & Beghetto. Beyond Big and Little: The Four C Model of Creativity. – 2019. – S. 11.

Saxob KARIMOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
"Musiqa talimi" kafedrasi oqituvchisi

O'QUVCHILARNING KUYLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda musiqiy ta'lim tizimini oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir zarur, qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shu ma'noda mazkur maqolada maktab o'quvchilarini musiqaga o'rgatish, qo'shiq kuylash texnikasida alohida ahamiyatga molik bo'lgan innovatsion yondashuvlar haqida fikrlar baayon etiladi.

Kalit so'zlar. Musiqa darslari, o'quvchilar shaxsi, musiqiy madaniyat, musiqiy qobiliyat, qo'shiq kuylash, o'quv mashg'ulotlari, nafas olish tempi, deksiya, xor, xor ijrochilari, vokal, ovoz, ovoz mashqlari, musiqaviy jumlalash.

Для решения задач, стоящих перед системой музыкального образования в инновационных процессах, происходящих в настоящее время, необходимы независимые и свободомыслящие люди, способные усваивать новую информацию и оценивать полученные знания. В этом смысле в данной статье описаны инновационные подходы, которые имеют особое значение в обучении школьников музыке и технике пения.

Ключевые слова. Уроки музыки, личность ученика, музыкальная культура, музыкальные способности, пение, обучение, темп дыхания, декция, хор, артисты хора, вокал, голос, голосовые упражнения, музыкальное предложение.

To solve the problems facing the system of music education in the innovative processes taking place at the present time, independent and free-thinking people are needed who are able to assimilate new information and evaluate the knowledge gained. In this sense, this article describes innovative approaches that are of particular importance in teaching music and singing techniques to schoolchildren.

Key words. Music lessons, student's personality, musical culture, musical abilities, singing, learning, breathing rate, decration, choir, choir artists, vocal, voice, voice exercises, musical proposal.

Har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan olib chiqqan holda o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq. Dars jarayonida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhum hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham musiqiy ta'lim muassalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarni o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning musiqiy ta'limda qo'llanilishiga oid bilmlar, tajribalar o'quvchilarni bilmli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa 5-7-sinf o'quvchilari bilan dars o'tish davrida bolalarni ovoz apparatini to'g'ri tahlil etib olib borilishi talab etiladi.

Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab "musiqa asbobi" bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqa ifodalash hususiyatlariga egaligi

bilan hamma musiqa asboblaridan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va sozni o‘rganish payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma’nosini ochib beradi. Bu borada inson ovoziga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yuq. Shuning uchun ham inson ovozi ko‘pincha “gapiruvchi musiqa asbobi” deb ham yuritiladi.

Bolalar ovozi va ularning tavsifi. Bolalar ovozi diskant (saprano) va altga bo‘linadi. Diskant (saprano)-bolalarning yuqori ovozi bo‘lib, uning qamrovi birinchi oktava “do” dan, ikkinchi oktava “fa-sol” gacha (ba’zida undan ham yuqori) ko‘tariladi. Diskant yengil, o‘zgaruvchan, yumshoq (bosh registrda) yangraydigan ovoz bo‘lgani uchun har hil kuy va ohanglarni juda ta’sirchan ijro eta oladi.

Alt-bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yo‘g‘on jarangdor tembrli bilishi bilan birga, ba’zi hollarda mayin harakterga ega ham bo‘ladi. alt tovushining diapazoni kichik oktava “sol-lya” dan II oktava “re-me” (ba’zida -“fa”) gacha bo‘ladi. Shunga e'tibor berish kerakki, alt ovozining juda ham yuqori pardalari qo‘llanilsa, bolalar zo‘riqib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlatilsa, ovoz kuchsiz bo‘lib chiqadi. Shuning uchun juda yuqori tessiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi. Bunday paytda asarni bolalar xorining diapazoniga qarab qayta moslashtirish maqadga muvofiqdir. alt ovozi diskantlarga nisbatan sustroq bo‘lai. Ko‘p hollarda bu ovozga ikkinchi tovush topshirilishiga qaramay, u ba’zida asosiy kuyni ham olib boradi, unda bu ovozning ijrosi juda ravon va ifodali jaranglaydi. (1-misol)

Xor ikki asosiy turga bo‘linadi:

Yaxlit (bir jinsli) va aralash xorlar;

Yaxlit bir jinsli xorlarga: bolalar xori, ayollar xori, erkaklar xori kiradi.

Aralash xorlar esa turli ovozlardan(ayollar va erkaklar) tashkil topadi. Bir jinsli va aralash xorlar ko‘rinish jihatidan bir, ikki uch, to‘rt va undan ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin.

Bolalar xori boshlang‘ich va o‘rta sinf (qizil va o‘g‘il) o‘quvchilaridan tashkil qilinadi. Uning tarkibida, asosan, diskant va alt ovozlari mavjud. Har qanday xor ma’lum ovoz guruhlaridan tashkil topgan bo‘ladi.

Bu guruhlar esa partiyalar deyiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, xor partiyalari xonandalar ovozining ohangdorlik (tembriga) harakteriga va diapazoniga qarab tuziladi. Bolalar xori asosan, ikki ovoz partiyasidan tashkil topadi. Birinchi diskant-yuqori ovoz, ikkinchi alt-pastki ovoz hisoblanadi. Bolalar xori, asosan, ikki ovoz partiturasidan tashkil topadi. Birinchi diskant-yuqori ovoz, ikkinchi alt-pastki ovoz hisoblanadi. Bolalar xori ham quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi: bir ovozli bolalar xorida diskant va alt unisonda kuylanadi;

Ikki ovozli bolalar xori-diskant va alt ovoz partituralaridan iborat;

Uch ovozli bolalar xorida ovoz partituralaridan bittasining ikki ovozga bo‘linishi (“divisi”)-“divizi”.

I diskant yoki I alt

+alt.+diskant;

II diskant II alt

To‘rt ovozli bolalar xori-har ikkala partituraning ikkitadan ovozga bo‘linishi

I diskant I alt + II diskant II alt

Bolalar xorning umumiy va ishchi diapazoni qo‘yidagicha bo‘ladi.

Ovoz diapazoning ko‘proq ishlatiladigan qismiga ishchi diapazoni deyiladi. Ishchi diapason umumiy diapazondan qisqaroq bo‘ladi.

Badiiy ifoda asarning g‘oyaviy mazmunini ochish shakli hisoblanadi. Agar xor yaxshi talaffuz (intonatsiya) va sozga, ansamblga va so‘z talaffuziga, vokal-xor texni-

kasiga ega bo‘lsa-yu, uning ijrosi badiiy ifodaga ega bo‘lmasa, unda asarning g‘oya-viy-badiiy mazmuni tinglovchilarga yetib bormaydi.

Demak, xorda olib boriladigan barcha ishlar badiiy-ifodali ijro bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur. Ze'ro, ifodali ijro asarining asosiy mohiyatini ochib beradi.

Ijroda badiiy ifoda tinglovchilar qalbini hayajonga soladi, quvonchga to‘ldiradi, ma’naviy oziq beradi hamda asar muammolarini tasavvur etishga ko‘maklashadi.

Tessitura – italyanch so‘z bo‘lib, kuy-tovushlarning yuqori yoki past holatda ekanligini bildiradi. Tessitura baland, o‘rta va past bo‘ladi va shunga qarab, tessitura qulay va noqulay deyiladi.

Xor jamoasi esa dinamik, ritmik, temp, jumlalash (frazalash) kabi har hil badiiy-ifoda vositalariga ega bo‘lishi kerak.

Musiqa asari qism va davralarga bo‘linadi.Asarning ma’lum bir qismidagi musiqaviy fikr davrini tashkil qiladi. Davr esa gaplarga, gaplar jumlalarga, jumlalar ohanglarga bo‘linadi. Ana shu (ohang, jumla, gap, davr) musiqa bo‘laklarini yaxlit bir fikrga birlashtirib, ma’nosini tushungan holda ijro qilish musiqaviy jumlalash deyiladi.

Musiqaviy jumlalash muhim ifoda vositasidir. Musiqa asarining ijrosida jumlalarni aniq tushungan holda ifodali ijro etish katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi xor jamoasiga asarning musiqaviy tilini, ifoda vositalarini va uning mantiqiy rivojlanishini, umuman, asar mazmunini to‘liq tushungan holda ijro etishni o‘rgatish zarur.

Musiqa jumlalarini ravon ijro qilish, so‘zdagi asosiy fikrni yaqqol ko‘rsatish va kulminatsiyasini (avjini) aniq kuylash-to‘g‘ri va ifodali jumlalash hisoblanadi.

Xor jamoasi yaxshi vokal texnikaga ega bo‘lmasa, u xorning ijrosida na uygg‘unlik, na tiniq ovoz talaffuz va badiiy ifoda bo‘ladi. Shuning uchun xorda har doim vokal-xor texnikasini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xorda yaxshi ansamblga so‘zga, dinamik mustahkamlikka, diksiya va tembr bo‘yoqlariga erishishda vokal “fundamental” mustahkam bo‘lishi kerak. Qo‘shiq aytish ko‘rsatmasi. Qo‘shiq aytishdan oldin o‘quvchilar unga tayyor bo‘lishlari, ma’lum holatni egallashlari zarur. Bu holat ikki xil bo‘ladi: turib kuylash va o‘tirib kuylash holati.

Turib kuylaganda gavdani va boshni to‘g‘ri, erkin tutish, oyoqlarni yerga bir xil kuch bilan bosish, ko‘krak qafasini salgina ko‘tarish va oldinga chiqarish, kiftlarini to‘g‘ri tutish va ularni sezilarsiz orqaga tortilgan bo‘lishi, qo‘llar pastga tushurilgan bo‘lishi kerak.

O‘tirib kuylash xolatida bosh va gavda to‘g‘ri va erkin tutilishi, oyoqlarni yerga to‘g‘ri burchak qilib bosish, qo‘llarni esa tizzalarga erkin qo‘yish lozim. Agar gavda, bel egilgan holatda bo‘lsa, ovoz kuchsiz, yoqimsiz chiqadi. Shuning uchun bo‘yini, boshni bemalol tutish kerak. Xalqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, bosh (shuningdek, til, og‘iz, yuz) erkin tutilishi kerak. Shuningdek, yuzda zo‘riqish alomatlari sezilmasligi lozim.

Umuman, xorning turib kuylash eng qulay holat hisoblanadi. Xorda o‘quvchilarning to‘g‘ri kuylash, o‘tirish holatini o‘qituvchi doimo nazorat qilib turishi kerak.

Nafas. Ma’lumki, kishi nafas organlari orqali nafas oladi, ovoz apparati yordamida ovoz chiqaradi, artikulyasiya apparati orqali gapiradi va kuylaydi. Demak, vokal-xor ijrochiligining asosini nafas tashkil qiladi.Shuning uchun to‘g‘ri nafas olish vokal-xor texnikasining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. U ovoz shakllanishi jarayonida fundament vazifasini o‘taydi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishda farq qiladi. Kuylaganda nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish uch turga bo‘linadi:

Yuqori ko‘krak. Nafas ko‘krakning yuqori qismiga olinib, kiftlar ko‘tariladi. Nafasning bu turi zararlidir. Vocal-xor ijrochiligida bu nafas turi qo‘llanilmaydi.

Ko‘krak-qorin (O‘rta qovurg‘a-biqin).

Aralash (pastki qovurg‘a-diafragma yoki kosto-abdaminal).

Xorda nafas pastki qovurg‘a-diafragma usulida. Bu usul o‘quvchilarga (havaskorlik xorlarida) oldin tushuntirilib, keyin ko‘rsatib berilishi kerak.

Nafas asarning tempiga, jumlalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda, tez, yengil, tekis, chuqur olinadi. Demak, nafas olishda gavda, bo‘yinning to‘g‘ri, erkin holatda bo‘lishiga, kiftlarning ko‘tarilmasligiga va nafasning diafragma olinishiga erishish zarur.

Tovush hosil qilish. Tovush-ovoz apparatining “mahsuli”dir. Tovush hosil qilishni fonatsiua (grekcha “fofno” - “tovush” ham deb yuritiladi.

Qo‘shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining tebranish hamda rezanatorlar tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo‘ladi. Demak, hosil bo‘lgan tovushni rezanatorlar kuchlantiradi va har hil tembr bo‘yoqlari beradi. Rezanator o‘zi nima?

Rezanatorlar ikki hil bo‘ladi: yuqori va pastki.

Yuqori-bosh rezanatorga ovoz pardalarining tepasida joylashgan-hiqqildoq, burun va og‘iz bo‘shliqlari kiradi.

Rezanatorlar tovush hosil qilish vaqtida o‘z shaklini, hajmini artikulyasiya apparati orqali o‘zgartirib turadilar.

Diapazonning yuqori regestr tovushlari-bosh rezanator, pastki registr tovushlar-ko‘krak rezanatori deyiladi.

Tovushning baland yoki past bo‘lishi ovoz pardalarining uzun yoki qisqaligiga, tarangligiga va havo yo‘lining bosimiga bog‘liq. Shuningdek, nafas olish organlarining past yoki yuqori joylashishiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Nafas olish tugab, tovushning boshlanishi ataka deyiladi. Ataka italyancha “attasare”-hujum qilmoq, degan ma’noni bildiradi. Ataka so‘zi vokal-xor, shuningdek, boshqa musiqa janrlarida qo‘llaniladi.

Vokal-xor ijrochiligida yumshoq, qattiq va nafas olinganidan so‘ng ataka turlari bo‘ladi. Tovush yumshoq mayin boshlanishi yumshoq ataka deyiladi. Yumshoq ataka ovoz pardalari nafas chiqa boshlashi bilan kuchsiz jipslashadi.

Tovushning qattiq qo‘qqisdan paydo bo‘lishi (chiqishi) qattiq ataka deyiladi. Qattiq atakada ovoz pardalari nafas chiqishidan oldin qattiq jipslashadi.

Diksiya. Xor san’ati-musiqa va adabiyot poetik ijodiyotini organic birlashtiruvchi san’atdir. Diksiya lotincha “distio”-nutq, aniq so‘z talaffuzi ma’nosini bildiradi. Anniq talaffuz texnikasiga ega bo‘lish xor ijrochiligining zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Zero, diksiya so‘z talaffuzi ekan, u ijrodagi badiiy ifoda hamdir.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarimizni umumlashtirib biz shu fikrga keldikki har bir fanning hususiyatidan kelib chiqib fanlararo integratsiya jarayonida optimallashtirish uchun ilg‘or tajribalarni o‘rganib musiqiy ta’limga joriy etilgan tadbiq etish masalasi o‘ta dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). –T., “Shaffof”, 2023, 416-bet..

2. Ибрагимов Х. И. ПЕДАГОГИКА И ВОСПИТАНИЕ //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 608-611.

Ikbolxon JO‘RAYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

PSIXOLOGIYADA O‘QUV FAOLIYATIDAN QONIQISH TUSHUNCHASI

Annotatsiya

Maqola o‘quv faoliyatidan qoniqishning psixologik jihatlari, uning tarkibiy komponentlariga bag‘ishlanadi. Ayniqsa, qoniqish, o‘quv faoliyatidan qoniqish tushunchalarining mazmuni, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari ochib berilgan. Shuningdek, o‘quv faoliyatidan qoniqishning tarkibiy komponentlari borasida xorij olimlarini izlanishlarining tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Qoniqish, o‘quv faoliyatidan qoniqish, o‘quv faoliyati, o‘zlashtirish, ta’limga emotsional munosabat, kasbiy faoliyat, kasb tanlash, faol hayotiy pozitsiya, o‘quv faoliyatidan qoniqmaslik.

Статья посвящена психологическим аспектам удовлетворенности учебной деятельностью, ее структурным компонентам. В частности, раскрывается содержание понятий удовлетворенности, удовлетворенности учебной деятельностью, вопросы взаимосвязи между ними. Также представлен анализ исследований зарубежных ученых относительно структурных компонентов удовлетворенности учебной деятельностью.

Ключевые слова. Удовлетворенность, удовлетворенность учебной деятельностью, учебная деятельность, усвоение, эмоциональное отношение к обучению, профессиональная деятельность, выбор профессии, активная жизненная позиция, неудовлетворенность учебной деятельностью.

The article is devoted to the psychological aspects of satisfaction with educational activities, its structural components. In particular, the content of the concepts of satisfaction, satisfaction with educational activities, issues of interrelationship between them are revealed. Also, the analysis of the research of foreign scientists regarding the structural components of satisfaction with educational activities is presented.

Key words. Satisfaction, satisfaction with educational activity, educational activity, mastering, emotional attitude to education, professional activity, career choice, active life position, dissatisfaction with educational activity.

Ma’lumki, qoniqish – bu an’anaviy tushunchalardan biri bo‘lib, uning yordamida, ehtimol, ko‘pincha o‘rganishga bo‘lgan munosabatni tahlil qilish va uning mazmunini izohlashga nisbatan bir qator g‘oyalar ilgari surilgan.

V.A. Yadovning fikriga ko‘ra, qoniqish holatini ta’limga munosabatning subyektiv jihati eng oddiy yakuniy ko‘rsatkichi deb hisoblash mumkin. Qoniqish deganda odamlarning munosabati va ularning hissiy holati tushunilishi mumkin. Munosabat (yoki tuyg‘u) sifatida qoniqish, o‘qishdan qoniqish hosil qilgan odam albatta yaxshi kayfiyatda bo‘lishi kerak degani emas. U o‘sha yerda tashvish, shubha holatida bo‘lishi qo‘rquv hissi, kutish, umidsizlik va hokazolarni boshdan kechirishi hamda bularning barchasi ijobiy his-tuyg‘ularga kirmaydi. “Qoniqarli” va “qoniqarsiz” baholarga baholash obyektiga bo‘lgan munosabatni ham, baholash vaqtidagi hissiy holatni ham aks ettiradi. Ammo shuni ta’kidlash mumkinki, munosabatning baholashga ta’sirida hissiyot ancha kuchliroqdir.

S.D. Reznikning fikricha, qoniqish farovonlikning integral ko‘rsatkichi yoki “shaxs-

ning guruhdagi mavqyei”ning noqulayligi sifatida tushunadi, akademik qoniqishning tarkibiy elementlarini “bajarilgan ishlarga qiziqishni baholash, xodimlar va menejer bilan munosabatlardan qoniqish”, akademik qoniqishning tarkibiy elementlarini anglatadi, shuningdek, kasbiy faoliyat, mehnat sharoitlari va tashkilotdan qoniqish va boshqalar”.

Methods (Usullari). Inson har qanday faoliyatda faqat qoniqishni oshirish va norozilikni kamaytirish uchun qatnashadi, deb hisoblash uchun hech qanday asos yo‘q. Iqtisodiy va psixologik fanda gedonizm nazariyasi tarafdorlari, shuningdek, faoliyatning asosiy va yagona sababi sifatida gomeostaz nazariyasi tarafdorlari shunday fikrlashga moyildirlar.

Z. Freyd norozilik holatining kamayishi qoniqish hissini keltirib chiqaradi, degan fikrni bildirgan. Ushbu taxminga ko‘ra, ishdan norozilikni kamaytiradigan har qanday narsa ishdan qoniqishni ham oshiradi.

Results (Natijalar). Oliy ta’lim tizimining hozirgi holati talabalarga ta’lim berishning innovatsion shakllari va usullarini keng joriy etish bilan tavsiflanadi, bu esa ta’lim muassasalari faoliyatini baholashning samarali mezonlarini izlamasdan turib mumkin emas. Obyektiv va allaqachon an’anaviy mezonlar bilan bir qatorda: talabalarning o‘quv natijalari, ilmiy loyihalarda ishtirok etishi, bitiruvchilarni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirish va boshqalar, u yoki bu ta’lim muassasasiga abiturientlarning o‘qishga topshirish ko‘lami tobora kuchayib bormoqda.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalar aholining boshqa guruhlari bilan solishtirganda, eng yuqori bilim darajasi, madaniyatni eng faol iste’mol qilish va kognitiv motivatsiyaning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, talabalar eng yuqori ijtimoiy faollik va intellektual va ijtimoiy yetuklikning yetarlicha uyg‘un kombinatsiyasi bilan ajralib turadigan ijtimoiy jamiyatdir. Talabalar jamoasining ushbu o‘ziga xosligini hisobga olish o‘qituvchining har bir o‘quvchiga pedagogik muloqotning sherigi, o‘qituvchi uchun qiziqarli shaxs sifatida munosabati bilan bog‘liq. Shaxsiy-faoliyatli yondashuviga muvofiq, talaba o‘z faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etuvchi pedagogik o‘zaro ta’sirning faol subyekti sifatida qaraladi.

Subyektning har qanday ijtimoiy faoliyatdan qoniqishiga oid sotsiologik tadqiqotlarda qoniqishning tuzilishi ko‘pincha motivlar yoki qoniqish omillari tuzilishini tahlil qilishni hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Bunday holda, faoliyatdan qoniqish ma’lum asosda tarkibiy qismlarga bo‘linadi, ularning har biri qoniqishning bir yoki bir nechta omillarini ifodalashi mumkin. Shu bilan birga, ta’lim faoliyatidan qoniqish darajasi tanlangan universitet, bo‘lajak mutaxassislik va talabaning ijtimoiy mavqei va tegishli umidlar haqidagi g‘oyalar natijasiga bog‘liq. O‘qishdan qoniqish hosil bo‘lishining hozirgi bosqichida abiturient o‘z oliy o‘quv yurti va kelajakdagi kasbining jamiyatdagi obro‘-e’tiborini boshqa oliy o‘quv yurtlari va kasblar bilan solishtirganda bilishi muhim ahamiyatga ega. Talaba o‘z o‘qishining jamiyat uchun qadri va ahamiyatini ko‘rishi, bu borada ertangi kunga ishonchini his qilishi va uning yutuqlari ijtimoiy miqyosda e’tirof etilishiga umid qilishi kerak.

Bunday e’tirof shaxsning ongida turli xil ijtimoiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratilishi mumkin: ish haqi darajasi, uning kelajakdagi kasbiga faoliyat sifatidagi ijobiy jamoatchilik fikri. Bu jarayonda shuni hisobga olish kerakki, muvaffaqiyatni kutish bilan birga o‘qishdan qoniqishning pastligi nafaqat o‘quv jarayoni va uning shartlariga salbiy munosabatni, balki talabaning faol hayotiy pozitsiyasini va o‘qishdan yuqori qoniqishni ham ko‘rsatishi mumkin.

Discussion (Muhokama). Shunday qilib, qoniqish universitetdagi o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligining mezoni bo‘lib, universitet faoliyati talabalarning ijtimoiy talablariga muvofiqligini baholashga, mumkin bo‘lmagan “og‘riq” nuqtalarini aniqlashga hamda yanada samarali harakat qilishiga imkon beradi.

E.P. Ilinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarning ta’lim faoliyatidan umidlari va qoniqishlari murakkab uch komponentli tuzilishga ega. Muayyan universitet o‘qituvchilari va ma’muriyati oldidagi muhim vazifa – talabalarning nafaqat shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan, balki bo‘lajak mutaxassisning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan bilim olish uchun sharoit yaratish.

Birinchi komponent – ta’lim muassasasining ijtimoiy holatidan qoniqish. Bu talaba tahsil olayotgan ta’lim muassasasi (institut, akademiya, universitet; davlat yoki nodavlat universitet) nufuzining davlat yoki xususiy reytingi bilan bog‘liq.

Ikkinchi komponent – tanlangan kasb va mutaxassislikdan qoniqish. Birinchi kurs talabalari uchun bu kelajakdagi kasbiy sohani ideallashtirish bilan bog‘liq; qoniqish darajasini, bizningcha, o‘quv va tanishtirish va ishlab chiqarish amaliyotidan o‘tgandan keyin aniqlash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Uchinchi komponent – universitetda o‘quv jarayonini tashkil etishdan qoniqish. U o‘zini muayyan ta’lim holatiga, masalan, fanning mazmuni, uni o‘qitish texnologiyasi va boshqalar bilan kutish va qoniqishning muvofiqligida namoyon qiladi.

Talabalar universitetda o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida yetarli darajada xabardor bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ortib borayotgan mustaqillik bilan bog‘laydilar. Talabalarning ko‘pchiligi tomonidan universitetda ta’limning ushbu xususiyatini ustun qo‘yish o‘quv faoliyatining barcha ko‘rinishlarida qat’iy dasturlashtirilmagan bepul, zarurligini ko‘rsatadi. Erkinlik o‘zini o‘zi anglaydigan, ijodiy shaxsni shakllantirishning eng muhim shartidir.

Shu bilan birga, ko‘plab talabalar o‘qituvchi qiyofasini ideallashtiradilar, undan nafaqat professional bilimlarni, qiziqarli va foydali ma’lumotlarni, balki, birinchi navbatda, o‘rta maktablarga qaraganda biroz boshqacha munosabatlarni (hamkorlik, tushunish, qabul qilish) kutadilar. Chunonchi, ta’limdagi o‘zaro ta’sir hamkorlikda faoliyat va muloqotning umumiy natijasiga erishishga qaratilgan qo‘shma shakl sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi kasbiy ta’limning eng muhim vazifasidir. Bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash turli faoliyat turlarida, o‘quv jarayonining boshqa subyektlari bilan ishbilarmonlik va shaxslararo munosabatlar tizimida, universitetning maxsus tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy muhitida amalga oshiriladi.

Qoniqish – bu ma’lum obyektlar sifatini, hayot va faoliyat sharoitlarini, umuman hayotni, odamlarning o‘zini, shu jumladan o‘zini subyektiv baholashdir.

E.P. Ilinning fikricha, “...qoniqish faoliyatni davom ettirish qaroriga ta’sir etuvchi omillardan biri bo‘lib,... motivni kuchaytiradi va nima uchun insonning bu faoliyat bilan uzoq vaqt shug‘ullanganligini tushuntira oladi”.

Qoniqish shaxsning faolligini oshirishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lganligi sababli, uning talabalarning o‘quv va kasbiy faoliyati jarayonida roliga e’tibor sezilarli darajada kuchayadi. L.V. Mishchenko ta’kidlashicha, ta’lim faoliyatidan qoniqish – talabalarning universitetdagi ta’lim faoliyati sharoitlari va natijalariga munosabatini aks ettiruvchi integral ko‘rsatkichidir.

Qoniqish ko‘rsatkichlari turli innovatsiyalar samaradorligini aniqlash va o‘quv jarayonini boshqarishda ajralmas hisoblanadi. Kengroq, ijtimoiy doirada, o‘quv faoliyatidan

qoniqish darajasi butun jamiyatning ijtimoiy farovonligini ham ko‘rsatishi mumkin.

Ma’lumki, qoniqishni talabalarning ta’lim jarayoni va mazmuniga bo‘lgan munosabati tizimi sifatida belgilab, universitetdagi o‘quv jarayonini boshdan kechirishning o‘ziga xos xususiyatlarini, shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi sifatida baholab, N.Yu. Esenkovaning ushbu konsepsiyada quyidagi shaxsiy parametrlarni aniqlaydi: psixologik farovonlik, hayotning mazmunliligi, asosiy ehtiyojlarni qondirish va vaqt istiqboli. Psixologik farovonlik integral ko‘rsatkich sifatida o‘quvchining subyektiv baxt, hayotdan qoniqish hissini aks ettiradi.

Ta’lim va kasbiy faoliyatdan norozilik uning begonalashishiga olib kelishi mumkin, bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Bunda uning faoliyat mahsulotining o‘zi, shuningdek, o‘qituvchilar, ma’muriyat, boshqa talabalar va ijtimoiy guruhlar me’yorlar, munosabatlar va ularning tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim faoliyatining qadriyatlari unga o‘ziga xos bo‘lmagan narsa sifatida ishlaydi, bu tegishli tajribalarda (yakkalanish, yolg‘izlik, rad etish hissi) va xulq-atvorda (Ya.I. Varvaricheva) ifodalanadi.

Xulosa shuki, mutaxassislarning fikriga ko‘ra, o‘quvchi o‘quv va kasbiy faoliyatida tengdoshining tajribasi javob bermaydi yoki qarama-qarshi gumanistik faoliyatni keltirib chiqarmaydi. Xususan, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– boshqa birovning muvaffaqiyatsizligidan xursand bo‘lish, uning muammolarini kuchaytirish harakati, o‘quv muvaffaqiyatiga javoban hasad qilish, juda muvaffaqiyatli “ortga chekinish” (V.V. Abramenkova);

– kuchsizlik, ma’nosizlik, anomiya, izolyasiya va o‘zini o‘zi begonalashtirish, tashvish, shaxslararo muloqotning buzilishi, yolg‘izlik, o‘z subyektivligini yo‘qotish hissi bilan birga keladi (D.M. Zinovev);

– ishbilarmonlik va tor amaliylik, o‘ziga shaxs sifatida emas, balki bozorda foydali sotilishi kerak bo‘lgan mahsulot sifatida munosabatda bo‘lishi bilan tavsiflanadi (V.N. Kosirev).

– begonalashuv asosidagi psixologik mexanizmlar subyekt faoliyati va ongida ma’no va mazmunlarning o‘zaro mos kelmasligi (K.A. Abulxanova, A.N. Leontev),

– motiv va ehtiyoj o‘rtasida semantik bog‘lanishning yo‘qligi (D.A. Leontev);

– maqsadli ziddiyatli sharoitida ta’lim maqsadlarini begonalashtirish (V.V. Abramenkova);

– motiv va harakatning o‘zaro mos kelmasligi, fanga bo‘lgan manfaatdor munosabatni uning ichki rad qilish bilan namoyon etishi (A.I. Bushin, L.B.);

– faoliyatning motivi va maqsadi o‘rtasidagi nomuvofiqlik (V.A. Ivannikov);

faoliyat motivi va “shaxsning semantik dispozitsiyasi” o‘rtasidagi funksional ziddiyat (D.A. Leontev).

Binobarin, V.N. Kosirevaning so‘zlariga ko‘ra, o‘quv faoliyatidan qoniqish yoki qoniqmaslik diagnostikasi mezonlari quyidagilardan iborat:

– kasbiy tanlovdan qoniqish / norozilik;

– o‘quv ishiga umumiy, ijobiy yoki salbiy munosabat;

– o‘quv muhitida xavfsizlik yoki tahdid hissi;

– o‘ziga xosligini, individualligini saqlab qolish imkoniyati;

– o‘ziga xosligini, individualligini saqlab qolish imkoniyati / mumkin emasligi;

– kasbni egallashda muvaffaqiyat / qobiliyatsizlik hissi;

– olingan bilimlarning qimmatliligi yoki foydasizligi darajasi;

– tarbiyaviy ish natijalari uchun javobgarlikni ichki / tashqi jihatdan yuklash;

– refleksiv jarayonning o‘quv faoliyatini motivatsion-semantik yoki operatsion-texnik tarkibiy qismlariga yo‘naltirilishi;

– darslar davomida ustunlik qiluvchi ijobiy yoki salbiy funksional holat;

– ortiqcha ta’lim faoliyatining mavjudligi / yo‘qligi.

Talabalarning o‘quv faoliyatidan qoniqqanlik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqot natjalariga ko‘ra, 44 foizdan ortig‘i universitet haqida alohida shikoyatlari yo‘qligi va o‘quv jarayonini tashkil etishdan mamnun ekanliklarini e’tirof etganliklari ko‘rsatiladi. Talabalar fanning ahamiyati va unga ajratilgan soatlar nisbati, shuningdek, o‘rganilayotgan fanlarning olingan mutaxassislik bilan nomuvofiqligidan ma’lum darajada norozi (mos ravishda 26,4 foiz va 10,9 foiz). Bunda tadqiqot mualliflarining fikricha, “...talabalarning da’volari universitetga emas, balki ta’lim standartiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Shuni ham hisobga olish kerakki, talabalar har doim ham ma’lum bir fanning mutaxassislik negizida o‘zlashtirish uchun ahamiyatini aniqlay olmaydilar....” (T.A. Ivanova).

Tibbiy amaliyotga tayyorgarlikning turli bosqichlarida ta’lim motivatsiyasining tarkibiy xususiyatlari va talabalarning qoniqish parametrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlagan N.Yu. Yesenkovaning ta’kidlashicha, tibbiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarining psixologik qoniqishi hayotning umumiy mazmunliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash zarurati, psixologik farovonlik tajribasi, tanlangan kasbga ijobiy munosabat va o‘quv jarayonining rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘quv faoliyatidan qoniqish subyektning tanlangan faoliyatga, mazkur faoliyati shartlari va natijalariga munosabatini aks ettiruvchi integrativ ko‘rsatkichdir. O‘quv faoliyatidan qoniqishning pastligi ko‘p hollarda o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga va ularning kelajakdagi kasbiga nisbatan salbiy munosabatni shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванова Т.А. Мотивация учебной деятельности студентов / Т.А. Иванова А.Я. Левин // Психологические механизмы регуляции поведения и оптимизации трудовой и учебной деятельности: Межвуз. Сб. Под ред. Г.С. Шляхтина. – Горький: ‘‘Горьк.гос.ун-т’’, 2012. – С. 77-84.

2. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень./ Е.П. Ильин – СПб.: ‘‘Питер’’, 2011. – С. 224.

3. Мищенко Л.В. К проблеме диагностики отношения студентов к учебной деятельности / Л.В. Мищенко // Вестник практической психологии образования. – 2014. – №3 – С. 122-128.

4. Студент вуза: технологии и организация обучения: учеб. пособие / Под ред. С.Д. Резника. – М.: ‘‘Инфра’’ 2009. – С. 475.

5. Ядов В.А., Семенова В.В. Стратегия социологического исследования. / В.А. Ядов. – М., 2000. – С. 245.

6. Есенкова Н.Ю. Особенности мотивационных процессов и их влияние на удовлетворенность студентов медицинского вуза // Известия Рос. гос. пед.ун-таим. А.И. Герцена. 2009. – №12. – С. 256-260.

7. Леонтьев Д.А. Новые ориентиры понимания личности в психологии: от необходимого к возможному// Вопросы психологии, 2011, № 1. – С. 3-27.

Shoira SHOYIMOVA,
Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani
34-umumiy o‘rta ta’lim maktab direktori

O‘QUVCHI-YOSHLARNING TURLI YOSH DAVRLARIDA KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsning turli yosh bosqichlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar roli haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muayyan kasbiy faoliyat foydasiga tanlov qilishda yosh xususiyatlarining o‘rni bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. Kasb tanlash, kasbiy shakllanish, kasbiy o‘zlikni anglash.

В статье даны сведения об особенностях личности на разных возрастных этапах, а также роли факторов, влияющих на ее развитие. Описана роль возрастных особенностей в выборе в пользу той или иной профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Выбор профессии, профессиональное становление, профессиональное самосознание.

This article presents information about the characteristics of the personality at different age stages, the role of factors influencing its development. The role of age characteristics in making a choice in favor of a certain professional activity is described.

Key words. Choosing a profession, professional formation, professional self-awareness.

O‘quvchi-yoshlarni barkamol inson sifatida shakllanishi, ularning munosib kasbni egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi hamda shaxs sifatida kamol topishi bugungi kun maktab ta’limi oldida turgan vazifalardan biridir. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakllanishi bilan birgalikda yaxlit holda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga ko‘ra biror bir kasb sohasida ta’lim olish, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi va nihoyat yillar davomida yetuk malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi tushuniladi. Haqiqatan ham bu cheksiz murakkab, orqaga qaytarilmaydigan muhim jarayon maktab davriga to‘g‘ri kelib, unda inson manfaatlari yo‘lidan unumli foydalanishni tashkil etish, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Insonning kasbiy shakllanishini uning hayot yo‘lidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi uning yosh davrlariga mos holda butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo‘lib shaxsning shakllanishiga mos holda boradi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Shunisi ma’lumki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘liq emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malaka-

lar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

A. Klimov tomonidan insonni mehnat subyekti sifatida qarab kasbiy yo‘nalgan davrlashtirish asoslab berilgan:

– o‘yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo‘lgan davr) – kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo‘lgan idrok qilish vazifalarini o‘zlashtirish;

– o‘yin bosqichi (5-8 yosh) – inson faoliyatining “asosiy mazmuni”ni o‘zlashtirish;

– o‘quv faoliyatini o‘zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) – faoliyatni rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat va tahlil qilish;

– optatsiya bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta’limi muassasalarida kasb tanlash davri;

– adept bosqichi (17-20 yosh) – tanlangan ixtisoslik bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik;

– adaptant bosqichi (20-23 yosh) – kasbning ichiga kirish va unga ko‘nikish;

– internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to‘plash;

– kasbiy mahorat bosqichi – mehnat faoliyatini malakali bajarish;

– obro‘-e’tibor bosqichi – mutaxassis tomonidan yuqori malakani o‘zlashtirilishi;

– ustozlik bosqichi – mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani berish.

A.K. Markova esa kasbiy yetuklikning shakllanishida shaxsning kasbiy mahorati darajasini asos qilib olib uning 5 ta daraja va 9 ta bosqichini ajratib ko‘rsatgan:

1) mahoratgacha bo‘lgan bosqich kasb bilan dastlabki tanishishdan boshlanadi;

2) kasbiy mahorat uchta bosqichni: kasbga moslashish, o‘zini dolzarblashtirish, namoyon etish va o‘z kasbining mohir ustasi sifatida kasb bilan erkin shug‘ullanish;

3) super yuqori kasbiy mahorat ham uchta bosqichni o‘z ichiga oladi: kasbiy faoliyatga ijodiy yondashishi, turdosh kasblarni o‘zlashtirish, shaxs sifatida o‘z faoliyatini ijodiy loyihalashtira olish;

4) noprofessionallik – mehnat faoliyatini shaxs deformatsiyasi ta’sirida qisqartirilgan shaklda bajarish;

5) professionallikdan keyingi davr – kasbiy faoliyatni yakunlash.

Maktabgacha bolalik davri. Barchamizga ma’lumki, bolalar o‘z o‘yinlarida kattalarga taqlid qilishadi va ular harakatlari va faoliyatlariga o‘xshatishga intiladilar. Maktabgacha yoshda syujetli – rolli o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, ular kasbiy yo‘naltirilgan harakatlarga ega bo‘ladi. Bolalar shifokori, sotuvchi, tarbiyachi, transport vositasining haydovchisi rollariga kirishib o‘ynaydilar.

Kelgusi kasbiy o‘zlikni anglashda birinchi mehnat sinovlari muhim ahamiyatga ega – unga murakkab bo‘lmagan, ya’ni kiyim, o‘simliklar parvarishi, xonalarni yig‘ishtirish va boshqa harakatlarni bajarish kabilar kiradi. Bu mehnat harakatlari mehnatga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish tarbiya asosini tashkil etadi, kattalar mehnati haqida bolalarning tasavvurlarini boyitadi.

Kelgusidagi kasbiy o‘zlikni anglashga kattalar mehnati haqidagi bilimlar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu bilimlarning shakllanishi uchun kattalar mehnatini kuzatib, keyin bajarilgan mehnat mazmunini tasvirlashga to‘g‘ri keladi.

Kasbiy rolli o‘yinlar oddiy mehnat turlarini bajarish, kattalar mehnatini nazorat qilish natijasi – mehnat turlarini farqlash hamda turli hisoblarni taqqoslash asosida maktabgacha tarbiyalanuvchilarining “o‘zini anglashidir”.

Kichik maktab yoshi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyati bu kattalarga taqlid qilishdir. Shundan ularga qadrli bo‘lgan insonlar kasblariga taqlid qilishi kelib chiqadi. O‘qituvchilarga, ota-onalariga, qarindoshlariga, yaqin tanishlariga bundan o‘ziga xos induksiya kuzatiladi.

Bu yoshdagi bolalarning ikkinchi muhim xususiyati – yutuqlarni, avvalambor bosh faoliyatda, ya'ni o'qishda anglaydilar. Bolaning o'qish, o'yin, mehnat faoliyati tajribasi asosida o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini anglashi istalgan kasb haqida tasavvur shakllanishiga olib keladi.

Kichik maktab yoshining oxirlarida qobiliyatlarning rivojlanishi bolalar o'rtasida individual farqlarning sezilarli darajada rivojlanishiga olib keladi va kasbiy tanlov jihatlarini kengaytiradi.

O'smirlik davri – bu birinchi ambivalent aptatsiya davri. O'spirinlik shaxs shakllanishining mas'uliyatli davrlaridan biridir. Bu yoshda har xil kasb turlariga ma'naviy munosabat asoslari, shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi. Ular o'smirlarning turli kasblarga nisbatan tanlovli munosabatini belgilab beradi.

Kattalar xulqining tashqi shakllariga taqlid etib, o'smir bolalar kuchli, irodali, jasur bo'lgan "Haqiqiy erkaklarning" romantik kasblarga qiziqishlarini yo'naltiradilar (uchuvchi, kosmanavt, avtopaygachi, va h.k). Qizlar esa o'z qiziqishlarini "haqiqiy ayollarga" jozibali, go'zal va mashhur ayollarga yo'naltiradilar (mashhur estrada qo'shiqchisi, teleboshlovchi, modeler, va h.k). romantik kasblarga yo'nalishi ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadi. Bunday romantik kasbiy yo'nalishning shakllanishiga, shuningdek, o'smirlarning o'zini namoyon eta olishiga intilishi sabab bo'ladi. Istalgan kasb namunalari, kasbiy orzular kasbiy shakllanishning psixologik bir bosqichi bo'lib qoladi.

Erta yoshlik davri – bu davrning asosiy vazifasi kasb tanlash. Bu realistik aptatsiya davri hisoblanadi. O'smirning kasbiy rejalari aniq ifodalanmagan, orzu shaklida bo'ladi. U odatda o'zini turli emotsional yoqimli bo'lgan kasbiy rollarda tasavvur etadi, ammo kasb tanlash bo'yicha biror xulosaga kelmagan bo'ladi. Aslida esa o'spirinlik davrining boshida umumta'lim maktabini bitirgan yigit-qizlar oldida bu muammo paydo bo'ladi. Bu taxminan katta yoshdagi o'smirlarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Ulardan ayrimlari boshlang'ich va o'rta maxsus ta'lim yurtlariga, qolganlari mustaqil mehnat faoliyatini boshlashga majbur bo'ladilar. 14-15 yoshda kasb tanlash juda qiyin, chunki kasbiy maqsadlar aniqlanmagan bo'ladi. Kasbiy yo'nalgan orzular va romantik intilishlarni aslida ro'yobga chiqarib bo'lmaydi. Real boshlangan kelajakdan qoniqmaslik refleksiyasining, ya'ni shaxsiy "men"ni anglashni rivojlanishiga olib keladi (kim men? mening qobiliyatlarim qay darajada? men kim bo'lmoqchiman? kimga o'xshagim keladi?) va boshqalar. Kasb-hunar o'quv yurtlarida kasbiy ta'lim oluvchilar kasb jihatdan o'zlarini anglay oladigan bo'lishlari kerak. Ammo statistika ma'lumotlariga ko'ra, kasb-hunar o'quv yurtidagi tanlov psixologik jihatdan asoslanmagan.

Shunday qilib, katta yoshdagi o'smirlar uchun o'quv yurtidagi kasbiy o'zini o'zi anglash kasbiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik yo'llarini anglangan tanlovi hisoblanadi.

Yoshlik (16-23 yoshda) yigit-qizlarning aksariyat qismi o'quv yurtlarida kasbiy ta'lim olishadi yoki korxona va muassasalarda kasbiy tayyorgarlik ko'rishadi. Endi istalgan kelajak ko'plar uchun haqiqiy bo'ldi, ammo ayrimlar kasbiy tanlovlaridan qoniqmaydilar.

Shunday bo'lsa-da, ko'p yigit qizlarda kasbiy ta'lim davomida amalga oshirilgan tanlovdan qoniqish seziladi. Kelajakdagi ijtimoiy kasbiy vazifani sekin-asta egallash, shaxsni ma'lum kasbiy hamjamiyat vakili sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari shaxs sifatida shakllanish yoshlik (27 yoshgacha), yetuklik, qarilik bosqichlari ham yoshlikda to'g'ri tanlangan kasbga qarab o'z ifodasini turli xil ko'rinishlarda namoyon etadi. Bu davrlarda yoshlikda to'g'ri kasb tanlanmagan bo'lsa, kasbiy rejalar, kasbiy maqsadlarning amalga oshmaganidan aziyat chekishadi.

Kasbiy shakllanishning turli bosqichlarida shaxs o‘zlikni anglashni aniqlashning refleksiv tahlilini xulosalab, quyidagilarni ta’kidlash mumkinki, kasbiy o‘zlikni anglash – bu nafaqat kasb yoki kasbiy hayotning alternativ ssenariylarini tanlash, balki shaxs rivojlanishining o‘ziga xos ijodiy jarayonidir. O‘zlikni anglash muhim kasbiy muammoga teng bo‘lishi mumkin va bunda shaxs rivojlanishi yuzaga keladi yoki teng bo‘lmasligi ham mumkin. Bunda u ichki ziddiyatni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Shaxsning kasbiy shakllanishini davrlashtirish muammosi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida ijtimoiy vaziyatlar va yetakchi faoliyat omili asos qilib olingan. Bu jarayon ota-ona, o‘qituvchi va o‘quv predmetlari ta’sirida vujudga keladigan kasbiy qiziqish va moyilliklarning paydo bo‘lishidan boshlanadi. So‘ngra anglangan, xohlangan, ba’zan majburan kasb tanlash bilan yakunlanadigan kasbiy maqsadlar shakllanadi. Bu shaxsning shakllanishidagi optatsiya bosqichi nomini olgan. Shaxsning kasbiy faolligi kasblar olamida o‘z o‘rnini topish va kasb tanlash borasida qat‘iy qarorlar qabul qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kasbiy ta’lim oila va maktabda amalga oshiriladigan kasb tanlangunga qadar davom etgan mehnat ta’limi va tarbiyasi negizida, ya’ni kasb tanlashga psixologik tayyorlash va mehnat faoliyatiga ruhan tayyorgarlikka ko‘maklashadigan yo‘nalish asosida davom etadi. Bu yo‘nalishning amalga oshishi shaxs taraqqiyotiga: a) mehnat va kasblarga bo‘lgan qiziqishga, mehnat faoliyati va kasb tanlashga tayyorlikka yo‘nalgan motivatsion soha; b) mehnat faoliyat va kasblar, kasbiy muhim ahamiyatga ega shaxs xususiyatlari, ularning o‘zida mavjudligi haqida bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadigan operatsion sohani rag‘batlantirishga ijobiy ta’sir etadi.

Xulosa shuki, kasbga yo‘llash umumdavlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi kasbiy o‘zlikni anglashda turli yosh davrlari bosqichlarining ahamiyati kattadir. Ushbu faoliyatni hamkorlikka aylantirish muhimdir. O‘quvchilarni yosh xususiyatidan kelib chiqib, ota-ona, o‘qituvchilar va psixologlar yordamida kasbiy yo‘nalishni to‘g‘ri tanlashida ko‘rsatiladigan faktorlar asosida yo‘naltirish hamda kasblar haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lishi uchun yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Большой психологический словарь. Под общ. Редакции Б.Г.Мещерякова и П.И.Зинченко. 3-е изд. – М., 2002 г.

2. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – М., 2004.

3. Козлова Д., Галанина А. Выбор будущей профессии // БМИК. 2017. №6. – С. 914-915.

4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.,1996.

5. Umarov B.M., Shoyimova Sh.S. “Kasbiy psixologiya” darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi – T.:”LeSSON PReSS” 2018.

6. Shoyimova Sh.S. Mutaxassis shaxsining kasbiy kamoloti masalalari. Internauka ¹19 (195), chast 6, 2021 g. – S. 19-21.

7. Шойимова Ш.С. Умумтаълим мактаб ўқувчи – ёшларининг касб танлашида мотивация ва қизиқишининг аҳамияти «Актуальные проблемы обучения социальногуманитарных наук в медицинском образовании» Международная научно-практическая онлайн конференция. 27 апрель 2023 й, – 415-422 б.

Nodirjon XOSHIMOV,
mustaqil tadqiqotchi

ADDIKSIYA – IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borishi natijasida kompyuter va gadjet (qurilma)lardan ish faoliyatlarida foydalanuvchilar bilan birga internet hamda kompyuter o‘yinlari, virtual olam, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilib, addikt sifatida shakllanib qolgan insonlar, shuningdek, internetga qaramlik yoki internet addiktivligi hamda globallashuv jarayoni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Addiksiya, internet, axborot, axborot texnologiyalari, globallashuv.

В данной статье речь пойдет о людях, которые в результате бурного развития информационных технологий, наряду с пользователями компьютеров и гаджетов (устройств) в своей деятельности стали чрезмерно увлекаться интернетом и компьютерными играми, виртуальным миром, социальными сетями, сформировались как наркоманы, а также интернет-зависимость или интернет-зависимость, а также процесс глобализации.

Ключевые слова. Зависимость, интернет, информация, информационные технологии, глобализация.

This article will focus on people who, as a result of the rapid development of information technology, along with users of computers and gadgets (devices) in their activities, became excessively addicted to the Internet and computer games, the virtual world, social networks, formed as drug addicts, as well as Internet addiction or Internet addiction, as well as the process of globalization.

Key words. Addiction, internet, information, information technology, globalization.

Globallashuv jarayoni deb atalayotgan hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari, internet hayotimizga shiddat bilan kirib kelib, uning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib qoldi. Internet mafkuraviy muammolar bilan masalalarni hal etishda muhim vositalardan biriga aylanib ulgurdi. Biroq shu bilan birga uning imkoniyatlari bilan birga jahon global axborot to‘rining aniq, ochiq-oydin tasavvur qilish lozim bo‘lgan tahdid va xavf-xatari mavjudligini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borishi natijasida kompyuter va gadjet (qurilma)lardan ish faoliyatlarida foydalanuvchilar bilan birga internet hamda kompyuter o‘yinlari, virtual olam, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari berilib, addikt sifatida shakllanib qolgan insonlar soni ortib bormoqda. Barcha sohalardagi yangiliklarga eng avvalo, yoshlarning qiziqish bildirishini nazarda tutsak, ayni paytdagi axborot texnologiyalari addiktlarining aksariyatini 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etmoqda.

G‘arb mamlakatlarida rasmiy ravishda “qurilmalardan patologik foydalanish” istilohidan foydalanishadi. Bugungi kunda ushbu atama, so‘z birikmasi (qurilmalardan patologik foydalanish) hali internet va kompyuterga nisbatan yuzaga keladigan psixologik qaramlik xususida mutaxassislarda yakdil fikr shakllanmaganligiga qaramay, qurilmalarni ijtimoiy maqsadlardan o‘zga maqsadlar uchun ham uzluksiz qo‘llovchi shaxslarga nisbatan ishlatilmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalariga qaramlik, tobelik (addik-

siya) ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin:

– internet-qaramlik (internet-addiksiya);

– kompyuter o‘yinlariga haddan tashqari berilish.

Bu ikkala ko‘rinishning umumiy va xususiy jihatlari mavjud. Kompyuter yoki telefon qaramligining umumiy xususiyatlari sirasiga o‘zaro bog‘liq bir qator psixologik va fiziologik simptomlarni kiritish mumkin.

Psixologik belgilar quyidagilar:

– kompyuter qarshisida eyforiya holati yoki qulaylikni his etish;

– kompyuter bilan ishlashdan o‘zini to‘xtatolmaslik;

– kompyuter qarshisida o‘tkazilayotgan vaqtning tobora ko‘payib borishi;

– oila va do‘stlar, kishilarga nisbatan e’tiborning kamayib borishi;

– kompyuterdan boshqa joylarda depressiya, achchiqlanish hissining kuzatilishi;

– ish beruvchilar va oila a’zolariga o‘z faoliyati yuzasidan yolg‘on ma’lumotlarning berilishi;

– ish yoki o‘qish faoliyati bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi.

Jismoniy (fiziologik) belgilarga quyidagilar kiradi:

– karpal kanal sindromi (qo‘llar va barmoqlardagi asab tolalarining, muskullarning zo‘riqib ishlashi natijasida zararlanishi);

– ko‘zlarning quruqshib qolishi;

– boshning ba’zan qattiq og‘rishi;

– yelka, orqadagi og‘riqlar;

– o‘z vaqtida ovqatlanmaslik, ovqatni ba’zan kanda qilish;

– shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik;

– uyquning buzilishi.

Kompyuterdan patologik foydalanish umuman olganda alkogolizm yoki giyohvandlik (kimyoviy qaramlik, tobelik) singari kishini tubanlikka yetaklamasligi mumkin. Biroq, uning kishi shaxsi rivojiga salbiy ta’sir etishini inkor qilib bo‘lmaydi.

Addiksiya xususida gap ketganda, kompyuter o‘yinlarining shaxs ruhiyatiga ta’siri masalasi albatta tahlil etilishi zarur. Ayrim addiktlar va ularning ota-onalari, qarindosh-urug‘lari bilan suhbat o‘tkazgan tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, addiktlarda yuqori darajadagi xavotir va depressiya ko‘zga tashlanib turadi. Addiktlarning yaqinlari ularning haddan tashqari jizzaki, jahldor, hissiy jihatdan noturg‘un ekanliklarini ta’kidlaydilar.

Kompyuter o‘yinlari addiktlari o‘yinga nisbatan doimiy ehtiyojni his qiladilar, biroq shu bilan birga doimiy ravishda frustratsiya holatida bo‘lganliklari sababli shu ehtiyojni qondirolmaslikdan aziyat chekadilar. Bunday g‘ayritabiiylik, paradoksni tushunishda addiktlarning virtual (xayoliy) va real olamga daxldor psixik xususiyatlarining tavsifi yordam beradi.

Ushbu tavsifga ko‘ra (darvoqe, uni ko‘pchilik addiktlar ma’qullashadi), muammoni quyidagi tarzda yoritish mumkin: addiktlarning real olamda doimiy ravishda frustratsiya va tushkun kayfiyat holatida bo‘lganliklari ularda yuqori darajadagi xavotirlanish va depressiya holatini keltirib chiqaradi. Bu klinik-psixopatologik metod yordamida aniqlashtirilgan. Kompyuter o‘yinlari vaqtida ular ongida qanday jarayonlarning kechishini aniqlash ancha murakkabdir, chunki, o‘yindan chalg‘ish yoki chalg‘itishga bo‘lgan har qanday urinish – bu virtual, xayoliy olamni tark etishni anglatadi. Biroq, addiktlar bilan bo‘lgan suhbatlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘yin jarayonida ularning kayfiyati ancha ko‘tariladi, chunki bu paytda ijobiy hissiyotlar kuchayadi. Kayfiyatning ko‘tarilishi bilan

bog‘liq ravishda kechadigan ijobiy hissiyotlar kompyuterda o‘ynash quvonchini ko‘z oldiga keltirib, oldindan rohatlanish bilan ham bog‘liq bo‘ladi. O‘yindan so‘ng, ya’ni virtual olamni tark qilganlaridan keyin ular yana ilgarigidek tushkun, so‘niq kayfiyatga qaytadilar.

Ko‘pchilik addiktlar ijtimoiy hayotga yaxshi moslasha olmaydigan kishilardir. Ularda ko‘pincha maishiy, oilaviy, ish faoliyati, qarama-qarshi jins vakillari bilan bog‘liq muammolar uchrab turadi. Shuning uchun addiktlarga real olam zerikarli, yoqimsiz, xavfli tuyuladi. Ayni sabab inson qoidalarni o‘zi belgilaydigan, barcha narsaga ruxsat etilgan virtual olamda yashashga intiladi. Mantiqan olganda ham, virtual olamni tark etish addikt uchun yoqimsiz holatdir, chunki u yana o‘z xohlamaydigan olamga qaytishga majbur bo‘ladi, yana kayfiyati tushadi, o‘zini har tomonlama noxush his etadi. Shuning uchun, addiktlarda kayfiyat yomon bo‘lishining sababi bir tomondan kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan doimiy ehtiyojning mavjudligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan shu ehtiyojni qondirish imkonining yo‘qligidir. Hissiy-emotsional sohada ularda og‘ishlar borligining yana bir sababi subyektiv darajada o‘z faoliyatlari (kompyuter o‘yinlari)ning foydasizligini anglashlari va psixologik qaramlik oldida o‘z ojizliklarini his qilishlaridir. Bu o‘ziga xos kognitiv dissonans, ya’ni ijtimoiy jihatdan ma’qullanadigan hayot bilan addiktning hayoti o‘rtasidagi nomuvofiqlikni bildiradi. Boshqacha aytganda, addiktlar mudom o‘zlarini o‘zlari inkor qiladigan sharoitda yashaydilar.

Bu jihat g‘alati tuyulsa-da, haqiqatdan ham ko‘pchilik kompyuter o‘yinlarining ashaddiy ishqibozlari o‘z xatti-harakatlari to‘g‘risida jiddiy mulohaza yuritadilar. “Qiladigan shuncha ishim bor edi, men esa tuni bilan kompyuter o‘ynadim” qabilidagi fikrlar ularni qiynaydi. Ayrim addiktlar uchungina kompyuter o‘yinlari psixologik himoya vazifasini bajarishi mumkin.

Ma’lumki, o‘smirlik davrida o‘smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilarga, ayniqsa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. Uning o‘z shaxsiga bo‘lgan e’tibori kuchayadi. O‘smirlik davrida shaxs egotsentrizmi boshqa davrdagilarga qaraganda eng yuqori darajaga yetadi. Bu davrda o‘smir o‘z shaxsiyatini boshqalardan ustun qo‘yadigan, o‘ziga ko‘proq bino qo‘yadigan bo‘lib qoladi. Shu davrda o‘g‘il bolalarda ham, qiz bolalarda ham shunchaki kattalarga taqlid qilib emas, balki tom ma’noda o‘zining xatti-harakatini nazorat qilish, o‘zining yurish-turishi, kiyinishi, tashqi ko‘rinishiga astoydil e’tibor berish, pardoz-andoz bilan shug‘ullanish kabi holatlar kuzatiladi. Shu davrda o‘smirning tashqi ko‘rinishi, shaxsiyatiga oid bildirilgan arzimagan nojo‘ya gap uning uchun jiddiy salbiy kechinmalarning kechinilishiga asos bo‘lishi mumkin.

Ko‘pincha “o‘tkinchi” deb tavsiflanadigan o‘smirlik davrida organizm, asab tizimi og‘ir va uzoq vaqt davomida ta’sir qiladigan ta’sirotlarga hali bardosh bera olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda asab tizimi tormozlanish holatiga o‘tishi mumkin. Bu esa organizmning o‘ziga xos himoya mexanizmi hisoblanadi. Mazkur davrning asosiy faoliyati o‘qish bo‘lib, o‘smirning nafaqat bilim, malakalarni egallashi, balki maslak, e’tiqod, ehtiyoj va motivlarni, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishi ham muhimdir. Internet esa hozirgi zamonda ushbu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi.

Kishilarda axborot ko‘rsatadigan ta’sirga nisbatan javob, uni qabul qilish reaksiyasi har xildir. Ta’bir joiz bo‘lsa, axborot, ma’lumotning psixikaga ta’siri borasida eng “kuchsiz” qatlam – yoshlar, deyish mumkin.

Hozirgi vaqtda fanning yangi tarmog‘i – axboriy (kompyuter) psixologiyasi yo‘na-

lishi shiddat bilan rivojlanmoqda[1].

Ushbu yo‘nalishda quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

– insonning tobora takomillashib borayotgan kompyuter texnologiyalari, axboriy oqim oldidagi qo‘rquvi (kompyuterofobiya);

– shaxsning insonlar bilan emas, balki kompyuter va uning vositasida muloqot qilishga intilishi – “informomaniya”;

– kompyuterda ishlash jarayonida kishilarning toliqishi;

– kompyuterga qattiq bog‘lanib qolishning oldini olish.

Kompyuter, internetga qattiq bog‘lanib qolish giyohvandlik singari asta-sekin, bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan jarayondir. Bu kasallikning uch bosqichi mavjud:

1) Ko‘pincha muammolardan chekinish, ularni unutish uchun global tarmoq, internetga oshiqiladi.

2) Shaxsning internetdan uzilishi juda qiyinligi ko‘zga tashlanadi, ya’ni bu bosqichda internetda o‘tkazilayotgan vaqt miqdori tobora ko‘payib boradi.

3) To‘liq qaramlik bo‘lib, unda inson internetda o‘tkazayotgan vaqti ilgarigidan ko‘proq bo‘lmasa, oladigan huzur-halovati kamayayotgandek bo‘ladi. Buni giyohvand qabul qiladigan narkotik modda miqdorining ko‘payib borishiga qiyoslasa bo‘ladi[2].

Insonning o‘zi haqida tasavvurlari shakllanishi yosh davrlariga bog‘liq bo‘lib, odatda o‘smirlik davrida “Men” timsoli to‘la tarkib topmagan bo‘ladi. Bunday hollarda virtual, xayoliy timsollar o‘smirning bu boradagi ehtiyojlarini qondirishga yordamga keladi. Jamiyatda to‘la ravishda o‘zini o‘zi namoyon qilolmagan shaxs virtual reallikda, xayoliy makonda buni amalga oshirishga harakat qiladi. Mazkur holat internet qaramlikda yuzaga keladi. Muomala, muloqot, ijtimoiylashuv jihatdan muammolari bo‘lmagan shaxs esa virtual olamdagi faoliyatga ehtiyoj sezmaydi.

Yosh avlod vakillariga psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatish, ularni psixologik-pedagogik tomondan qo‘llab-quvvatlash, bir qator jihatlariga ko‘ra muhimdir. Eng avvalo ta’kidlash lozimki, yoshlar barcha jamiyatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, istiqbolidir. Yoshlar shaxsining shakllanishi butun dunyoda murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar kechayotgan bir paytga to‘g‘ri kelayotgan ekan, ularni to‘g‘ri tarbiyalashda, albatta, katta avlodning ko‘magi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белинская Е., Жичкина А. Стратегии самопрезентации в Интернет и их связь с реальной идентичностью // http://flogiston.ru/projects/articles/strategy.shtml.

2. Дрепа, Мария Ивановна. Интернет-зависимость как объект научной рефлексии в современной психологии // Знание. Понимание. Умение. — 2009. – № 2. – С. 189-193.

3. U. Qodirov. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar”, – 2013 y.

[1] Белинская Е. Жичкина А. Стратегии самопрезентации в Интернет и их связь с реальной идентичностью // http://flogiston.ru/projects/articles/strategy.shtml

[2] Венгеров А.Б. Информационная ситуация может способствовать как прогрессу, так и деградации общества // Компьютер и право, № 1, 1994.

N.O. G‘ANIYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

SHAXSNING O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHNING INDIVIDUAL O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Maqolada shaxs o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning hozirgi kundagi asosiy muammolari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, shaxs o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish tushunchasining mazmuni, fanda yuzaga kelishining ijtimoiy shart-sharoitlari xususida nazariy g‘oyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan va to‘sqinlik qiladigan omillari klassifikatsiya qilinib, ularning mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shaxs yo‘nalganligi, gumanistik, “Men konsepsiyasi”, psixofiziologik, psixologik, psixoekologik, pedagogik, ijtimoiy sharoit, faollik.

В статье показаны основные проблемы, с которыми сталкивается человек, чтобы реализовать свой потенциал в наши дни. Также были выдвинуты теоретические идеи о содержании понятия реализации потенциала личности, социальных условиях его возникновения в науке. В частности, их суть раскрывается путем классификации факторов, способствующих и препятствующих реализации собственного потенциала индивида.

Ключевые слова. Личность, реализация своего потенциала, личностная ориентация, гуманистическая, ‘‘Я-концепция”, психофизиологические, психологические, психоэкологические, педагогические, социальные условия, деятельность.

The article shows the main problems of the person to realize his potential in the present day. Also, theoretical ideas have been put forward about the content of the concept of realization of an individual’s potential, the social conditions of its occurrence in science. In particular, their essence is revealed by classifying the factors that contribute to and hinder the realization of an individual’s own potential.

Key words. Personality, realization of one’s potential, personality orientation, humanistic, ‘‘I Concept’’, psychophysiological, psychological, psycho-ecological, pedagogical, social conditions, activity.

Inson faoliyat sohasining jadal kengayishi va rivojlanishi munosabati bilan shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish muammosi bizning davrimizda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Hayotning barcha bosqichlarida eng ustuvor masalalardan biri jamiyatda shaxs o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va o‘zini namoyon qilish yo‘lini tanlash muammosidir.

Zamonaviy jamiyatning maqsadi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat orqali shaxs o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish, o‘zini o‘zi namoyon qilish va unga imkoniyatini beruvchi rivojlanayotgan shaxsning potensialini ochib berishdir. Shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish fenomeni, ayniqsa, uning shakllanish bosqichida, ushbu hodisaga qiziqish ortib borayotganiga qaramay, to‘liq tushunilmagan.

Ma’lumki, “O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish” atamasi birinchi marta 1902-yilda “Falsafa va psixologiya lug‘ati”da qo‘llanilgan. Ko‘pincha “o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish” tushunchasi “o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish” deb talqin qilinadi. Shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi alohida va ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqila boshlandi, shu bilan birga turli fanlar uchun muammoli bo‘lib qolmoqda.

XX asr o‘rtalarida insonning mohiyati va salohiyati haqidagi savollar bilan guma-

nistik (K. Goldshteyn, K. Rodgers, E. Fromm, A. Maslou) va ekzistensial psixologiya (J. Byugental, R. May, E. Shostrom, G. Ollport) ning yetakchi olimlari tomonidan tadqiq qilingan. Ular o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish istagi tug‘ma, vaqt o‘tishi bilan namoyon bo‘ladigan, shaxsga xos bo‘lgan imkoniyatlarni ochish deb hisoblashgan. Gumanistik yo‘nalish vakillari K. Yungning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish ikki bosqichda davom etishini ta’kidlagan g‘oyalarini davom ettirdilar. Hayotning birinchi yarmida inson o‘z shaxsini yaratib, jamiyatdan ajralib chiqishga harakat qiladi. Ikkinchisida u yana jamiyat bilan birlashadi va uning bir qismiga aylanadi. U o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning yakuniy maqsadi ruhiy tajribani bilishdir, deb taxmin qildi. Chet el psixologiyasida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish haqidagi ko‘plab tushunchalarini A. Adler o‘zini g‘oyalarida davom ettiradi. Shunga muvofiq u o‘z asarlarida “mukammallikka intilish” va “o‘zini o‘zi mukammallashtirishga intilishi” tushunchalarini bir-birining o‘rnida qo‘llashga harakat qilishadi. Mukammallikka intilish, A. Adlerning fikricha, tug‘ma bo‘lib, insonga butun umri davomida hamroh bo‘lib, o‘zini namoyon qilish va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish istagini shakllantiradi.

Shu o‘rindan ta’kidlash kerakki, inson jamiyatdan ajralmas bo‘lganidek, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ham individual emas. Shuning uchun u faqat inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan guruhda amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun o‘z harakatlarini amalga oshirishi va rejalashtirishi mumkin. A. Adler inson o‘z shaxsini yaratuvchisi, o‘z oldiga maqsad qo‘ygan va unga erishish yo‘llarini yaratuvchi, ijodiy salohiyatdan foydalangan holda ekanligini ta’kidlagan. K. Rojers o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishni tug‘ma sifat emas, balki o‘zini o‘zi mukammallashtirishning asosiy motivi sifatida tushuntirdi. Shuningdek, u o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish faqat “Men” va “Men-konsepsiya”ni ishlab chiqqanlarga bo‘ysunishini ta’kidladi. Bu tushunchalar K. Rojers nazariyasida asosiy bo‘lib, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va boshqa odamlar bilan munosabatlardan iborat tasvirlar sifatida tavsiflanadi.

Shuningdek, “Men-konsepsiya”, “Men-ideal”- inson qanday bo‘lishni xohlashi va “Men-real” - insonning o‘zi haqidagi g‘oyalariga asoslanadi. Insonning “Men”i hayot davomida o‘zgarib turadi, lekin har doim yaxlit holda qoladi, shu munosabat bilan insonning o‘zi haqidagi g‘oyasi doimiy bo‘lib qoladi. K. Rojers konsepsiyasidagi eng muhimi: “...o‘z tajribasini kuzatish va baholash orqali inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga doimiy ehtiyojni boshdan kechirgan holda o‘zini o‘zi o‘rganadi” degan pozitsiyadir. Bu ehtiyojni K. Rojers o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish deb ataydi. A. Maslou o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish inson ehtiyojlarining eng yuqori darajada ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, “... o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish – bu o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish yoki da’vat qilish, taqdirni yanada to‘liqroq bilish va ... o‘zini qabul qilish kabi “potensial imkoniyatlar, qobiliyat va iste’dodlarni doimiy ravishda amalga oshirib, asl tabiat, shaxsning birligi, integratsiyasi yoki ichki sinergiyasiga tinimsiz intilish sifatida” ko‘rsatiladi. A. Maslou o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish insonning o‘zi xohlagan narsaga aylanish istagi ekanligini ta’kidladi. Bu darajaga yetgan inson bor salohiyatini to‘liq ishga sola oladi. Biroq, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga odamning o‘zi to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki u o‘z imkoniyatlari haqida o‘ylamaydi va o‘zini amalga oshirishga intilmaydi. Bu muvaffaqiyat qo‘rquvi bilan izohlanadi, bu insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish tomon harakatini murakkablashtiradi. E. Fromm o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish majburiy atributi sifatida mahsuldor o‘zini o‘zi anglash – shaxsning o‘z salohiyatining eng yuqori cho‘qqisiga erishish harakati deb ataladi.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha: “... o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish hayotiy zarurat -– ruhiy holat – doimiy va uning asosida o‘zgarmasdir”.

Avstriyalik psixiatr va psixolog V. Frankl o‘zi ilgari surgan logoterapiyaga asoslanib, insonning rivojlanishi tashqi dunyoda mavjud bo‘lgan hayot mazmunini o‘rganish jarayoni bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ma’noning asosini qadriyatlar-insoniyat tajribasini birlashtirgan semantik tushunchalar tashkil etadi. “... o‘z hayotining ma’nosini anglagan inson shu orqali o‘zini o‘zi amalga oshiradi; o‘zini o‘zi faollashtirish deb ataladigan narsa faqat ma’noni amalga oshirishning qo‘shimcha mahsulotidir, deb hisoblaydi V. Frankl. Zamonaviy psixologiyada o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish muammosi ijtimoiy falsafaning aspektlarida va uning individual pozitsiyalari - ijtimoiy psixologiyada batafsil o‘rganildi. Bu umuman o‘z imkoniyatini ro‘yobga chiqarish g‘oyasini ishlab chiqishga imkon berdi. Shunday qilib, I.D. Yegorichevaning ta’kidlashicha, mualliflarning aksariyati o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish muammosi insonning o‘zini o‘zi anglashi bilan aloqadorligi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish shaxsning muhim kuchlarini aniqlashiga bog‘liqligi bilan ajralib turadi.

D.A. Leontev shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishni o‘rganish muammosining uchta darajasini ajratadi:

– umumiy falsafiy – shaxsning mohiyati, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonining mazmuni masalalarini hal qilish darajasi;

– sotsiologik – muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘llari va usullarini ko‘rib chiqish;

– psixologik – shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlarni va muayyan tashqi sharoitlarni tahlil qiladi.

Ushbu yondashuv psixologik darajada eng katta ahamiyatga ega. D.A. Leontevning so‘zlariga ko‘ra, insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish istagi uning mavjudligi abadiy emasligini anglashni to‘liq shakllantiradi. Shu sababli, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish faqat o‘zaro bog‘liq ehtiyojlar va madaniyat va jamiyatga ijtimoiy hissa qo‘shadigan shaxs bo‘lish qobiliyati asosida amalga oshirilishi mumkin. O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish ko‘rsatkichi jamiyat uchun muhim bo‘lgan faoliyat natijasidir.

E.I. Goryacheva o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonini potensial qobiliyatlarning mazmunli va jarayonli tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan haqiqiy qobiliyatlarga o‘tishi sifatida tavsiflaydi. Mazmuniy jihat shaxsning muayyan qobiliyatlarini, ushbu qobiliyatlarni amalga oshiradigan jarayonli harakatlarni tavsiflaydi.

O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish shaxsiy potensiallarni ochish uchun yetarli harakatlarni qo‘llash orqali shaxsning turli tomonlarini uyg‘un rivojlanishini nazarda tutadi. Keng ma’noda, bu kundalik faoliyatda o‘zini ochib berish, har bir vaqtning har bir daqiqasida o‘z hayot yo‘lini, qadriyatlarini va ma’nosini izlash va o‘rnatish sifatida izohlanadi.

O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish faqat shaxsiy o‘sish uchun kuchli rag‘batlantiruvchi motiv mavjudligi tufayli yuzaga keladi.

O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishni tizimli yondashuv doirasida o‘rganib, S.I. Kudinov o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning psixofiziologik, psixologik, psixo-ekologik, pedagogik va ijtimoiy sharoitlarini, tashqi va ichki shakllarini, faolligini, shaxsiy va ijtimoiy turlarini ajratib ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning ayrim xususiyatlarini aniqroq diagnostika qilish va psixologik korreksiya qilish imkonini beradigan tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarni o‘z ichiga olgan o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning tarkibiy modelini taklif qildi.

O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning asosiy shartlarini batafsil ko‘rib chiqsak, R.A. Psixofiziologik omillarning shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ta’siri ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Eng muhimlari anatomik va fiziologik xususiyatlar bo‘lib, ular har qanday sohada o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi muvaffaqiyatining zaruriy sharti, shuningdek, temperament xususiyatlari va asab tizimining xususiyatlari hisoblanadi. Shaxsning o‘zini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan psixologik sharoitlar aqliy kognitiv jarayonlar, shaxsiy xususiyatlar va psixo-emotsional holatlar bilan ifodalanadi.

Pedagogik shart-sharoitlarga ta’lim va tarbiya tizimi kiradi, ular o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun tizimni tashkil etuvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning ajralib turadigan shakllari orasida tashqi tomondan shaxs o‘zini kasb, ijodkorlik, sport, san’at, o‘qish, siyosiy va ijtimoiy faoliyat va boshqa shu kabi hayotiy sohalarda namoyon etishga qaratadi. Shaxsning ichki yo‘nalganligi jismoniy, intellektual, estetik, axloqiy va ma’naviy jihatlarida o‘zini o‘zi mukammallashtirishga harakat qiladi.

Shu o‘rinda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish turlariga kelsak, faoliyat – bu turli xil faoliyat turlarida o‘zini namoyon qilish va subyektning ma’lum bir kasbida ham, ijodkorlik, havaskor sport va boshqalarda ham yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani ta’minlaydi. Ijtimoiy o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish har qanday ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Shaxsiy o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish insonning ma’naviy o‘sishini ta’minlaydi, shaxsiy salohiyat, mas’uliyat, bilimdonlik, ijodkorlik, axloqiy va boshqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur tizimli tuzilma shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishning individual o‘ziga xosligini, uning qadriyatli-semantik, motivatsion-ehtiyoj, instrumental, hissiy-irodaviy va refleksiv-baholash xususiyatlarining o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адлер А. Индивидуальная психология [Текст] / А. Адлер // История зарубежной психологии / ред. П.Я. Гальперин, А.Н. Ждан. – М.: Изд-во МГУ, 1986. – С. 131-140.

2. Галажинский Э.В. Системная детерминация самореализации личности [Текст] /Э.В. Галажинский // Дисс. … доктора психол. наук. – Томск, 2012. – С. 320.

3. Кудинов С.И. Психодиагностика личности [Текст] / С.И. Кудинов // Издательство Тольяттинского государственного университета, 2012. – С. 269.

4. Олпорт Г. Становление личности: Избр. труды [Текст]/ Г. Олпорт; Под общ. ред. Д.А. Леонтьева; Пер. с англ. Л.В. Трубицыной, Д.А. Леонтьева. – М.: Смысл, 2002. – С. 461.

5. Рубинштейн М.М. Юность: по дневникам и автобиографическим записям [Текст]: / М.М. Рубинштейн. – М.: Высш. пед. курсы при Моск. высш. техн. училище, 1928. – С. 275.

Muxayyo UMARALIYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INKLYUZIV TA’LIMNING IJTIMOIY-MADANIY MUAMMOLARI: XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida ta’lim pedagogikasining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda va xorij davlatlar siyosatida inklyuziv ta’limga munosabat tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, xorijiy tajriba, dialekt, ijtimoiy muammo, qonunchilik.

В статье освещается значение педагогики образования в условиях инклюзивного образования. Также проанализировано отношение к инклюзивному образованию в нашей стране и политике зарубежных стран.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, зарубежный опыт, диалект, социальная проблема, законодательство.

The article highlights the importance of educational pedagogy in the context of inclusive education. Also, the attitude to inclusive education has been analyzed in our country and in the politics of foreign countries.

Key words. Inclusive education, foreign experience, dialect, social problem, legalism.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda nogiron bolalarga munosabat o‘zgarmoqda, ya’ni: odamlar o‘zlarining noyobligini va hurmat qilish huquqini tan olishni boshladilar. Bunday holatning eng yorqin misoli inklyuziya mafkurasida o‘z ifodasini topgan.

Maktabda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish hamkorlik g‘oyalarini baham ko‘radigan va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari rivojlanishiga yordam beradigan xavfsiz, bag‘rikeng jamiyatni yaratishga imkon yaratadi. Bu jamiyatda har birining qadri umumiy yutuqning asosidir. Maktab rivojlanishi uzluksiz va barqaror jarayonga aylanadi. Inklyuziv madaniyatni rivojlantirishga boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarining faol ishtirokida sinflar, umumiy maktab tadbirlari, bayramlar, sport tadbirlari va ijtimoiy sheriklar (maxsus maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari) tizimi yordam beradi. Barcha

darslar va tadbirlar alohida ta’limga muhtoj va nogiron o‘quvchilarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Inklyuziv siyosatni ishlab chiqish o‘quvchilar imkoniyatlarining xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlaydi va hamma uchun maktablarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Qo‘llab-quvvatlash – bu o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan har tomonlama ehtiyojlarini qondirish, ta’limda eng yuqori natijalarga erishishga qaratilgan barcha harakatlar. Barcha turdagi yordamlar umumiy tizimga birlashtirilgan. Qo‘llab-quvvatlash tizimining barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

1. Inklyuziv tamoyillar asosida maktab vazifasini ishlab chiqish va mahalliy huquqiy hujjatlarni qabul qilish, inklyuziv ta’limni ma’lum muddatga rivojlantirish bo‘yicha ish rejasini tasdiqlash.

2. Bir guruh emas, balki maktabning barcha o‘quvchilarining farovonligiga qaratilgan o‘zgarishlarni amalga oshirish.

3. O‘quvchilar o‘rtasidagi farqlar o‘quv jarayonini kuchaytiruvchi manbalar ekanligini tushunish.

4. Ta’limga inklyuziya ijtimoiy integratsiyaning bir jihati ekanligini e’tirof etish.

Dunyo miqyosida alohida ta’limga muhtoj bolalarni, jumladan, eng zaif toifadagi nogiron bolalarni o‘qitishning turli amaliyotlari mavjud.

XX asrning o‘rtalariga qadar, bir qator mamlakatlar tomonidan barcha bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini teng ravishda amalga oshirishga qaratilgan milliy qonun loyihalari qabul qilinganiga qaramay, umuman olganda, vaziyat nogiron bolalarni umumiy ta’lim va jamiyat tizimidan chetlashtirish sifatida rivojlandi. 1950-1970-yillarda chet eldagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar milliy maxsus ta’limni takomillashtirish va nogiron bolalarni jamiyatga integratsiyalashga qaratilgan jamiyatning tubdan yangi mafkurasini shakllantirish uchun zarur shart bo‘ldi. Nogiron bolalarga nisbatan integratsiya jarayonlarining rivojlanishi Birlashgan Millatlar tashkiloti tashabbusi bilan qabul qilingan xalqaro qonun hujjatlarini amalga oshirish zarurati bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga, bolalarning umumiy ta’lim tizimiga qo‘shilishi shuni ko‘rsatdiki, hatto Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Kanada, Italiya, AQSh, Shvetsiya kabi dunyoning yetakchi mamlakatlarida ham bolalarni birgalikda o‘qitish bo‘yicha dastlabki ishlar muvaffaqiyatli bo‘lmadi.

Bir qator zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda Buyuk Britaniya, Daniya, Hindiston, Islandiya, Ispaniya, Kanada, Kipr, Malta, Gollandiya, Norvegiya, AQSh, Shvetsiya va Janubiy Afrika mamlakatlarida mukammal huquqiy tizimlar mavjud emas. Italiyada Qonunchilik 1970-yillardan beri inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Biroq, eng yaxshi qonunlarga ega bo‘lish inklyuziyaning beg‘ubor ishlashini kafolatlaydi deb aytish mumkin emas. Masalan, Hindistonda samarali qonunchilikning mavjudligi inklyuziv ta’limni targ‘ib qilish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishini oldini olmadi. Germaniyada ham yaxshi Qonunchilik bazasi mavjud, ammo maxsus ta’limga muhtoj bolalarning aksariyati maxsus maktablarda o‘qiydi. Daniya davlati birinchilardan bo‘lib inklyuziv ta’limga o‘tdi, ammo u yerda ham maxsus maktablarda o‘qiyotgan alohida ehtiyojli bolalar soni keskin o‘sib bormoqda.

Gollandiyada, Belgiyaning Flamand qismi, ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi juda yaxshi rivojlangan va ba’zi olimlar bu haqiqatni inklyuziv ta’limni rivojlantirishga jiddiy to‘siq deb bilishadi. 2000-yilga kelib, Finlandiyada alohida ehtiyojli bolalarning atigi 0,1 foiz integratsiyalashgan maktablarda o‘qiydi. Gretsiyada bunday bolalarning 1 foizdan kamrog‘i, AQShda – 45 foiz, Italiyada – ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra 80 dan 95 foizgacha, boshqalarga ko‘ra-99,9 foizgacha integratsiyalashgan maktablarda o‘qiydi.

Bir qator xorijiy davlatlar misolida ta’lim amaliyotiga kiritish xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

G. Mann va G. Barnard kabi ilg‘or amerikalik pedagoglarning islohotlari natijasida 1852-yilda Massachusetsda barcha bolalar uchun majburiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlaydigan birinchi qonun qabul qilindi. 1918-yilga kelib, barcha shtatlarda barcha bolalar uchun majburiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlash uchun qonunlar qabul qilindi. Albatta, Yevropa va Amerikada nogiron bolalarning kafolatlangan ijtimoiy yordam va ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, jamiyat va davlat ushbu huquqni amalga oshirish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi “ochilish” sifatida baholanishi mumkin. Biroq, nogiron bolalar hali ham jamiyatdan va ommaviy ta’lim tizimidan ajratilganligi bilan bir qatorda, bu ‘‘cheklash’’ amaliyoti ko‘pincha sudlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Misol uchun, 1893-yilda Massachusets Oliy sudi, agar maktab bolani ‘‘qobiliyatsiz’’ yoki ‘‘o‘rganishga qodir emas’’ deb hisoblasa, uni ta’lim jarayonidan chetlashtirishga haqli deb qaror qildi.

Qo‘shma Shtatlarda nogiron bolalarni o‘qitish to‘g‘risidagi qonun ta’limdagi integratsiya jarayonlarining huquqiy asosini yaratdi. Ushbu qonun nogiron bolalarning ota-onalariga keng huquqlar berdi.

Hozirda Qo‘shma Shtatlarda “inklyuziya” dasturi mavjud. Uning poydevori 1973-yilda reabilitatsiya to‘g‘risidagi qonun va nogiron bolalarni o‘qitish to‘g‘risidagi qonun bilan qo‘yilgan. AQSh Kongressi Kolumbiya okrugi tajribasiga asoslanib, nogironlar uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi (keyinchalik bu qonun “nogironlar uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonun” deb nomlandi). Ushbu qonun mahalliy maktab tizimida maxsus ta’lim uchun zarur mablag‘ bilan ta’minlashni nazarda tutgan va ta’lim dasturini aniqlashga individual yondashuvni talab qilgan.

Inklyuziv yondashuvning bir qismi sifatida har bir maktab yoki tashkilot ta’lim dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirishda barcha bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi kerak.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalar uchun individual ta’lim rejasini ishlab chiqish quyidagi o‘lchovlarga asoslanadi: realizm, muvaffaqiyat darajasi, baholash qobiliyatlari, faollik. Nogiron bolani ta’limga joylashtirish uning ehtiyojlari va cheklovlariga bog‘liq. U bola:

– ta’lim tashkiloti mutaxassislarining zarur yordami bilan oddiy sinfda o‘qish;

– kunning bir qismi oddiy darslarda, qolgan qismi esa maxsus darslarda o‘tadi;

– o‘quv jarayoniga maxsus mutaxassislar guruhi tomonidan turli ko‘mak bilan jalb qilinadi;

– turli mutaxassislarning doimiy yordami bilan reabilitatsiya dasturi doirasida o‘qishi mumkin.

AQShda inklyuziya dasturi doirasida 1980-yilda turli toifadagi nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi binolar qurish va eski binolarni tiklash jarayoni boshlandi. Ushbu maqsadlar uchun davlat tomonidan qo‘shimcha mablag‘lar ajratildi va shu bilan birga, qo‘llaniladigan standartlarni buzganlik uchun qattiq jazo choralari qo‘llanildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan davlat siyosatidan ko‘zlangan maqsad nogironligi bo‘lgan shaxsga ham oddiy inson kabi zarur xizmatlardan foydalanishi uchun sharoit yaratishdan iborat.

Agar kerak bo‘lsa, nogiron talabalar uchun quyidagilar ta’minlanadi:

– imo-ishora tilini yaxshi biladigan tarjimonlar;

– ma’ruza materiallarini yozish jarayonini osonlashtiradigan shaxsiy yordamchilar;

– individual maslahatlar uchun ijtimoiy pedagoglar va psixologlar.

Italiyada 1977-yilda parlament tomonidan 517-sonli qonun qabul qilingandan so‘ng, maxsus ta’lim tashkilotlari bosqichma-bosqich tugatilib, alohida ta’limga muhtoj bolalar umumiy ta’lim maktablarida o‘qitila boshlandi. Italiya integratsiya tizimi jamiyatda katta yordamga ega bo‘ladi. Italiya butun dunyo uchun laboratoriyaga aylandi. Sirakuzadagi (Nyu-York) Amerika universitetining bir guruh integratsiya mutaxassislari Italiyada jiddiy amaliyot o‘taydilar.

1977-yilda Italiyada ma’lum normalarni o‘rnatgan qonun qabul qilindi. Bu qonunda:

– bir sinfdagi bolalarning maksimal soni – 20 ta;

– sinfdagi alohida ehtiyojli bolalarning maksimal soni – 2 nafar;

– alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dars tarkibiga kiritilgan;

– maxsus sinflar bekor etila boshlandi;

– maxsus o‘qituvchilar oddiy maktab o‘qituvchilari bilan jamoalar tuzadilar;

– ikkala toifadagi o‘qituvchilar sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘ladilar.

Italiya uslubining o‘ziga xos xususiyati maktablarning sog‘liqni saqlash tashkilotlari mutaxassislari, shifokorlar va psixologlar, ijtimoiy xodimlar, hamshiralar, nutq terapevtlari, diagnostika va terapiyani amalga oshiradigan funksional va fizioterapevtlar bilan yaqin hamkorligidir.

Italiyada, xuddi Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘lgani kabi, maktab o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash va materialni o‘zlashtirish uchun hamkorlikda ishlashga katta e’tibor beriladi. Bolalar integratsiyasining hal qilinmagan muammolaridan biri sifatida tadqiqotchilar umumiy maktablarda alohida ehtiyojli bolalarga o‘quv fanlarini o‘qitishni ko‘rib chiqadilar.

Finlyandiyada maktab ta’limi sohasidagi davlat siyosati integrativ maktabning fundamental tamoyillariga asoslanadi, uning uslubiy asosini M. Montessori, S. Frene, R. Shtayner tushunchalari tashkil etadi. Bu tushunchalarning asosiy maqsadi bolaning qobiliyat va imkoniyatlariga qarab har tomonlama rivojlanishiga rahbarlik qilishdir. Ushbu ta’lim siyosati o‘tgan asrning 70-80-yillarida amalga oshirildi va nogiron bolalar uchun maxsus maktablarni o‘zgartirishga asos bo‘ldi. Finlyandiya pedagogikasida davlatning har bir bolaning qadr-qimmati va o‘ziga xosligiga ishonchi va qiziqishi, uning jamiyatga integratsiyalashuvi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim jarayonini tashkil etishda moslashuvchan tizimning ishlashi va ta’lim natijalarining tengligini rag‘batlantirish amalga oshiriladi.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalarni umumiy bolalar bog‘chalari va maktablariga integratsiya qilish g‘oyasi birinchi marta 1974-yilda Gretsiyada kiritilgan. Biroq, boshqa ko‘plab mamlakatlardan farqli o‘laroq, integratsiya jarayonini boshlash to‘g‘risidagi qaror manfaatdor guruhlar – o‘qituvchilar va ota-onalarning bosimi bilan emas, balki tegishli qonunning qabul qilinishi (1981) bilan qabul qilindi. Biroq, statistika ma’lumotlariga ko‘ra, maxsus sinflar va maxsus maktablar 1983-yildan 1993-yilgacha ko‘paygan.

Tadqiqotchilar rivojlanish va integratsiya masalalarida ijobiy dinamikaning yo‘qligining quyidagi sabablarini aniqladilar, nogironlarga nisbatan noaniq munosabatdan tashqari, Gretsiya davlatida integratsiya jarayoni haqiqatda rivojlanmagan:

– tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo‘lgan bolalar uchun oddiy maktablarga jismoniy muhit nuqtayi nazaridan kirish imkoni yo‘q;

– tashxis qo‘yish uchun zarur bo‘lgan testlar mavjud emas;

– o‘qituvchilar alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash usullariga o‘qitilmagan;

– mahalliy hokimiyat organlari erta aralashuv va integratsiya kabi jarayonlardan

manfaatdor emas va ularni juda qimmat deb hisoblaydi;

fizioterapiya, logopediya, psixologik yordam, huquqiy yordam va boshqalar. Hududda xizmat ko‘rsatish markazlari yetarli emas.

Xitoy davlatida inklyuziv ta’limning rivojlanishi bizga Xitoy jamiyatidagi nogironlarning nuqtayi nazari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Xitoy xalqida ma’lum ehtiyojli odamlarning maxsus qobiliyatlari borligi haqidagi g‘oya ularni alohida jamoaga ajratadi.

1994-yilda Ispaniyada YUNESKO tomonidan alohida ehtiyojli kishilar uchun ta’lim bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi o‘tkazildi va inklyuziv ta’lim tamoyillarini mustahkamlagan Salamanka deklaratsiyasi qabul qilindi. Rasmiy darajada Xitoy bu g‘oyani to‘liq qo‘llab-quvvatladi, usullarni o‘rganib chiqdi va ularni amalga oshirishga kirishdi. Hozirgi vaqtda Xitoyda inklyuziv ta’lim markazlari tashkil etilgan, konferensiya va seminarlar o‘tkazilmoqda, nashrlar chop etilmoqda.

Xitoylik ekspertlarning fikricha, ta’limdagi integratsiya genetik jihatdan inklyuziv ta’lim bilan chambarchas bog‘liq. “Mexanik hamkorlikda o‘rganish” cheklovlarga olib keladi. Keyingi qadam inklyuziv ta’limga xos bo‘lgan tushunish va ishonch darajasiga o‘tishdir. Integratsion ta’lim inklyuziv ta’lim g‘oyalarini rivojlantirishning birinchi bosqichidir, chunki inklyuziya ta’lim tamoyillari va ijtimoiy ma’nolarni universallashtirishning yuqori darajasida tubdan farqlaydi.

Inklyuziv jarayonlarni rivojlantirishning boshlanishi nafaqat qulay muhitni yaratish va inklyuzivlikning ijtimoiy xatarlarini bartaraf etishni, balki jamiyat ongidagi to‘siqlarni ham butun jamiyat darajasida, ham muayyan shaxs darajasida olib tashlashni talab qiladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining inklyuziv kompetensiyasi asosiy mazmun (motivatsion, kognitiv, refleksiv) va funksional kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi, shuningdek, maxsus kasbiy kompetensiya darajasini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 39-sonli bayoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-son Farmoni.

4. Shomaxmudova R. Inklyuziv ta’limnining nazariy va amaliy asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T., 2007.

5. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: “Владос”, 2013.

6. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // “Проблема дефектологии”. – М., 1996.

7. Алехина С.В., Семаго М.М. Создание и апробация модели психолого-педагогического сопровождения инклюзивной практики: метод. пособие. – М.: МГППУ, 2012.

8. Бутенко В.Н. Межличностные отношения детей в инклюзивных группах детского сада // Психология обучения. – 2010. - № 10.

Гулбахар Абылова,
Нукусский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени ал-Хорезмий, доцент, доктор педагогических наук (DSc),

ЦИФРОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК УСЛОВИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ И ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta'lim sharoitida talabalarning amaliy va nazariy tayyorgarligi masalalari ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalar orqali kasbiy va axborot kompetentsiyasini shakllantirish. Ularni o'quv jarayonida qo'llash zaruriyati asoslanadi.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, ta'lim, o'qitish, pedagogika, kadrlar tayyorlash.

В статье рассматриваются вопросы практической и теоретической подготовки студентов в условиях цифрового образования. Формирование профессиональной и информационной компетенции посредством цифровых технологий. Обосновывается необходимость их применения в процессе обучения.

Ключевые слова. Цифровые технологий, образование, подготовка, педагогика, обучение.

The article deals with the issues of practical and theoretical training of students in the context of digital education. Formation of professional and informational competence through digital technologies. The necessity of their application in the learning process is substantiated.

Key words. Digital technologies, education, training, pedagogy, training.

На сегодняшний день в Республике Узбекистан, как и в других развитых стран мира, особое внимание уделяется совершенствованию системы образования, внедрению и применению цифровых технологий в образовательный процесс. Процесс всесторонней информатизации, совершенствование материально – технической базы, обеспечение интернет технологиями, электронными средствами связи характеризует современный этап развития цивилизованного общества.

Важность этой проблемы заключается, помимо всего, в ее принципиальной новизне. Возникшая одновременно с появлением компьютера в последние двадцать-тридцать года, она, тем не менее, опираясь на опыт прошлых веков и тысячелетий, в соответствии с принципами классической педагогики, вынуждена развиваться только ‘‘изнутри’’, создавая свой научный потенциал одновременно во всех значимых для нее областях науки – философии, психологии, педагогике и методике. Сложившееся положение дел, учитывая повышенную практическую необходимость в ее реализации, придает проблеме цифровизации образования дополнительную актуальность, которая и определяет ее первоочередность в группе стоящих перед современной педагогикой задач. Собранная в целостное единство информатизация педагогических вузов ставит перед собой дальнейший вектор движения как развитие интеллектуальной составляющей имеющегося потенциала науки, оптимизации содержания процесса обучения, использова-

ния цифровых средств и методов обучения.

Музыка, созданная компьютером ‘‘Компьютерная музыка’’ от английского означает ‘‘Computer music’’, изначально применялся в терминологии узких специалистов, профессионалов, которые обозначали инженерные разработки над синтезом цифровой музыки, а также обработку звуковых сигналов (толковый словарь Дмитриева).

Цифровые технологии в образовании – это способ организации современной образовательной среды, основанный на цифровых технологиях.

Цифровое обучение – в первую очередь учебная практика, которая в итоге помогает и дает ощутимые результаты в обучении студентов. Также цифровое обучение рассматривает использование широкого спектра информационных и цифровых технологий, которые способствуют развитию многообразий образовательных стратегий.

Цифровой формат – это тип закодированной информации в компьютере, использующие дискретные состояния. Цифровые сигналы существуют как порядок цифр во времени. Принято применять две цифры кодирования – это 0 и 1. Термин ‘‘цифровой’’ также означает способ хранения информации в цифровом двоичном битовом формате. К примеру, цифровая музыка – это значит, музыка закодирована и сохранена в цифровой форме, т.е. звуки описываются битами.

Объединение различных областей деятельности, тем или иным образом относящихся к музыке, а также огромное количество используемых в настоящее время компьютерных программ, способствующих совершенствованию в работе учителя музыки, стало фактором, изменившим требования к получению знаний с точки зрения их дополнительных приобретений в информационно-коммуникативной среде и современных технологиях.

Подобное объединение имеет свои специфические особенности в музыкальном обучении, как процессе, соединяющем в настоящее время две довольно сильно отличающиеся сферы деятельности. Мы имеем в виду информатику и музыку, на основе которых создаются музыкальные технологии обучения, использующие современные технические достижения, получившие названия музыкально – компьютерных технологий.

Вектор развития глобализации информационных достижений современности выдвигает новые требования правил социального общежития, что, естественно, сказывается и на изменении подхода к обучению учителей музыки, в плане навыков использования, имеющихся в музыкальной сфере технологий и умению методически выстроить их в учительском процессе.

Появление новых преподаваемых предметов, учебных программ, использование их в учебном процессе стало отражением необходимости создания компетенции учителя, соответствующей новым реалиям в сфере его информационного уровня и профессиональной деятельности.

Проблема требует серьезного подхода, так как по последним исследованиям в данном секторе наблюдается определенное отставание от уровня современных требований.

Данное отставание становится фактором, приводящим к дисбалансу между возрастающей потребностью в учителях музыки, владеющих всеми имеющимися высокотехнологичными средствами в деле музыкального обучения и ощутимой нехваткой таких кадров в среде студентов педагогических вузов.

Подобное положение дел, несомненно, имеет в своей основе не случайный, а системный характер, что свидетельствует о наличии определенных обстоятельств, мешающих исправить сложившуюся ситуацию. Приведем одни из основных, на наш взгляд, таких обстоятельств:

Низкий уровень знаний, получаемых в средних и средне профессиональных уровнях образовательного процесса именно в области современных информационных технологий, что касается не только общего среднего образования, но и выпускников профильных классов специальных школ;

– не всегда достаточная мотивация к освоению своего информационного образования, из-за невысокого уровня соотнесения влияния получаемых знаний на его дальнейшую работу;

– несоблюдение условия непрерывности, усугубляющееся несоответствием форм комплексности, подразумевающим под собой приобретение единых знаний на основе разных дисциплин, которые, в свою очередь, не всегда отвечают существующим требованиям преемственности и взаимосвязи между собой, что приводит к негативным последствиям процесса обучения, как в специальных учебных заведениях, так и в вузах.

Нехватка достаточно разработанных и опробованных на практике методик обучения использования цифровых технологий, способных повлиять на профессиональные способности студентов в проекции их будущей работы учителями музыки.

Совершенствование технологий цифрового образования и фактор отставания от них методик подготовки учителей в области их информационной подготовленности, ставит перед нами проблему дальнейшего улучшения обучения студентов в плоскости этого вопроса, а именно, придания необходимой динамики его решения.

Получению необходимых условий, для создания компетентности в информационном и профессиональном пространстве, должно помочь подтягивание имеющихся результатов до уровня имеющихся современных образовательных программ, методологических разработок, способов обучения в плане не отдельных их проявлений, а как сложившейся системы, состоящей из множества компонентов ее наполняющей.

Без сомнения, переход на цифровые технологии обучения откроет новые горизонты в области творческого подхода учителей к своей деятельности, позволит по-новому оценить те или иные методы и способы использования традиционных форм образовательного процесса, в контексте их взаимодействия с современными техническими достижениями, что, в свою очередь, способствует развитию процесса обучения в сторону его дальнейшего соответствия высоким технологиям и творческой составляющей.

Использованная литература:

1. Дмитриев Д.В. Толковый словарь русского языка. – М., 2003. – С. 1653.

2. Умарова М.Х. К вопросу о цифровизации образования в республике Узбекистан // Наука и образование сегодня. 2020. – С. 42-43.

3. Абылова Г.Ж. Эффективность использования нотного редактора Sibelius в музыкальном образовании// Илим ҳәм жәмийет. – Нукус, 2015. – № 2. – С 53-54.

Мехрибон МАТНАЗАРОВА,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, начальник
отдела науки и инновации филиала РГПУ им. А.И.Герцена

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Annotatsiya

Maqola zamonaviy sharoitda oliy ta'limni xalqarolashtirish tushunchasini nazariy o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada o'rganilgan hodisani xalqaro, madaniyatlararo, global o'lchovni oliy ta'limning maqsadi, funksiyalariga integratsiya qilish jarayoni, shuningdek, universitetlarning barcha faoliyat yo'nalishlarini xalqaro o'lchov bilan boyitishning nisbatan uzoq va barqaror jarayoni sifatida ochib beradigan va uning alohida turi bilan cheklanmagan olimlarning turli pozitsiyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'limni xalqarolashtirish, zamonaviy oliy ta'lim muassasasi, talaba yoshlar, bo'lajak mutaxassislar, harakatchanlik, aql, shaxsiy ta'lim, ijodiy faoliyat, ijodiy faoliyat, kompetensiya.

Статья посвящена теоретическому исследованию понятия интернационализации высшего образования в современных условиях. В статье приводятся различные позиции ученых, раскрывающие изучаемое явление как процесс интеграции интернационального, межкультурного, глобального измерения в цели, функции высшего образования, а также как относительно длительный и устойчивый процесс обогащения международным измерением всех направлений деятельности университетов и не ограничивается отдельным ее видом.

Ключевые слова. Интернационализация высшего образования, современное высшее образовательное учреждение, студенческая молодежь, будущие специалисты, мобильность, интеллект, личностное образование, творческая деятельность, креативная деятельность, компетентность.

The article is devoted to the theoretical study of the concept of internationalization of higher education in modern conditions. The article presents various positions of scientists revealing the phenomenon under study as a process of integration of the international, intercultural, global dimension into the goals and functions of higher education, as well as as a relatively long and steady process of enriching the international dimension of all areas of university activity and is not limited to its individual type.

Key words. Internationalization of higher education, modern higher educational institution, student youth, future specialists, mobility, intelligence, personal education, creative activity, creative activity, competence.

Практика показывает, что на сегодняшний день проблематика интернационализации высшего образования вступает одним приоритетных направлений развития, результатом чего становится формирование поликультурной компетентности всех субъектов образовательной деятельности высших образовательных учреждений, позволяющая им успешно функционировать в политическом, правовом, экономическом, научном и культурном пространстве глобализированного общества. В данном аспекте довольно важным направлением интернационализации современного образования вступает модернизация его содержания. При этом, выяснение реального состояния и тенденций

интернационализации содержания высшего образования требует обращения к научному наследию различных учёных, труды которых позволяют обосновать теоретические основы изучаемого явления.

В данном аспекте Д.М. Певзнер характеризует интернационализацию высшего образования сквозь призму разнообразных форм мобильности студенческой молодежи, профессорско-преподавательского состава и пр. Учёный убежден, что интернационализация вступает практически любой деятельностью системы высшего образования или отдельного высшего образовательного учреждения связанной с пересечением национальной границы, в процессе которой задействованы студенты, преподаватели, административный персонал, образовательные системы и т.д. Кроме того, исследователь рассматривает изучаемый явление как средство унификации, модернизации образовательного контента в международном масштабе и по своей сущности отражает результат возникновения и развития в организации и в содержании образования компонентов наднационального универсального качества.

Е.Н. Никонов, Е.В. Шевченк в рамках проведённого исследования выделяют девять основных аспектов интернационализации современного образования:

- группы, задействованные в процессе;
- уровни развития процесса;
- предметы, составляющие сердцевину содержания международного образования;
- перспективы развития интернационализации высшего образования;
- пути приобретения и использования знаний;
- структура и цели процесса;
- зависимость процесса интернационализации от изменений в международных отношениях;
- географическое измерение международного образования;
- взаимосвязь развития процесса интернационализации высшего образования и социальных и образовательных реформ.

Факторы интернационализации высшего образования подаются учёными как многоуровневый комплекс причин, появляющихся или изменяющихся со временем в соответствии с трансформацией потребностей и тенденций. При этом общими факторами развития интернационализации высшего образования становятся:

массовизация высшего образования;

развитие глобальной конкуренции услуг, товаров и рабочей силы;

удешевление транспортных услуг и возможностей получения информации;

интернационализация рынков рабочей силы.

Указанные факторы являются общими и международными поскольку вызывают интернационализацию на всех уровнях без исключения Кроме того эти факторы способствовали росту спроса на международное высшее образование, а также облегчили доступ к нему растущей массе претендентов и упростили доступ значительного количества высших учебных заведений и частных провайдеров к международному рынку образовательных услуг.

О.Г. Масленникова определила основные стратегические направления и механизмы интернационализации университетского образования, среди которых приоритетными определены:

законодательные инициативы;
активизация академической мобильности;
модернизация учебных программ в университетах.

Языковые и инновационные стратегии интернационализации университетского образования, как правило, являются ведущими. Одной из самых перспективных стратегий интернационализации университетского образования постепенно становится мульти языковая стратегия, направленная на свободное владение различными иностранными языками. В свою очередь, стратегия интернационализации высшего образования на наднациональном уровне – это процесс, регулирующий отношения между странами в образовательной плоскости.

В работе Ю.Н. Зиятдиновой рассматриваются различные формы интернационализации высшего образования. К ним относится студенческую и преподавательскую мобильность, программы обмена и пр. Студенческая мобильность вступает важным фактором развития общемирового рынка специалистов и высококвалифицированных рабочих. Помимо согласованных программ обмена, широко распространено спонтанное перемещение студентов без каких-либо программ. Здесь проявляется стремление самих обучаемых к изучению других стран, национальных культур и языков, условий высшего образования, а также заинтересованность самих университетов к расширению предоставления образовательных услуг за счет привлечения иностранных граждан. При этом активность иностранных высших образовательных учреждений заметна и на образовательном рынке постсоветского пространства. В то же время невысокий уровень высшего образования во многих странах и ограниченность специальностей заставляют молодых людей искать возможности получения высшего образования за рубежом.

Н.В. Красильникова полагает, что существует целая система мероприятий по интернационализации учебных программ, в частности разработка новых интернационализированных учебных программ, например, «европейские студии», «европейский менеджмент внешнеэкономической деятельности», а также международная ориентация содержания определенных академических дисциплин, наполнение их интеркультурным содержанием, изучение и апробация достижений зарубежной педагогической практики. При этом, основу интернационализации содержания высшего образования составляют предметы, которые являются интернационализированными по своей сути. К такими дисциплинам можно отнести международные отношения, страноведение (регионоведение), история, социология, литература, география, иностранные языки. Однако для введения компаративного подхода ученый предлагает сделать обязательными такие дисциплины, как культурная антропология, межкультурное общение, политология, когнитивная психология и другие дисциплины, которые позволяют понять сущность другой культуры.

Согласно утверждениям Е.К. Защитиной, интернационализация высшего образования вступает процессом приобретения образовательным учреждением международной перспективы, т.е. реализации целенаправленной на будущее деятельности, имеющей интердисциплинарный характер. Видение такой перспективы, как правило, разрабатывает администрация высшего образовательного учреждения, а также систему мотивации к участию в ней широкого круга лиц-участников. Интернационализация высшего образования представляет собой особый процесс перехода от национального к международному высшему об-

разовательному учреждению, направленное на включение интернационального измерения во все составляющие процесса управления для повышения качества реализуемой подготовке, достижения желаемого уровня конкурентоспособности будущих специалистов. При этом, автор отмечает, что сформулированное определение охватывает цели интернационализации и пр., но имеет ограничения на университеты и страны, которые воспринимают интернационализацию более широко, чем просто подготовка высококвалифицированных кадров.

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что по мнению превалирующего количества учёных интернационализация в современном мире вступает процессом интеграции интернационального, межкультурного, глобального измерения в цели, функции высшего образования. Её целесообразно характеризовать как длительный и устойчивый процесс обогащения международным измерением всех направлений деятельности университетов и не ограничивается отдельным ее видом. Кроме того, такое понимание интегрирует различные аспекты интернационализации, такие, как институциональная стратегия, мобильность студентов и академического персонала, учебный план и процесс обучения, включая также такие вопросы, как реформы учебных планов и повышение качества образования, исследовательскую деятельность, проекты международного развития, развитие персонала и пр.

Результаты рассмотрения различных позиций ученых свидетельствуют, что необходимыми условиями эффективности интернационализации содержания образования являются методические, прогностические, организационные. Так, к методическим условиям относят выбор дисциплин и курсов, развитие личной поликультурной компетентности, разработку и введение интердисциплинарных курсов, интеграцию учебных программ и пр. К числу прогностических условий большинство исследователей относят введение материального и психологического поощрения студентов и преподавателей, единство и однозначность мнений и подходов относительно четкой формулировки задач и разработки образовательных стратегий их выполнения, разработка реальных планов вузов, постепенность воплощения программ и распределение обязательств, наличие маркетинговой стратегии и пр. Организационные условия предусматривают высокий уровень компетентности преподавателей, в частности относительно способности сочетать академические и исследовательские интересы, внедрять новые глобальные знания в содержание лекционных курсов, адаптацию к преподаванию нового содержания, устойчивый административный персонал и пр.

Использованная литература:

1. Елкина А.С. Российский вуз в условиях интернационализации высшего образования. // Предпринимательство и реформы в России: материалы XI Международной конференции молодых ученых-экономистов. - СПб.: ОЦЭиМ, 2005. - С. 240-242.

2. Защитина Е.К. Интернационализация на основе развития онлайн-обучения как фактор роста экспорта услуг высшего образования. // Междисциплинарность в современном социально-гуманитарном знании. - Ростов-на-Дону, Таганрог: Изд-воЮжного федерального университета. - Т.2: Секционные доклады. Ч. 2(2). - С. 403-411.

3. Зиятдинова Ю.Н. Интернационализация инженерного образования: российский вариант. - Казань: Изд-во КНИТУ, 2015. - 256 с.

Бахтиёр СУЛТАНОВ,
Наманганский государственный университет,
научный сотрудник

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ “ФИТНЕС-ТЕХНОЛОГИИ” НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida “fitness texnologiyalari” tushunchasining mazmun-mohiyati ko‘rib chiqiladi, bu konsepsiyaning markazida dars sifatini oshirishda zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hisoblanadi. Elektron tizimlardan foydalanish va darslarni dasturlash, individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, jismoniy ko‘rsatkichlarni kuzatish va tanadagi yukni hisoblashning zamonaviy usullarini qo‘llash ham ko‘rib chiqiladi. Turli o‘quv dasturlarida amalga oshirish uchun maxsus texnikaga misollar keltirilgan. Ular jismoniy tarbiya bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishishga va o‘quvchilarning ishtiyoqini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Fitnes texnologiyalari, innovatsion usul, motivatsiya, jismoniy madaniyat, jismoniy faollik, qulay muhit, superset texnikasi, maxsus dasturlar.

В данной статье рассматривается сущность понятия ‘‘фитнес-технологии” на уроках физической культуры в старших классах, где в центре понятия лежит использование современных научно-технических достижений для улучшения качества занятий. Рассматривается также применение электронных систем и программирования занятий, разработка индивидуальных программ тренировок, использование современных методов контроля за физическими показателями и вычисления нагрузки на организм. Приведены примеры особых методик для выполнения в различных программах тренировок. Они помогут добиться наилучших результатов в занятиях физической культурой и повысить мотивацию учеников.

Ключевые слова. Фитнес-технологии, инновационный метод, мотивация, физическая культура, физическая активность, комфортная обстановка, методика суперсетов, специализированные программы.

This article discusses the essence of the concept of “fitness technologies” in physical education lessons in high school, where the center of the concept is the use of modern scientific and technological achievements to improve the quality of classes. The use of electronic systems and programming of classes, the development of individual training programs, the use of modern methods of monitoring physical indicators and calculating the load on the body are also considered. Examples of special techniques for implementation in various training programs are given. They will help to achieve the best results in physical education and increase the motivation of students.

Key words. Fitness technologies, innovative method, motivation, physical culture, physical activity, comfortable environment, superset technique, specialized programs.

Приоритетными направления развития Узбекистана на современном этапе являются вопросы образования и здоровья подрастающего поколения.

Как отметил Президент Шавкат Мирзиеев: “Что сегодня время требует от нас эффективность работы, направленной на повышение правовой культуры молодежи, пропаганду здорового образа жизни, физической культуры и спорта. Реализация мероприятий, предусмотренных целевыми программами, будет про-

должена в строгом соответствии с требованиями принятого нового закона ‘‘О государственной молодежной политики”;

Особую актуальность на сегодняшний день представляет проблема здоровья физического состояния старшеклассников, так как организм школьника находится в процессе роста и развития. Закономерный переход отечественной физической культуры к физкультурно-оздоровительной деятельности обусловлен появлением таких услуг такого феномена как фитнес.

Фитнес-технологии включают в себя современные методы и средства, которые используются на уроках физической культуры для улучшения физической подготовки учеников. Они позволяют производить тренировки более эффективно и безопасно, используя разнообразные методики, инновационное оборудование, а также специальные программы тренировок, адаптированные к разным возрастным группам учащихся.

Сущность понятия “фитнес-технологии” на уроках физической культуры изучалась русскими учеными, которые рассматривали его как инновационную методику обучения и занятий физической культурой. В центре понятия лежит использование современных научно-технических достижений для улучшения качества занятий, повышения мотивации учащихся и достижения оптимальных результатов.

Один из основателей теории фитнес-технологий в России – Александр Петров. В своих работах он рассматривает “фитнес-технологии” как комплекс мероприятий, направленных на повышение эффективности занятий физической культурой. В основе применения фитнес-технологий лежат такие принципы, как индивидуальный подход к каждому ученику, системность и постепенность, сбалансированный подход к нагрузкам. Среди них можно выделить следующие методы:

• Использование современных тренажеров и оборудования для увеличения эффективности физических нагрузок и их адаптации к индивидуальным потребностям каждого учащегося.

• Применение интерактивных программ для повышения мотивации учеников, обеспечения обратной связи и контроля за результатами занятий.

• Использование электронных систем для оценки здоровья учащихся и расчета оптимальной интенсивности нагрузок.

Таким образом, понятие “фитнес-технологии” на уроках физической культуры в работах русских ученых является интегральной системой методов и приемов, которые в совокупности позволяют достичь наилучших результатов на фоне максимальной безопасности и комфорта для учеников.

Концепцией об утверждении развития физической культуры и массового спорта в Республике Узбекистан на период 2019-2023 годы определена роль физической культуры и спорта в развитии и формировании человеческого потенциала страны. Одной из приоритетных задач государственной политики в нашей стране является развития физической культуры и спорта в республике, привлечения всех слоев населения, особенно молодежи, к регулярным занятиям физической культурой и массовым спортом, широкой пропаганды в обществе пользы и преимуществ здорового образа жизни, обеспечения полноценного и эффективного использования, а также дальнейшего совершенствования созданной в стране физкультурно-оздоровительной и спортивной инфраструктур.

В Республике Узбекистан нет специального законодательства, регулирующего применение “фитнес-технологий” на уроках физической культуры. Однако, в Законе “О физической культуре и спорте” от 2 июля 1998 года упоминается, что государственная политика на этом направлении направлена на развитие современных форм физической культуры и спорта, в том числе с использованием новых технологий и оборудования.

Более конкретные указания и рекомендации по использованию “фитнес-технологий” на уроках физической культуры содержатся в учебной программе “Физическая культура” для общеобразовательных учреждений Республики Узбекистан. В этой программе подчеркивается необходимость индивидуализации занятий физической культурой, использования современного оборудования и разнообразных форм тренировок, а также контроля за состоянием здоровья учеников.

Однако, следует отметить, что точное определение понятия “фитнес-технологии” и ее конкретное применение на уроках физической культуры остается на усмотрение педагогических коллективов и зависит от их научного и практического опыта. Также важно учитывать особенности возраста и физической подготовки учеников, чтобы достичь максимального эффекта и предотвратить возможные травмы и негативные последствия.

В работах узбекских ученных, понятие “фитнес-технологии” на уроках физической культуры рассматривается как комплекс инновационных методик, применяемых для оптимизации занятий физической активностью и достижения максимальных результатов.

Так, ученый Н.Ж. Каххаров отмечает, что фитнес-технологии являются особой формой организации занятий, которая объединяет современную науку, технику и клиническую практику. В его работах рассматривается использование современных спортивных средств, развитие индивидуальной программы тренировок и методы контроля за физическими параметрами учеников на уроках физической культуры.

М.Ш. Шарипов, в своей статье “Фитнес-технологии в системе физического воспитания обучающихся”, выделяет следующие элементы понятия “фитнес-технологии”: использование современного спортивного оборудования, методов и приемов тренировок, разработка уникальных и индивидуальных программ физической активности, использование компьютерных технологий при планировании и контроле занятий, анализ состояния здоровья учеников.

Также стоит отметить работу Ж.М. Кудратова, где фитнес-технологии рассматриваются как механизмы, способствующие повышению мотивации учеников и улучшению организации занятий физической культурой на уроках. Автор выделяет различные виды фитнес-технологий, такие как использование электронных систем для контроля и анализа физических показателей, применение игровых технологий, создание виртуальных тренажеров, а также разработка инновационных методик тренировок с использованием новых технических средств и оборудования.

Таким образом, в работах узбекских ученых понятие “фитнес-технологии” рассматривается как комплексные методы и технологии, целью которых является повышение эффективности физических нагрузок, индивидуализация занятий, контроль за здоровьем учеников и обеспечение максимального комфорта в процессе занятий.

Структура понятия “фитнес-технологии” может включать следующие компоненты:

1.Современное оборудование для занятий физической культурой, которое обеспечивает комфортную обстановку и безопасность при выполнении упражнений. Современные технологии и оборудование для занятий физической культурой являются важным фактором, обеспечивающим комфортную обстановку и безопасность при выполнении упражнений.

В качестве примеров таких оборудований можно привести:

– Мягкие полы для занятий гимнастикой и фитнесом. Они предохраняют учеников от травм и ударов, а также обеспечивают комфортные условия для выполнения разнообразных упражнений.

– Подвесные тренажеры и канаты, которые позволяют заниматься собственным весом и развивать силу и выносливость.

– Тренажеры для кардиотренировок, такие как беговые дорожки, велотренажеры и эллиптические тренажеры, которые позволяют ученикам работать над кардиоваскулярной системой и улучшать общую физическую форму.

– Оборудование для функциональной тренировки, например, гантели, кеттлбеллы и тренажеры, которые позволяют заниматься с наилучшей пользой для суставов и мышц.

– Специальные мячи, резиновые кольца, ленты и другие аксессуары, используемые для разнообразия тренировок и повышения эффективности упражнений.

Такое оборудование должно соответствовать всем необходимым требованиям к безопасности и эргономике, а также быть индивидуально подобрано для каждой возрастной группы и физической подготовки учеников.

2. Специализированные программы тренировок, которые могут быть адаптированы к разным возрастным категориям и урокам в школе. Специализированные программы тренировок являются важным инструментом для эффективного проведения уроков физической культуры. Такие программы должны быть адаптированы к разным возрастным категориям, а также учитывать уровень физической подготовки учеников.

Некоторые примеры специализированных программ для уроков физической культуры:

– Программа для начальной школы (1-4 классы) может включать в себя упражнения на развитие координации и баланса, игры с мячом и препятствиями, а также элементы йоги и базовые занятия фитнесом.

– Программа для средней школы (5-9 классы) может содержать в себе комплексы упражнений на развитие силы, выносливости и скорости, упражнения с тяжелыми шарами и гири, начальные элементы бокса, кардиотренировки и другие упражнения, которые ориентированы на подготовку к физическим испытаниям.

– Программа для старшей школы (10-11 классы) может включать более сложные упражнения по развитию силы и выносливости, использование различных видов спорта (футбол, баскетбол, волейбол и т.д.), технику самозащиты, тренировки на выносливость и скорость.

Кроме того, для каждой группы можно разработать различные по сложности варианты программ тренировок, а также учитывать индивидуальные особенности здоровья и физической подготовки учеников. Это позволит достичь наиболь-

шей эффективности уроков физической культуры и мотивировать учеников на занятия спортом в будущем.

3. Особые методики выполнения упражнений, которые обеспечивают более эффективные результаты.

Особые методики выполнения упражнений – это техники, которые позволяют увеличить эффективность занятий физической культурой. Они могут быть использованы как на индивидуальных тренировках, так и на уроках в школе.

Примеры таких методик:

– Методика взрывной силы. Суть этой методики заключается в том, чтобы ускорить движение и увеличить интенсивность выполнения упражнений. Это приводит к увеличению выработки силы и развития мышечной массы.

– Методика функциональной тренировки. Эта методика заключается в использовании упражнений, которые имитируют движения, применяемые в повседневной жизни и спорте. Она помогает развить все группы мышц и улучшить координацию движений.

– Методика изометрических упражнений. Суть этой методики заключается в выполнении упражнений с фиксацией позы, при которой мышцы находятся в напряжении. Это способствует развитию силы и выносливости мышц.

– Методика суперсетов. Эта методика основана на том, что два или более упражнения выполняются без перерыва между ними. Она позволяет улучшить форму мышц, повысить выносливость и ускорить процесс сжигания жира.

– Методика разделенной тренировки. Это методика, при которой упражнения разбиваются на несколько сессий за день или неделю. Она позволяет эффективнее и более полно растягивать мышцы, повышать выносливость и ускорять процесс восстановления после нагрузок.

Особые методики выполнения упражнений могут быть использованы в различных программах тренировок. Они помогают добиться наилучших результатов в занятиях физической культурой и повышать мотивацию учеников.

Использованная литература:

1. Шавкат Мирзиеев. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. – Т., – 2020.

2. Петров А.А. Фитнес-технологии: инновационный подход к тренировкам / А.А. Петров. – СПб.: Питер, – 2018.

3. Петров А.А. Тренировки на основе фитнес-технологий: идеология и практика // А.А. Петров. – М.: Книга, – 2021.

4. Чумаков Н.П., Шкуркин П.Н. Современные подходы к контролю за физическими показателями/ Н.П. Чумаков, П.Н. Шкуркин. – СПб.: Питер, – 2019.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.